

83.3(5V3)  
M40

574

M.T. RAJPOVNA

# ALISHER NAVOIY HAYOTI VA IJODI



FF0000012041

TOSHKENT

3.3(53)  
M40

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI

MATYOQUBOVA TOZAGUL RAJAPOVNA

# ALISHER NAVOIY HAYOTI VA IJODI

(Maxsus kurs bo'yicha o'quv qo'llanma)

Nizomiy nomli  
T D P U  
kutubxona

012793/1

TOSHKENT - 2010

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
Toshkent DDU  
AXBOROT-RESURS MARKAZI

**T.R.Matyoqubova. Alisher Navoiy hayoti va ijodi. – T.: «Fan va texnologiya», 2010. – 164 b.**

Ushbu o'quv qo'llanma o'zbek adabiyotining asoschisi, ulug' shoir va mutafakkir, Alisher Navoiy hayoti va ijodini o'rganishga bag'ishlangan. Unda Navoiy yashagan davr, shoirning hayoti va ijodiy faoliyati, lirik merosi tahlil etiladi, uning «Xamsa» taraqqiyotidagi roli ko'rsatiladi. Ilmiy va nasriy merosi misolida Navoiyning adabiyotshunos, tilshunos, tarixchi va yirik adib sifatidagi xizmatlari bayon etilgan. O'quv qo'llanmada ijodkorning turkiy tildagi adabiyot takomili va rivojidadagi o'rni xususida atroflicha fikr yuritilgan.

Qo'llanma oliy o'quv yurtlari talabalari hamda Alisher Navoiy ijodi bilan qiziquvchi barcha ilm-adab ahliga mo'ljallangan.

**Mas'ul muharrir:** filologiya fanlari doktori, professor  
**H.HOMIDIY**

**Taqrizchilar:** pedagogika fanlari doktori, professor  
**S.MATCHONOV;**  
filologiya fanlari nomzodi **Q.ERGASHEV**

Ushbu o'quv qo'llanma Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Ilmiy kengashi yig'ilishining 2009 yil 29 dekabrda 5-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-10-265-1

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2010.

## SO'ZBOSHI

Istiqloq yillarida mumtoz adabiy merosimiz, xususan, Alisher Navoiy ijodiga munosabat tubdan yangilandi. Endilikda ulug' shoir adabiy merosini chuqurroq tadqiq etish, u ilgari surgan g'oyalarning falsafiy asoslarini teranroq anglash, asarlarida ifodasini topgan komil inson muammosi mohiyatini tushunishga alohida e'tibor berilmoqda.

Alisher Navoiy xalqimiz ma'naviy dunyosining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatib kelgan buyuk siymolardan biridir. Bugungi kunda yoshlar qalbida milliy g'urur, o'zlikni anglash, go'zallik va nafosatga shaydolik tuyg'ularini kamol toptirishda Navoiy asarlari muhim manba bo'la oladi. Zero, ulug' san'atkor asarlari mohiyatiga singdirilgan insonparvarlik, xalqparvarlik, adolat, haqiqat, imon-e'tiqod yetukligi, shukronalik, sabr-qanoat, kelajakka umidvorlik singari g'oyalar barcha davrlarda ham insoniyat ma'naviy kamoloti uchun muhimdir.

Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov mumtoz adabiyotimiz, xususan, Alisher Navoiy ijodiy merosini yuksak ma'naviy qadriyat sifatida alohida e'tirof etadilar. Prezidentimiz Navoiyning xalqimiz ma'naviy taraqqiyotidagi xizmatlarini munosib baholab, shunday deydilar: *“Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyandasi, millatimizning g'ururi, sha'nu sharafini dunyoga tarannum qilgan o'lmas so'z san'atkoridir. Ta'bir joiz bo'lsa, olamda turkiy va forsiy tilda so'zlovchi biron-bir inson yo'qki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e'tiqod bilan qaramasa. Agar bu ulug' zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir”*<sup>1</sup>.

Darhaqiqat, inson qalbining quvonchu qayg'usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan-kam topiladi va bu yetuk mutafakkir bizning bobokalonimiz ekanligidan faxrlanishimiz zarur. Zero, ona tiliga muhabbat, milliy g'urur singari tuyg'ular ham bizning ongu shuurimizga dastavval Alisher Navoiy asarlari bilan kirib keladi.

---

<sup>1</sup> Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008, 47 б.

Xalqimizni, ayniqsa yoshlarni Navoiyning bebaho merosidan bahramand etsak, madaniy yuksalishimizda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol toptirishimizda shunchalik kuchli ma'naviy qurolga ega bo'lamiz. Shuning uchun ham Alisher Navoiy asarlarini o'qib-o'rganish, shoir ilgari surgan yuksak gumanistik g'oyalarning mohiyatini tushunib yetish mamlakatimizning har bir fuqarosi uchun g'oyatda muhimdir. Shuni e'tiborga olgan holda universitetimizning barcha fakultetlarida "Alisher Navoiy hayoti va ijodi" nomli tanlov fani o'qitilmoqda. Shoir asarlari bilan yaqindan tanishib, uning ezgu ideallarini o'z ongi va shuuriga singdiradigan barkamol avlod vakillari qaysi ixtisoslik egasi bo'lishiga qaramasdan, biz qurayotgan erkin va farovon fuqarolik jamiyati, ozod va hur millatimiz kelajagi uchun fidoyi inson bo'lib yetishishiga ishonamiz.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kunning 17 yilligiga bag'ishlangan tantanali yig'ilishda so'zlagan nutqida respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov yoshlarimiz har tamonlama kamol topgan barkamol avlod sifatida hayotga kirib borishlari zarurligini nazarda tutib: *"Bugun hech kimga sir emaski, biz yashayotgan XXI asr – intellektual boylik hukmronlik qiladigan asr. Kimki bu haqiqatni o'z vaqtida anglab olmasa, intellektual bilim, intellektual boylikka intilish har qaysi millat va davlat uchun kundalik hayot mazmuniga aylanmasa – bunday davlat jahon taraqqiyoti yo'lidan chetda qolib ketishi muqarrar"*<sup>1</sup>, -degan edi. Mazkur fikrlar to'la ma'noda oliy o'quv yurtlarida tahsil olib, zamonaviy bilim va ko'nikmalarni egallayotgan yoshlarimizga ham daxldordir.

Shu kungacha mazkur tanlov fani uchun o'quv qo'llanmasi yaratilmagan edi. Ana shu bo'shliqni to'ldirish ehtiyoji tufayli yuzaga kelgan bu o'quv qo'llanmada Alisher Navoiy yashagan adabiy-madaniy muhit, ulug' mutafakkirning hayoti va ijodiy yo'li, lirik merosi, xamsachilik an'analari taraqqiyotiga qo'shgan hissasi, ilmiy va nasriy asarlari haqida atroflicha ma'lumotlar beriladi. Qo'llanmadagi mavzularni yoritishda navoiyshunoslikda mavjud fikr-qarashlarga tayanildi va ular imkon qadar yangicha tushunchalar bilan boyitildi.

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Миллат таянчи, тараққиёт гарови./ "Ўзбекистон адабиёти ва санъати", № 50 (4033), 2009, 11 декабрь. -Б: 2.

## **XIV ASR O'RTALARIDAN XVI ASR BOSHLARIGACHA BO'LGAN DAVRDAGI MADANIY HAYOT: ILM-FAN, SAN'AT VA ADABIYOT**

**XIV asrning ikkinchi yarmi XVI asr boshlarida Xuroson va Movarounnahrda ijtimoiy-siyosiy hayot.** XIV asrning ikkinchi yarmi XVI asr boshlari xalqimiz hayoti, madaniyati, san'ati va adabiyoti taraqqiyotida yangi va muhim bosqich bo'ldi. Bu davrda ilm-fan, san'at va adabiyotning rang-barang sohalarida katta yutuqlarga erishildi.

XIV asrning 60-yillarida Movarounnahrda hukm surgan nihoyatda og'ir siyosiy va iqtisodiy vaziyat mamlakatni birlashtirib, kuchli markazlashgan davlat tuzishni taqozo qilayotgan edi. Bu mas'uliyatli vazifani Sohibqiron Amir Temur (1336-1405) bajaradi. U mo'g'ullar hukmronligiga barham berib, Temuriylar saltanati (1370)ga asos soladi. Amir Temur Hindiston va Xitoydan Qora dengizga qadar, Sirdaryo va Orol dengizidan Fors qo'ltig'iga qadar g'oyat katta hududni qamrab olgan markazlashgan ulkan davlatga asos soladi. Bu davlatga Kichik Osiyo, Suriya, Misr, shimoliy-g'arbda Quyi Volga, Don bo'ylari; shimoliy-sharqda Balxash ko'li va Ili daryosigacha; janubiy-sharqda esa Shimoliy Hindistongacha bo'lgan davlatlarni o'z ichiga oladi. Amir Temur o'zi bo'ysundirgan mamlakatlarda bunyodkorlik ishlariga alohida ahamiyat beradi. Ko'pgina shaharlar (Bag'dod, Darband, Baylaqon)ni qayta tiklaydi. Samarqand mamlakat poytaxti hisoblanib, Amir Temur davrida gullab-yashnadi. Ulug' jahongir ko'pgina masjid, madrasa, saroy, maqbaralar qurdiradi. Shahar tashqarisida bog'-rog'lar va bo'stonlar barpo etadi. Xususan, Shohizinda me'moriy majmuasiga mansub Shodimulk og'o maqbarasi, Shirinbeka og'o maqbarasi, Bibixonim jome masjidi, Oqsaroy, Ko'ksaroy va Bo'stonsaroylar shular jumlasidandir. Amir Temur ilm-fan va madaniyat namoyandalariга alohida e'tibor qaratgan. Natijada olimlar, shoir va san'atkorlar nufuzi oshib, ular mamlakat tinchligi, el-yurt farovonligi yo'lida xizmat qilganlar.

Amir Temur asos solgan markazlashgan buyuk saltanat u vafot etgandan keyin (1405) vorislar o'rtasidagi nizolar natijasida zaiflasha boshladi. 1405 yilning

16-martida Mironshohning o'g'li Xalil Sulton Samarqandni egallab, o'zini Movarounnahrning hukmdori deb e'lon qildi. Natijada shahzoda, amir va viloyat noiblarining noroziligi kuchayib, isyon va g'alayonlar ko'tariladi. Temuriylar o'rtasidagi o'zaro kelishmovchiliklar, ichki nizolar natijasida bir nechta viloyatlar qo'ldan ketadi. XU asrning 20-yillarida markazlashgan mamlakat ikki davlatga: Xuroson (uni Shohruh Mirzo boshqargan) va Movarounnahr (uni Mirzo Ulug'bek idora qilgan) bo'linib ketdi. Movarounnahrni idora etishda, ayniqsa, tashqi siyosatda Ulug'bek har qanday masalani otasi bilan kelishib, maslahatlashib hal qilardi. Shohruh Mirzo vafotidan keyin (1447) Xuroson va Movarounnahrda temuriy shahzodalar o'rtasida nizolar yanada avj oladi. Bu kurashlar oqibatida Mirzo Ulug'bek Samarqand yaqinida fojiali tarzda o'ldiriladi (1449). Shundan keyin hokimiyatga bir vaqtning o'zida Samarqandda Ulug'bekning kuyovi Abdullo Mirzo, Buxoroda esa Mironshohning nabirasi Sulton Abu Saidlar podshoh qilib ko'tariladi. Abdullo Mirzo Temuriylar taxtida uzoq o'tirmaydi. O'zaro janglarda vafot etadi. Abu Said Samarqandni egallab, Movarounnahrda hokim bo'ladi.

Temuriylar mulkining Xuroson qismi bu davrda Shohruhning nabirasi Abulqosim Bobur tasarrufida edi. 1457 yilgacha Abulqosim Bobur Xurosonni o'z qo'lida tutib turadi. Abulqosim Bobur vafot etgach (1457), Abu Said Hirotni egallaydi va saltanatning har ikki qismini birlashtiradi.

1469 yilda Abu Said Ozarbayjonda oqqo'yunli turkmanlarga qarshi yurish paytida halok bo'ladi. Abu Saidning o'g'illari Movarounnahrda qaytishadi. Sulton Husayn Boyqaro Xuroson hokimi sifatida Hirot taxtini egallashi bilan temuriylar saltanati yana ikki mustaqil qismga bo'linib ketadi. Movarounnahrda Abu Saidning o'g'illari: Sulton Ahmad Mirzo, Sulton Mahmud Mirzo va Sulton Ali Mirzolar hokimlik qiladi.

Sulton Husayn Boyqaro idora qilgan davlat Sharqiy va Shimoliy Eron viloyatlari va Xorazmni birlashtirgan temuriylarning qariyb 40 yil hukm surgan so'nggi yirik saltanati edi. Bu davrda Xurosonda ham hayot osoyishta bo'lmay, o'zaro ichki urushlar, shahzodalar o'rtasidagi nizolar davom etar edi. Shunga qaramay, aholi turmushi, madaniy hayot yuksak darajada edi.

**Madaniy va adabiy hayotning yuksalishi.** Temuriylar hukmronligi davrida Xuroson va Movarounnahrda Samarqand, Hirot, Buxoro singari shaharlarda olim, muhandis, bastakor, me'mor, naqqosh, musavvir, shoirlar guruhi to'plangan edi. Amir Temur, Shohruh Mirzo, Mirzo Ulug'bek, Abulqosim Bobir va Sulton Husayn Boyqaro zamonida ilm-fan, madaniyat va san'atning ko'p sohaları yuksaldi.

Temuriy shahzodalarning ko'pchiligining san'at va adabiyot bilan qiziqishi natijasida bu sohalar taraqqiy etdi. Bu haqda Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois", Boburning "Boburnoma" asarlarida qimmatli ma'lumotlar berilgan. Ilm-fan, san'at va adabiyotga ixlosmand temuriy shahzodalardan biri Shohruh Mirzoning o'g'li Boysung'ur (1397-1433)dir. Boysung'ur haqida Alisher Navoiy «Majolis un-nafois» asarida shunday yozadi: «Boysung'ur Mirzo — xushtab' va saxiy va ayyosh hunarparvar podshoh edi. Xattot va naqqosh va sozanda va go'yandadin muncha benazir kishikim, aning tarbiyatidin opag'a kirdi, ma'lum emaskim, hech podshoh zamonida paydo bo'lmish bo'lg'ay. Ulcha imkoni bor, olamni xushluq bila o'tkardi»<sup>1</sup>. Boysung'ur Mirzo insonparvar, adolatli, ilm-fan ahliga muruvvatli hukmdor bo'lish bilan birga o'zi ham g'azallar yozgan, xattotlik va naqqoshlik san'atini mukammal egallagan. Boysung'ur tashabbusi bilan tashkil etilgan Hirot kutubxonasida noyob qo'lyozmalar jamlangan. Mazkur kutubxonada ayniqsa, Husayn Boyqaro davrida juda ko'p xattotlar, miniatyurachilar, tilshunoslar, adabiyot ahli to'plangan ediki, ularning har biri o'z sohalarini mukammal o'zlashtirgan yetuk san'at ahli edilar. Uning rahbarligi va bevosita ishtirokida Abulqosim Firdavsiy "Shohnoma"sining ilmiy-tanqidiy matni tuzilgan bo'lib, unga Boysung'urning o'zi so'zboshi yozgan edi.

Samarqandda ilm-fan, san'at va madaniyatning gullab yashnashida Mirzo Ulug'bekning hissasi katta bo'lgan. U mamlakatning siyosiy va iqtisodiy hayotini boshqarish bilan birga ilmiy ishlar bilan ham shug'ullandi. Mamlakat ravnaqi, ma'naviy kamolotida ilm-fanning roli naqadar katta ekanligini yaxshi tushungan Ulug'bek o'z atrofiga bir guruh olimlarni to'plagan edi. Ulug'bek Samarqand va Buxoroni ilmu ma'rifat markaziga aylantirishga harakat qildi. Ulug'bekning

---

<sup>1</sup> Аlisher Navoiy. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. Т.13. – Т.: Фан, 1997. – Б. 166



astronomiyaga ixlosi katta bo'lgan. U 1018 yulduzning holat va harakatini o'rganib, "Zichi Ko'ragoniy" nomli astronomik jadvalini yaratadi.

Ulug'bek Mirzo ko'plab madrasalar barpo etgan va bu ilm dargohlari zamonasining dorilfunini hisoblangan. Ularda Qur'on, hadis, tafsir, fiqh, riyoziyot, jo'g'rofiya, ilmu aruz, arab tili va uning morfologiyasi singari dunyoviy ilmlar o'qitilgan.

Husayn Boyqaro (1438-1506) davrida Hirot Sharqning fan, madaniyat, hunarmandchilik rivojlangan yirik markaziga aylangan. U hukmronlik qilgan davrda turli mamlakatlardagi iste'dod egalari Hirotga panoht axtarib kelganlar. Bu davrda til, adabiyot, tarix, tasviriy san'at, xattotlik, kitobot san'ati, tabobat, musiqa va boshqa sohalar rivojlangan. Hirot, Mashhad, Marv, Nishopur singari shaharlarda ko'plab noyob obidalar barpo etilgan. U Jomiy, Navoiy singari iste'dod egalarini har jihatdan qo'llab-quvvatlagan. Dunyoga mashhur shoir, olim, muarrih, musiqachi, hattot va naqqoshlari shu zamonda yetishib chiqqanlar va faol ijod qilganlar.

Husayn Boyqaro ijodkorlarni turkiy tilda yozishga da'vat qilgan. She'riyat kechalari tashkil etgan, shoirlarga rahnamolik qilgan. O'zi ham badiiy ijod bilan shug'ullanib, "Husayniy" taxallusi bilan she'rlar yozgan. Undan bizgacha she'rlar devoni va Navoiyga bag'ishlangan "Risola" asari yetib kelgan.

**Tarix, tasviriy san'at va musiqa.** XU asrda Xuroson va Movarounnahrda tarix fani ham yuksak darajada rivojlangan. Hofizi Abru, Abdurazzoq Samarqandiy, Mirxond, Xondamir, Isfizoriy, Davlatshoh Samarqandiy va boshqa ko'pgina tarixchilar Samarqand va Hirotida yashab ijod etdilar. Hofizi Abruning "Zubdat ut-tavorix" ("Solnomalar qaymog'i"), Abdurazzoq Samarqandiyning "Matlai sa'dayn va majmai bahrayn" ("Ikki saodatli yulduzning chiqishi va ikki dengizning qo'shilishi") nomli asarlari Amir Temur va Temuriylar hukmronlik qilgan davrga bag'ishlangan. Mirxondning "Ravzat us-safo" ("Jannat bog'i"), Xondamirning "Habib us-siyar" ("Do'stlarning ahvoli") nomli asarlarida esa Sulton Husayn hukmronlik qilgan davr voqealari bayon qilingan.

XU-XUI asrlarda tasviriy san'at taraqqiy qildi. Kamoliddin Behzod, Mirak Naqqosh, Qosimali, Mahmud Muzahhib, Xoja Muhammad Naqqosh va Shoh Muzaffar kabi mo'yqalam sohiblari yetishib chiqqan. Kamoliddin Behzod asos solgan Hirot musavvirlik maktabi ulkan yutuqlarga erishdi. Tasviriy san'at o'zining mavzui va voqeligiga qarab portret, hayotiy lavhalar, tabiat manzaralari, bino va badiiy asarlarga ishlangan tasvirlardan iborat bo'lgan. Bizgacha Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Abdulla Xotifiy, Husayn Boyqaro, Behzod, Bobur va Shayboniyxon portretlari saqlanib qolgan.

XU asrda musiqa san'ati taraqqiyotida ham yangi bosqich bo'ldi. Bu davrda yangi kuy va qo'shiqlar, cholg'u asboblari va musiqa nazariyasiga oid asarlar yaratildi. Mahoratli sozandalar, bastakorlar va hofizlar yetishib chiqdi. Abduqodir Nayi, Qulmuhammad Shayxiy, Husayn Udiy, Shohquli G'ijjakiy, Ustod Shodiy, Najmiddin Kavkabiylar shular jumlasidandir. Omilkor musiqachilar bilan bir qatorda Ulug'bek, Jomiy, Navoiy, Binoiy kabi mutafakkir va shoirlar ham musiqa sohasida ijod qildilar. Mirzo Ulug'bek va Alisher Navoiylar musiqa sohasida ijod qilayotgan san'atkorlarga homiylik qilish bilan bir qatorda o'zlari ham bir nechta kuylar ijod qilganlar. Jomiy va Binoiy singari ijodkorlar musiqa nazariyasiga oid asarlar yaratdilar.

**Badiiy adabiyot taraqqiyoti.** Temuriylar davrida adabiyot badiiy uslub jihatdan yanada takomillashib, yangi taraqqiyot pog'onasiga ko'tarildi. Nasr va nazmda ko'plab nodir asarlar yaratildi. XIU-XU asrlarda zamonasining yetuk shoir va adiblari: Xorazmiy, Xo'jandiy, Qutb Xorazmiy, Sayfi Saroyi, Haydar Xorazmiy, Durbek, Amiriy, Yaqiniy, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy va boshqalar yashab ijod qildilar. Ular yaratgan nafis she'riyat, doston va tarjima asarlari nafaqat o'z davri adabiyotining noyob durdonalari sifatida balki bugungi kunda ham alohida e'tiborga molikdir.

Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy singari yetuk so'z ustalarining bu davr adabiyoti taraqqiyotidagi o'rni benihoya kattadir. Alisher Navoiy nafaqat mutafakkir shoir sifatida balki yirik davlat arbobi, san'at va madaniyatning chinakam homiysi sifatida tanilgan. Uning xalq va millat ravnaqi yo'lida amalga

oshirgan ishlari, adolatsizlik va nohaqlikka qarshi kurashi, insonparvarligi bilan avlodlar ehtiromiga sazavor bo'lgan.

Tarixchi Xondamirning keltirishicha, Navoiy XU asrning 80-yillarida o'z mablag'i hisobidan Hirotda va mamlakatning boshqa shaharlarida bir nechta madrasa, rabot, masjid, honaqoh, hammom, ko'prik, hovuz qurdirgan yoki ta'mirlatgan. Ular orasida Hirotdagi "Ixlosiya", "Nizomiya" madrasalari, "Xalosiya" xonaqohi, "Shifoiya" tibgohi, Qur'on tilovat qiluvchilarga mo'ljallangan "Dorul - huffoz" binosi, Marvdagi "Xusraviya" madrasasi, Mashhaddagi "Dorul-huffoz" xayriya binosi va boshqa noyob me'morlik yodgorliklari bor. Umuman, Xurosonda madaniy hayotning gullab-yashnashida, ko'plab shoir, olim, tarixchi, musavvir, naqqosh, musiqachi, sozandalarning yetishib chiqishida Alisher Navoiyning xizmati katta bo'lgan.

Bu davrda xilma-xil janrlar paydo bo'ldi, oldindan qo'llanilib kelinayotganlari yanada rivojlandi. Lirik turning janrlari rang-barang bo'lib, g'azaljanri keng tarqalgan edi. Muxammas, ruboiy, qit'a, qasida, marsiya, lug'z singari janrlarda ham asarlar yaratildi. Turkiy xalqlarning o'ziga xos janri bo'lgan tuyuq shu davrda vujudga keldi. Badiiy adabiyotdagi g'oyatda murakkab bo'lgan muammo janri XU asrda keng tarqaldi. Munozara, noma, doston, hikoya singari janrlarda ham badiiy jihatdan mukammal asarlar yozildi. Sharq adabiyotida mashhur bo'lgan xamsanavislikning yuksak namunalari turkiy tilda ham yaratildi. Buning eng yorqin misoli sifatida Navoiy "Xamsa"sini keltirish mumkin. Shuningdek, bu an'anani davom ettirgan, Alisher Navoiyning tahsiniga sazovor bo'lgan Mavlono Ashraf "Xamsa"sini yaratdi. Janrlarning takomillashishi, yangi adabiy janrlarning vujudga kelishida badiiy adabiyotning g'oya va mavzu jihatdan kengayib borishi, xalq og'zaki ijodining ta'siri va boshqa xalqlar ijodiy tajribalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Adabiyot nazariyasiga oid bir qator asarlar yuzaga keldi. Aruz nazariyasi, qofiya ilmi, muammo janri va boshqa adabiyotshunoslikning dolzarb masalalariga adabiyotshunoslikka oid asarlarda muayyan munosabatlar ifodalandi. Sayfi Buxoriyning "Aruz", Abdurahmon Jomiyning muammo, qofiya hamda aruzga oid

risolalari, Alisher Navoiyning “Mezon ul-avzon” (“Vaznlar o’lchovi”), “Risolai muammo”, Atoullloh Husayniyning “Badoye’ us-sanoye” (“Badiiy san’atlar”), Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog’a” (“Yetuklik ilmlari”) Boburning “Muxtasar” kabi asarlar shular jumlasidandir.

XU asrda tazkirachilik yuksak darajada taraqqiy qildi. Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro” (“Shoirlar bo’stoni”) (1486), Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston”(1487) asarining 7-bobi, Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” (“Nafis majlislar”) (1490-1491) bu davr adabiy hayoti, ijodkorlari haqida ma’lumot beruvchi qimmatli manbalardir.

Navoiyshunos A.Hayitmetov Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog’a” asarini ilk turkiy tazkira deb ataydi<sup>1</sup>. Adabiyotshunos R.Vohidov, H.Eshonqulovlar bu asarning tazkira deb atalishi nisbiy xarakterga ega ekanligini ta’kidlab, shunday fikrlarni ilgari surishadi: “Aslida Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog’a” asariga nisbatan tazkira atamasi nisbiy mohiyat kasb etadi. Chunki muallif o’z davri ijodkorlari haqida maxsus ma’lumot berishni o’z oldiga vazifa qilib qo’ygan emas”<sup>2</sup>. Bizningcha, Ahmad Taroziy she’riy janrlar, san’atlar va aruz vazni haqida nazariy ma’lumot berar ekan, fikrlari tasdig’i uchun turli davrlarda yashab ijod etgan shoirlar she’rlaridan namunalar keltiradi. Bundan ayonki, Ahmad Taroziy tazkira yozishni o’z oldiga maqsad qilib qo’ymagan.

XIY-XYI asrlarda o’zbek adabiyotida tarjimachilik sohasida ham samarali natijalarga erishildi. Shoir Qutb Xorazmiy Nizomiyning “Xisrav va Shirin” dostonini, Sayfi Saroyi Sa’diy “Guliston”ini “Guliston bit-turkiy” nomi bilan, Ma’sud ibn Ahmad Sa’diyning “Bo’ston” asarini mahorat bilan tarjima qilishdi.

XU asrda kitobot san’ati, ya’ni qo’lyozma asarlarni ko’chirib yozish va u bilan bog’liq bo’lgan xattotlik ham taraqqiy etgan. Bu davrda Xuroson va Movarounnahrda Sulton Ali Mashhadiy,, Muhammad kotib, Sulton Ali Koyiniy, Abdul Jamil, Darvesh Muhammad Toqiy, Sulton Muhammad Xandon, Muhammad Amin Bobojon G’aravi - Halvoiy, Mirali Majnun bin Kamoliddin Mahmud - Rafiqiy, Darvesh Juhammad Samarqandiy, Hoji Abdulloh Marvarid Bayoniy,

<sup>1</sup> Бу ҳақда қаранг: Ҳайитметов А. Темурийлар даври ўзбек адабиёти. – Т.: 1996, 19-26 бетлар.

<sup>2</sup> Vohidov R. , Eshonqulov H. O’zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Т.: 2006, 130 b.

Mirak, Buxoriy, Abdurahmon Barkiy Munshiy, Abdulaziz Samarqandiy, Baqoiy, Xo'ja Ali Samarqandiy, Mavlono Xurdak al Samarqandiy kabi qator usta xattotlar yetishib chiqdi.

Shunday qilib, XV asrning ikkinchi yarmida Xuroson va Mova-rounnahrda badiiy adabiyot, falsafa, tarix, musiqa, tas'viriy san'at va xattotlik rivojlanishning yuksak cho'qqisiga ko'tarildi. Ayniqsa, Hirot madaniy hayotining gullab yashnashida Alisher Navoiy va uning buyuk ustozi, do'sti Abdurahmon Jomiyning xizmati cheksizdir. Bu ikki buyuk siymo o'z badiiy ijodlari, qomusiy bilimlari, teran fikrlari hamda moddiy, ma'naviy madadlari bilan davrga misli ko'rilmagan darajada ta'sir ko'rsatdilar. Ko'plab san'at va adabiyot namoyandalari bevosita ular rahnamoligida o'z nodir iste'dodlarini namoyon etib, o'lmas asarlarini yaratishgan.

#### **Mazu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Temuriylar davrida ijtimoiy-siyosiy hayot qanday edi?
2. Bu davrda halq madaniyati qanday bo'lgan?
3. Madaniy hayotning qaysi sohalarida yuksalishlar bo'lgan?
4. Temuriylar hukmronligi haqidagi ma'lumotlar qaysi tarixchilarning asarlari orqali bizgacha yetib kelgan?
5. Temuriy shahzodalardan kimlar adabiyot va san'at bilan shug'ullanishgan?
6. Bu davrda qaysi yetuk musiqashunos va xattotlar yetishib chiqqan?
7. XU asrda qaysi janrlarida ko'proq asarlar yaratilgan?
8. Adabiyotshunoslikka oid qanday asarlar yaratilgan?

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Xondamir G'iyosiddin. Makorim ul-axloq. - T.: Badiiy adabiyot /Forschadan M.Faxriddinov, P.Shamsiyev tarjima-si. 1967.
2. Dono Alisher. Alisher Navoiy haqida xalq afsonalari. – T.: Yosh gvardiya, 1968.
3. Vosifiy. Badoye' ul-vaqoye'. / Tarjimon N.Norqulov. - T.: Adabiyot va san'at, 1979.
4. Jomiy. Bahoriston / Forsiydan Sh.Shomuhamedov tarjimasi. – T.:

Yozuvchi, 1997.

5. Mallayev N.M. O'zbek adabiyoti tarixi. K.1. – T.: O'qituvchi, 1976.

6. O'zbek adabiyoti tarixi. Besh jildlik. J.2. – T.: Fan, 1977.

7. Hayitmetov A. Navoiyxonlik suhbatlari. - T.: O'qituvchi, 1993.

8. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. -T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi, 2006.

10. Haqqulov I. Navoiyga qaytish. -T.: Fan, 2007.

## ALISHER NAVOIY HAYOTI VA ADABIY FAOLIYATI. UNING O'RGANILISH TARIXI

**Alisher Navoiyning bolalik va yoshlik yillari.** Alisher Navoiy 1441 yilning 9-fevralida Xurosonning yirik madaniy markazlaridan bo'lgan Hirot shahrining Bog'i Davlatxona deb ataluvchi hududida zamonasining nufuzli va ma'rifatli xonadonida dunyoga kelgan.

Uning ota-onasi o'z davrining hurmatli kishilaridan, temuriylar xonadonining yaqinlaridan bo'lgan. Alisher Navoiyning otasi G'iyosiddin Muhammad el orasida «Kichkina Bahodir», «Kichik baxshi» laqablari bilan nom qozongan edi. U Hirotning Chig'atoy ulusidan bo'lib, temuriylar saroyida e'tiborli shaxslardan hisoblangan. Alisherning onasi Kobulning amirzodalaridan Shayx Abu Said Changning qizidir.

Navoiyning yoshlik yillarida Xurosonda Amir Temurning o'g'li Shohruh Mirzo, Movarounnahrda Shohruhning o'g'li Ulug'bek hukmronlik qilar edilar.

Alisherning ota tomonidan bobosi Amir Temurning o'g'li Umarshayx bilan emikdosh bo'lib, Boyqaro Mirzo hukmronligi davrida Qandahorda amir bo'lgan. Demak, Alisherning ota-bobolari temuriylarning eng yaqin kishilaridan bo'lib, ular hokimiyatini mustahkamlashga yordam berib kelganlar, ularning hurmat va ishonchini qozonganlar. Oradagi o'zaro yaqinlik va samimiy munosabatlar sababli temuriy hukmdorlar G'iyosiddin Kichkina oilasiga ham hurmat va ehtirom ko'rsatishgan.

Alisher Navoiy bolaligidanoq zehni o'tkirligi, tiyrakligi, xush-fahmligi bilan o'z tengdoshlari ichida ajralib turar edi. Alisherda she'riyatga muhabbat juda

yoshligidan uygʻongan. Buning sababi u tugʻilib oʻsgan xonadon aʼzolarining adabiyotga, sheʼriyatga ixlosmand kishilar boʻlganligi bilan ham bevosita bogʻliqdir. Ular xonadonida sheʼriyat muhlislari tez-tez yigʻilib turar va sheʼrxonlik, gʻazalxonlik kechalari boʻlib turar edi va shubhasiz yosh Alisher ham bunday yigʻinlarda qatnashardi. Alisherning otasi juda koʻp sheʼr yod bilar va adabiy yigʻinlarda faol ishtirok etar edi. Bu esa uning Kichik baxshi deyishlari ham bejiz emas ekanligini koʻrsatadi.

Navoiyning togʻalari Mir Sayyid Kobuliy va Muhammad Ali Gʻaribiylar ham oʻz davrining sheʼriyat sohasida elga tanilgan kishilari boʻlib, Alisherning tarbiyasida ularning roli katta boʻlgan. Navoiy “Majolis un- nafaʼis” tazkirasida togʻalari haqida hurmat va ehtirom bilan soʻz yuritadi.

Ota-onasi yosh Alisherning kitobga havasi kuchliligini nazarda tutib, uni toʻrt yoshdan sal oʻtganda maktabga beradilar. Maktabda u boʻlajak podshoh Husayn Boyqaro bilan birga oʻqiydi va tarbiyalanadi. Xondamir yozganidek Alisher «...oz vaqt ichida tengdosh va sheriklaridan ilgarilab ketadi. Nozik tabʼining soflik va sogʻlomlik ovozi olamga yoyiladi va muborak fikrining dadilligi haqida soʻzlar xalq orasida ogʻizdan-ogʻizga koʻchib yuradi»<sup>1</sup>.

Mamlakat hukmdori Shohruh Mirzoning oʻlimi (1447) temuriy shahzodalar oʻrtasidagi oʻzaro kurashlar kuchayishiga olib keldi. Xuroson va uning markazi Hirotida tartibsizliklar avj olishi natijasida xalq shaharni tashlab keta boshlaydi.

Gʻiyosiddin Kichkina oilasi ham maʼlum muddatga shahardan ketishga majbur boʻladi. Karvon Iroqqa yoʻl oladi. Taft shahriga yetganda, yosh Alisher tasodifan oʻz davrining yirik tarixchisi, Sharafiddin Ali Yazdiy bilan uchrashadi va oʻzining ziyrakligi bilan keksa olim diqqatini oʻziga jalb qiladi.

1452 yilga kelib, Xurosonda boʻlayotgan oʻzaro janjallar birmuncha pasayadi va Xuroson taxtiga Abulqosim Bobir oʻtiradi. Alisherlar oilasi ham besh yildan keyin Hirotga qaytadi. Gʻiyosiddin Kichkina Abulqosim Bobir saroyiga xizmatga kiradi, u Sabzavor hokimi qilib tayinlanadi.

---

<sup>1</sup> Хондамир. Мақорим ул-ахлоқ. – Т.: Бадий адабиёт, 1967, 29-30 б.

Alisherning maktab tahsili, bolalik qiziqishlari haqida o'z asarlarida ma'lumotlar berib o'tilgan. Maktabda u Qur'oni Karim mutolasidan so'ng fors-tojik shoirlari ijodini ham sevib o'qiy boshlagan. «Lison ut-tayyor» dostonida shoir o'zining maktab yillarini tasvirlar ekan, Shayx Sa'diyning «Guliston» va «Bo'ston» asarlarini sevib o'qiganini, ayniqsa, Farididdin Attorning «Mantiq ut-tayr» dostoniga mehri o'zgacha bo'lganligini, qayta-qayta o'qishi natijasida bu dostonni yod olganligini keltiradi<sup>1</sup>. Bu esa bo'lajak shoirning she'riyatga, xususan, Attor ijodiga mehr-muhabbati va ixlosi katta ekanligini namoyon etadi.

Navoiy otasi vafot etgach, taxminan o'n ikki yasharligida Xuroson podshohi Abulqosim Bobir xizmatiga kiradi. Bu vaqtda Sulton Husayn ham Abulqosim Bobir saroyida xizmatda edi.

Abulqosim Bobir adabiyot va san'atga ixlosmand, turkiy va forsiy tillarida she'rlar yozadigan ijodkor edi. Shuning uchun ham u shoirlarni munosib taqdirlar, ijod ahliga hurmat bilan munosabatda bo'lar va qo'llab quvvatlar edi. Abulqosim Bobir yosh Navoiyning bilimini, shoirlik iqtidorini ko'rib unga alohida e'tibor beradi.

Yoshligidan Nizomiy Ganjaviy, Muslihiddin Sa'diy, Farididdin Attor asarlarini o'qigan, Qosim Anvor g'azallarini yod olgan Alisher, ular asarlaridan ta'sirlanib, ilhom olib, o'zi ham she'rlar yoza boshlaydi. Navoiyshunoslikda Alisherning qachondan boshlab badiiy ijod bilan shug'ullana boshlagani haqida xilma-xil qarashlar bor. Bu haqdagi aniq ma'lumotlarni biz shoirning o'z asarlaridan bilib olishimiz mumkin. Uning «Badoye' ul-bidoya», «Xazoyin ul-maoniy» devonlariga yozgan debochalarida va «Munshaot»ga kirgan xatlarida juda yoshligidan she'riyatga oshno bo'lganini ta'kidlab o'tadi, «G'aroyib us-sig'ar» devoniga «yetti-sekkiz yoshtin yigirma yoshqacha» bitilgan g'azallari to'planganini aytadi.

O'n besh yoshlarida Alisher Navoiy ikki tilda ijod qiluvchi «zullisonayn» shoir sifatida taniladi va u o'z davrining yetuk shoirlari diqqatini torta boshlaydi.

---

<sup>1</sup> Бу ҳақда қаранг: Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. 20 томлик. Т.12. - Т.: Фан, 1996



Tarixchi Xondamirning xabar berishiga ko'ra, Alisher Navoiy yigitlik yillaridayoq, Lutfiyning yuqori bahosi va tahsiniga sazovor bo'lgan.

Orazin yopqoch, ko'zimdin sochilur har lahza yosh,  
Bo'ylakim, paydo bo'lur yulduz nihon bo'lg'och quyosh.

Mazkur g'azalning yuksak badiiy mahorat namunasi ekanligini tan olgan Lutfiy mubolag'a bo'lsa-da, «agar muyassar bo'lsa edi, o'zimning o'n-o'n ikki ming forsiy va turkiy baytimni shu g'azalga almashtirardim va bu ishning yuzaga chiqishini zo'r muvaffaqiyat hisoblardim»,— deb baholaydi<sup>1</sup>.

Navoiyning yigitlik yillarida hayotida muhim rol shaxslardan biri Sayyid Hasan Ardasher edi. G'oyatda yetuk iste'dod va qobiliyat egasi ekanligini ko'rgan Sayyid Hasan Ardasher uni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlagan. Navoiy asarlarida Sayyid Hasan Ardasher nomi hurmat bilan tilga olinadi, o'zining shoir sifatida kamol topishida bu ulug' siymoning xizmati katta ekanini cheksiz mamnuniyat bilan bayon etadi. Sayyid Hasan Ardasher vafot etgach, shoir unga maxsus asar bag'ishlagan.

1456 yilda Abulqosim Bobir o'z saltanatini Mashhadga ko'chirganida Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro ham u bilan birga boradilar. 1457 yilning bahorida Abulqosim Bobir vafotidan keyin yana o'zaro taxt talashishlar boshlanadi. Husayn Boyqaro ham hokimiyatga erishish uchun o'zaro kurashlarga qo'shilib ketadi. Alisher Navoiy esa Mashhad madrasalarida tahsilni davom ettiradi. Uning kelajakda ulug' ijodkor bo'lib yetishishida bu tahsillarning o'rni katta bo'lgan.

Bu paytda Alisher Navoiy Mashhadning bir qator ko'zga ko'ringan olim va fozillari bilan tanishib, do'stlashadi. Navoiyning Shayx Kamol Turbatiy, Pahlavon Muhammadlar bilan bo'lgan samimiy munosabati bunga misol bo'la oladi.

U Mashhadga Firdavsiy, Nizomiy, Xusrav Dehlaviy, Xoja Hofiz Sheroziy, o'z zamondoshlari Atoyi, Sakkokiy, Lutfiy, Jomiy asarlarini mutolaa qildi, ulardan mahorat sirlarini o'rgandi va o'zi ham ijod bilan mashg'ul bo'ldi.

Alisher Navoiy Mashhadga paytida ona shahri Hirotga qaytish orzusi bilan yashaydi. U Hirotga qaytgach, otasidan qolgan meros bilan yashashga, ijodiy ish

---

<sup>1</sup> Хондамир. Макорим ул-ахлоқ (Яхши хулқлар) / Форсчадан М. Фахриддинов, П. Шамсиев таржимаси. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1967, 45-46 б.

bilan shug'ullanishni niyat qiladi. Shoir shaharga kelganida (1464) Xuroson hukmdori Abu Said Mirzo Alisherning ota-onasiga tegishli mol-mulk musodara qilgan bo'lib, oqibatda yosh shoir moddiy jihatdan qiyin ahvolda qoladi.

Alisher Navoiyning yoshlikdagi do'sti, maktabdoshi Husayn Boyqaro bu vaqtlarga kelganda ma'lum kuchga ega bo'lgan, Abusaidga qarshi ochiq kurashga shaylangan edi. Shuningdek, Navoiyning tog'alari — Mir Sayyd Kobuliy va Muhammad Ali G'aribiylar Boyqaro qo'shini safida shahid bo'ladilar.

Ulug' fors-tojik shoiri Abdurahmon Jomiy bilan uchrashib, u bilan yaqindan tanishish Alisher Navoiy hayotida bir umrga katta ahamiyat kasb etdi. Bu vaqtda Abdurahmon Jomiy ustoz Sa'diddin Qoshg'ariy mozori yaqinida bir kichkina hovlichada istiqomat qilardi. Ulug' shayxni mamlakat hukmdoridan tortib, oddiy xalq vakillarigacha ziyorat qilib turishardi. Navoiy ham ustoz bilan shu yerda tanishish baxtiga musharraf bo'ladi. Navoiy va Abdurahmon Jomiyning ilk uchrashuvi qaysi paytda ro'y bergani navoiyshunoslikdagi bahsli masalalardandir.

**Navoiy hayotining Samarqand davri.** Navoiy 1464 yilda o'sha paytdagi yirik madaniy markaz bo'lgan Samarqandga keladi. Alisher Navoiyning Samarqandga kelish sabablari turli tarixiy manbalarda turlicha sharhlanadi.

Xondamir Alisher Navoiy «Sulton Abu Saidning podshohlik davrida zo'r olim va donishmandligi tufayli ikkinchi Abu Ali Sino laqabini olgan mudarris Xoja, Fazlulloh Abullaysiyning huzuriga Samarqandga borib, u janobning xonaqohidan hujra oldi. Bir qancha vaqt tegishincha ilm tahsil qilishga kirishdi»<sup>1</sup>,— deb yozadi.

Navoiyning o'zi ham Samarqandga tahsil uchun borganligini, ammo Hirotdan Samarqandga ketishi «beixtiyor qilingan safar» ekanligini ta'kidlaydi.

Navoiyning kichik zamondoshi Zahiriddin Muhammad Bobur esa «Bilmon, ne jarima bila Sulton Abusaid Mirzo (Alisherni) Hiridin ixroj qildi»<sup>2</sup>,— degan ma'lumot beradi.

Bu ma'lumotlarga tayanib, ko'pgina navoiyshunoslar Alisher Navoiyning Samarqandga ketishini to'la ma'nodagi «surgun» deb tushuntiradilar. Ammo shuni ham unutmaslik kerakki, hech bir manbada Navoiyning Samarqandg rasmiy

---

<sup>1</sup> Хондамир. Макорим ул-ахлоқ (Яхши хулқлар). –Т.: 1967, 38 б.

<sup>2</sup> Бобур. Бобурнома. – Т.: Юлдузча, 1990, 154 б.

surgun qilingani keltirilgan emas.

Navoiyning Sayyid Hasan Ardasherga yozgan maktubida shoir o'zining Xurosonni tashlab ketishga majbur qilgan hamma sabablarni sanab o'tadi. Ulardan biri ilm olib, o'z malakasini yanada oshirish bo'lib, shoir shuning uchun Samarqandga kelganligini aytadi.

Bu vaqtda Samarqand Hirotdan keyin ikkinchi ilmiy-madaniy markaz sifatida Ulug'bek davrida olim va shoirlari, maktab va madrasalari bilan shuhrat qozongan edi. Bu yerga ilm o'rganish uchun mamlakatning har chekkalaridan tolibi ilmlar kelib turar edi. Bu esa Navoiyning tahsil uchun Samarqandni tanlashi bejiz emasligini ko'rsatadi.

Alisher Navoiy Samarqandda yashagan dastlabki kunlarida moddiy qiyinchiliklarda hayot kechirdi<sup>1</sup>. Shunga qaramay, Samarqand madrasalarida o'qidi, ilm-fan, adabiyot va san'at ahli bilan do'stlashdi va tez orada e'tiborli kishiga aylandi. Alisher Navoiyning Samarqand hokimi Ahmad Hojibek bilan tanishuvi alohida e'tiborga molikdir.

Ahmad Hojibek asli xurosonlik bo'lib, Samarqandda katta obro'ga ega edi. U olim va fozillarni qadrlab, ularga homiylik qilardi. Samarqanddagi madrasa va maktablar qurilishiga rahnamolik qilib, shaharning har tomonlama gullab-yashnashiga o'z hissasini qo'shayotgan madaniyat homiysi edi.

Ahmad Hojibek "Vafoiy" tahallusi bilan she'rlar yozib turgan. Alisher Navoiyga ilm olish va yashash uchun sharoit yaratib beradi, moddiy jihatdan moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlaydi. Navoiy "Majolis un-nafois" asarining oltinchi majlisida u haqda ma'lumotlar berib o'tgan<sup>2</sup>.

Navoiy Samarqandda mashhur olim, yirik qonunshunos va arabshunos Xoja Fazlulloh Abullays qo'lida tahsil ko'radi, uning xonaqosi hujralaridan birida yashaydi. Shoir Fazlulloh Abullays bilan samimiy munosabatda bo'lganligi haqida "Majolis un -nafois"da to'xtalib: «Faqir ikki yil alarning qoshida sabaq o'qub erdim, ancha iltifotlari bor erdikim, «farzand» der erdilar»<sup>3</sup>, - deb eslaydi.

---

<sup>1</sup> Бу ҳақда қаранг: Абдуллаев В. Алишер Навоий Самарқандда. – Т.: 1967

<sup>2</sup> Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 13 том. – Т.: Фан, 1997, 151 б.

<sup>3</sup> Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 13 том. – Т.: Фан, 1997, 33 б.

Navoiy Samarqandda Mavlono Uloiy Shoshiy, Xoja Xurd, Mavlono Muhammad Olim, Mavlono Soyiliy, Darvesh Ahmad Samarqandiy, Mirzobek, Yusufshoh Safoiy va boshqa ko'plab shoir va san'atkorlar yaqin munosabatda bo'ladi, adabiy davralarda ishtirok etadi. Shuningdek, she'riyatga, adabiyot nazariyasiga oid kitoblarni juda ko'p o'qib, o'z bilimini tinmay oshira boradi. U Mavlono Yah'yo Sebakiing aruz ilmiga bag'ishlangan «Shabistoni xayol» kitobini, Nizomiy Aruziy Samarqandiyning adabiyotshunoslikka doir «Chahor maqola»sini, qofiyaga oid qator asarlarni sinchiklab o'rganib chiqadi.

Umuman, Navoiyning Samarqanddagi hayoti uning ijodi takomilida muhim o'rin tutdi. U Samarqand madaniyati va tarixi bilan juda yaqindan tanishdi, o'z bilimini yanada oshirdi va mustahkamladi. Samarqandning XV asr ikkinchi yarmidagi adabiyoti va madaniyati rivojida Alisher Navoiyning roli katta bo'lib, bu davr Samarqand adabiy muhitini Alisher Navoiysiz, u tayyorlagan yosh qalamkashlarsiz tasavvur qilish mumkin emas.

Eronning g'arbiy qismidagi o'lkalarni o'ziga bo'ysundirish uchun kurash boshlagan Abusaid Ozarbayjonda o'ldirilishi natijasida Husayn Boyqaro 1469 yilning boshida Hirot taxtini egallaydi.

Sulton Husayn Hirot taxtini egallagani haqidagi xabar Samarqandga yetib kelishi bilan Navoiy Hirotga qaytadi. U hukmdorning eng yaqin kishisi sifatida mamlakat tinchligi va taraqqiyoti, el-yurt osoyishtaligi yo'lida tinmsiz xizmat qiladi.

**Navoiy davlat va jamoat arbobi.** Navoiy Hirotga kelgach, davlat va jamoat arbobi sifatida faoliyat ko'rsata boshlaydi. 1469 yil aprel oyida (hijriy yil hisobi bilan 873 yil iydi ramazon oyida) ramazon hayiti munosabati bilan uyushtirilgan tantanali marosimda Alisher Navoiy do'sti Husayn Boyqaroni tabriklab, unga bag'ishlab yozilgan «Hiloliya» qasidasini taqdim etadi.

«Hiloliya» qasidasi Alisher Navoiy ijodida hajman Sayyid Hasan Ardasherga yozilgan maktub-masnaviydan so'ng yozilgan ikkinchi yirik asaridir. Uning «Hiloliya» deb atalishi yangi ko'ringan oyga tashbih bo'lib, asarda taxtga yangi chiqqan hukmdor madh etiladi.

Navoiy saroy xizmatiga tortilib, unga muhrdorlik lavozimi topshiriladi. Alisher Navoiy davlatning barcha hujjatlarini o'z qo'lidan o'tkazar va unga muhr bosib, rasmiylashtirar edi. Husayn Boyqaro Alisher Navoiyga o'z saroyidan g'oyatda mas'uliyatli mansabni topshirar ekan, davlat ishlarida, hokimiyatni mustahkamlab olishda, umuman, mamlakat va xalq osoyishtaligini o'rnatishda Navoiy eng ishonchli kishi bo'lishini, o'z maslahatlari bilan katta yordam berishini yaxshi bilar edi.

Husayn Boyqaro Hirot taxtini egallagani bilan temuriy shahzodalar o'rtasidagi nizolar hali davom etardi. Sulton Husayn Mirzo Hirot taxtini egallaganiga bir yil bo'lar-bo'lmas, Abu Saidning o'g'li Yodgor Mirzo temuriylarning dushmani bo'lgan Hasanbegi turkman bilan til biriktirib, 1469 yilning oxirlarida Sulton Husaynga qarshi jangga o'tlanadi. Shoh dushmani bartaraf etish uchun katta qo'shin bilan Mashhad sari yo'l oladi. Sulton Husayn jo'nab ketishi bilan Hirotidagi ayrim zolim amaldorlar xalqqa haddan tashqari zulm qila boshlashadi. Natijada Sulton Husaynning davlat idora usuliga qarshi xalq norozilik bildirib, isyon ko'taradi. Bu ahvoldan xabar topgan Husayn Boyqaro qo'zg'olonni bartaraf qilishdek mas'uliyatli ishni Alisher Navoiyga topshiradi. Alisher Navoiy xalq talablari nazarga olinishini, zolimlarning esa jazolanishini, mamlakatda adolat o'rnatilishi lozimligi to'g'risida shohning rasmiy farmoyish berishini so'raydi va farmonni olib, Hirotga jo'nab ketadi.

Alisher Navoiy xalq qo'zg'algan yerga yetib kelib, uni tinchlantiradi va shoh farmonini Masjidi jome minbaridan o'qishni buyuradi. Oliy farmonga ko'ra, xalqning birmuncha talablari qondiriladi, uning nafrat va g'azabiga uchragan qator amaldorlar hibsga olinadi va tegishli jazo beriladi. Yodgor Muhammadning ikkinchi yurishi ham uning mag'lubiyati bilan tugallanadi.

Yodgor Mirzo mag'lubiyatga uchragandan keyin Xuroson davlati tamoman Husayn Boyqaro qo'lga o'tadi. Garchi boshqa temuriy shahzodalar Hirot taxtiga tez-tez xavf solib tursalar ham, Husayn Boyqaro ularni osonlikcha bartaraf etar va bunda unga doim Alisher Navoiy yordam berib kelar edi.

Dastlabki hukmronlik yillarida Sulton Husayn hokimiyatni mustahkamlash, mamlakatni obod qilish, Hirotni madaniy markazga aylantirish uchun bor imkoniyatlarini ishga soladi. Bu sohada ham shoh Alisher Navoiyga tayanar va har qanday murakkab masalalarda unga murojaat qilar edi. Alisher Navoiy yurt-yurt tinchligi, mamlakat osoyishtaligi uchun kurashishni o'zining asosiy burcha deb biladi. Ammo shoir ko'proq badiiy ijod bilan mashg'ul bo'lishni istaydi. Shuning uchun Alisher Navoiy muhrdorlik vazifasidan iste'fo berib, bu ishni Amir Shayxim Suhayliyga topshiradi.

1472 yilning fevralida Alisher Navoiyning qattiq qarshilik ko'rsatishiga qaramay, Husayn Boyqaro uni amir (vazir) qilib tayinlaydi va amiri kabir (ulug' amir) unvonini beradi. Shuningdek, shoir amir ul- muqarrab (podshohga eng yaqin amir) unvoniga ham loyiq topilgan edi.

Navoiy o'z rasmiy lavozimi bilan ham mamlakat hayotida katta rol o'ynaydi. Ma'lumotlarga ko'ra Navoiy katta huquqlarga ega bo'lib, davlat ishining deyarli hamma sohasiga aralashar, eng murakkab va muhim masalalarni ham o'zi hal qilar edi. U davlat ishlarini nihoyatda halollik bilan, xalq va davlat manfaatini ko'zlab, insof va adolat asosida olib borishga intiladi. U zulm va talonchilikka chek qo'ya olgan. U «Vaqfiya»da yozadi: «Iligimdin kelgancha zulm tig'in ushotib, mazlum jarohatig'a intiqom marhamin qo'ydim. Va iligimdin kelmaganini ul hazrat (Husayn Boyqaro) arzigaga yetkurdim».

Navoiy qurdirgan «Ixlosiya» madrasasi Xirotning o'sha davrdagi shuhratini dunyoga yoygan binolardan biri bo'lib, u o'z davrining eng bilimdon kishilari - Amir Burhoniddin Atoullloh Nishopuriy, Qozi Ixtiyoriddin Xasan Turbatiy, Amir Murtoz, Mavlono Fasihiddin Muhammad Nizomiyni mudarris qilib belgiladi. Shu madrasaning janubida «Xalosiya» nomli katta xonaqoh barpo etildi. Madrasaning g'arbida «Shifoiya» nomli bino qurilib, bu yerda mashhur tabiblar to'plandi. Madrasaning g'arbida yana katta Masjidi jome, masjid yonida bir gumbaz ham qurilgan. Bu gumbazga «Dorul-xuffoz» («Qorilar uyi») deb nom berilgan. Navoiy kutubxonasida 70 dan ortiq xushxat kotib va naqqosh xat ko'chirish, kitoblarga ziynat berish bilan shug'ullangan.

Shuningdek, Navoiy Xirotning ichida «Nizomiya», Marvda «Xusraviya» nomli madrasalar qurdirgan («Xusraviya» soʻzidan abjad qisobida shu imoratning qurilgan yili kelib chiqadi: 881 hijriy, 1476/1477 milodiy). Hirot va boshqa shaharlarda yana 10 dan ortiq xonaqoh, 20 dan ortiq masjid qurilgan. Navoiyning qurilish ishlari butun Xuroson va uning shaharlarida olib borilgan. Shoir ixtiyoridagi mablagʻlar hisobiga qurilgan binolarning soni baʼzi manbalarda uch yuzdan ortiq deb, baʼzi manbalarda toʻrt yuzga yaqin deb koʻrsatiladi. Navoiy tomonidan qurilgan imoratlarning aksariyati bizgacha yetib kelgan emas.

Alisher Navoiy Hirotga qaytgach, u oʻz ota merosi - katta yer-suvga ega boʻlgan edi. Shuningdek, avval muhrdor, keyin vazirlik lavozimiga koʻtarilgan Alisher Navoiyga, oʻsha davr odatiga koʻra, podshoh tomonidan katta yer-suv, hatto butun-butun qishloq va tumanlar suyurgʻol tarzida inʼom etilgan edi. Amir oʻz kundalik ehtiyojiga yetadiganidan tashqari olgan daromadining deyarli hammasini mamlakat obodonchiligiga sarflar, fuqarolar uchun rizq-roʻz berar, ortganini davlat xazinasiga topshirar edi. Bu haqda shoirning oʻz asarlari, zamondoshlarining asarlarida qimmatli maʼlumotlar keltirilgan.

Navoiy dehqonlar ishini yengillatish maqsadida suvsiz yerlarga suv chiqarib, eski ariqlarni tozalatadi, oʻzi ham yangi ariqlar qazdiradi. Natijada ekin maydonlari kengayadi, shaharni suv bilan taʼminlash ham yaxshilanadi. Xondamir yozishicha, Navoiy yigirmaga yaqin hovuz qazdirgan, 16 koʻprik va 2 toʻgʻon qurdirgan.

Navoiy Madrasa va xonaqohda istiqomat qiluvchi kishilarni oziq-ovqat, kiyim-kechaklar bilan ham taʼminlab turgan. Masalan, «Xalosiya» xonaqohida, har yili 2000 ga yaqin poʻstin, bosma chakmon, koʻylak-ishton, taqiya va kafsh ulashilgan. Navoiy Madrasa, masjid va xonaqohlarga qatʼiy vaqflar belgilagan hamda bu sohada qattiq tartib oʻrnatishga harakat qilgan. 1481—1482 yillarda Navoiy oʻzining bu sohadagi ishlariga maʼlum darajada yakun yasab, bu binolarning vaqflari haqida «Vaqfiya» asarida batafsil maʼlumotlar beradi.

Navoiyning saroy xizmatida turishi, masʼul lavozim egallashi davlat va xalq uchun katta ahamiyat kasb etgani uchun taraqqiyparvar kishilar Navoiyning oʻz vazifasidan isteʼfo berishini xohlamas edilar. Navoiy esa saroyda yuz berayotgan

ahvolga mas'ul kishi sifatida loqayd qaray olmas edi. Chunki, Bobir xabar berishicha, Husayn Boyqaro «avval taxt olgan mahalda olti-yetti yil toyib edi. Andin so'ngra ichkuga tushdi, qirq yilg'a yovuqkim Xurosonda podshoh edi, kun yo'q edikim, namozi peshindin so'ng ichmagay, vale hargiz sabuhiy qilmas edi, o'g'lonlari va jami' sipohiga va shahriga bu hol edi. Ifrot bila aysh va fisq qilurlar edi...»<sup>1</sup>. keyingi vaqtlarda moliya ishlarini boshqarish Nizomulmulk va Majdiddinlar ixtiyorida bo'lib, ular o'zlari xohlaganlaricha ish tutar edilar. Alisher Navoiy xazina mollarining behuda sarflanishiga, xalqning ayrim amir-amaldorlar tomonidan xonavayron etilishiga yo'l qo'ymaslikka intilardi. Shuning uchun ham Majdiddin va Nizomulmulk kabilar u bilan ko'p vaqt kelishishga majbur edilar.

Alisher Navoiy 1476 yilda vazirlikdan iste'fo beradi. Biroq Navoiy vazirlik lavozimidan ketgandan so'ng ham Sulton Husayn Boyqaro saroyida eng nufuzli siyosiy arbob bo'lib qola berdi.

Hirot adabiy muhitida Jomiy juda katta obro'ga ega bo'lib, uning badiiy ijoddagi mahorat va qobiliyati ko'pchilikka o'rnak bo'ldi. Navoiy badiiy ijod balki ko'pgina siyosiy masalalarda Jomiydan maslahatlar olib turadi. 1476/1477 yillar orasida esa u Jomiyning o'ziga pir sifatida e'tirof etadi.

Navoiy adabiyot va san'at namoyandalariga mehribon ustoz va murabbiy edi. Uning ixlosmandlari kun sayin ortib borardi. Xondamir xabar berishicha, nafaqat adabiyot balki tarixga oid kitoblarning yaratilishida ham Navoiyning xizmati beqiyos bo'lgan. Masalan, Navoiy Mirxondning yetti jilddan iborat bo'lgan «Ravzat us-safo» asarining yaratilishining tashabbuskori bo'lgan. Shuningdek, shoir yaratilishi lozim bo'lgan asarning mavzui, tuzilishi va uslubi yuzasidan maslahatlar bergan. Mirxondning asar yozishga kirishishi uchun yetarli ish sharoiti ham yaratib bergan. Alisher Navoiy tarixchiga «Xalosiya» xonaqohidagi katta kutubxonasi bo'lgan o'z xonasini yozuv qurollari bilan jihozlab topshiradi.

1487 yilda Husayn Boyqaro Amir Alisherni Astrobod hokimligiga tayinlaydi. Bu bilan podshoh Alisher Navoiyning mamlakatning g'arbiy chegarasida osoyishtalik o'rnatishiga umid bog'lasa, yana bir jihatdan saroydagi tarafkashlikka

---

<sup>1</sup> Бобур. Бобурнома. –Т.: Юлдузча, 1990, 147 б.



barham bermoqchi bo'ladi. Ayni vaqtda, uni Astrobodga hokim qilib yuborish bilan shoh uning izzat-hurmatini ham saqlashga harakat qilgan edi. Chunki mamlakatning asosiy tayanch shaharlaridan bo'lgan Astrobod faqat taxt vorisi yoki faqat shohning eng ishonchli kishisigagina topshirilar edi.

Husayn Boyqaro hamma davlat ishlarini ishonib topshirib quygan Majdiddin xalq manfaati va mamlakat farovonligidan ko'ra ko'proq shoh va shahzodalar uchun katta bazmlar uyushtirar, iste'dodli kishilarni shohdan uzoqlashtirishga harakat qilar edi.

Astrobod xalqi, uning madaniy qatlami Alisher Navoiyni tantana bilan kutib oladilar. Alisher Navoiydek xalqparvar, madaniyatparvar, odil hokimning Astrobodga kelishini eshitib, Sulton Husaynga ko'pincha havf turdirib turadigan Mozandaron va Jurjon viloyatlarining hokimlari o'z ixtiyorlari bilan tobe bo'lganlarini bildiradilar. Turkman sultoni Yaqubbek qimmatbaho sovg'alar bilan shoimni tabrikladi, Ozarbayjon va Iroq hukumat boshliqlari ham Navoiy tufayli do'stona munosabat tikladilar.

Navoiy Astrobodda ham o'z badiiy asarlarida tasvir etgan va barcha hukmronlarga o'rnak bo'la oladigan hokim sifatida ish ko'rdi. Navoiyning sa'y-harakatlari tufayli Astrobod qisqa fursatda obod va ma'mur shaharlardan biriga aylanadi.

Alisher Navoiy dushmanlari u Astrobadda yurganida ham tinchishmay, shoimni zaharlab o'ldirishga harakat qilishadi. Ammo fitna oshkor bo'lgach, shoh shoirning Hirotga chaqirtirib oladi.

Navoiyning hech qanday davlat ishiga aralashmay, saroydan uzoqda turishi haqidagi istagiga qo'shilmagan Husayn Boyqaro unga «muqarrabi hazrati sultoniy», ya'ni «hazrati sultonning eng yaqini» degan unvon beradi. Bu faxriy unvon garchi shoirga saroyda mas'ul bir vazifa yuklamasa-da, saroy ahlidan shoirga juda katta hurmat bilan munosabatda bo'lishni taqozo qilar edi.

Majdiddin boshchiligidagi saroy amaldorlarining Navoiyga qilayotgan nohaqliklaridan norozi bo'lgan shoirning ukasi Darvesh Ali Balhda isyoni ko'taradi. Husayn Boyqaro qo'shin bilan borib, isyonni bostiradi. Isyon tufayli

Majdiddin 1490 yili lavozimidan bo'shatilib, o'rniga avvalgi vazir Nizomulmulk tayinlanadi. Nizomulmulk ham zimdan ish ko'ruvchi, munofiqlikda Majdiddindan ham o'tar edi. Husayn Boyqaro esa shu vazirlar ta'sirida o'zining avvalgi ko'p fazilatlarini yo'qotgan edi.

Saroyda yuz berayotgan nizolar, fitnalar ustiga davlatni bo'lib olish maqsadida yurgan shahzodalar ham harakatga tushadilar, shoh oilasida qonli nizolar vujudga kela boshlaydi.

Husayn Boyqaro Darvesh Ali bilan sulh tuzgandan so'ng, bir qancha vaqt o'tgach, u bilan birga borgan Alisherni Balxda qoldirib, o'zi Hisorga, Sulton Mahmudga qarshi urushga o'tlanadi.

Husayn Boyqaro va o'g'illari o'rtasidagi nizolar Shoh Badiuzzamon o'rtalaridagi qonli janglarning birida shahzoda yengiladi va shahzoda Muzaffar Husayn Astroboddagi Mo'min Mirzoni qo'lga olib, poytaxtga jo'natadi va uni Ixtiyoriddin qal'asiga qamaydilar. Xadichabegim qulay fursatdan foydalanib, o'ta mast Husayn Boyqaroga Mo'min Mirzoni qatl etish haqidagi farmonga muhr bostirib oladi. Mo'min Mirzo kechasiyoq qatl qilinadi. Ertalab hushi o'ziga kelgan shoh nevarasini o'ldirish haqida bergan buyrug'ini rad etadi, ammo vaqt o'tgan. Bu fojia ro'y berganida Navoiy Mashhadda bo'lib, shahzoda o'limidan uch kun o'tgach, Hirotga keladi va mash'um xabarni eshitadi.

Shoh va shahzodalar o'rtasidagi ichki nizolar kun sayin orta borishi natijasida ota va bolalar orasida tez-tez qonli to'qnashuvlar yuz berib turadiki, bu esa temuriylar davlatining inqirozini tezlashtirardi. Ro'y berayotgan voqealar Navoiyning ahvoli-ruhiyasiga juda yomon ta'sir qilar edi.

**Alisher Navoiy hayotining so'nggi yillarida yaratilgan asarlar.** Alisher Navoiy umrining so'nggi yillarida juda qizg'in ilmiy-ijodiy ish bilan mashg'ul bo'ldi. Shoirning mavjud asarlari yaratilgan davriga ko'ra kuzatilsa, uning aksariyat qismi so'nggi o'n-o'n besh yil ichida yozilganligi namoyon bo'ladi. U yirik hajmli "Xamsa"ni yaratgandan keyin nasrda barakali ijod qildi. 1988 yilda tarixiy manbalar va Ajam shohlari haqidagi afsonalar asosida "Tarixi muluki Ajam" ("Ajam shohlari tarixi") asarini yozdi. Bunda adib shohlarning hayoti va

qilgan ishlariga asoslanib, zamondosh hukmdorlarga nasihatlar beradi. Asar “Zubdat ut-tavorix” (“Tarixlar qaymog’i”) nomi bilan ham yuritiladi.

Shoir hayotining so’nggi yillarida bir nechta musibatlar ro’y berdi. Alisher Navoiyning yaqin do’sti va ustozlari Sayyid Hasan Ardasher(1489), Abdurahmon Jomiy (1492), Pahlavon Muhammad (1493) ketma-ket vafot etishadi. Shoir ular xotirasini abadiylashtirish maqsadida «Holoti Sayyid Hasan Ardasher», “Xamsat ul-mutahayyirin”, “Holoti Pahlavon Muhammad” nomli nasriy asarlarini bitadi.

Alisher Navoiy nafaqat mutafakkir shoir, yetuk xamsanavis, iste’dodli nosir, mohir tarixchi sifatida balki adabiyotshunos olim sifatida ham mashhurdir. Uning bir qator asarlari o’z davri adabiyotshunoslik ilmi muammolariga bag’ishlangan bo’lib, bugungi kunda ham o’z ilmiy qimmatini saqlab turibdi. She’riy janrlar, vaznlar, o’z davri adabiy muhiti tahliliga bag’ishlangan «Risolai mufradot dar fanni muammo» ((1491)), «Mezon ul-avzon» (“Vaznlar o’lchovi”) (1492) nomli risolalari, «Majolis un-nafois» (“Nafis majlislar”) (1491-1492) tazkirasi bunga misol bo’la oladi.

Alisher Navoiy Husayn Boyqaroga, shahzodalarga, o’z ustozlari, do’stlari, hamkasblariga yozgan maktublarini to’plab «Munshoat» asarini tuzadi. Bu asar turkiy tilda yaratilgan xatlar yig’indisidan iborat. Ayrim manbalarda Alisher Navoiyning forsiy maktublari ham to’plangani aytiladi<sup>1</sup>. Ammo u hanuzgacha topilmagan.

Matnshunos H.Sulaymonov tuzgan Navoiy asarlari ro’yxatiga “Forsiy munshoat” (“Forsiy maktublar to’plamini”) ham kiritadi. XUI asrda tuzilgan “Abshuqa” lug’atida Navoiyning forsiy “Munshoat” i bo’lganligi aytiladi va H.Sulaymonov xuddi shu lug’atga suyangan.

Navoiyshunos A.Hayitmetov “Abushqa”da Navoiyning forsiy maktublar to’plami bo’lganligi haqidagi fikrlarga munosabat bildirar ekan, o’zining ikki xil mulohazasini ilgari suradi. Uning fikricha, Navoiy o’zining forsiy maktublarini to’plam holiga keltirishga ulgurmagan va shoirning yaqinlaridan kimdir bu

---

<sup>1</sup> Бу ҳақда қаранг: Сулаймонов Ҳ. Навоий асарларининг манбалари ва нашри ҳақида // Алишер Навоий. Асарлар. Т.1. – Т.: 1965; Ҳайитметов А. Навоийнинг форсий мактублари ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. 1974. №1

maktublardan to'plam tuzgan. "Abushqa" muallifi anashu to'plamdan foydalangan bo'lishi mumkin. A.Hayitmetovning ikkinchi bir taxminiga ko'ra, "Abushqa" muallifining qo'liga Navoiyga nisbat berilgan, ammo uniki bo'lmagan forsiy "Munshoat" tushib qolgan bo'lishi ham mumkin<sup>1</sup>.

Xondamir «Makorim ul-axloq» asarida shoirning Amir Xoja Afzaliddin va Xoja Shahobiddin Ubaydulloga yozilgan forsiy maktubini keltirib, Navoiyning «forsicha inshoda g'oyatda kuchliligi va zehni o'tkirligi» aytadi. Shoirning "Xamsat ul-mutahayyirin" asarida Jomiyga yozgan katta-kichik hajmli 14 ta maktubi va bu maktublardan parchalar yetib kelgan. Professor A.A.Semyonov Navoiyning "Munshoat" i qo'lyozmalaridan birida shoirning bir forsha maktubi ham borligini xabar qiladi. Bunday ma'lumotlar Navoiyning forsiy tilda ham go'zal maktublar yaratganligini, ular shoir hayoti va ijodini o'rganishda muhim ahamiyatga ega bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.

Alisher Navoiy 1495-1496 yillarda «Nasoyim ul-muhabbat» ("Muhabbat shabadalari") asarini yozib tugatadi. Bu asar Abdurahmon Jomiyning «Nafahot ul-uns» ("Do'stlik tarovati") asarining erkin-ijodiy tarjimai bo'lib, unda Sharqning 770 ta shayxi haqidagi ibratomuz ma'lumotlar o'rin olgan.

Shoir bolalikda sevib o'qigan va ijodi, dunyoqarashining shakllanishida muhim o'rin tutgan Farididdin Attorning «Mantiq ut-tayr» dostoniga javob sifatida «Lison ut-tayr» ("Qush tili") (1498-1499) dostonini yaratadi. Unda shoir o'zining ijtimoiy-siyosiy, falsafiy qarashlarini majoziy usulda tasvirlaydi.

Alisher Navoiy 1499 yilda yozib tugatgan «Muhokamat ul-lug'atayn» ("Ikki til muhokamasi") asarida turkiy tilning o'ziga xos xususiyatlarini nazariy jihatdan asoslab berdi.

Shoirning «Chihl hadis» (1481- 1482), «Nazm ul-javohir» (1485), "Tarixi anbiyo va hukamo", «Siroj ul-muslimin» (1488), «Munojotnoma» (1499—1500) singari qator asarlari ham adabiyotimiz xazinasiga muhim ulush bo'lib qo'shilgan.

---

<sup>1</sup> Хайитметов А. Навоийхонлик суҳбатлари. – Т.: Ўқитувчи, 1993, 158 б.

Alisher Navoiy hayotining so'nggi yillarida forsiy she'rlaridan iborat «Devoni Foni»ni tuzdi. U shu yillari bitilgan qasidalarini «Fusuli arbaa» («To'rt fasl»), «Sittai zaruriya» («Olti zarurat») nomlari bilan to'pladi.

Navoiyning oxirgi asari «Mahbub ul-qulub» (1500)dir. Alisher Navoiy «Mahbub ul-qulub» asarida o'zining umri davomida to'plagan boy hayotiy tajribalari asosida davrining axloq qoidalarini belgilaydi, insonparvarlik qarashlarini falsafiy xulosalar va o'z hikmatli so'zlari orqali ifodalaydi, o'sha davrda mavjud bo'lgan barcha guruh va tabaqalarga o'zning holisona bahosini beradi.

Alisher Navoiy ijodiy rejaları keng bo'lgan va ulardan ayrimlari amalga oshmay qolgan. Ulug' shoir «Tarixi muluki Ajam» asarining xotima qismida Sulton Husayn tarixini bitish niyati bor ekanligini aytgan edi. «Tarixi anbiyo va hukamo» asarida shoir Yusuf qissasi haqida fikr yuritar ekan, «Yusuf va Zulayho»syujeti asosida asar yaratgan Firdavsiy, Abdurahmon Jomiy, Xoja Mas'ud Iroqiy kabi fors-tojik adabiyoti namoyandalarini keltiradi va o'zi turkiy tilda «Yusuf va Zulayho» asarini yozish niyati borligini ma'lum qiladi. Navoiy «Lison ut-tayr» asarida Shayx San'on hikoyasini bayon etar ekan, o'z sevgisi haqida ham so'z yuritadi va bu haqda alohida asar yozish niyati borligini bayon etadi. Ammo bevaqt o'lim tufayli bu asarlarni yozish shoirga nasib etmagan.

1500 (906) yilning yozida Husayn Boyqaro Astrobodda bosh ko'targan o'g'li Muhammad Husaynga qarshi qo'shin tortib ketganida Alisher Navoiy Hirotda qoladi. Husayn Boyqaro shu yilning dekabr oyida o'g'li bilan sulh tuzilib, shoh poytaxtga qaytayotgani haqida xabar keladi va Alisher Navoiy kasal bo'lishiga qaramay shaharning bir qator ko'zga ko'ringan kishilari bilan shohni kutib olish uchun unga peshvoz chiqadi. Birdan uning ahvoli yomonlashadi. Shoirning gapirishga va harakat qilishga holi qolmaydi. Shu ahvoldagi shoirni yarim tunda o'z uyiga olib keladilar: erta bilan shaharning taniqli tabiblari to'planib, qon olishga xarakat qiladilar, ammo hech qanday ijobiy o'zgarish bo'lmaydi. Uch kun beharakat yotgan Alisher Navoiy 1501-yil 3-yanvarida hayotdan ko'z yumadi. Uni dafn etish marosimida deyarli barcha Hirotda aholisi qatnashadi. Shoir jasadi uning

o'zi tomonidan ilgari shu hodisa uchun qurib qo'yilgan Masjidi jome gumbazi ostiga qo'yiladi.

Navoiyning do'st va shogirdlari o'z ustozlari vafotiga bag'ishlab, xalqning benihoya og'ir qayg'usini ifodalagan marsiya va ta'rixlar bitadilar.

Alisher Navoiy vafotidan so'ng Husayn Boyqaro hukmronligini uzoq saqlab qola olmadi. U o'zaro janglar natijasida ancha toliqqan edi.

Sulton Husayn 1504-yilda kuch to'plab, Shayboniyxonga qarshi jangga o'tlanadi, ammo maqsadi amalga oshmay, yo'lda vafot etadi. Husayn Boyqaroning o'limi shahzodalar o'rtasidagi hokimiyat talashishlarni kuchaytirib yuboradi. Bu parokandaliklar Shayboniyxonga juda qo'l keladi va 1507 yilda Hirotni osonlikcha egallaydi. Natijada uzoq yillik tarixga ega bo'lgan, xalqimiz tarixida alohida ahamiyatga ega bo'lgan Temuriylar hukmronligi barham topadi.

#### **Navoiyning hayoti va ijodiy merosini o'rganishdagi muhim manbalar.**

Alisher Navoiyning adabiy va ilmiy faoliyati, ibratli hayot yo'li, o'ziga xos shaxsiyati shoir hayotlik chog'idayoq shoirlar, muarrixlar, davlat arboblarning e'tiborini o'ziga tortgan. Shoir hayoti va ijodiyotini o'rganishga oid manbalarni shartli ravishda quyidagicha guruhlab o'rganish mumkin:

1. Shoirning o'z asarlari,
2. Navoiy zamondoshlarining asarlari,
3. XUI-XIX asrlarda shoir ijodining o'rganilishi,
4. Xalq og'zaki ijodidagi rivoyat va afsonalar,
5. Shoir hayoti va faoliyatining g'arb va rus sharqshunoslari tomonidan o'rganilishi,
6. O'zbek navoiyshunoslarining ilmiy tadqiqotlari.

Alisher Navoiyning o'z asarlari uning hayoti va ijodiyotini o'rganishda muhim manba bo'la oladi. Shoirning deyarli barcha asarlarida o'z shaxsi, ijodkorligi, ijtimoiy faoliyati haqida ma'lumotlar beriladi. Bu jihatdan uning "Xazoyin ul-maoniy", "Xamsa" dostonlari, "Majolis un-nafois", "Lison ut-tayr", "Muhokamat ul-lug'atayn", "Vaqfiya", "Tarixi muluki Ajam", "Xamsat ul-mutahayyirin", "Mezon ul-avzon" va boshqa asarlari muhim ahamiyatga ega.

Mazkur asarlarda shoirning hayot tarzi, yashagan muhiti, davrdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat, adabiy-madaniy muhit, shoirning el-yurt tinchligi, mamlakat osoyishtaligi yoʻlidagi faoliyati, zamondoshlari, ustozlari, shogirdlari, oʻzining ezgu orzu-niyatlari, ayrim asarlarining yaratilish tarixi haqida soʻz boradi.

### **Zamondoshlari asarlarida shoir hayoti va faoliting yoritilishi.**

Navoiyning zamondoshlari asarlarida ham shoir haqida qimmatli maʼlumotlar berilgan. Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston”, “Haft avrang”, “Yusuf va Zulayho”, Mirxondning “Ravzat us-safo” (“Poklik bogʻi”), Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro” (“Shoirilar tazkirasini”), Gʻiyosiddin Xondamirning “Makorim ul-axloq” (“Yaxshi xulqlar”), “Habib us-siyar” (“Suyikli xislatlar”), “Xulosat ul-axbor” (“Voqealar xulosasi”), Zayniddin Vosifiyning “Badoyeʼ ul-vaqoyeʼ” (“Goʻzal voqealar”), Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” kabi asarlarida Alisher Navoiyning hayoti va faoliyatiga oid maʼlumotlar keltirilgan. Bu asarlar nafaqat Alisher Navoiyning hayoti va ijodiy faoliyati balki XU asr tarixiy voqeligi va unda ulugʻ shoirning tutgan oʻrni haqida ham maʼlumot beradigan noyob manbalardir.

Abdurahmon Jomiy «Bahoriston»<sup>1</sup> asarida Alisher Navoiy isteʼdodi, uning ikki tilda ham sheʼr yozishi, turkiyda koʻproq ijod qilishini taʼkidlaydi, «ba on zabon besh az vay va beh az vay kase sheʼr naguftaast va gavhari nazm nasufta» (u tilda, yaʼni turkiyda hech kim undan koʻp va undan yaxshi sheʼr ayta olmagan va nazm durlarini sepa olmagan), deb yozadi.

Davlatshoh Samarqandiy “Tazkirat ush-shuaro” asarida shoirga “Nizomiddin Alisher Navoiy” deb nomlangan maxsus bob ajratadi. Unda Navoiyning insoniy qiyofasini tasvirlashga, xalq va davlat manfaatlarini hamma narsadan ustun qoʻyuvchi vatanparvarligini, el va yurtga nafi tegadigan koʻpgina ishlarning tashabbuskori ekanligini, xullas har jihatdan yuksak axloq namunasi ekanligini tasvirlaydi. Jumladan u shunday yozadi: “bu ulugʻ amirning qutlugʻ zamonida, uning humoyun madhining zikri jahonning qator mamlakatlarida mashhur,

fazilatining dabdabasi va oliy himmatining kamoloti butun jahonga yoyilgandir. Bu haqida nima deyilsa ham saboq hosil bo'lg'usidir"<sup>1</sup>.

G'iyosiddin Xondamir "Makorim ul-axloq" ("Yaxshi xulqlar")<sup>2</sup> asarida hikoyat, latifa yoki shoirning o'ziga mansub aforizm va so'z o'yini vositasida Navoiyning insoniy fazilatlarini yoritadi. Jumladan, kitobning "Karam va sahovatning ta'rifi haqida" nomli bobida Navoiyning katta mulk egasi ekanligi, olim, shoir va san'at ahliga nafaqat ma'naviy balki moddiy yordam ham berganligi o'z mablag'larini el-yurt ravnaqi uchun ayamasligi to'g'risida uchta hikoyat keltirilgan. Asarda bunday o'rinlar anchagina va bular ulug' shoirning insoniy fazilatlari, hayot tarzi, shaxsiyati haqida muayyan tasavvurlarga ega bo'lishimizga yordam beradi.

Zayniddin Vosifiyning "Badoye' ul-vaqoye'" ("Go'zal voqealar") asari<sup>3</sup> o'sha davrga mansub adabiy-tarixiy manbalar orasida aniq faktlarga boy dastlabki jiddiy asarlardan biri sifatida e'tiborga molikdir. Asardagi hikoyatlarda navoiy xarakterining muhim jihatlariga urg'u beriladi. Uning Hirot adabiy muhitiga murabbiylik qilgani, har bir iste'dod egasiga e'tibor bilan qaraganligi hikoya qilinadi.

**XUI-XIX asrlarda shoir ijodining o'rganilishi.** Alisher Navoiy turkiy adabiyotning mutafakkir shoiri sifatida o'zidan keyingi davrlarda yashab ijod etgan ijodkorlar uchun ma'naviy ustoz bo'lib qoldi. Uning boy ijodiy merosi ko'pgina Sharq adabiyoti namoyandalari uchun ilhom manbai bo'ldi. Keyingi asrlarda Navoiy shaxsiyati va ijodiga bo'lgan cheksiz hurmat va ehtirom rang-barang shakllarda o'z ifodasini topdi. Bu ko'proq Navoiy asarlarini o'qib-o'rganish, asarlarini kitobot qilish, shoir asarlariga oid lug'atlar tuzish, tazkira, tarixiy, ilmiy-badiiy asarlarda ulug' san'atkor shaxsi va ijodiy faoliyatiga munosabat bildirish, she'rlariga muxammaslar bitish, dostonlarining nasriy bayonini yaratish va ayrim asarlarini tarjima qilish kabi shakllarda namoyon bo'ldi.

---

<sup>1</sup> Давлатшоҳ Самарқандий. Шоирлар бўстони. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1981, 188 б.

<sup>2</sup> Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. (Яхши хулқлар) / Форсчадан М.Фахриддинов. П.Шамсиев таржимаси. –Т.: Адабиёт ва санъат, 1967.

<sup>3</sup> Зайниддин Восифий. Бадоеъ ул-вақоеъ (Нодир воқеалар) / Форсчадан Н.Норқулов таржимаси. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1979



XUI-XIX asrlarda yaratilgan ko'pgina tarixiy-ilmiy asarlar va tazkiralarda shoir ijodiyotiga xolisona munosabat bildirildi. Lutf Alibek Ozarning "Otashkada", Som Mirzo Safaviyning "Tuhfai Somiy", Rizoqulixon Hidoyatning "Majmua' ul fusaho" ("Go'zal so'z egalarining to'plami"), Faxriy Heraviyning "Latofatnoma", Mirzo Haydar Do'g'latning "Tarixi Rashidiy", Abdulmo'minxonning "Tom ut-tavorix" ("Tarixlar tugali") nomli asarlari shular jumlasidandir.

Navoiyni ilgari surgan g'oyalarning mohiyatini tushunish va uni o'quvchilarga anglatishga urinish asarlari yuzasidan maxsus lug'atlar tuzishga sabab bo'ldi. Navoiy hayotining so'nggi yillari yoki u vafotidan keyin uning asarlari asosida tuzilgan "Badoyi ul-lug'at" bu yo'ldagi dastlabki lug'atdir. Sodiq binni Mustafoning "Abushqa", Aloyi binni Muhibiyning "Al-lug'atin Navoiyat val istishhodat ul-chig'atoiyat" ("Navoiy lug'ati va chig'atoy tili dalillari" 1560) lug'atlari tuzildi. Sodiq binni Mustafoning "Abushqa" Mirzo Madhiyxonning ("Mabon ul-lug'at") ("Lug'at poydevori" XUIII asr), Mirza Muhammad Mahdixonning "Sangloh"(1760), xorazmlik olim va adib Muhammad Xokisor "Muntahab ul-lug'at" ("Tanlangan lug'atlar" 1798), Fath Ali Kojariyning "Lug'oti atrokiya" ("Turkiylar lug'ati" XIX asr) va boshqa qator lug'atlar yaratilgan.

XIX asrning 70-yillarida Turkistonda bosmaxona paybo bo'lishi bo'lishi bilan Navoiyning "Xamsa", "Chor devon", "Vaqfiya" asarlari bir necha marta nashr etildi.

Keyingi asrlarda yashab ijod etgan o'zbek shoirlari Navoiyni o'zlariga ustod deb bilishdi va uning an'analarini yangicha shaklda davom ettirdilar, rivojlantirdilar. Masalan, taniqli o'zbek shoiri Shermuhammad Munis (1778-1829) bir she'rida shunday yozadi:

So'z ichra Navoiyki jahongir turur,  
Munisga maoniy yo'lida pir turur.

Bunda shoir Navoiy dahosining tengsiz buyukligini e'tirof etish bilan birga o'ziga ma'naviy ustoz ekanligini ham badiiy ifoda etadi.

Navoiyning asarlariga nazira bitish, g'azallariga muxammaslar bog'lash odat tusiga kirgan. Umar Boqiy Navoiyning "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun"

dostonlarining qisqartirilgan variantlarini ishlab chiqdi. Mir Maxdum “Hayrat ul-abror” dan tashqari “Xamsa”ning hamma dostonlari nasriy bayonini “Nasri Xamsai benazir” nomi bilan kitobat qildi. Ko’rinadiki, bu ishlar uzoq jarayonli va keng ko’lamli edi. Ammo Navoiydek tengsiz mutafakkir uchun bu oz edi. Navoiy hayoti, shaxsiyati, ijodiy merosi ilmiy-nazariy jihatdan o’rganilishi zarur masalalardan biri bo’lib qolmoqda edi.

### **Xalq og’zaki ijodidagi rivoyat va afsonalar.**

Navoiy o’z badiiy va ilmiy asarlari bilan hayotligidayoq sharq xalqlari orasida mashhur bo’lgan. U haqida o’zbek, tojik, turkman va boshqa xalqlarning og’zaki ijodida ko’pgina ertak, afsona, hikoya va latifalar yaratilgan. Avvalo u mazkur og’zaki ijod namunalarida ulug’ shoir donishmand va mutafakkir sifatida gavdalanadi. Navoiyning oqil va odil davlat arbobi sifatidagi faoliyati ham xalq og’zaki ijodida o’ziga xos talqinini topadi. Ko’pgina latifa, hikoya va rivoyatlarda Navoiy oqil va insonparvar, davlat va el-yurt manfaatlar uchun kurashuvchi ideal qahramon sifatida tasvir etiladi. Xalq og’zaki ijodidagi “Navoiy va yigit”, “Navoiy va qirq vazir”, “Navoiy va Guli”, “Navoiy va Husayn Boyqaro”, “Ona suti” va boshqa rivoyat va hikoyatlarda xalqning Navoiyga bo’lgan samimiy munosabati o’z ifodasini topgan. Folklorshunos M.Murodov Navoiyga bag’ishlangan og’zaki ijod namunalarini to’plab, nashr ettirgan<sup>1</sup>.

**Shoir hayoti va faoliyatining g’arb va rus sharqshunoslari tomonidan o’rganilishi.** Navoiy ayrim asarlarining boshqa tillarga tarjima qilinishi shu asosda yangidan-yangi asarlarning yaratilishiga sabab bo’ldi. Shoirning “Majolis un-nafois” asari XUI asrdayoq bir necha bor fors-tojik tiliga tarjima qilindi. Turk shoiri Lomiy (1531 yilda vafot etgan) Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonini ixcham tarzda ba’zi o’zgartirishlar bilan turk tiliga tarjima qildi. Xristofor Armaniyning 1557 yilda Vengeriyada italyan tilida nashr etilgan “Sarandib shohi uch yosh o’g’lonining ziyorati” asarining ikkinchi qismida Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostonidan bahrom va Dilorom sarguzashti hikoya qilinadi. Gruzin shoiri Sitsishvili “Baramguriani” (“Bahrom Go’r” XUII asr) dostonida Navoiyning

---

<sup>1</sup> Каранг: Алломалар ибрати. – Т.: Ёш гвардия, 1982; Эл деса Навоийни. – Т.: Чўлпон, 1991

“Sab’ai sayyor” dostonidan bahramand bo’ladi. Navoiyning “Tarixi muluki Ajam” asari Fanoiy tomonidan turk tiliga tarjima qilinib, “Tarixi Fanoiy”(1782) nomi bilan Venada bosilgan. Shoirning “Muhokamat ul-lug’atayn” asari esa XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida turk va tatar tillariga tarjima qilingan.

Navoiyning asarlari bilan g’arbliklar XUI asrdayoq tanisha boshlagan bo’lsalar-da, shoir hayoti va ijodiyotini ilmiy asosda o’rganish XIX asrdan boshlangan. Fransuz sharqshunosi Katrmer 1841 yilda nashr etilgan xrestomatiyasiga Navoiyning “Muhokamat ul-lag’atayn”, “Tarixi muluki Ajam” asarlarini kiritadi. Rus olimi I.N.Beryozin “Turk xrestomatiyasi” kitobida Navoiy asarlaridan parchalar beradi. Sharqshunoslikda birinchi bo’lib Navoiy hayoti va faoliyatini o’rgangan olim M.Nikitinskiydir. U 1856 yilda Navoiy bo’yicha magistrlik dissertatsiyasini yoqlaydi. Navoiy hayoti va faoliyatini to’laroq aks ettiruvchi asar yaratadi. Olim Alisher Navoiyning siyosiy, madaniy faoliyatiga, o’zbek adabiy tili taraqqiyotidagi ishlariga yuqori baho beradi. Uni iste’dodli shoir va olim ekanligini ta’kidlaydi. Ammo badiiy asarlari mohiyatini, sharq adabiyotidagi an’anaviylikni chuqur anglab yetmagani sababli “Navoiy tarjimon shoir” degan yuzaki xulosaga keladi. 1861 yilda Istambuldagi “Asiatique journal”(“Osiyo jurnali”)da Fransiya elchixonasining tarjimoni M.Belinning Navoiy hayoti va faoliyatiga doir maqolasi bosilib chiqadi. Mazkur maqolada ham Navoiyning davlat va madaniy sohadagi ishlariga yuqori baho berilgani holda muallif asossiz ravishda Navoiy fors-tojik adabiyotining tarjimoni degan xulosaga keladi. Fransuz sharqshunosi Buva, ingliz sharqshunosi E.Braun, rus sharqshunosi akademik V.V.Bartoldlar ham masalaga ana shu tarzda bir tomonlama yondoshadilar.

Ovropa sharqshunoslari Alisher Navoiy asarlarini o’rganish maqsadidalug’atlar tuzadilar, mavjud lug’atlarning ayrimlarini nashr ettiradilar. Jumladan, rus sharqshunosi V.Velyaminov-Zernov XUI asrda tuzilgan “Al-lug’atun- Navoiyat v-al-istishhodat ul-chig’atoiyat” nomli lug’atini 1868-yilda Sankt-Peterburgda nashr ettirdi. Fransuz sharqshunosi Pave de Kurteyl Navoiy asarlaridan foydalanib, lug’at tuzadi. Rus sharqshunosi N.I.Ilminskiy Navoiyning

“Muhokamat ul-lug’atayn” asarini o’rganib, shoirni o’z ona tili taraqqiyoti uchun qilgan xizmatlarini yuqori baholaydi.

Ko’rinadiki, Ovroqpa sharqshunoslari Navoiy hayoti va ijodi yuzasidan material to’plash, ularni tartibga solish, umumlashtirish, shoirning til sohasidagi faoliyatini yoritish bo’yicha ancha ishlarni amalga oshirdilar. Ammo ularning tadqiqot ishlari bibliografiya va tilshunoslik masalalari bilangina cheklanib qoldi. Navoiy faoliyatini uning badiiy ijodi bog’liq holda o’rganmadilar. Uning siyosiy, ilmiy faoliyatini e’tirof etdilaru, badiiy ijodini chuqur yorita olmadilar.

**O’zbek navoiyshunoslarining ilmiy tadqiqotlari.** Navoiy hayoti va ijodiy merosini ilmiy asosda o’rganish o’zbek adabiyotshunosligida XX asrning 20-yillaridan boshlandi. Bu boradagi dastlabki izlanishlar taniqli o’zbek ijodkori professor Abdurauf Fitratga qalamiga mansubdir. Uning “Navoiyning forsiy shoirlig’i ham uning forsiy devoni to’g’risida”, “Farhod va Shirin” dostoni to’g’risida”<sup>1</sup> nomli maqolalari buboradagi jiddiy ilmiy tadqiqotlardandir.

1938 yilda Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligini 1941yilda nishonlash haqida qaror qabul qilindi. Yubileyga tayyorgalik ishlari natijasida bir qator maqola, risola va monografiyalar yaratildi. Navoiyning bir qator asarlari, “Xamsa”ning qisqartirilgan varianti, “Chor devon”, “Muhokamat ul-lug’atayn”, “Mahbub ul-qulub” nashr etildi. Navoiy asarlari bir qancha tillarga tarjima qilindi. Maqsud Shayxzoda «Genial shoir» nomli asarini yozdi. Adabiyotshunos V.Abdullayev Navoiyning Samarqanddagi faoliyati xususida nomzodlikdissertatsiyasini yoqladi. Ikkinchi jahon urushining boshlangani sababli yubiley kechiktiriladi. Mazkur tantana 1948-yilning may oyida katta tantanalar bilan nishonlanadi. Shu yili “Ulug’ o’zbek shoiri” (Oybek tahriri ostida) nomli maqolalar to’plami o’zbek va rus tillarida e’lon qilinadi. Ye.E.Bertels, O.Sharafiddinov, S. Ayniy singari olimlarning ilmiy risolalari chop etiladi. Ularda ulug’ shoir ijodining muayyan qirralari munosib baholanadi. Taniqli o’zbek shoiri G’afur G’ulom «*Navoiy va zamonamiz*» (1948) nomli maqolasida «*o’zbekning*

---

<sup>1</sup> Бу ҳақда қаранг: Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 2-жилд. – Т.: Маънавият, 2000

*ulug' shoiri*», «*inson farzandi*»ning jahon madaniyati rivojiga qo'shgan hissasi, ijodiy tafakkurining diapozoni, fidoiyligi munosib baholaydi.

Navoiyshunoslik fani Alisher Navoiy ilmiy biografiyasini yaratishda katta yutuqlarni qo'lga kiritdi. Ye.E.Bertels, O.Sharafuddinov, Sadridin Ayniy, Oybek, V. Zohidov, V. Abdullayev, I. Sultonov<sup>1</sup> va boshqalarning Navoiy hayot yo'lini yoritishga bag'ishlangan ilmiy ishlari shular jumlasidandir.

Mazkur tadqiqotlarda shoir zamondoshlari yozib qoldirgan adabiy, tarixiy, memuar asarlar, shuningdek, Navoiyning o'z asarlari asosiy manba vazifasini bajardi.

XX asrning 40-yillarida navoiyshunoslikda erishilgan yutuqlar o'z samarasini bera boshladi. Shoir ijodiy merosini o'rganish turli millatlar sharqshunoslarining ham diqqatini o'ziga jalb qila boshladi. Navoiyshunoslik ilmi fan sifatida shakllana boshladi va uning oldida shoir asarlarini to'plash, navoiy merosining mukammal bibliografiyasini tuzish, asarlarining nodir nusxalarini aniqlash, dolzarb muammolar yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borish vazifalari turardi.

Alisher navoiy tavalludining 525 yilligini nishonlash tantanalari munosabati bilan XX asrning 60-yillarida navoiyshunoslikda anchagina yutuqlarga erishildi. Adabiyotshunos P.Shamsiyev tomonidan tayyorlangan “Xamsa”ning mukammal nashri (1960), H.Sulaymon tomonidan “Xazoyin ul-maoniy”ning akademik nashri (1959-1960) amalga oshirildi. Shoir aarlarining o'n besh tomligi nashr etildi.

Bu davrda adabiyotshunoslar T.Jalolovning “Xamsa” talqinlari” (1962), A.Hayitmetovning “Navoiyning ijodiy metodi masalalari” (1963), “Sharq adabiyotining ijodiy metodi tarixidan” (1970), Yo.Ishoqovning “Alisher Navoiyning ilk merosi” (1965), N.Mallayevning “genial shoir va mutafakkir” (1968) nomli tadqiqotlari, Shayxzodaning “Ustodning san'atxonasida” (1965-

---

<sup>1</sup> Берте лъс Е. Э. Опыт творческий биография. М., Изд-во «Наука», 1948, Sharafiddinov. Alifer Navoiy. Takkent. 1948, С. Айний. Алишер Навоий. – Сталинобод, 1948, Ойбек. Навоийнинг таржимаи холи // Навоий гулшани. –Т.: Бадий адабиёт, 1967, Зокидов В. Улуг шоир ижодининг қалби. –Т.: Ўзбекистон, 1970, Абдуллаев В. Навоий Самарқандда.-Т.: Бадий адабиёт, 1968, Султонов И. Навоийнинг қалб дафтари. – Т.:Бадий адабиёт, 1969.

1966), Oybekning “Navoiy gulshani” (1967) nomli maqolalar to’plami va boshqa qator kitoblar yuzaga keldi.

XX asrning 70-yillarida navoiyshunoslik ilmi uchun muhim ahamiyatga ega bo’lgan bir qator ishlar amalga oshirildi. Akademik A.Qayumov Navoiy “Xamsa”si tarqibiga kiradigan dostonlarni talqin qiladi. A.Hayitmetovning “Tabarruk izlar izidan”, “Navoiy dahosi”, “Meros va ixlos” kabi tadqiqotlar, A.Abdug’afurovning “Navoiy ijodida satira” (1972), S.Erkinovning “Navoiyning “Farhod va Shirin”i va uning qiyosiy tahlili” (1971), N.Mallayevning “Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti” (1974), A.Rustamovning “Navoiyning badiiy mahorati” (1979) nomli monografik tadqiqotlari bunga misol bo’la oladi.

Xullas, XX asrning 60-80 yillarida navoiyshunoslik yanada ravnoq topdi. Ammo davr adabiyotshunosligiga xos bo’lgan davr va mafkura bilan bog’liq kamchiliklar, birtomonlama qarashlar navoiyshunoslikka ham o’z ta’sirini ko’rsatmasdan qolmadi. Xususan, bu Navoiy asarlari nashrida, she’r va dostonlarining g’oyaviy-badiiy tahlilida kuzatiladi. Shoirning dinga, tasavvufga, ilohiyotga munosabati o’sha zamon talablaridan kelib chiqib birtomonlama yoritildi yoki e’tibordan chetda qolib keldi. Bugungi kunda biz navoiyshunosligimizda uchraydigan bunday ziddiyatli va bir yoqlama talqinlarni holisona o’rganishimiz zarur.

Istiqlol arafasida Navoiy hayoti va ijodiy merosini yangicha qarashlar asosida o’rganishga kirishildi. Endilikda shoir asarlari Qur’oni Karim, Hadisi sharif va tasavvuf ta’limoti bilan bog’liklikda o’rganila boshlandi. I.Haqqulovning “Zanjirband sher qoshida”(1989), “She’riyat ruhiy munosabat”(1989), “Tasavvuf va she’riyat”(1991), S.Hasanovning “Navoiyning yetti tuhfasini” (1991) nomli kitoblari bu yo’ldagi dastlabki kuzatishlar natijasidir.

Shoirning 20 jilddan iborat “Mukammal asarlar to’plami” (1987-2003) nashr etildi. Bu esa shoir asarlari yuzasidan keng ko’lamli tadqiqotlar olib borishga yo’l ochdi. Istiqlol yillarida A.Hayitmetovning “Navoiyxonlik suhbatlari” (1993), “Temuriylar davri o’zbek adabiyoti” (1996), “Adabiy merosimiz ufqlari” (1997,) H.Karomatovning “Qur’on va o’zbek adabiyoti”(1993), S.Olimning “Ishq,oshiq va

ma'shuq", R.Vohidovning "Alisher Navoiy va ilohiyot" (1994), S.G'aniyeva "Navoiy nasri malohati" (2003), H.Boltaboyevning "Mumtoz so'z qadri" (2003), N.Komilovning "Xizr chashmasi" (2005), I.Haqqulovning "Navoiyga qaytish", "Taqdir va tafakkur" (2007), F.Nabiyevning "Priroda i poetika Alishera Navoi" nomli kitoblari yuzaga keldiki, bu tadqiqotlarda Navoiy ijodining kam o'rganilgan jihatlari yangicha qarashlar asosida tadqiq etilgan.

Akademik A.Qayumovning ko'p jildlik "Asarlar"ining nashr etila boshlashi mamlakatimiz ilm-fani va ma'naviyati sohasidagi muhim voqea bo'ldi. Bugungi kungacha e'lon qilingan mazkur nashrning 1-2-3-4 jildlari Navoiy ijodiy faoliyatiga bag'ishlangan. Unda Navoiyning hayot va ijod yo'li, "Xamsa" dostonlari, "Lison ut-tayr" dostoni, devonlari xususida fikr-mulohazalar ilgari surilgan. Shuningdek, shoirning "Nasoyim ul-muhabbat", "Vaqfiya", "Siroj ul-muslimin", "Tarixi anbiyo va hukamo", "Tarixi muluki Ajam" singari nisbatan kam o'rganilgan asarlari bugungi kun tafakkuri nuqtai nazaridan tahlil etiladi. Navoiy ijodining tasavvufning naqshbandiya ta'limoti bilan bog'liq jihatlari, shoir hayoti va adabiy faoliyatida alohida o'rin tutgan mashhur siymolar haqida ham qimmatli ma'lumotlar keltirilgan<sup>1</sup>.

Keyingi yillarda Navoiy ijodiy merosi va asarlari tadqiqiga bag'ishlangan ko'plab nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari himoya qilindi. 2000-yildan boshlab, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti olimlari tashabbusi bilan "Navoiyga armug'on" to'plami (2000-2006) nashr etilib kelinmoqda. Bu to'plamdan respublikamizning taniqli adabiyotshunos va tilshunos olimlarining Navoiyga bag'ishlangan eng so'nggi ilmiy kuzatishlari samarasi bo'lgan maqolalar o'rin olgan.

Umuman, Navoiy ijodi bo'yicha amalga oshirilgan ishlar salmoq va hajm jihatdan nihoyatda keng va rang-barangdir. Asrlar osha yashab kelayotgan ulug'

---

<sup>1</sup> Бу ҳақда қаранг: Қаюмов А. Асарлар. Ж.1. 1-китоб. – Т.: MUMTOZ SO'Z. 2008; Қаюмов А. Асарлар. Ж.1. 2-китоб. – Т.: MUMTOZ SO'Z. 2008; Қаюмов А. Асарлар. Ж.2. – Т.: MUMTOZ SO'Z. 2008; Қаюмов А. Асарлар. Ж.3. – Т.: MUMTOZ SO'Z. 2009; Қаюмов А. Асарлар. Ж.4. – Т.: MUMTOZ SO'Z. 2009.

ijodkor badiiy-ilmiy merosi keyingi ming yilliklarda ham tadqiqotchilar, adabiyot va san'at ixlosmandlarining diqqat markazida bo'lishi shubhasizdir.

### **Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Navoiy hayoti va ijodini o'rganishdagi muhim manbalarni ayting.
2. Navoiy o'zbek adabiy tili va adabiyotining asoschisi deganda nimani tushunasiz?
3. Navoiyning bolalik va o'smirlik yillari haqida ma'lumot bering.
4. Shoirning Samarqanddagi hayoti qanday kechgan?
5. Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari qanday bo'lgan?
6. Shoir davlat va jamoat arbobi sifatida qilgan ishlari nimalarda ko'rinadi?
7. Umrining oxirida yaratilgan asarlari haqida so'zlang.
8. Navoiyning xalqimiz madaniyati, tarixi, ilm-fani va adabiyotiga qo'shgan hissasi nimalarda ko'rinadi?

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. - T.: Fan, 1986 - 2003
2. Xondamir G'iyosiddin. Makorim ul-axloq. - T.: Badiiy adabiyot /Forschadan M.Faxriddinov, P.Shamsiyev tarjima-si. 1967.-135 b.
3. Dono Alisher. Alisher Navoiy haqida xalq afsonalari. - T.: Yosh gvardiya, 1968.
4. Vosifiy. Badoye' ul-vaqoye'. / Tarjimon N.Norqulov. - T.: Adabiyot va san'at, 1979. - 213 b.
5. Jomiy. Bahoriston / Forsiydan Sh.Shomuhamedov tarjimasi. - T.: Yozuvchi, 1997.
6. Oybek. Navoiy gulshani. Navoiy haqida maqolalar. T.: 1967.
7. Abdullayev V. Navoiy Samarqandda. - T.: O'zadabiynashr, 1968.
8. Izzat Sulton. Navoiyning qalb daftari. - T.: Badiiy adabiyot, 1969.
9. Zohidov V. Ulug' shoir ijodining qalbi. - T.: O'zbekiston, 1970.
10. Mallayev N.M. O'zbek adabiyoti tarixi. Birinchi kitob. - T.: O'qituvchi, 1976.
11. O'zbek adabiyoti tarixi. Besh jildlik. J.2. - T.: Fan, 1977.
12. Haqqulov I. Tasavvuf va she'riyat. - T.: Adabiyot va san'at, 1991
13. Hayitmetov A. Navoiyxonlik suhbatlari. - T.: O'qituvchi, 1993.
15. Hayitmetov A. Ilk navoiyshunoslar // Navoiyga armug'on. K.2. - T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi, 2000.
16. Navoiyga armug'on. Ilmiy to'plam. H.Homidov tahriri ostida. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2000-2001-2002-2003-2004-2005-2006
17. Komilov N. Tafakkur tuhfalari // Navoiyning ijod olami. Maqolalar



to'plami. - T.: Fan, 2001.

18. Boltaboyev H. Mumtoz so'z qadri. Adabiy-ilmiiy maqolalar. – T.: Adolat, 2004.

19. Homidiy H. Har jabhada sarkor // Navoiyga armug'on. K.5. – T.: 2006.

20. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. -T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi, 2006.

21. Haqqulov I. Navoiyga qaytish – T.: Fan, 2007.

## **NAVOIY LIRIKASI. “XAZOYIN UL-MAONIY” KULLIYOTI.**

### **UNING TUZILISHI, JANR XUSUSIYATLARI**

**Alisher Navoiyning lirik merosi.** O'zbek she'riyati tarixida Navoiy lirik merosining o'ziga xos o'rni bor. Shoirning lirik merosi ungacha bo'lgan o'zbek she'riyatining davomi bo'lishi bilan birga fors-tojik she'riyatining an'alarini ham o'zida mujassamlashtirgan.

Navoiy lirikasi janrlar xilma-xilligi va badiiy mukammalligi, poetik mazmunning keng va chuqurligi, badiiy imkoniyatlarning rang-barangligi bilan turkiy she'riyatning eng yorqin namunalaridandir. Zero, Navoiy lirik she'rlari shoir hayotligidayoq keng shuhrat qozonishi bejiz emas edi.

Alisher Navoiy bolalik yillaridanoq she'rlar yoza boshlagan va umrining oxirigacha lirika sohasida ijod qilgan. U 10-11 yoshlarida Mavlono Lutfiydek so'z san'atkorining nazariga tushib, uning yuksak tahsiniga sazovor bo'lgan. 12-13 yoshlarida esa o'zining dastlabki g'azalini yozgan. Bungacha ham u she'riy baytlar bitib, mahoratini takomillashtirib borgani manbalarda qayd qilib o'tilgan. Alisher Navoiy 23-24 yoshlarida shoir sifatida tanilib, uning she'rlari Movarounnahr va Xurosonda shuhrat qozonadi. Bu shoirga g'oyatda katta mas'uliyatni yuklab, u tinimsiz o'z ustida ijodiy ishlab, she'riy salohiyatini takomillashtirib boradi. Ijodiy izlanishlar o'z samarasini bera boshlaydi.

Navoiyning sakkizta devoni mavjud bo'lib, uning yettitasi shoirning o'zi tomonidan tuzilgan rasmiy devonlardir. Bu devonlar devon tuzish an'anasining yuksak namunalaridir. Dastlabki devoni shoirning muhlislari tomonidan tuzilgan (1465-1466). Devonga maxsus nom berilmaganligi sababli keyinchalik bu borada tadqiqotlar olib borgan adabiyotshunos Hamid Sulaymon uni shartli ravishda “Ilk

devon” deb nomlaydi. Hamid Sulaymon 1968 yilda devonning faksimal nusxasini birinchi marta nashrga tayyorlagan va chop ettirgan.

391ta gʻazal, 41ta ruboiy, 1ta muhammas va 1ta mustazod jami 434 ta sheʼrdan tashkil topgan bu devon Alisher Navoiyning ilk ijodiga mansub turkiy sheʼrlarining asosiy qismini (yaʼni devon tuzuvchiga maʼlum boʻlgan qismini) qamrab olgan boʻlib, ulugʻ adib ijodiy yoʻlining dastlabki bosqichini oʻrganishda asosiy manba hisoblanadi.

«Badoyeʼ ul-bidoya» (“Badiiylik ibtidosi”) (1470-1476) Alisher Navoiyning oʻzi tomonidan tuzilgan birinchi rasmiy devoni boʻlib, shoir uni Husayn Boyqaroning taklifi bilan tuzadi. «Badoyeʼ ul-bidoya» XU asr adabiy muhitida katta hodisa boʻldi. Devonda debocha ham mavjud boʻlib, unda shoir devonining tartib berilish sabablari va, oʻziga xos xususiyatlari haqida maʼlumot beradi.

Bu devon bir qancha xususiyatlariga koʻra shoirning oʻzigacha yaratilgan va zamondoshlari devonlaridan farq qilar edi. Navoiy ushbu devonda dastlab gʻazallarni, keyin esa boshqa janrdagi sheʼrlarni radif yoki qofiyadagi oxirgi xarfiga qarab qatʼiy izchillikda joylashtiradi. Shuningdek, shoir sheʼrlarning mavzui, gʻoyaviy yoʻnalishiga ham ahamiyat beradi. Shoir har bir harfda kelgan gʻazallarning dastlabkilari Alloh hamdi va Muhammad alayhis-salom naʼtiga bagʻishlanishi, shundan soʻnggina boshqa mavzulardagi sheʼrlar joylashtirilishiga urgʻu beradi.

“Badoyeʼ ul-bidoya” dan jami oʻn bir janrga doir 842 ta sheʼr oʻrin olgan. Shundan gʻazal 585 ta, mustazod 3 ta, muxammas 5 ta, musaddas 2 ta, tarjeʼband 3 ta, qitʼa 46 ta, ruboiy 85 ta, lugʻz 10 ta, muammo 52 ta, tuyuq 10 ta, fard 53 ta. Unga “Ilk devon” dagi ayrim sheʼrlar ham kirilgan. Keyinchalik bular “Xazoyin ul-maoniy” tarkibidan oʻrin olgan.

Umuman, «Badoyeʼ ul-bidoya»dagi sheʼrlar oʻz hajmi, janrlarining boyligi, mavzu yoʻnalishiining chuqur va xilma-xilligi, badiiyatining betakrorligi bilan shoir ijodining yuksak kamolot bosqichiga koʻtarilganligidan dalolat beradi

Alisher Navoiyning oʻzi tomonidan tuzilgan ikkinchi devon «Navodir un-nihoya» (“Behad nodirliklar”) (1476-1483) deb ataladi. Devonning Abdujamil

kotib va Sulton Ali Mashhadiy tomonidan ko'chirilgan nusxasi bizgacha yetib kelgan.

“Navodir un-nihoya” da 862 ta she'r mavjud bo'lib, bular “Badoye' ul-bidoya” tartib berilgandan keyin yozilgan. Keyinchalik bu she'rlar ham “Xazoyin ul-maoniy” devoniga kiritilgan.

**“Xazoyin ul- maoniy”ning adabiyotimiz tarixida tutgan o'rni.** Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy» (“Ma'nolar xazinasini”) devoni uning turkiy tildagi 3132 she'rini o'z ichiga olgan. Navoiyshunoslar tomonidan keltirilishicha, 1492-1498 yillar orasida tuzilgan. Adabiyotshunos A.Abduq'afurov ushbu majmuaning tuzilish sanasi haqida debochada ham, to'rt devondan o'rin olgan she'rlarda ham biror dalil yo'qligini aytadi. Olimning fikricha, tadqiqotchilar, affidan “Xamsat ul-mutahayyirin”, “Munshaot” kabi asarlardagi ma'lumotlarga, shuningdek, debochadagi sharh-izohlarga tayanib, devonni bu davrda tuzilgan deb ko'rsatadilar<sup>1</sup> Ushbu devon “Chor devon” deb ham yuritilib, unda shoirning 16 lirik janrga mansub bo'lgan turkiy she'rlari jamlangan.

«Xazoyin ul-maoniy» devon tuzishning yuksak va mukammal namunasi bo'lib, u mundarijasi, tarkibiy tuzilishi, nomlanishi jihatidan ham o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Alisher Navoiy devondagi she'rlarni davrlashtirishda va ularni tasnif etishda do'sti va ustozi Abdurahmon Jomiy maslahatiga binoan ish ko'radi. Devonning har birini inson umrining muayyan davriga mos keladigan nom bilan ataydi.

Birinchi devonni «G'aroyib us-sig'ar» (“Yoshlik ajoyibotlari”) deb nomlab, bunga tufliyat (yoshlik)- 8-20 yoshgacha bo'lgan she'rlarini kiritadi.

20-35 yoshlar umrining shabob (yigitlik) ayyomi bo'lib, bu davr devonini shoir «Navodir ush-shabob» (“Yigitlik nodirliklari”) deb ataydi.

«Badoye' ul-vasat» (“O'rta yosh go'zalliklari”) devoniga 35-45 yoshlarda yozilgan she'rlar jamlangan.

45-60 yoshlar keksalik davri hisoblanib, shoir bu davrdagi she'rlarini «Favoid ul-kibar» (“Keksalik foydalari”) devoniga kiritilgan.

---

<sup>1</sup> Абдуғафуров А. Қалб қаъридаги қадриятлар. – Т.: Ўқитувчи, 1998. – Б. 60

«Xazoyin ul-maoniy» debocha, 2600 ta g'azal (har bir devonda 650 tadan), 133 ta ruboiy, 10 ta muxammas, 4 ta mustazod, 5 ta musaddas, 4 ta tarje'band, 210 ta qit'a, 10 ta lug'z, 52 ta muammo, 13 ta tuyuq, 86 ta fard, 1 ta masnaviy, shuningdek, qasida, musamman, tarkiband, soqiynoma singari lirik janrlardan tarkib topgan. Devon debochasi har jihatdan puxta ilmiy risola bo'lib, Navoiy lirik ijodiyotining eng muhim jihatlarini to'g'ri mushohada qilishga imkon yaratadi.

Navoiy devonga yozgan debochada har bir devonni o'z umrining ayni bosqichlaridan birining mahsuli deb ta'kidlaydi. Shundan kelib chiqqan holda devonlarga maxsus nomlar qo'yadi, ma'no va mazmun jihatidan bir-biridan farqlaydi, qat'iy xronologik chegaralarini belgilaydi. Biroq tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, «Xazoyin ul-maoniy» devonlari xronologiyasi nisbiy xarakterga ega bo'lib, shoir umrining turli davrlariga oid she'rlar devonlarda aralash holda berilgan o'rinlar ham uchraydi.

Ko'rinadiki, «Xazoyin ul-maoniy»da she'rlarning devonlarga taqsimlanishi va ularning nomlanishi shartli bo'lib, ramziy xarakterdadir.

Alisher Navoiyning o'zbek tilidagi lirik she'rlari, asosan, «Xazoyin ul-maoniy»da mujassam bo'lgan. Ammo devonga 1498 yilgacha bo'lgan she'rlar kirgan. Demak, Navoiy hayotining so'nggi ikki yili davomida yaratgan lirik she'rlari bu majmuaga kirmay qolgan. 1498 yildan keyin yaratilgan va turli sabablarga ko'ra «Xazoyin ul-maoniy»ga kirmay qolgan she'rlar adabiyotshunos H.Sulaymon tomonidan nashr ettirilgan<sup>1</sup>. Keyinchalik bu she'rlar yangi topilganlari bilan to'ldirilib, F.Sulaymonova «Ayyomi visol o'ldi yana» (Toshkent, 1996) nomi bilan to'plam holida e'lon qilgan.

**Navoiyning forsiy merosi.** Navoiy forsiy tilda ham mahorat bilan ijod qilgan bo'lib, bu tilda yozilgan she'rlariga Foniylar taxallusini qo'llagan. Shoir umrining oxirlarida forsiy she'rlarini to'plab alohida devon tuzadi. O'n ikki mingdan ortiq misrani o'z ichiga olgan bu noyob manba «Devoni Foniylar» («Foniylar devoni») deb nomlangan.

---

<sup>1</sup> Қаранг: Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. Т.4.- Т.: Фан, 1960, 773-794 бетлар.

“Devoni Foniy”ning 7 ta qo’lyozma nusxalari mavjud bo’lib, shundan ikkitasi Parij, ikkitasi Turkiya, ikkitasi Hirot va bittasi Tehron kutubxonalarida saqlanadi. Adabiyotlarda Parij nusxalari birlamchi mukammal ekanligi qayd qilinadi. Devonda jami 1109 ta she’r jamlangan bo’lib, ular lirik turning qasida, g’azal, musaddas, marsiya, qit’a, ruboiy, ta’rix, muammo, lug’z singari janrlariga mansubdir.

“Devoni Foniy”ga Alisher Navoiyning fors-tojik shoirlaridan: Hofiz Sheroziy, Sa’diy Sheroziy, Amir Xisrav Dehlaviy, Kamol Xo’jandiy, Shayxim Suhayliy, Abdurahmon Jomiyga tatabbu’ qilingan g’azallari alohida o’rin tutadi. Shuningdek, devonga Navoiyning “Tuhfat ul-afkor” qasidasi, Jomiy vafotiga bag’ishlangan marsiyasi ham kiritilgan.

Devondagi g’azallar an’anaga ko’ra, alfavit tartibida joy-lashtirilgan. «Devoni Foniy»dagi 554 g’azalning 237 tasi Xofiz Sheroziyga, 52 tasi Abdurahmon Jomiyga, 33 tasi Amir Xisrav Dehlaviyga, 25 tasi Sa’diy Sheroziyga, 5 tasi Mavlono Kotibiya, 5 tasi Mavlono Shohiyga, 4 tasi Kamol Xo’jandiyga va boshqa shoirlarga nazira qilib yozilgan<sup>1</sup>.

**Navoiy lirikasining o’ziga xos xususiyatlari.** Navoiy she’riyatini o’zbek lirikasining eng go’zal namunalari bo’lib, unda turkiy va forsiy she’riyat an’analari mujassamlashgan. Betakror iste’dod egasi o’zining nafis va yuksak san’atkorlik bilan yozilgan she’rlari bilan turkiy adabiyotni olamga mashhur qildi. U o’zigacha bo’lgan turkiy she’riyatni mahorat bilan takomillashtirdi. Shoir lirik merosining o’ziga xos qirralari quyidagilarda yaqqol namoyon bo’ladi:

**Birinchidan,** Alisher Navoiyning turkiy she’riyatga qo’shgan hissasi janrlar sonining kengaygani va mavjud janrlarning yanada takomillashganida kuzatiladi. Shoirgacha bo’lgan turkiy she’riyatda g’azal, qit’a, masnaviy, ruboiy singari janrlardagina ijod qilingan. Shoir esa lirik turning 16 janrida mahorat bilan ijod qilgan va bu janrlarning go’zal namunalari yaratgan.

**Ikkinchidan,** shoirning o’zbek she’riyatini rivojiga qo’shgan hissasi o’zbek she’riyatining mavzu doirasini kengaytirganida ko’rinadi. Shoirgacha bo’lgan

---

<sup>1</sup> Хамид Сулаймон. Навоийнинг “Фоний” девонии // Шарк юлдузи, 1965, №9, 157 б.

davrda ishqiy mavzu g'azalchilikning yetakchi mavzusi bo'lgan. Navoiy esa ishqiy mavzu bilan bir qatorda ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-ta'limiy, axloqiy-didaktik, peyzaj tasviri kabilarni o'zbek she'riyatiga olib kiradi va bu mavzularda betakror she'rlar yaratadi.

**Uchinidan,** Navoiyning turkiy she'riyat taraqqiyotidagi xizmati g'azal kompozitsiyasi takomilida kuzatiladi. Shoigacha bo'lgan davrdagi turkiy she'riyatda parokanda g'azallar ko'p yaratilgan. Navoiy g'azallarni parokanda (g'azalning ko'p mavzuli bo'lishi) shaklda yaratilishidan qanoatlanmaydi. U g'azalning matla'sida ko'tarilgan masala maqta'gacha izchil yoritilishi, baytlar bir-birini to'ldirib, biri-ikkinchisiga bog'lanib borishi lozim deb hisoblagan. Navoiy kompozitsion jihatdan yakpora, musalsal, voqeaband g'azallar yaratib, o'zbek g'azalchiligini yuksak taraqqiyot darajasiga ko'targan.

**To'rtinchidan,** shoir lirikasi obrazlar olamining rang-barangligi bilan ham e'tiborga molikdir. U kundalik turmushning turfa xil lavhalaridan, tabiat hodisalarigacha, mifologik tasavvurlar, tushunchalardan tortib, samoviy jismlargacha obrazli ifodalar yaratishda murojaat qiladi. Shoir san'atkorligi bilan yaratilgan bunday obrazlar lirik qahramon ruhiy olami, kechinmalarini yoritishda keng qo'llanilgan.

**Beshinchidan,** Shoir g'azallarining lirik qahramoni uning o'zidir. She'rlarida lirik qahramonning turfa xil kechinmalari, o'y-xayollari, orzu-niyatlari shoirona tasvirlanadi. Shoir she'riyatida qo'llaniladigan ma'shuqa, shoh, darvesh, shayx, zohid, orif, rind, soqiy, raqib singari qator timsollar yetakchi g'oyani teran badiiy shaklda ifodalashga xizmat qiladi.

**Oltinchidan,** Navoiy she'riyati she'r tuzilishi jihatidan ham alohida o'rin tutadi. Shoir vazn, qofiya, radif va boshqalarda yuksak mahoratini namoyon eta olgan. U hazaj, rajaz, ramal, munsarih, muzori', mujtass, sari', hafif, mutaqorib, mutadorik va boshqa vaznlarda she'rlar yaratib, o'zbek she'riyati vaznlar turini kengaytirgan. Shoir odatdagi qofiya bilan bir qatorda zulqofiyatayn, ichki qofiya, tarse' singari qofiyalarni ham qo'llaydi. Radifning rang-barang ko'rinishlari orqali she'r ohangdorligini kuchaytirishga erishadi.

**Navoiy lirikasining asosiy janrlari.** Alisher Navoiyning o'zbek mumtoz she'riyati tarixidagi muhim xizmatlaridan biri shundaki, u o'ziga qadar bo'lgan lirik janrlarda ijod qilib, ularni rivojlantiribgina qolmadi, ayni zamonda, ungacha ijod etgan o'zbek shoirlari ijodida deyarli qo'llanmagan yoki juda oz ishlatilgan lirik janrlarda ham samarali ijod qildi, ularning imkoniyat doirasini yanada keng namoyish qildi.

Navoiydan oldingi o'zbek she'riyatida, asosan, g'azal, masnaviy, qasida, tuyuq, qit'a va qisman ruboiy kabi janrlar qo'llanilgan. Navoiy esa lirikaning o'n oltita janrida unumli ijod qilib, «Xazoyin ul-maoniy» devonida ularning yuksak namunalarini berdi. Uning devonlarida g'azal asosiy o'rin tutsa ham, yuzlab qit'a va ruboiylar qatorida xilma-xil mavzularda yozilgan mustazod va muxammas, musaddas va tarjiband, soqiynoma va masnaviy, muammo va chiston, tuyuq va fardlar ham bor. Binobarin, Navoiy lirikasi, eng avvalo, janrlarining xilma-xil va mukammalligi bilan o'zbek she'riyati tarixida alohida o'rin tutadi.

Navoiyning xizmati faqat o'zbek she'riyatiga ko'plab lirik janrlarni keng joriy qilishidagina emas. U ana shu janrlardan muhim fikr va g'oyalarning badiiy in'ikosi uchun foydalandi; o'zining hayotiy masalalarga munosabati, falsafiy-ijtimoiy, diniy-tasavvufiy va axloqiy qarashlarini ifodalash uchun har bir janrning mavjud imkoniyatlarini ishga soldi, ularning imkoniyat doirasini yanada kengaytirdi.

**G'azal** – arabcha do'stlashmoq degan ma'noni bildiradi. G'azalning asosiy mavzusi ishq-muhabbat bo'lib, “xotunlar bila suhbat qurmoqni sevmak”, “ma'shuq jamoli zikri”<sup>1</sup> dan iboratdir. G'azalning birinchi bayti matla' oxirgi bayti maqta' deb ataladi, juft misralari qofiyalanadi (a-a, b-a, v-a, g-a va h.k.), uch baytdan o'n to'qqiz baytgacha yozilishi mumkin, oxirgi baytida taxallus keltiriladi. Dastlab ishqiy mavzuda yozilgan g'azalning keyinchalik mavzu doirasi kengaya borgan. Natijada ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta'limiy, hajviy g'azallar yuzaga kelgan. Navoiy lirikasida yetakchi o'rin tutadigan g'azal g'oyaviy-badiiy jihatdan o'zbek g'azalchiligining yuksak namunasi hisoblanadi. O'zbek adabiyotshunosligida

---

<sup>1</sup> Атоуллох Хусайний. Бадоеъу-с-санойиъ. / Фррсчадан А.Рустамов таржимаси. – Т.: 1981,271 б.

gʻazal janri va uning oʻziga xos xususiyatlari haqida O.Nosirov<sup>1</sup>, Yo.Ishoqov<sup>2</sup> kitoblarida muayyan darajada maʼlumotlar berilgan.

Alisher Navoiy gʻazalnavis sifatidagi faoliyatini milliy gʻazalchilikning boy tajribalari zaminida boshladi. U faqat turkiy tildagi sheʼriyat tajribalarigagina suyanib qolmasdan, balki Sharq adabiyoti va birinchi navbatda, fors sheʼriyatining eng muhim fazilat va yutuqlarini ham qunt bilan oʻrganib, ularni oʻzbek gʻazali taraqqiyotiga xizmat qildirdi. Gʻazalchilikdagi anʼanalarni yangi zaminda rivojlantirib, yuqori bosqichga olib chiqdi, ularning imkoniyat doirasini kengaytirdi.

Alisher Navoiy gʻazalchilikda turkiy adabiyotda yuzaga kelgan milliy anʼanalar bilangina qanoatlanib qolmadi, ayni zamonda, besh asrlik tajribaga ega boʻlgan fors gʻazalchiligining katta yutuqlarini ham qunt bilan oʻrganib, oʻzbek sheʼriyati taraqqiyotiga xizmat qildirdi. Arab va fors-tojik tilini yaxshi bilgan shoir bu adabiyot namunalari qunt bilan oʻrganadi, ulardan olam-olam zavq oladi. Uning kamolotida Amir Xusrav, Xoja Hofiz, Abdurahmon Jomiyning taʼsiri ayniqsa katta boʻlgan. Shuning uchun ham shoir bu ulugʻ siymolarni oʻz ustozlari ekanligi bilan faxrlanadi. Bu jihatdan uning quyidagi qitʼasi niqoyatda xarakterlidir:

Gʻazalda uch kishi tavridur ul navʼ,  
Kim, andin yaxshi yoʻq nazm ehtimoli.

Biri moʻʻjiz bayonligʻ sohiri hind  
Ki, ishq ahlini oʻrtar soʻzu holi.

Biri Iso nafaslik rindi Sheroz,  
Fano dayrida mast-u louboli.

Biri qudsi asarlik orifi Jom  
Ki, jomi Jamdurur singʻan safoli.

Navoiy nazmigʻa boqsang, emastur,  
Bu uchning holidin har bayti xoli.

---

<sup>1</sup> Носиров О. Ўзбек адабиётида ғазал. – Т.: Ўқитувчи, 1972

<sup>2</sup> Исҳоқов Ё. Ғазал. – Т.: Фан, 1978



Bunda shoir sharq adabiyotining uch yetuk namoyandasini ulug'laydi. Shoir Xusrav Dehlaviy, Hofiz Sheroziy va Abdurahmon Jomiyni o'zining g'azalnavislikdagi ustozlari deb hisoblaydi. O'z g'azallarida ana shu so'z san'atkorlari ijodiyotining sezilarli ta'siri borligini e'tirof etadi. Qit'ada Navoiy o'z salafklarining nomini tilga olar ekan, ular ijodidagi o'zining diqqatini jalb etgan va qiziqtirgan eng muhim va xarakterli tomonlarini ham bayon qiladi. Navoiy ana shu uch buyuk dahoning hap biri o'z ijodining qaysi jihatlari bilan ibrat va ustoz bo'lganligiga ishora qilib o'tadi. Shoir Amir Xusrov Dehlaviyni "Sohiri hind" ya'ni hind sehrigari deb atab, uning she'rlari "ishq ahlini o'rtar" deydi. Navoiy nazarida Xusrav Dehlaviy shunchaki shoir emas, balki uning nozik va nafis she'riyati "ishq ahli"ni sehlashga qodir. Bu buyuk hind shoiri ijodiga berilgan yuksak bahodir. Navoiy ustozlari singari o'zi ham so'zning nozik qirralarini teran his qilgan holda she'riyatni yuksak san'at darajasiga ko'tardi. Hofizni "Iso nafaslik rind" deya ta'riflar ekan, nafasi o'liklarni ham tiriltira oladigan rind shoir deb ulug'laydi. Hofiz She'roziy singari majoziy va ilohiy ishqni bir o'zanga birlashtirdi. Jomiyni esa "qudsi asarlik" pok ta'sirli "orifi Jom" deya baholaydi. Abdurahmon Jomiyni xos poklik va ma'naviy yetuklikni o'z ijodida aks ettirdi.

Alisher Navoiy g'azalliyotining mavzu doirasi g'oyatda keng va rang-barangdir. Bu meros ko'lamining kengligi, xilma-xil mavzularni o'zida mujassamlashtirgani bilan alohida ahamiyatga egadir. Shoir she'rlarida hayotning murakkab jihatlari, zamondoshlarning tuyg'u-kechinmalari, orzu-niyatlari, ruhiy-ma'naviy olami nozik tasvir etilgan. Shoir ijodida hamd, na't yo'nalishidagi she'rlar alohida o'rin tutadi, ishq-muhabbat mavzusi g'azallarining tayanch yo'nalishini tashkil etadi. Navoiy g'azallarida ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta'limiy, diniy-irfoniy qarashlari o'ziga xos tarzda ifodalandi va bu shoir she'rlarining mavzular olamini boyitdi.

Navoiy g'azallarining asosiy mavzusi ishq bo'lib, bu mavzu turfa xil ma'nomohiyat kasb etadi. Bunda insonning insonga, Yaratganga, hayotga, tabiatga bo'lgan samimiy sevgisi ifodalanadi. Shoirning ishq masalasidagi qarashlari uning umumiy dunyoqarashi, falsafiy-ijtimoiy konsepsiyasi bilan chambarchas

bog'langan. Navoiy she'riyatida bu tushuncha majoziy va haqiqiy ishq tarzida talqin etiladi. Shoir majoziy ishq ishqi haqiqiyning bir ko'rinishi yoki haqiqiy ishq yo'lidagi o'ziga xos bosqich sifatida ta'riflaydi. Ruhan pok, ma'naviy komil inson uchun majozning o'zi ayni haqiqatdir.

Gar Navoiy yig'lasa, ishqing majoziydur dema,  
Kim nazar pok aylagach, ayni haqiqatdur majoz.  
Majozdin manga maqsud erur haqiqiy ishq,  
Nedinki, ahli haqiqatg'a bu tariqat erur.  
Majozdin chu haqiqatg'a yo'l topar oshiq,  
Qilur majozni naf' ulki behaqiqat erur.

Ushbu qit'ada shoir majoziy ishqni poklik va halollik bilan haqiqiy ishq maqomiga ko'tarilishini aytadi. Majozdan maqsad haqiqiy ishq haqida o'ylash, fikr yuritishdir. Bu yo'lda ahli haqiqatga tariqat madadkoridir. Oshiq majozdan haqiqatga yo'l topadi, agar u majozdan foyda, aanfaat ko'zlasa haqiqatga erisha olmaydi. Ko'rinadiki, shoir ushbu o'rinda majoziy va haqiqiy ishqning bir-biri bilan bog'liqligini tasvirlash bilan birga ishqda poklik, to'g'rilik, halollik muhim ekanligini ham keltirib o'tadi.

Navoiyning ishqiy lirikasida lirik qahramon ya'ni oshiq yuksak fazilatlarga ega bo'lgan olijanob qalb egasi sifatida gavdalanadi. Vafodorlik, ishqda sobitlik oshiq ma'naviy qiyofasining asosiy fazilati hisoblanadi.

Shoir lirikasida oshiq xarakteri, uning murakkab tuyg'u va kechinmalari tasviriga alohida ahamiyat berilgan. Ishq mavzuidagi she'rlarda oshiq ichki dunyosi, uning shirin orzu va achchiq iltiroblari, hatto xayoliy visol og'ushida topgan bir lahzali farog'ati ham xilma-xil o'z ifodasini topgan. Shoirning "Gar jafu qil, gar vafokim, dilistonim sen mening", "Ko'rgali husnungni zoru muhtalo bo'ldim sango", "Bizning shaydo ko'ngul bechora bo'lmish", "Ishq aro kuymak ishim, qayda menu qayda xirad", "Vaslidin novmid ekan chog'da firoqi kuydurur" deb boshlanadigan va boshqa qator g'azallari bunga misol bo'la oladi. Bunday she'rlarda shoir lirik qahramoni ayriliq iltiroblariga chidamli, sabr-qanoatli, sinovlarga bardoshli kishi sifatida gavdalanadi. Shuni ham unutmaslik kerakki, shoirning ishqiy mavzudagi she'rlarining ko'pchiligi zohiriy va botiniy mohiyatga ega bo'lib, ularning zohiriy ma'nosida oshiqning sevgilisiga muhabbati aks

ettirilgan. Botinida esa ishq yo'liga kirgan solikning Allohga bo'lgan cheksiz muhabbati va bu yo'ldagi iztiroblari o'z ifodasini topgan. Bu jihatdan "Bo'ldim sango" g'azali xarakterlidir. G'azalning dastlabki baytlarida oshiqning ma'shuqaga dil izhori, ishq yo'lida chekaytgan iztiroblari tasvirlanadi. Ammo g'azalning oltinchi batiga kelib, ishqdagi dunyoviy belgi yo'qolib, tasavvufiy mazmun namoyon bo'ladi.

Jomi Jam birla Xizr suyi nasibamdir mudom,  
Soqiyo, to tarki joh aylab gado bo'ldum sango.

Baytdagi tushunilishi qiyin bo'lgan so'zlar jomi Jam- Jamshidning qadahi, may idishi, Xizr suyi - tiriklik suvi, joh - mol-mulk, boylik, amal, martaba.

Rivoyatlarga ko'ra, Jamshid shunday jom yaratibdiki, unga quyilgan may hech tugamaydi. Xizr suvi esa mangu barhayotlik ramzidir. Baytning mohiyatiga haqiqiy ishqqa muhtalo bo'lgan kishi mol-dunyodan voz kechib, Alloh jamolidan o'zga narsani o'ylamasligi kerak. Zero, usiz mangu tiriklik ham, xuzur-halovat ham tatimaydi. Jomi Jam, Xizr suyiga ishora qilish orqali talmeh san'ati yaratilgan.

G'azalning maqta'sida so'fiyona fikr yanada ravshanroq namoyon bo'ladi.

G'ussa changidin navoye topmadim ushshoq aro,  
To Navoiydek asiru benavo bo'ldim sango.

Lirik qahramon yorga asir bo'lgandan buyon ishq ahli orasida g'am – andug'dan zarracha nishon topmaydi. Ya'ni haqiqiy yorga erishish orqaligina oshiq qalbidagi iztiroblar chekinishiga ishora qilinmoqda. Baytda tanosub san'atidan mohirona foydalanilgan.

Umuman, shoir ijodi o'zining mavzu doirasining kengligi, chuqur falsafiyliigi, yuksak badiiyati bilan asrlar osha kitobxon ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qilib kelmoqda.

**Navoiyning Sayyid Hasanga she'riy maktubi.** Navoiyning yirik hajmli she'riy asarlaridan biri Sayyid Hasanga yozgan 256 misradan iborat she'riy maktubidir. Maktub masnaviy usulida yozilgan bo'lib, "G'aroyib us-sig'ar" devonidan o'rin olgan. Bu asarida shoir uni yozayotganda Xurosondan tashqarida ekanligiga ochiq ishora qiladi. Navoiyning yigitligi — Xurosondan chiqib ketgan

davri esa Abusaid podshohligi davri bo'lib, bu vaqtda shoir Xurosondan Samarqandga kelgan va shu yerda istiqomat qila boshlagan edi.

She'riy maktubni kompozitsiyasiga qarab, shartli ravishda muqaddima, Sayyid Hasan Ardasherining ta'rifi va tavsifi, mamlakat ahvoli tasviri, muallifning hasbi holi, xotima qismlarga ajratish mumkin. Muqaddima an'anaviy ravishda hamd na't bilan boshlanadi. Shoir shundan so'ng Sayyid Hasan vasfiga kirishadi. Navoiyning yozishicha, Sayyid Hasan Ardasher o'z davrining ilm, adabiyot va tasavvufda eng yetuk kishisi bo'lishi bilan birga qator olijanob insoniy faznlatlarga ham ega shaxsdir. U turli bahonalar bilan o'zini saroydan chetga olishga, mumkin qadar ko'p vaqtini ilm va adabiyotga bag'ishlashga intilar edi. Navoiy va Sayyid Hasan Ardasher o'rtasidagi yuksak insoniy munosabatlar bir umrga davom etgan.

Navoiy tug'ilgan ona-Vatani Xurosondan ketib, yoshlikdagi yor-do'stlaridan uzoqda g'urbat kunlarini kechira boshlar ekan, avvalo, ustoz Sayyid Hasanni eslaydi va o'z alamlarini, o'y-kechinma va maqsadlarini, Xurosondan ketishining asl sabablarini unga xat orqali batafsil ma'lum qilmoqchi bo'ladi.

Shoir ustozining fazl va kamolotini, vafodorligi va saxiyligini yuksak baholab, uning xulqini jannatdan, qadri bog'ini jannat daraxtlaridan ortiq deb tasvirlab, so'ng asosiy maqsadga – nomaning mazmuniga o'tadi. O'z boshiga tushgan og'ir bir judolik, ya'ni Vatandan ayriliq tushganligi haqida gap boshlaydi:

Mangakim, vijodingg'a xursandmen,  
Janobinga shogirdu farzandmen.

G'ame yetti charxi jafu peshadin,  
Hamul anjumi xorij andeshadin.

Ki bo'lmoq vatan ichra dushvor edi,  
Ko'ngulga jalo daf'i ozor edi.

Safar tushti olimg'a beixtiyor,  
Qazo amrida elga ne ixtiyor.

Bunda Navoiy o'z boshiga g'am-tashvish tushgani, Vatandan, ya'ni Xurosondan beixtiyor chiqib ketgani, bu yerda qolish dushvor bo'lib kolgani

haqida gapiradi. Navoiy bu yerdan chiqib ketayotganida esa, Sayyid Hasan ham Hirotdan boshqa joyga ketgan edi.

Navoiy Samarqandga ketganda 24—25 yoshlarda bo'lib, bu vaqtda u katta shoir, bilimdon olim sifatida xalq orasida, ilm va adabiyot ahllari o'rtasida keng tanilgan edi. Shuning uchun uning kutilmaganda Hirotdan ketib qolishi o'z zamondoshlari o'rtasida, Hirotda ham, Mashhadda ham —og'ir taassurot qoldirdi. Navoiyning do'st va dushmanlari uning «safar»ini turlicha talqin qilganlar. Navoiy bilan Abusaid o'rtasidagi munosabatdan xabardor bo'lgan ko'pchilik Abusaid Navoiyni Samarqandga surgun qildi, degan fikrga kelgan. Aslida Navoiy rasmiy ravishda surgun qilinmagan, balki o'z boshiga tushishi muqarrar bo'lgan kulfatlarning oldini olib, ziyraklik bilan o'ziga-o'zi podshoning ko'zidan uzoqda turishga hukm chiqargan edi.

O'z safari haqidagi unchalik to'g'ri bo'lmagan turli fikrlarga aniqlik kiritish uchun Navoiy o'zining eng yaqin kishisiga xat orqali yuragini ochib, Vatanni tark etganligining muhim sabablarini mumkin qadar tushuntiradi.

Ushbu maktubda shoirning so'z va she'riyat haqidagi qarashlari ham muayyan darajada o'z ifodasini topgan. Shoirning yozishicha, dunyoda eng mo''tabar, ulug' narsa bu so'zdir. Inson o'zining so'zlash qobiliyati bilan hayvondan farq qiladi. Navoiyning fikricha, so'z ayniqsa she'riyatda yanada ortiqroq go'zallik, kuch-qudratga, qadr-qimmatga ega bo'ladi:

Javohir necha xo'bu dilkash durur,  
Vale nazm silki aro xush durur.

Navoiy o'zining butun umrini shu so'z san'atini egallashga, uning sirlarini ochishga bag'ishladi. Sharqning Firdavsiy, Nizomiy kabi ulug' shoirlari an'alarini ijodiy davom ettirgan shoir turk tilida she'r yozish imkoniga ega ekanligidan cheksiz fahrlanadi:

Men ul, menki, to turk bedodidur,  
Bu til birla to nazm bunyodidur.

Falak ko'rmadi men kibi nodire,  
Nizomiy kibi nazm aro qodire.

Bunda shoir o'zi va salafлари ijodi haqida so'z yuritar ekan, adabiyotning, badiiy ijodning nozik qirralariga muayyan munosabat bildirib o'tadi. Navoiy turkiy tilda qalam tebratishda nodir ekanini shoirona tasvirlash bilan birga «turk nazmi»da ijod etganidan g'urur va iftixor tuyg'ularini ifoda etadi. Adabiyotning, xususan turkiy she'riyatning qudratini ulug'laydi.

Navoiy masnaviyda Hirotdan ketishdan oldingi o'zi yashayotgan muhit va sharoitning haqqoniy manzarasini beradi.

Yana bir bukim — zohir o'lmish mango,  
Ki chiqmish Xuroson elidin vafo.

Vafo azm aylarda bo'lmish magar,  
Saxou muruvvat anga hamsafar.

Bu uch fe'l chiqqach arodin tamom,  
Yana bo'lmish uch fe'l qoyim maqom.

Demak bu vaqtda Xurosondagi ma'naviy hayot nihoyatda yomonlashib, eldan «vafo, saxo, muruvvat» ketgan, bu uch narsaning o'rnini «nifoq, buxl va hasad» egallagan. Amaldorlar orasida ta'magirlik, ikkiyuzlamachilik, fisqu fasot avj olgan edi. Zulm va zo'rlik mamlakat osoyishtaligini buzib, kishilarni turli tomonlarga bosh olib ketishga majbur qilayotgan edi. Shoir mamlakatdagi bu ahvol o'zini ham vatanidan yiroqda yashashga undagan sabablardan biri sifatida keltirib o'tadi.

Navoiyning yozishicha, xudoning osmonni ham, yerni ham jahondagi hamma narsalarni yaratishdan maqsadi insonni yaratish, insonni yaratishdan maqsadi irfon edi. Dunyodagi bor mavjudot inson uchun yaratilgan ekan, demak inson o'z navbatida, g'aflatga berilmasdan, atrofini qurshagan borliqning va bu borliqni yaratganning sirlarini bilishga, ya'ni irfonga intilishi, yashirin xazinalarni ochishga harakat qilishi keraq Inson esa, uning fikricha, bunga ikki yo'l bilan erishishi mumkin. Biri — o'z hara-kati bilan, ikkinchisi - shu maqsadga erishgan «murshidi komil» ning etagini markam ushlashi bilan. Navoiy bu yo'lda «murshidi komil» bilan ish ko'rishni o'ziga maqbul ko'radi. Tasavvuf ta'sirida shoir o'zining haqiqat va bilim orqasidan astoydil harakat qilganini tasvirlaydi. Noma oxirida o'z

maqsadiga erishish uchun kuchi va imkoni boricha intilajagini aytadi. Bu maqsadiga erishishiga ishonch va umid bildiradi:

Urarmen qadam toki, borg'uncha gom,  
Ki bo'lg'ay muyassar menga ushbu kom.

Agar bo'lsa bu yo'lda umrum talaf,  
Chu bu yo'ldadur ul ham erur sharaf.

Asarning poetikasi g'oyatda go'zal va puxtadir. Navoiyning bu masnaviysi poetik ijodning eng go'zal, noyob namunalaridan biri hisoblanadi. Asar boshidan oxirigacha bir xilda kuchli she'riy ehtiros, yuksak shoirlik mahorati bilan yozilgan. Vazn jihatidan silliq va ravon yozilganini, bir necha o'rinda baytlardagi so'zlarning o'zaro qofiyadosh va ohangdosh bo'lib kelganligini ko'ramiz.

Umuman, bu masnaviy Navoiyning «Xamsa»ga qadar yaratgan, ijodida birinchi marotaba ijtimoiy-siyosiy masalalarga jiddiy qo'l urib, muvaffaqiyat bilan ado etgan muhim va yirik asaridir. Masnaviy o'sha davrdagi noma janri talablaridan ancha yuqori ko'tarilib, g'oyaviy-badiiy mustaqil va yetuk liro-epik asar darajasiga ko'tarilgan edi. Bunda davrning ijtimoiy manzarasi, o'zaro nizolar tufayli xalq boshiga tushgan mushkulotlar, zamonaning yirik mutafakkiri Sayyid Hasan Ardasher obrazi butun ulug'vorligi bilan ko'z o'ngimizda gavdalanadi.

**Navoiy – qasidanavis.** Alisher Navoiy yuksak mahorat bilan yozilgan qasidalar muallifidir. U “Hiloliya”dan tashqari Husayn Boyqaroga turkiy tilda bir nechta qasidalar bag'ishlagan. Uning «Hiloliya» qasidasi o'zbek qasidachiligining yuksak namunalaridandir. Qasida Husayn Boyqaroga bag'ishlangan bo'lib, u taxtga o'tirishi munosabati bilan 1469 yilda yozilgan va shohga taqdim etilgan. Qasida 90 baytdan iborat.

Hilol osmonda paydo bo'lgan yangi oydir. Shoir yangi davlat, yangi hokimiyat boshlanganini shu yangi oyni paydo bo'lishiga nisbat beradi. So'z o'yinlari, badiiy tasvir vositalari orqali o'zining yangi hokimiyatga ta'zimi va sadoqatini izhor etadi.

Qasidaning dastlabki misralarida osmon gumbazida paydo bo'lgan yangi oy (hilol) tasviri beriladi. Hilolning egilgan shaklini shoir yorning qoshiga va o'zining egilgan qomatiga tashbeh etadi.

Chun nihon qildi turunji mehr rahshon tal'atin,  
Oshkor etti falak bir taqvi g'abg'ab hay'atin.

Bas xayoli ravshani erdi vale andoq daqiq,  
Kim nazar goh anglar erdi, gah yo'q aning diqqatin.

O'yla zohir bo'ldikim, qilg'ay ani ko'rgan kishi  
Dilbarim qoshig'a-u mening qadimg'a nisbatin.

Qasidada shoir samoviy jismlarni xuddi inson singari harakatda tasvirlaydi. Shoir oydinli oqshom chiroyini tomosha qilish uchun osmonga ko'tariladi: u yerda go'zallar, farishtalar va Zuhra bilan uchrashadi. Zuhra qalbida muhabbat tuyg'ularini uyg'otish, may ichish havasini paydo qilish uchun changda o'ynaydi, qo'shiqlar aytadi, marosimni xursandchilik bilan o'tkazish uchun Navoiy g'azallariga kuylar yaratadi: shoh taxtini yoritish uchun osmonning uchinchi qabatidan yerga uchib tushadi, sohibqiron uyida sham bo'lib yonadi. Shoir osmonning beshinchi kabatida harbiycha kiyingan va qurollangan pahlavon Mirrixni (Marsni) ko'radi. Mirrix ertalab yoydan o'q otib mashq qilish uchun harb maydoniga ketayotgan sohibqironga yasovul bo'lishni istaydi. Xuddi shu onda butun oomoni lojuvard atlas qoplab oladi va shoh taxtini yopadi. Shoir osmonga, Atorud yoniga ko'tariladi. Atorud shoirga uning qasidasidan xam yuksak qasida yozganini aytadi va o'z asari matlaini o'qib beradi. Navoiy shu onda Atorud matlaiga javob qaytaradi. Sayyora Navoiyga juda qoyil koladi. Mushoirada g'olib chiqqan Navoiy osmondan pastga tushadi, yori dam olayotgan xonaga kiradi. Uning yori ham marosimga kelgan edi. Navoiy o'z yoriga Atorudning matlai, unga yozgan javobini o'qib beradi. Biroq Navoiy she'rlarini eshitgan yor yuzida mayin tabassum paydo bo'ladi. U shu onda Navoiy matlaiga yusak javob yozadi. Bunga qoyil qolgan Navoiy uning matlai, o'zi va Atorudning misralarini Sulton Husayn Boyqaro hukmiga olib keladi. Shoh har uchalasining ham matlalarini



ma'qullaydi. Shoir bo'lgani uchun o'zi ham ularga javob yozadi. Navoiyning bu misralari matla' shaklida yozilgan va *aa* tarzida qofiyalangandir.

She'rning madh qismida shoir Husayn Boyqaroga katta umid bilan qaraydi. Sulton Husayn ehtiros bilan madh etiladi. Qasidada shoir o'zi orzu qilgan shoh timsolini Husayn Boyqaro obrazi orqali tasvirlashga harakat qiladi. Shoir nazarida u surati shoh, siyrati darvesh maqomida bo'lganligi uchun ham yuksak ehtiromga loyiqdir.

Shohlar shohi demay, ul shohlarning shohikim,  
Har bir yuz shohlar shohicha tutqay muknatin.

Shohlar darveshiyu, darveshlar shohiki, haq  
Shoh qildi suvratin, darvesh qildi siyratin

Qasida shakl jihatidan ham Navoiyga qadar yozilgan qasidalardan farq qiladi. Bu, birinchi navbatda, qofiyalashda ko'zga tashlanadi. Qasidada Navoiy, uning yori, Atorud va Sulton Husayn Boyqarolarning obrazi mavjud.

Unda «nasib» va «gurizgoh» kichik bir qismni tashkil qilmaydi. Navoiy qasidada o'z yorini mavhum holda tasvirlamaydi. Unda yor ta'rifi oddiy vasfdan iborat emas. Yor qasidada shoiradir. Uning oldida qalam, siyohdon. U Navoiy she'rlarini eshitadi, yuzlarida tabassum paydo bo'ladi. Shuningdek, qasidada Hirot raqqosalari esga olinadi. Ular yig'inlarda, marosimlarda, bayramlarda, to'y-tomoshalarda o'zlarining go'zal raqslari bilan odamlarni xursand qiladilar.

Qasida shohga ezgu niyatlar bildirish, uni kelajagigi umidvorlik bilan yakunlanadi:

Har kuning bayram bo'lub, joming hilol o'lsun mudom,  
Ko'rmagil beaysh umrung muddati bir soatin...

Yangi oyu iyd ikki qullug'ching o'lsun, aylagan  
Sen hilol aning otin, bayram bu yerning kunyatin.

Ko'rinadiki, qasida ko'tarinki kayfiyat, ezgu niyatlarni o'zida mujassamlashtirgan. Mazkur qasida Navoiyning yuksak san'atkorlik namunasi bo'lgan asarlaridan biri sifatida adabiyotimiz tarixida muhim o'rin tutadi.

Navoiyning fors tilida yaratgan bir nechta qasidalari ham mashhurdir. Bu haqda shoir «Muhokamat ul-lugʻatayn» asarida maʼlumotlar berib oʻtadi<sup>1</sup>.

Navoiyning “Tuhfat ul-afkor qasidasi «Sittai zaruriya» (“Olti zaruriyat”) nomli qasidalar toʻplamiga kiradi. Bu toʻplamda oltita qasida bor. Bular “Ruh ul-quds” (“Muqaddas ruh”), “Ayn ul-hayot” (“Hayot chashmasi”), “Tuhfat ul-afkor” (“Fikrlar tuhfasini”), “Qut ul-qulub” (“Qalblar ozuqasi”), “Minhoj un-najot” (“Qutulish yoʻli”), “Nasim ul-huld” (“Jannat shabbodasi”) qasidalaridir. Bu qasidalarda Navoiy hayot va jamiyatga oʻzi mansub boʻlgan naqshbandiylik taʼlimoti asosida yondoshgan va baho bergan. Bunga koʻra ezgulik va insonni ulugʻlash asosiy oʻrin tutgan.

Xullas Navoiy qasidalari yuksak sanʼatkorlik va badiiy mahorat bilan yozilgan. Ularda shoirning falsafiy, diniy-ilohiy va axloqiy-taʼlimiy qarashlari betakror lavhalarda aks ettirilgan.

#### **Navoiy lirikasida kichik janrlar.**

**Ruboiy** - Sharq sheʼriyatining eng qadimiy va keng tarqalgan janrlaridan biri boʻlib, bu janrning yuzaga kelishi xalq ogʻzaki ijodi bilan bevosita bogʻliqdir.

Bu shakl oʻz nomlanishini arablardan olgan boʻlsa ham (ruboiy - arabcha toʻrtlik demakdir), fors-tojik va oʻzbek adabiyotida uning yuzaga kelishi milliy adabiy anʼanalar bilan mustahkam bogʻlangan. Fors-tojik yozma adabiyotida ruboiyning dastlabki namunalari Rudakiy va Shahidi Balxiylar qalamiga mansub boʻlsa, oʻzbek yozma adabiyotida haqiqiy ruboiyning bir necha namunasi Lutfiy devonida uchraydi.

Alisher Navoiy ruboiynavislikda ikki asosga - oʻzbek xalq ogʻzaki ijodiyoti va turkiy tildagi yozma adabiyot tajribalari hamda fors-tojik ruboiynavislarining boy tajribalariga suyandi, oʻzbek tilida klassik ruboiylarning rang-barang namunalari yaratdi.

Maʼlumki, Alisher Navoiyning «Gʻaroyib us-sigʻar» devoniga 133 ta ruboiy kiritilgan. Shu devonning nasr bilan yozilgan debochasi tarkibida ham 30 ta ruboiy mavjud. Shuningdek, uning boshqa ilmiy, badiiy asarlari tarkibida ham koʻplab

---

<sup>1</sup> Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. Т.16. – Т.: Фан, 2000.

o'zbekcha ruboiylar (shoirning o'ziniki) mavjud. Bunga shoirning «Devoni Foni»dagi va boshqa asarlari tarkibida uchraydigan yuzga yaqin forsiy ruboiylari va «Nazm ul-javohir» (270 ta) ruboiylarini ham ilova qilsak, Alisher Navoiyning mazkur janr taraqqiyotidagi o'rni yorqin namoyon bo'ladi.

Demak, Navoiy ruboiylari o'zbek adabiyoti tarixida hajm jihatdan ko'pligi bilan ham xarakterlanadi. Navoiy o'zbek tilida ko'plab ruboiylar yaratish bilan bu janrni yuqori bosqichga olib chiqdi, uni o'zbek she'ritining asosiy janrlaridan biri darajasiga ko'tardi.

Navoiyga qadar yaratilgan o'zbekcha ruboiylar, asosan, ishq mavzuida edi. Navoiy ruboiylari mavzusinnng xilma-xilligi, mundarijasining chuqurligi, chuqur g'oyaviyligi bilan o'quvchi diqqatini o'ziga tortadi. Ularda hamd, na't, falsafiy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta'limiy mavzular tasvirlanadi. Ishq-muhabbat, adolat, vatanparvarlik, imon-e'tiqod, vafo, sadoqat, to'g'rilik, haqiqat, kelajakka umidvorlik g'oyalari yuksak badiiyat bilan aks ettiriladi. Masalan:

So'zdurki nishon berur o'lukka jondin,  
So'zdurki berur jonga xabar jonondin.  
Insonni so'z ayladi judo hayvondin  
Bilkim, guhari sharifroq yo'q ondin.

Ushbu ruboiy misralarining to'rtalasi ham qofiyalangan bo'lib, qofiyalanish tartibiga ko'ra taronai ruboiydir. Unda shoir so'zni qadr-qimmatini yuksak sanab, uni "guhari sharif" deb ataydi. Inson tirikligining nishoni so'z ekanligini ta'kidlagan shoir uni hayvondan farqlaydigan asosiy vosita bu so'zlash qobiliyatiga ega ekanligida deb biladi. Shoir falsafiy umumlashmalarida tiriklikning qadriga yetish, so'zga mas'uliyat g'oyalari mujassamlashgan.

Navoiy ruboiylarining katta qismi umuman uning ijodida asosiy o'rin tutgan masala – ijtimoiy-siyosiy masalalarga bag'ishlangan. Navoiy odil podshoh xaqidagi mulohazalarini ham bu janr imkoniyatlaridan foydalanib badiiy ifoda etgan. U jamiyatdagi yaramas va chirkin illatlarga, adolatsizlik va insofsizlikka, zulm va jaholatga nisbatan cheksiz nafratini ruboiylarida ixcham bayon qiladi. Shoir dunyoning o'tkinchiligi, hayot qiyinchilik va mashaqqatlarga to'la ekanligini ruboiylarida ixcham shaklda bayon etiladi:

Kim ko'rdi ekin jahonda ayo xushluq,  
To bir kishi aylagay tamanno xushluq.  
Yuz yilda agar bir o'lsa paydo xushluq,  
Omodadurur yonida yuz noxushluq.

Mazkur ruboiyda shoir yaxshilikning yo'qligi, har bir kishi uni orzu qilgani holda shodlik va xursandchilik yuz yilda bir kelsa ham uning yonida yuz noxushliklar borligini aks ettiradi. Shoir yaxshilik va yomonlik yonma-yon yuradi, degan hayotiy tajribaga amal qilib, kishilarni ogohlikka chaqiradi. Shuningdek, zamondoshlarini mashaqqatlar oldida esankiramas-likka, sabru qanoatga undaydi.

Navoiyning ishqiy mavzudagi ruboiylarida ishq va u bilan bog'liq kechinmalar shoirona talqin etiladi. Shoir oshiqning ishq yo'lida chekkan iztiroblarini, kechinmalarini, qayg'u-hasratini, uning ma'shuqaga bo'lgan cheksiz hurmati va extiromini ruboiylarida mahorat bilan yoritadi.

Ko'z birla qoshing yaxshi, qabog'ing yaxshi,  
Yuz birla so'zing yaxshi, dudog'ing yaxshi.  
Eng birla menging yaxshi, saqog'ing yaxshi,  
Bir-bir ne deyin boshdin ayog'ing yaxshi.

Ruboiy vasf xarakterida bo'lib, shoir ma'shuqani tasvirlaydi. Bunda shoir yorning butun a'zolarini sanab chiqadi. Yorning qoshi, qabog'i, so'zi, dudog'i, yonog'i, holi go'zallikda tengsizligini keltiradi. Ruboiyning oxirida buni "Bir-bir ne deyin boshdin ayog'ing yaxshi" deya umumlashtiradi. She'r qofiyalanish tartibiga ko'ra taronai ruboiy (qofiyalanishi a-a-a-a) bo'lib, undagi qofiyadosh so'zlarqabog'ing, dudog'ing, saqog'ing, ayog'ingdir. Mazkur so'zlar vositasida she'ring ta'sirchanligi, ohangdorligi kuchaytirilgan.

Shoirning ba'zi ruboiylarida visoldan umidini uzgan oshiqning hijron azoblari tasvirlanadi. Bunda shoir falak gardishi bilan visoldan mosuvo bo'lgan Oshiqning qotili hijron deb biladi. Ayriliq azoblari tufayli o'lim holatiga yetgan oshiq yor ta'nalari haddan oshib ketganini aytadi. Bunda shoir ayriliq azoblarini boshdan kechirayotgan Oshiqning tushkun kayfiyati, ruhiy tug'yonlarini mubolog'ali tarzda aks ettiradi.

To charx visoli ko'yidin surdi meni,  
Qatl aylagali hajrg'a topshurdi meni.  
Gar hajr o'lum holig'a yetkurdi meni,  
Yor etgani ta'na, lek o'lturdi meni.

Navoiy ruboiylari, eng avvalo, badiiy asarlardir. Ularda muhim fikr, yuksak g'oyalar rang-barang poetik vositalar, tasviriy ifodalar orqali bayon qilingan. Boshqa she'riy janrlarda bo'lganidek ruboiylarda ham ijodkorning o'ziga xos uslubi, poetik mahorati ko'zga tashlanadi. Jumladan, Navoiy ruboiylarida to'rtala misraning ham qofiyalanishi, radif qo'llanilishi, butun bir ruboiyda tarse ishlatish, tamsil yaratish singari yangiliklar kuzatiladiki, bu shoirning yuksak mahorat egasi ekanligidan dalolat beradi.

Alisher Navoiy o'zbek adabiyotida eng ko'p ruboiy yaratib, bu she'r ko'rinishini birinchi darajali (g'azal, masnaviy kabi) janrlar qatoriga olib chikdi, uning mavzu doirasini kengaytirdi, falsafiy salmog'ini oshirdi, ruboiyga hayotiy masalalarni kiritib, turmushga yanada yaqinlashtirdi.

**Qit'a** (arabcha-qism, bo'lak, parcha) mavzu doirasi va vazn imkoniyatlari chegaralanmagan, juft misralari o'zaro qofiyalangan janrdir. Qit'a matla'siz g'azalga o'xshab qofiyalanadi, hajman ikki va undan ortiq baytlardan tarkib topadi. Ular qasida, g'azal singari janrlardan biror parchani ajratib olish orqali yoki mustaqil holda yaratilishi mumkin. Qit'a Navoiy lirikasida katta o'rin tutgan janrlardan biridir. O'zbek she'riyatida bu janrning ham badiiy jihatdan, ham mundarija nuqtai nazaridan rivoj topishi va keng qo'llanishi bevosita Navoiy ijodiyoti bilan bog'liqdir.

Fors-tojik adabiyotida keng o'rin olgan qit'a Navoiygacha bo'lgan o'zbek adabiyotida juda oz qo'llanilgan bo'lib, uning ba'zi bir namunalarini «Bang va Chog'ir munozarasi» (2 ta o'zbekcha), «Muhabbatnoma» (1 ta) tarkibida hamda Lutfiy devonida uchratamiz. Ularning bir qismi ishqiy mavzuda yozilgan. Falsafiy-axloqiy va ijtimoiy mazmunga ega bo'lgan qit'alarni g'oyaviy-badiiy sifatlari bilan shu janrning taraqqiyoti tarixida yangi va yuqori bosqich deb hisoblash mumkin.

Navoiy o'zbek adabiyoti tarixida kam qo'llanilgan bu janrning yuzlab klassik namunalarini yaratdi. Binobarin, «Xazoyin ul-maoniy»dagi qit'alar soni (debochalardagi kirmaydi) 210 ta bo'lib, «Chihil hadis» (40 ta) va boshqa asarlar tarkibidagi qit'alarni ham nazarda tutsak, ularning soni uch yuzdan ortib ketadi.

Navoiy qit'alarining asosiy fazilatlaridan biri mavzu doirasining keng va rang-barangligi, g'oyaviy-fikriy jihatning chuqur va izchilligidir.

Navoiy qit'alari ulug' shoirning muayyan vaziyatdagi kayfiyatini, chuqur falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, diniy-ilohiy, axloqiy-ta'limiy qarashlarini badiiy ifoda etadi. Har bir qit'adan oldin nasriy sarlovhalar berilganki, bu qit'alar mazmunining mukammalligini ta'minlagan. Mazkur sarlovhalar shoir aytmoqchi bo'lgan fikrni kitobxonga tushunarli tarzda yetkazib berishga yordam beradi. Nasriy sarlovhalarning ayrimlari shoir tomonidan hikmatli so'z darajasiga ko'tarilgan, ba'zilari shoir tarjimai holi bilan bevosita bog'liq, ayrimlari esa payg'ambarimiz hadislari bilan bog'liq g'oyalarni she'riy tarzda ifodalashga qaratilgan. Masalan, "Kamol kasbiga dalolatu nuqsonidin izhori malolat", "Rostliq sifatiyu rostravlar karomati", "O'ziga bu mulkdin yetgan balolar toshi ozori, bosh olibo'zga mulkka borurning izhori", "Majozdin maqsadi haqiqat ekaniizhor qilmoq va suratdin g'araz ma'ni ekonin iqror qilmoq" va boshqa nasriy sarlovhalar bunga misol bo'la oladi.

Orzu qildim vafo ahlin ko'ray deb - topmadim:

Xoh zohid, xoh fosiq, xoh soyil, xoh shoh

Shoir "vafo ahli"ni butun umr izlaydi. Biroq kishilar qanday toifa egasi bo'lishiga qaramasdan, ularda vafo yo'qligini aytadi. Kishilar zohid bo'ladimi, fosiq (yomon yo'llapga yuruvchi) mi, xoh gado, xoh shoh bo'lsin hech birida vafo yo'qligini keltiradi. Ushbu o'rinda zohid, fosiq, soyil, shoh so'zlarini keltirish orqali tanosib san'ati yaratilgan.

Navoiy qit'alari g'oyaviy-badiiy jihatdan yetuk bo'lib, ularda shoirning kundalik hayotdan olgan muhim taassurotlari, turmushning turli masalalari borasidagi fikr-mulohazalari, falsafiy mushohadalari o'ziga xos shaklda haqqoniy ifodalangan.

Chun g'araz so'zdin erur ma'ni anga,

Noqil o'lsa xoh xotun, xoh er.

So'zchi holin boqma, boq so'z holini,

Ko'rma kim der ani, ko'rgilkim ne der.

Qit'a badiiyatini kuzatar ekanmiz. Bu shoirning mahoratini anglashimizga yordam beradi. She'rdagi noqil va so'zchi bir ma'noda (noqil-umumiy ma'nodagi so'zlovchi, so'zchi- ayni paytda gapirayotgan kishi) kelgan.

Keyingi misralarda o'zakdosh yoki aynan takrorlanayotgan so'zlar zidlikni ifodalashga xizmat qilgan. Hol so'zi o'zaro omonimlik munosabatida: so'zchi holi birikmasida hol so'zi ko'rinish, shakl ma'nosida, so'z holi birikmasida esa so'zning ma'nosi o'rnida qo'llanilgan. Boqmaslik kerak bo'lgan so'zchi, boqish kerak bo'lgan narsa esa so'z ekan, so'z va so'zchi o'zakdosh leksemalarining kontekstual zidligi oydinlashadi. Boq-boqma, ko'rma-ko'r, kim-ne ham o'zaro tazodiy juftliklardir. Qit'adagi so'zchi-so'z, holin-holini, boqma-boq, ko'rma-ko'r, kim(olmosh) – kim (bog'lovchi), der-der so'zlari takroridan takrir va ishtiyoq san'atlari yaratilgan. Shoirning mahorati shundaki, shakliyo'xshashlikdan ta'kid uchun foydalangan, qarama-qarshi tushuncha va holatlar yonma-yon qo'yilishi ma'noviy bo'rttirishga xizmat qilgan. Bu tasvir va ifodalar orqali so'zlovchi xoh xotin, xoh er bo'lsa ham so'zdan maqsad undagi ma'nodir. So'zlovchining holiga boqma, so'zning holiga boq, uni kim aytayotganiga qarama, nima deyayotganiga qara, degan mazmun ifodalangan.

**Tuyuq** turkiy xalqlar adabiyoti uchun xos bo'lgan she'riy shakl bo'lib, Navoiygacha bo'lgan o'zbek adabiyotida uning go'zal namunalari yaratilgan.

Alisher Navoiy «Mezon ul-avzon»da bu haqda shunday yozadi: «Yana turk ulusi, bataxis chiratoy xalqi aro shoye' avzondurkim, alar surudlarin ul vazn bilan yasab, majolisda ayturlar. Birisi tuyug'durkim, ikki baytqa muqarrardur va sa'y qilurlarkim, tajnis aytilg'ay va ul vazn ramali musaddasi maqsurdur, mundoqqim:

Yorab, ul shahdu shakar yo labmudur,  
Yo magar shahdu shakar yolabmudur.  
Foilotun foilotun foilon,  
Jonima payvasta novak otqali,  
G'amza o'qin qoshig'a yolabmudur».

Navoiy tuyuq va uning xususiyatlari bilan ham jiddiy shug'ullangan hamda bu janr uchun xos bo'lgan yetakchi belgilar, uning tarqalish doirasi ni ham ko'rsatib berishga muvaffaq bo'lgan. Navoiy fikrlaridan shu anglashiladiki, tuyuq turkiy

xalqlar orasida keng tarqalib, to'ylarda, bazmlarda, yig'inlarda qo'shiq qilib aytiladigan vaznlarda yaratilar ekan, Tuyuq ikki bayt, ya'ni to'rt misradan iborat bo'ladi. Tuyuq tajnisli qofiyaga asoslangan va albatta ramali musaddasi maqsur vaznida bitiladi. Yuqorida Navoiy keltirgan tuyuq "yolabmudur" tajnisi asosiga qurilgan. Unda shoir ma'shuqa go'zalligini ta'riflaydi. Bu so'z birinchi misrada labmikan, ikkinchi misrada yalaganmikan, to'rtinchi misrada yoylabdimikan ma'nolarida qo'llanilgan. Shoir yorning lablari ta'rifini keltirar ekan, uni labmikan, shakarmikan, asalmikan yoki yorim shakar, asal yalaganmikan, deya hayratlanadi. Keyingi misralarda ma'shuqaning qoshi tasvirlanadi. Bunda bu qoshmikan yoki u mening jonimga o'q otish uchun g'amza o'qlarini qoshlariga tizib yoylabmikan, deydi. Bunda shoir tajohilu orif vositasida oshiqning yorga munosabati mahorat bilan ifodalangan.

Alisher Navoiy adabiyotimiz tarixida tuyuqning birinchi na-zariyotchisigina bo'lib qolmay, bu janrda ham o'z iste'dodini sinab ko'rgan va o'z devonidan bu janrdagi she'rlarga alohida o'rin ajratgan san'atkordir. Ammo Navoiy devoniga faqat o'n uchta tuyuq kiritilgan bo'lib, qit'a va ruboiylarga nisbatan olganda, ozdir. Biroq shoir tuyuqlari turkiy she'riyatning eng yuksak namunalari ekanligi bilan ahamiyatlidir. Navoiy tuyuqlari mahoratining yangi qirralarigina emas, ayni zamonda, har bir badiiy detaldan muhim fikrlarni bayon etish vositasi sifatida foydalanishga harakat qiluvchi san'atkorligi ko'zga yaqqol tashlanadi. Shoir qofiya uchun tajnisning turli ko'rinishlarini istifoda etar ekan, shu vositalarni quruq so'z o'yini uchun emas, balki o'zining chuqur kechinmalarini ifoda etish maqsadiga bo'ysundiradi.

Yog'di javrung o'qi hajring toshidek,  
Qildi qon ko'nglum ichin ham toshidek.  
Sochqali mohim ayog'ig'a sipehr,  
Ko'z yoshimning la'lu durrin toshidek.

Ushbu tuyuqda oshiqning ayriliq tufayli chekkan iztiroblari haqida so'z yuritiladi. Ma'shuqaning jabr o'qlari shu qadar kuchli yog'ildiki, u ayriliq toshi singari qattiqdir va bu ko'nglimning ichi ham, tashqarisini ham birdek qon qildi. Sevgilimning oyog'iga sochilayotgan ko'z yoshim xuddi marvarid, dur



toshidekdir. She’rdagi “toshidek” so’zi birinchi misrada tosh ma’nosida, ikkinchi misrada-tashqari, oxirgi misrada-dur toshi ma’nosida qo’llanilgan. Mazkur tajnis vositasida shoir oshiqning ishqda sobitligi, sabru qanoati, iztiroblarining cheksizligini shoirona tasvirlagan.

**Fard** arabcha yolg’iz degan ma’noni bildiradi, atama sifatida bir bayt ya’ni ikki misra she’rga nisbatan qo’llaniladi. Fardning ko’pligi mufradot deyilib, ular odatda turli munosabat bilan yuzaga keladi. Fard arab, fors-tojik va turkiy adabiyotda keng tarqalgan she’riy shakl bo’lib, u fikrni ixcham, lo’nda bayon qiladi, masnaviyga o’xshab qofiyalanadi. Navoiyning fardlari muayyan hayotiy vaziyatlar asosida yaratilgan xulosalar sifatida alohida e’tiborga molikdir. Uning “Faboyid ul-kibar” devonidan 86 ta fard o’rin olgan. Shoir fardlarida rang-barang masalalar qalamga olinib, ularda ruhiy-ma’naviy yetuklik, axloqiy poklik, ezgu xulq sodda va ixcham shaklda tasvirlanadi.

**Masalan:**

Yuqar yomonlig’ angakim, kirar yomon el aro,  
Ko’mur aro ilik urg’an qilur ilkini qaro.

Ushbu fard mohiyatiga “Yomonga yaqin yursang yarasi yuqar, qozonga yaqin yursang qorasi” maqolining mazmuni singdirilgan. Shoir yomon kishilar bilan hamroh bo’lsang uning yomonligi yuqishi ko’mirga qo’l urib uni qora qilish bilan qiyoslamoda. Zero, yomonlik kishini badnom qilishi, uni uyatga qo’yishi mumkinligiga urg’u berilmoqda. Shoir kishilarni yomon illatlardan forig’ bo’lishga chaqirish bilan birga do’st tanlashda adashmaslikka, el aro yuzi qora bo’lib qolishdan ehtiyot bo’lishga chaqirmoqda.

Muruvvat barcha bermakdur, yemak yo’q,  
Futuvvat barcha qilmoqdir, demak yo’q.

Shoir ushbu fardida tasavvuf ta’limotining oqimlaridan biri bo’lgan javonmardlik sulukining qoidalarini mahorat bilan ifodalagan. Javonmardlik namoyandalari muruvvat va futuvvat ahlidir. Navoiy o’z asarlarida ularni axiy deb ham yuritadi. Demak, muruvvatli odam o’zi yemay, borini birovga beradi, jo’mard, mard ya’ni futuvvatli odam esa ko’p ish qiladi, birovlariga yaxshilik qiladi, lekin uni minnat qilmaydi.

Istasangkim, ko'rmagaysen bevafo'lig', ey rafiq,  
Qilma olam ahli birla oshnolig', ey rafiq.

Shoir lirik qahramoni nazarida bu dunyoda bevafo'lar kun-kundan ko'payib bormoqda. Lirik qahramon olam ahlidan bevafo'liklarni ko'p ko'rgan, shuning uchun eng to'g'ri yo'l kishilardan uzoqroq bo'lishdir. Shoir bu fikrni nido san'ati vositasida rafiqqa murojaat qilish orqali ifodalab, ta'sirchan lirik lavha yaratgan.

Shoir fardlarida uning ko'nglini o'rtagan, tuyg'ulariga ta'sir etgan holatlar nozik ifodalanadi.

Ul pariykim, ani demishmen yor,  
Odamilig'din o'zga barchasi bor.

Ba'zan shoir ma'shuqa go'zalligini tasvirlar ekan, xalqona tasvir usullariga murojaat qiladi.

Belu og'zidin, dedilarkim, afsonaye,  
Boshladim filholkim, "Bir bor edi, bir yo'q edi".

Shoir yori go'zallikda shu darajaki, uni ta'rifi bu hayotda yo'q, faqat afsonalardagina uchrashi mumkin, Shuning uchun ham shoir xalqona tasvir usuliga murojaat qiladiki, bu uning go'zallikda tengsizligini ta'sirchan tasvirlashga xizmat qilgan.

Umuman, shoirning rang-barang janrdagi she'rlari uning yuksak mahorat egasi ekanligi, mazkur janrlar takomilidagi xizmatlari beqiyosligini ko'rsatadi.

### **Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Navoiy lirikasining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Shoirning ilk devoni haqida ma'lumot berang.
3. Navoiyning o'zi tomonidan tuzilgan devonlari haida so'zlang.
4. "Xazoyin ul-maoniy" ning tarkibiy tuzilishi haqida so'z yuriting.
5. Navoiy lirik turning qaysi janrlarida ijod qilgan?
6. Ulug' mutafakkirning qasidavislik mahorati nimalarda ko'rinadi?
7. Navoiyning forsiy tildagi devonining yetakchi xususiyatlari nimada?
8. Navoiyning g'azalchilik taraqqiyotidagi o'rni haqida nimalarni bilasiz?

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. T.3. G'aroyib ussig'ar. - T.: Fan, 1988; T.4. Navodir ush-shabob. - T.: Fan, 1989; T.5. Badoye' ul-vasat. - T.: Fan, 1990; T.6. Faboyid ul-kibar. - T.: Fan, 1990.
2. Mallayev N.M. O'zbek adabiyoti tarixi. K.1. - T.: O'qituvchi, 1976.

3. O'zbek adabiyoti tarixi. Besh jildlik. J. 2. – T.: Fan, 1977.
4. Shayxzoda M. Asarlar. 6 jildlik. J. 4. – T.: Adabiyot va san'at, 1973.
5. Ishoqov Yo. Navoiy poetikasi. – T.: Fan, 1983.
6. Haqqulov I. Tasavvuf va she'riyat. – T.: Adabiyot va san'at, 1991.
7. Hayitmetov A. Navoiyxonlik suhbatlari. - T.: O'qituvchi, 1993.
8. Vohidov R. Alisher Navoiy va ilohiyot. – Buxoro: 1994.
9. Komilov N. Tasavvuf. K.1. – T.: Yozuvchi, 1996.
10. Hayitmetov A. Adabiy merosimiz ufqlari. – T.: O'qituvchi, 1997.
11. Abdug'afurov A. Qalb qa'ridagi qadriyatlar. – T.: O'qituvchi, 1998.
12. Hayitmetov A. Ilk Navoiyshunoslar // Navoiyga armug'on. K.2. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi, 2000. – B. 7-15
13. Navoiyga armug'on. Ilmiy to'plam. H.Homidov tahriri ostida. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2000-2001-2002-2003-2004-2005-2006
14. Komilov N. Tafakkur tuhfalari // Navoiyning ijod olami. Maqolalar to'plami. - T.: Fan, 2001. – B. 16 -27
15. Boltaboyev H. Mumtoz so'z qadri. Adabiy-ilmiy maqolalar. – T.: Adolat, 2004.
16. Homidiy H. Har jabhada sarkor // Navoiyga armug'on. K.5. – T.: 2006. – B. 50-54
17. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. -T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi, 2006.
18. Haqqulov I. Navoiyga Qaytish. – T.: Fan, 2007.
19. Qayumov A. Asarlar. J.2. – T.: MUMTOZ SO'Z, 2008; J.4. 2009

## **SHOIR LIRIK ASARLARIDA AXLOQ-ODOB, IJTIMOIIY-FALSAFIY MUAMMOLAR IFODASI**

**Navoiy lirikasining mavzu va g'oyaviy yo'nalishi.** Navoiy lirikasi mavzu yo'nalishining rang-barangligi, g'oyaviy mazmunining g'oyatda boyligi bilan xarakterlanadi. Lirik janrning xilma-xil ko'rinishlarini o'zida mujassam etgan bu she'riyat ulug' san'atkorning butun hayoti davomida yuzaga kelgan bo'lib, unda shoir hayoti va fikriy dunyosi bilan bog'liq ko'pgina masalalar o'z in'ikosini topgan. Navoiy devonida biz, bir jihatdan, an'anaviy mavzularning o'ziga xos talqini, yangi motivlar hamda poetik voqealar asosidagi yuksak rivojini ko'rsak, ikkinchi tomondan, shoirning hayotga, o'z zamonasiga bevosita munosabatidan yuzaga kelgan fikr va tuyg'ularining guvohi bo'lamiz.

Adabiyotshunoslikda Navoiy she'riyatini mavzu va g'oyaviy yo'nalishiga ko'ra turli xil tasniflar uchraydi. Jumladan navoiyshunos A.Hayitmetov shoir g'azallarini oshiqona, rindona va orifona g'azallar<sup>1</sup> tarzida tasniflaydi. Akademik A.Qayumov esa orifona va oshiqona she'rlarni alohida ajratib o'rganadi. Shuningdek, olim Navoiy ijodida diniy mazmundagi she'rlar ham alohida o'rin tutishini ta'kidlaydi va shoirning hamd va na'tlarini bu turkumdagi she'rlar namunasi sifatida tadqiq etadi <sup>2</sup>. Tadqiqotchi K.Mullaxo'jayeva esa Navoiy g'azallarini mavzu va badiiy-uslubiy xususiyatlariga ko'ra hamd va na't g'azallar, orifona g'azallar, oshiqona g'azallar, rindona g'azallar tarzida turkumlarga ajratadi <sup>3</sup>.

Navoiy she'riyatining mavzu doirasi va g'oyaviy yo'nalishi nihoyatda keng. Unda ilohiyot, tabiat, jamiyat va inson va uning ruhiy olamining ko'pgina jihatlari bilan bog'liq savollarga javob olish mumkin.

Muhimi shundaki, har bir mavzu va har bir janrda faylasuf shoirning o'ziga xos shaxsiyati va mushohadasi, poetik mahorati ko'zga tashlanib turadi.

Navoiy she'riyatida ishq, vafo, visol, hijron, insof va adolat, odob, tavoze', himmat, saxovat, halollik, imon, e'tiqod, sabr, qanoat singari insoniy tuyg'ular yuksak darajada mahorat bilan tasvirlanadi. Shoir bu tuyg'ular ifodasi orqali inson ruhiyatida kechadigan kechinmalarni o'ziga xos tarzda ifodalaydi.

**Shoir lirikasida inson kamoloti masalasi.** Navoiy ishqning poklovchilik xususiyatiga alohida e'tibor qaratadi. Ishq inson qalbini nafs va u bilan bog'liq bo'lgan nopok illatlardan tozalaydi, inson irodasini mustahkamlab, uni chinakam kamolot darajasiga olib chiqadi.

Shoir lirikasida odob-axloq masalasining talqini bevosita komil inson tushunchasi bilan bog'lanadi.

Noqis uldurkim, o'zin komil degay,  
Komil ulkim nuqsin isbot aylagay.  
O'z kamolidin demas ahli kamol

<sup>1</sup> Бу ҳақда қаранг: Ҳайитметов А. Навоийхонлик суҳбатлари. – Т.: Ўқитувчи, 1993, 136 б.

<sup>2</sup> Қайумов А. Асарлар. 3-жилд. – Т.: MUMTOZ SO'Z, 2009.

<sup>3</sup> Муллахўжаева К. Алишер Навоий газалиётида тасаввуфий тимсол ва бадий санъатлар уйғунлиги ("Бадоеъ ул-бидоя" девони асосида). Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. – Т.: 2005

Ahli nuqson ichradur bu qilu qol.  
Sen nuqson ichra komilsen, base,  
Olim aytib o'zni, johilsen base.

Shoir nuqson ichra komillik deganda nafsdan xalos bo'lmagan o'zlikni nazarda tutadi. U komillikni nafs hukmronligidan ozod bo'lgan yangi bir ruhoniylar "men"ga asoslanadi, deydi. Insonning imoni va vijdoni anashu "men" tasarrufiga o'tsagina u komillikka yetib bora oladi.

Navoiy jamiyat kishilarini ruhan pok, ma'naviy yetuk, komil va fozil bo'lishlarini orzu qiladi. Bu jihatdan quyidagi qit'a alohida e'tiborga molikdir.

Kamol et kasbkim, olam uyidin  
Sanga farz o'lmag'ay g'annok chiqmoq.

Jahondin notamom o'tmak biaynih,  
Erur hammomdin nopok chiqmoq.

Qit'adagi "kamol" so'zi komil inson, "et kasbkim"- shakllantirmoq, hosil qilmoq, "olam uyi"-biz yashab turgan moddiy dunyo, ikkinchi misradagi "farz" so'zi islomga ko'ra bajarilishi shart va zarur bo'lgan amallardir. Bundan har bir inson komillikni o'zida shakllantirishi, ruhini poklashi farz, degan mazmun anglashiladi. Uchinchi misradagi "notamom" so'zi qit'adagi "kamol kasb etmay" tushunchasiga to'g'ri keladi, "biaynih" esa xuddi, go'yoki degan ma'nolarni bildiradi. Demak, jahondan ruhiy poklanmay o'tish, xuddi hammomga kirib, nopok chiqishga o'xshaydi. Qit'adagi "olam uyi", "jahon", "hammom" so'zlari mazmunan bir-biriga yaqin tushunchani ifodalab, tanosub san'atini yuzaga keltirgan. Ya'ni olam uyi bo'lmish jahon bir hammom kabidirki, inson hayoti unga poklanish uchun berilgan muddatdir. "G'annok", "nopok" so'zlari qofiyadosh bo'lib, ular qofiya bo'lishi bilan birga she'rning asosiy mazmunini ifodalaydi. Ya'ni kimki dunyodan nopok o'tsa, u dunyodan chiqishda g'annok bo'ladi.

Manbalarda "komil inson"haqida so'z yuritilar ekan, u to'rt sifatga ega bo'lishi lozimligi keltiriladi. Bular yaxshi so'z, ezgu faoliyat, go'zal axloq, ilmdir. Bu sifatlarga ega bo'lgan kishi ko'ngil tozaligi va osudaligiga erishsagina komillikka erishadi.

Kirgil fano yo'lig'a, Navoiyki, dahri dun,

Bu umri besabotu madorig'a arzimas.

Shoir talqinicha, komillikka eltuvchi yo'l bu fanodir. Tasavvufga ko'ra komillikni namoyon qiladigan sifatlardan biri faqr maqomi shartlarini to'la-to'kis ado etishdir. Faqr bu tariqat yo'lga kirgan solikning to'rtinchi maqomidir. Faqirlik bu moddiy yetishmovchilik yoki tilanchilik qilish emas, balki orifning Alloh oldida o'zini ojiz, g'arib va faqir his qilishidir. Komil insonlar faqirlik bilan faxrlanganlar. Bu maqomda oriflar botiniy olamini poklaganlar. Ahmad yassaviy faqrning olti odobi bo'lganligini keltirib o'tadi:

1. Yaxshi va yomon so'zga sukut qilmoq.
2. Pir oldida xomush bo'lmoq va uning ijzatisiz so'zlamaslik.
3. hech kim bilan yomon muomalada bo'lmaslik.
4. "Xosu omning xizmatini" ado etmoq.
5. Nafsni yengmoq.
6. Havou havasni tark etmoq<sup>1</sup>.

Ko'rinadiki, faqirlik qanoat, himmat, tama' qilmaslik kabi tushunchalar bilan uzviy bog'liqdir. Shuning uchun ham Navoiy dunyoning o'tkinchiligi, ma'naviy yetuklik haqidagi fikr-mulohazalarni faqr maqomi bilan bog'liq holda tasvirlaydi.

Gar fano rasmin qilmoq tilar ersang mazbut,  
Nafs ila ruhni zinhorki qilma maxlut.

Fano shartlarini bajarishning o'ziyoq inson axloqini go'zallashtiradi. Shoir talqinicha, fano yo'lini tanlagan kishi nafs bilan ruhni qorishtirmasligi zarur.

**Navoiy she'riyatida ijtimoiy-falsafiy muammolar talqini.** Alisher Navoiy lirikasining she'riyat tarixidagi o'rni va ahamiyatini belgilovchi muhim omillardan biri uning hayotga yaqinligi, davr qiyofasi hamda ijtimoiy ruhning muayyan darajada aks etganligidadir. Zotan, Navoiy lirikasi o'z mohiyati bilan o'zbek klassik lirikasi taraqqiyotining bir necha asrlik tarixida yuksak bir bosqichni tashkil etadi.

Navoiy hassos lirik shoir bo'lishi bilan birga yirik siyosiy arbob, olim va fozil inson edi. Shuning uchun ham adolat, insonparvarlik va xalqparvarlikni targ'ib

---

<sup>1</sup> Ahmad Yassaviy. Devoni Xikmat. – T.: 1994

etish uning she'rlaridagi asosiy masalalardan biri sanalgan. Mamlakat osoyishtaligi, hamjihatlik, do'stlik, birodarlik shoir uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan. U kishilarni o'zaro nizolar, ixtiloflar, dushmanliklarni yo'q qilishga undaydi.

Mamlakat taraqqiyotida shohning roli katta ekanligini yaxshi bilgan Navoiy ijodida adolatli shoh masalasiga alohida e'tibor bilan qaraydi. U davlat hukmdorlarini adolatli bo'lishlarini orzu qiladi. Nodon va johil shohni el boshiga ko'pgina kulfatlar olib kelishini, yurtni vayron qilishini qattiq tanqid etadi. Mamlakat ravnaqi, el-yurt osoyishtaligi bevosita shohga bog'liqligini ko'pgina asarlarida badiiy talqin etadi. Qit'alarida ham adolatli shoh mavzusi alohida o'rin tutadi.

Jahon ganjig'a shoh erur ajdaho,  
Ki, o'tlar sochar qahri hangomida.

Aning komi birla tirilmak erur,  
Maosh aylamak ajdaho komida.

Ushbu qit'ada yomon shohlar ajdahoga o'xshatilmoqda. Ajdaho ganjga qo'riqchilik qilganidek, shoh jahon ganjiga qo'riqchidir. U qahri kelganda xuddi ajdaho singari o't sochadi. Shohning oldida yashash xuddi ajdaho og'zida tirikchilik qilish bilan barobardir. U istagan paytda oldidagi kishini yutib yuborishi mumkin.

Quyoshdek shoh adolat pesha qilsa,  
Jahon mulkini bir damda yorutg'ay.

Agar zulm etsa aqshom zulmatidek,  
Hamul dam tiyralik olamni tutg'ay.

Bunda shoirning falsafiy qarashlari adolat-zulm, yorug' va qorong'u so'zlarini bir-biriga zid qo'yish (tazod vositasida) orqali ifodalangan. Shoir shohning adolatini quyoshga o'xshatadi. Ya'ni adolat quyosh singari butun olamni yoritishi, zulmni esa qorong'u kecha zulmatiga o'xshatadiki, bu zulmat butun olamni egallashiga urg'u beradi.

Ming yil kishi jahon eliga qilsa shohliq,  
Bir dam alar ihonatu orig'a arzimas.

Navoiy shohlikni dunyoga bog'lanish, dunyo ishqining eng oliy shakli sifatida tilga oladi. Shoh naqadar adolat bilan hukm yuritmasin, toju taxt xalqu millat ori va qadrining bir damlik kamsitilishiga arzimasligini haqqoniy tasvirlagan. Bunda shoir dunyoparastlikni, moddiy dunyoga bog'lanib qolishni keskin qoralaydi.

Navoiy ijodida shunday g'azallar borki, ularda davr, zamona va muhitga qarshi keskin qarashlari o'z ifodasini topgan.

Kimga qildim bir vafokim, yuz jafosin ko'rmadim?  
Ko'rguzib yuz mehr, ming dardu balosin ko'rmadim?  
Kimga boshimni fido qildimki, boshim qasdig'a  
Har tarafdik yuz tuman tig'i jafosin ko'rmadim.  
Kimga ko'nglum ayladi mehru muhabbat foshkim,  
Har vafog'a yuz jafo, oning jazosin ko'rmadim.  
Kimga jonimni asir ettimki, jonim qatlig'a  
G'ayr sori xulqu lutfi jon fizosin ko'rmadim.  
Kimga soldim ko'z qarovu oqini ishq ichrakim,  
Qon aro pinhon ko'zum oqu qarosin ko'rmadim.  
Sen vafo husn ahlidin qilma tavaquq', ey rafiq  
Kim men ushbu xaylning husni vafosin ko'rmadim.  
Ey Navoiy, tavba andin qilmadim shayx ollida  
Kim bu ishda dayr pirining rizosin ko'rmadim.

Yetti baytdan iborat bo'lgan ushbu g'azalda so'z husn ahlidan vafo kutmaslik haqida borayotgani yo'q. Shoir ijtimoiy muhit, odamlar orasidagi munosabatlar haqida so'z yuritmoqda. G'azalda insonparvarlik, adolat, to'g'rilik, soflik, mehr-muhabbat, vafoni yo'qqa chiqaruvchi bo'g'iq muhit, sharoit tanqid ostiga olingan. Shoir lirik qahramoni yuksak insoniy fazilatlar egasi bo'lgan kishi. U odamlarga mehr, vafo, sadoqat ko'rsatadi, ammo buning evaziga jafo ko'radi. U odamlar uchun jonini fido etishga tayyor, ammo kishilarning o'ziga qarshi qaratilgan yuz xil jafo nayzalariga duch keladi. Lirik qahramon kimga o'z borlig'ini, hayotini bag'ishlasa, u boshqalarga lutfu marhamat ko'rsatadi. She'r oxirida Navoiy pirining rizosini ko'rmaydi. Shoir lirik qahramoni unga shayx oldida aytgan so'zlari uchun tavba qilishga yo'l bermaydi. Shuning uchun u o'z so'zida qat'iy turadi va aytgan so'zlari uchun shayx huzurida tavba qilishni istamaydi.

Ko'rinadiki, g'azal shoirning o'z davri, zamonasi, undagi mavjud holatlar, shu muhitdagi turli nomunosib kimsalarning faoliyatlariga qarshi qaratilgan tanqididir.



Navoiyning zamondoshlaridan noroziligi uning umuman davrondan noroziligining bir qismi hisoblanadi. Uning tasavvurida davr ahlidagi tuban xislatlarning asosiy manbai davronning-charxning o'zidir. Hatto bulbulga nisbatan jafokor bo'l-gan gulning o'zi ham charxning zulmidan omon qolmagan.

Dema bulbul zulmiga gul bog'lamish bel go'yo,  
Charx zulmidin oning ham bog'lag'on zunnori bor.

Alisher Navoiyning ilk devonidagi davr va davr ahlidan shikoyat motivi tasodifiy hol bo'lmay, shoirning jamiyat va zamondoshlari haqidagi idealining unga nomunosib bo'lgan hayotiy voqelik bilan to'qnashuvi natijasida yuzaga kelgan izchil xususiyat hisoblanadi. Shoirning bir qator g'azallarida zamon va zamon kishilari haqidagi fikr she'rning boshidan emas, balki oxirgi baytlardan birida (ko'pincha oxirgidan oldingi baytda) bayon qilinadi. Boshqa mavzudagi g'azal tarkibida birdan ana shunday mazmundagi baytning paydo bo'lishi lirik chekinish xarakterida bo'lib, bir qarashda boshqa baytlar bilan bog'lanmaganday tuyuladi. Biroq bunday holat Navoiy g'azallarida izchil xususiyatlardan biri bo'lib, shoir xuddi shunday ruxdagi baytni olib kirish uchun dastlabki baytlarda holat yoxud voqealar tasviri orqali ruhiy zamin hozirlaydi.

Bir kator she'rlarda shoirning umumiy munosabati yor, ag'yor va ahli zamondan norozilik shikoyat tarzida namoyon bo'lib, «yor» so'zi keng ma'noda ishlatilsa, bir guruh g'azallarda ana shu munosabat ishqiy motivlar bilan bog'langan holda keladi va tasvir jarayonida hayotiy zaminga ega bo'lgan haqqoniy tuyg'u va mulozhazalar birinchi o'rinda turadi.

Zamona ahlig'a garchi o'yunchiliqdur ish,  
Yengar ham oxir alarni zamonaning o'yuni.

Bu baytda zamonasozlik nayrangi, shaxsiy g'arazni ko'zlab zamonga moslashish holati qoralangan. Navoiy buni o'z nomi bilan "o'yunchilig'" deb ataydi. Biroq bunday o'yunchilikni yengib, "o'yunchi"larni zabun etadigan boshqa bir katta o'yin bor. Bu – zamonaning o'yini. Inson ko'pincha bu shafqatsiz o'yindan o'zini chetga olishdan o'zlik qiladi va dunyoparastlikda qo'li balandligini ko'z-ko'z qilishni istaydi. Shoir bu haqiqatni mahorat bilan misralar

mohiyatiga singdira olgan. Baytda “o’yun”, “zamona” so’zlarini takrorlash orqali takrir san’ati yaratilgan.

Dahr bog’inda necha kunkim tiriksan, aytqil  
Kim, yana topmoq emas, ma’lum bu bo’ston kabi.

Navoiy tasviricha, tiriklik ayshi, avvalo, nafsni ruhga taslim etish, ishq, ma’rifat, go’zallik nuri bilan ko’ngilga ziynat berishdir. Shundagina inson dunyoni fath etish uchun lashkar tortmoq “sipoh gardi g’uborig’a” arzimastligini ham, odamlar orasidagi bir fursatlik nifoqu janjallar asrlarga cho’zilgan umr farog’atini butkul yo’qqa chiqarish ehtimolini anglab yashaydi:

Yuz qarn olam ahli apo aylamak nishot,  
Bir dam alar nifoqu niqorig’a arzimas.

**Navoiyning axloqiy-didaktik qarashlari.** Shoir mamlakatda farovonlikka erishmoq, osoyishtalik o’rnatmoq, el-ulusni baxtiyor ko’rmoq uchun nimalarga e’tibor bermoq lozimligini ko’rsatib beradi. Nafs, manmanlik, zulm, hirs, behuda intilishlarga barham bermoq yo’li bilangina elni shod, mamlakatni obod qilish mumkin deb hisoblaydi:

To hirsu havas xirmoni barbod o’lmas,  
To nafsu havo qasri baraftod o’lmas.  
To zulmu sitam joniga bedod o’lmas,  
El shod o’lmas, mamlakat obod o’lmas.

Shoir nazdidi el qalbidagi hirsu havas xirmoni yelga sovurilmasa, nafs, kibru havo qasri barbod bo’lmasa, zulmu sitam joniga qattiq sitam berib, uni yo’qotmoq shart bo’lsagina el ko’ngli shod, mamlakat obod bo’ladi. Bu she’r faqatgina Navoiy ijtimoiy-siyosiy qarashlari ifodasi bo’libgina qolmay, undagi obrazli ifodalar, poetik g’oyaning yuksak san’atkorlik bilan tasvirlangani bilan ham alohida diqqatga molikdir.

Navoiy jamiyat kishilari haqida so’z yuritar ekan, ularni yuksak fazilatlar egasi bo’lishlarini orzu qiladi. Quyidagi qit’ada shoir bu haqda shunday deydi:

Uch kishidin uch ish yomon ko’rinur,  
Sanga arz aylay ahli dunyodin:  
Shohdin tundlig’, g’anidin buxl,  
Molg’a maylu, hirs donodin.

Ma'lumki, jamiyat taraqqiyoti, mamlakat obodonligi, el-yurt osoyishtaligida uch kishining o'rni alohida ajralib turadi. Bular: shoh, badavlad kishilar va dono insonlardir. Shoh o'zining adolatli siyosati, badavlat kishi o'zining sahovati, dono esa oqilona qarashlari, ezgu niyati bilan e'tiborga molikdir. Agar ulardagi bu sifatlarga putur yetsa mamlakat tanazzulga yuz tutishi muqarrardir. Shoirning yuqoridagi baytlarida xuddi shu masalaga urg'u berilgan. Shohdagi g'azab, davlatmanddagi baxillik, qizg'anchilik, donodagi mol dunyoga hirs qo'yish singari illatlar dunyodagi engyomon ish sifatida baholanadi.

Davrondan, zamon ahlidan shikoyat motivlari shoir fardlarida aforistik tarzda ifodalangan.

Ablah ani bilki, olamdin baqo qilg'ay tama',  
Ahmoq ulki, olam ahlidin vafo qilg'ay tama'.

Shoir tasviricha, dunyodan mangulik, abadiylik tilagan kishi ablah, olam ahlidan vafo istagan kishi ahmoqdir. Zero, dunyo abadiy bo'lmaganidek, olam ahlida ham vafo yo'qdir. Bunda hayotning o'tkinchiligi, inson yashashi uchun berilgan muddatni ezgu ishlarga sarf etishi haqidagi umumlashmalar shoirona tasvirlangan.

Ko'rinadiki, bunday she'rlarida shoirning hayot, inson, davr haqidagi qarashlari uzoq kuzatish va mushohadalar natijasida hosil bo'lgan xulosalar tarzida berilgan. Bunday o'rinlarda yuksak ma'naviy poklik, axloqiy yetuklik ulug'lanib, zamondoshlarini bu sifatlarning aksi bo'lgan nuqsonlardan holi bo'lishlari haqidagi ba'zi bir mulohazalari ham ma'lum darajada o'z aksini topgan.

**Navoiy lirikasining badiiy xususiyatlari.** Navoiy yetuk lirik shoirdir. U mumtoz she'riyatni nafaqat mavzu va g'oya jihatdan, balki badiiy jihatdan ham yangi taraqqiyot pog'onasiga ko'targan ustoz san'atkordir. Navoiy lirikasining fazilatlaridan biri shundaki, u she'rning mazmuniga monand shakl yaratdi. U lirikaning xilma-xil janrlarida she'rlar bitib, bu janrlar takomiliga katta hissa qo'shdi. Insonning ruhiy kechinmalari, murakkab his-tuyg'ularini yoritishda xilma-xil tasvir usullari, tasviriy vositalariga murojaat qildi, rang-barang obrazlar, peyzaj va portret tasvirlari yaratdi, xalq og'zaki ijodi xazinasidan ijodiy foydalandi.

Navoiy lirikaning 16 janrida yetuk she'rlar yaratdi. Shoir lirikasidagi yetakchi janr g'azal hisoblanadi. "Xazoyin ul-maoniy"ning har bir devonida 650 tadan g'azal o'rin olgan.

Shoir g'azallari orasida 7, 9, 11 baytli she'rlar ko'pchilikni tashkil qildiki, bu asosiy mazmunning taqozosi bilan tanlangan.

Navoiyning muxammas, musaddas, musamman janrlaridagi she'rlari o'z g'oyaviy-badiiy xususiyatlari bilan g'azallariga yaqin turadi. Navoiy Lutfiy va Husayniyning ayrim g'azallariga muxammas va musaddas bog'lash bilan birga o'z g'azallariga ham muxammas va musaddas bog'laydi.

Shoir devonida muhim o'rin tutgan qit'alarning ko'pchiligi ikki baytdan iborat bo'lgani holda, mazmun takqozosi bilan g'azal hajmiga teng (7—11 baytli) qit'alar ham uchraydi.

Shoir biron kattaroq hodisa, voqea munosabati bilan vujudga kelgan murakkabroq his-tuyg'ularini ifodalashda lirik turning yirik hajmli janrlariga murojaat etib, qasida, soqiynoma, tarji'band va tarkibbandlar bitadi.

Lirik she'rning kompozitsiyasi masalasida ham Navoiyning novatorligi, lirika taraqqiyotidagi xizmati diqqatga sazovor.

Umuman, shoir mavzu va g'oya jihatdangina emas, obrazlar, lavhalar, tasviriy vositalar bilan ham lirik she'riyatni hayotga, insonning qalbi va hissiyotiga yaqinlashtiradi. U she'riyatda bolalarning o'yinidan davlat siyosatigacha, oddiy kundalik turmush detallaridan tabiat hodisasigacha murojaat etib, yangidan-yangi obraz va manzaralar yaratadi.

Navoiy lirikasining badiiy qimmati, shoir san'atkorligining o'ziga xos qirralari uning poetik tasvir vositalaridan foydalanishda yana ham yaqqol namoyon bo'ladi. Navoiy devonlarida yuzdan ortiq ma'naviy, lafziy hamda mushtarak san'atlar mavjud bo'lib, ularning aksariyati yangi-yangi maqsadlarda faol ishlatilgan. Shoir tadrij, tashbeh, istiora, mubolag'a, tazod, tanosub, husni ta'lil, tajohilu orif, laf va nashr, talmeh, tajnis, iyhom, ruju', takrir va boshqa badiiy san'atlardan mahorat bilan foydalanadi. Ana shulardan ayrimlari misolida Navoiy badiiy tafakkurining qudrati haqida tasavvur hosil qilish mumkin.

Navoiy she'riyatida eng ko'p qo'llanilgan san'atlardan biri bu tashbehdir. Navoiy lirikasida tashbehga xos deyarli barcha jihatlar (9 ta xili: sareh, mashrut, tafzil, aks, muzmar, tasviya, musalsal, kinoya, mu'kad) to'liq namoyon bo'ladi. Navoiy tashbehning turli ko'rinishlari muvaffaqiyat bilan ishlatilgan yuzlab baytlar yaratibgina qolmaydi, ayni zamonda, u bu san'atning yangi imkoniyatlarini ochishga, ulardan muhim g'oyalarni ifodalash uchun foydalanadi.

Navoiy lirikasida yangi mohiyat kasb etgan an'anaviy san'atlardan biri tazoddir. Tazod Navoiy she'rlarida ruhiy holat, vaziyat va kechinmalardagi ziddiyatlarni ifodalashda keng qo'llanilgan. Shoir bu usul orqali o'z g'oyaviy maqsadini, tasvirning ichki mohiyatini mukammalroq yoritadi. Masalan:

Tongg'a solma va'dai vaslingni bore bu kecha,  
Kim meni o'lturgusi tong intizori bu kecha.

Choklik jon qolur o'tu suv aro,  
Chun mayoluda bo'lur ul ikki lab.

Birinchi baytda oshiqning intilishi, xohishi bilan mavjud imkoniyat o'rtasidagi ziddiyat tong va kecha tashbehi orqali aks etgan bo'lsa, keyingi baytdagi tazod lirik kahramonning ziddiyatli kechinma va kayfiyati tasviri asosida yuzaga kelgan. Shoir ma'shuqa labini qip-qizil cho'qqa, lablardagi may yuqini esa o't ustiga quyilayotgan suvga o'xshatgan. O't bilan suv esa bir-biriga zid. Ularni aloqaga kiritish tazod san'atini hosil qilgan. Shunga parallel holda lirik qahramon ham qarama-qarshi kayfiyatga tushadi, uning tili bilan aytganda, joni «o't bilan suv orasida» qoladi. Oshiqning bu holati tazod vositasida ta'sirchan yaratilgan.

Donish ahli kitfasida kelturur nodonni charx,  
Fikri yo'qkim, rost kelmas bu aning mezonida.

Ushbu baytda tazod davrning insoniy ideal va axloqqa zid bo'lgan muhim xususiyatlaridan birini ko'rsatishga xizmat qilgan. Bunda donish va nodon bir-biriga zid qo'yilib, falakning ishi donishmand va nodonlarni yonma-yon yaratish ekanligi, buni inkor etish mumkin emasligi haqidagi hayotiy mantiq badiiy ifodalanadi.

Turkiy she'riyatdagi badiiy san'atlarning maxsus poetik usul sifatida shakllanishi (o'zbek lirikasi misolida) va barcha imkoniyatlarining namoyon

bo'lishi Navoiy lirikasida ko'rinadi. Tashbehning musalsal turi, takror, radd ulmatla' va radd ul-kofiya, ranglardan ramziy vosita sifatida foydalanish, tashobih ul-atrof kabi badiiy tasvir usullari ana shular jumlasidandir.

Navoiyniyag vasf xarakteridagi g'azallarida ranglarning ramziy talqini keng qo'llanilgan. Bunda bir g'azalda tasvir faqat bir rang bilan borliq holda boradi. She'rdagi detallar ham ana shu rangdan ko'zda tutilgan ramziylikka, shoirning maqsadiga bo'ysundiriladi. Lirik qahramon xarakteri ham goh umumiy fonda, goh parallel ravishda ochila boradi. Navoiygacha bo'lgan fors she'riyatini oladigan bo'lsak Ahmadi Jomiyning «Chahor pari»si tarkibida qizil rang bilan bog'liq ikkita g'azal mavjud. Xusrav Dehlaviy va Hasan Dehlaviy she'rlari orasida ham bittadan «safed» (oq) radifli g'azal uchraydi. Bularda tasvirning izchilligi ma'lum darajada radifning talabi bilan bog'langan.

Navoiydan oldingi davrdagi turkiy shoirlar ijodida bu tipdagi g'azallar uchramaydi. Navoiy devonlarida esa bunday g'azallarning o'nlab go'zal namunalarini ko'ramiz. Adabiyotshunos Yo.Ishoqov ma'lumotlariga ko'ra «Xazoyin ul-maoniy»da tasvir boshidan oxiriga qadar izchil rang bilan bog'liq holda yaratilgan 31 g'azal uchraydi. Shundan, «G'aroyib us-sig'ar»da 9 ta, «Navodir ush-shabob»da 7 ta, «Badoye' ul-vasat»da 8 ta, «Faboyid ul-kibar»da 7 tasi o'rin olgan<sup>1</sup>. Yosh tadqiqotchi S.O'tanova Navoiy g'azalliyotida rang simbolikasini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotida shoirning «Xazoyin ul-maoniy» devoni tarkibidagi g'azallarning u yoki bu o'rnida qo'llanilgan rang ma'nosidagi so'zlarni imkon qadar hisoblab chiqadi. Tadqiqotchi keltirgan jadvalga ko'ra shoir g'azallarida qora rang 544, qizil rang 521, ko'k rang 164, oq rang 127, sariq rang 104 o'rinda keltirilgan<sup>2</sup>. Shoir g'azallarida tabiatda inson nazari ilg'ab oladigan ranglarning ko'pchiligi qamrab olingan. Navoiy yaratgan obrazlar takomilida rang bilan bog'liq ramziy ifodalar muhim rol o'ynagan. Rang shoir g'azallarida mahoratini belgilovchi omillardan biridir. M.:

Shabobning havasidan soqolni rang etma,

<sup>1</sup> Бу ҳақда қаранг: Исмоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Т.: Фан, 1983, 124 б.

<sup>2</sup> Ўтанова С. Алишер Навоий газалиётида ранг символикаси. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. – Т.: 2007, 11 б.

Oqorsa sabza, ko'karmak yana ne imkondur.

Shoir bunda keksalikni bo'yniga olmay, yigitlik davrini qo'msab, soqolini bo'yashga tutingan kishiga quriyotgan maysa qayta ko'karmaganidek, soqolini qoraga bo'yagan bilan soch oqora boshlaganini kinoya tarzida aytadi. Navoiy bu o'rinda falsafiy ruh bilan yo'g'rilgan hayotiy xulosalar chiqaradi. Unda navoiyona tafakkurga xos mantiqiylik, kichkina bir detal orqali fikrlarning bog'langan silsilasini hosil eta bilish xususiyati sezilib turadi.

Yaraqon daf'i sarig' jins qilur, turfa ko'rung-  
Kim, bo'lur tegsa yuzum to'nig'a bisyor sarig'.

Ota-bobolarimiz sariq rangni sariq kasaliga (bu kasallik Navoiyda yaraqon shaklida uchraydi – ta'kid bizniki. T.M.) davo deb hisoblab kelishgan. Shuning uchun bemorga sariq rangli kiyim kiydirilib, u yotgan xonani sariq rangli buyumlar bilan jihozlashgan. Biroq shoirning lirik qahramoniga sariq rang shofa bermaydi, aksincha, ma'shuqaning sariq to'ni uning dardini yanadaj olishiga sabab bo'ladi.

Navoiy g'azallarida oshiq va ma'shuqa qiyofasini, ruhiy olamini yoritishda ham rang tasviri keng qo'llaniladi.

Yuzung shahidlari tufrog'in sovurmish yel,  
Bukim bulut ko'runur ko'kta har taraf gulgun.

Baytda ma'shuqa yuzining qizil ekanligi aytilmasa-da, “gulgun” so'zi bevosita shunga ishoradir. Unga ko'ra yorning gulgun yuzini ko'rgan oshiq shunchalik shaydo bo'ladiki, oxirda ishq yo'lida shahidlik darajasiga yetadi. Ishq otashi oshiq yotgan tuproqni ham yondirib kul qiladi, shamol esa bu tuproqni sovurib, osmonu falakka ko'taradi. Bunda “gulgun” ramzi orqali yorning yuzi qizil ekanligi, qizil yuzlilik go'zallikning eng muhim belgilaridan biri ekanligi oydinlashadi. Ishq dardi chin oshiqlikni shahidlik martabasiga yetkazishi obrazli holda ko'kda bulutlarning qizil bo'lishi orqali ifoda etilgan. Umuman, Navoiy she'riyatidan bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Navoiy lirikasi, bir tomondan, o'zbek klassik she'riyatida shakllanish va rivojlanish bosqichida bo'lgan bir qator badiiy san'atlarning yanada keng zaminda taraqqiy etib, mohiyat-e'tibori bilan yuqori darajaga ko'tarilishida muhim omil bo'lgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, yangi-yangi san'at va poetik vositalarning

shakllanishi va adabiy jarayondan o'ziga munosib o'rin olishi uchun asosiy zamin bo'ldi.

Navoiy lirikasiga ruh bag'ishlagan, uning uslubining xalqchilligini boyitishda muxim rol uynagan omillardan biri xalq jonli tilida davrlar mobaynida shakllanib, sayqal topgan maqol va iboralarning keng qo'llanilishidir. Maqol va matallardan foydalanish mumtoz she'riyatda irsolu – masal san'ati deb yuritiladi.

Alisher Navoiy she'riyatidagi xalq ijodi an'alarini o'rgangan adabiyotshunos M.Hakimovning ma'lumotiga qaraganda ulug' mutafakkirning she'riy va nasriy, tarixiy va ilmiy asarlarida uch ming dan ziyod xalq maqoli, ta'birlari, hikmatlari mujassamlashgan<sup>1</sup>. Bu bir tomondan, shoirning xalq ijodi va an'alarini juda chuqur bilishini, ikkinchi tomondan esa uning xalq hayotiga naqadar yaqin bo'lganligini ko'rsatadi. Xalq hikmatlaridan ba'zilar Navoiygacha va Navoiy davri o'zbek mumtoz shoirlarining ijodida uchrasa-da, deyarli asosiy qismini Navoiy birinchi marta jonli tildan o'z ijodiga ko'chirib tarix sahifalariga yozdi va kelgusi avlodlarga meros qilib qoldirdi.

“*Xazoyin ul-maoniy*” lirik kulliyoti tarkibida 500 ga yaqin maqol va xalq ta'birlari qo'llangan. Unda shoir maqol va hikmatli so'zlarni turli xil ko'rinishlarda ishlatadi. Ko'pgina o'rinlarda maqol yoki hikmatli so'z asarga shunday singdirib, yedirib yuboriladiki, bu shoirning aytmoqchi bo'lgan g'oyasini, maqsadini ifodalashga yordam beradi.

Shoir maqollarni rang-barang uslubda ishlatib, asarga shunday singdirib yuborganki, ko'p o'rinlarda o'sha maqol yoki hikmat aytmoqchi bo'lgan g'oya va maqsadni g'oyat muxtasar bir shaklda yorqin ifoda etadi.

Orazin ko'rdim nihon ashk ayladi sirrimni fosh,

“Yoshurun qolmas o'g'urluq uy arokim bo'lsa yosh”.

“*Bolali uyda sir turmaydi*”, “*Bolali uyda o'g'rilik yotmas*” kabi maqollar orqali xalq yosh bolaning oldida oiladan tashqariga chiqmasligi lozim bo'lgan sirli gaplarni gapirmaslik lozim ekanligini ta'kidlaydi. Shoir ushbu maqolni nihoyatda

---

<sup>1</sup> Хакимов М. Алишер Навоий лирикаси ва халқ оғзаки ижоди. – Т.: Фан, 1979.



san'atkorlik bilan qo'llaganki, bir tomondan oshiqning ruhiy holatiga xalq maqolini paralell qo'yish orqali o'z fikr-muloqazasini xalq so'zi bilan tasdiqlagan, ikkinchidan, ko'z yoshi (ashk) va yosh (bola) omonim so'zlaridan foydalanib so'z o'yini vositasida har ikkala "yosh"ning ham vazifasi sirni oshkor qilishdan iborat ekan, demoqchi bo'ladi.

Umuman, shoir qo'llagan maqol va matallar she'r ta'sirchanligini oshirib, fikrni aniq va ravshan ifodalashga yordam bergan.

Alisher Navoiy she'riyati yuksak badiiyati, g'oyaviy mazmunining kengligi, falsafiy umumlashmalarga boyligi bilan alohida qimmatga egadir. Uning san'atkorlik mahorati asrlar osha ijodkorlar uchun mahorat maktabi rolini bajarib kelmoqda.

### **Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Alisher Navoiy ijodida qaysi mavzular yetakchi o'rin tutgan?
2. Shoir insonning ma'naviy kamoloti haqida nimalar degan?
3. Navoiy lirikasida davr va zamonga munosabat qanday aks etgan?
4. Shoirning odob-axloq haqidagi qarashlari ko'proq qaysi janrlardagi she'rlarida ifodalangan?
5. Bir she'r tahlili misolida Navoiyning badiiy mahorati haqida gapiring.
6. Shoir ijodida ko'p uchraydigan she'riy san'atlar qaysilar?
7. Shoir lirikasida xalq maqollari qanday shakllarda qo'llanilgan?

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. T.3. G'aroyib ussig'ar. - T.: Fan, 1988; T.4. Navodir ush-shabob. - T.: Fan, 1989; T.5. Badoye' ul-vasat. - T.: Fan, 1990; T.6. Faboyid ul-kibar. - T.: Fan, 1990.
2. Mallayev N.M. O'zbek adabiyoti tarixi. K.1. - T.: O'qituvchi, 1976.
3. O'zbek adabiyoti tarixi. Besh jildlik. J. 2. - T.: Fan, 1977.
4. Shayxzoda M. Asarlar. 6 jildlik. J. 4. - T.: Adabiyot va san'at, 1973.
5. Ishoqov Yo. Navoiy poetikasi. - T.: Fan, 1983.
6. Haqqulov I. Tasavvuf va she'riyat. - T.: Adabiyot va san'at, 1991.
7. Hayitmetov A. Navoiyxonlik suhbatlari. - T.: O'qituvchi, 1993.
8. Komilov N. Tasavvuf. K.1. - T.: Yozuvchi, 1996.
9. Hayitmetov A. Adabiy merosimiz ufqlari. - T.: O'qituvchi, 1997.
10. Hayitmetov A. Ilk Navoiyshunoslar // Navoiyga armug'on. K.2. - T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi, 2000. - B. 7-15
11. Navoiyga armug'on. Ilmiy to'plam. H.Homidov tahriri ostida. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2000-2001-2002-2003-2004-

2005-2006

12. Komilov N. Tafakkur tuhfalari // Navoiyning ijod olami. Maqolalar to'plami. - T.: Fan, 2001. – B. 16 -27

13. Homidiy H. Har jabhada sarkor // Navoiyga armug'on. K.5. – T.: 2006. – B. 50-54

17. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. -T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi, 2006.

18. Haqqulov I. Navoiyga qaytish. – T.: Fan, 2007.

19. Qayumov A. Asarlar. J.2. – T.: MUMTOZ SO'Z, 2008; J.4. 2009

## **BUYUK “XAMSA”NING YARATILISHI**

**Sharq adabiyotida xamsachilik an'analari.** Alisher Navoiy adabiyotimiz tarixidagi ulkan xizmatlaridan biri bu uning «Xamsa» yaratishidir. «Xamsa» yaratish orqali Navoiy o'zbek xalqining epik mahoratini birinchi bo'lib keng va to'la namoyish qila oldi va turkiy tildagi adabiyotni dunyodagi eng yetuk adabiyotlardan biri ekanligini isbotlab berdi.

Navoiy “Xamsa” yozish g'oyatda murakkab va mas'uliyatli ish ekanligini yaxshi biladi. U jamiyat va xalq hayotidagi muhim masalalarni ifodalash uchun epik janrga murojaat qilish zarur deb hisoblaydi. Epik janr esa Navoiy davridagi adabiy hayotda dostonchilikdan iborat edi. She'riyat turlaridan dostonchilik haqida gap borganda shoir bu she'r turi imkoniyatlarining badiiy tasvir uchun kengligini ko'pgina asarlarida ta'kidlab o'tar ekan, uni ko'pincha «masnaviy» deb ataydi<sup>1</sup>.

Nizomiy Ganjaviy boshlab bergan xamsachilik undan keyin adabiy an'anaga aylanib ketgan edi. Bu an'anani hindistonlik Amir Xusrav Dehlaviy muvaffaqiyatli davom ettirgan.

Xamsachilik an'anasi ayniqsa XV asrning ikkinchi yarmida rivojlandi. «Xamsa» yozish shoirdan katta talant, ko'p hayotiy va adabiy bilim, zo'r g'ayrat va matonat talab qilar edi. Ko'plab shoirlar Sharqdagi bu an'anani davom ettirib, “Xamsa” yozishga harakat qilishgan. Bulardan faqat ayrimlarigina muvaffaqiyatga erisha olishgan. Navoiy o'z asarlarida “Xamsa” yaratishga harakat qilgan shoirlardan ayrimlarining nomlarini keltirib o'tadi. Shulardan biri – Mavlono Kotibiydir. Navoiy u haqda “Majolis un-nafois” da shunday deydi: “Oxiri umrida “Xamsa”g'a tatabbu' bunyod qildi va anda da'volar zohir qilibdur. Go'yo bu

sababdin itmomig'a taviq topmadi"<sup>1</sup>. Ko'rinadiki, Mavlono Kotibiy "Xamsa" yaratishga harakat qilgan, ammo uni nihoyasiga yetkaza olmagan. Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat"da Mavlono Ashraf haqida so'z yuritar ekan, "Xamsa" ustida uzoq yillar mehnat qilganini va nihoyat uni yozib tugatganini aytib, shunday deydi: "... Ko'prak avqotida "Xamsa" nazmig'a o'tkarur erdi. Oqibat ul-amr ul mutabarrak kitob itmomig'a musharraf bo'lurg'a tavqif topti"<sup>2</sup>. Navoiy Mavlono Ali Ohiy «Xamsa»ning bir necha dostonlariga javob tarzida doston yaratganligini keltirib o'tadi. Mavlono Fasih Rumiyy Nizomiyyning "Maxzan ul-asror" iga javob yozganligini aytadi va b.

Ko'rinadiki, Navoiyga zamondosh bo'lgan ko'plab shoirlar xamsachilik an'anasini davom ettirishga urinishgan, ammo turli sabablarga ko'ra ulardan ayrimlari bizgacha yetib kelmagan ayrimlari esa mukammal darajadagi "Xamsa" yarata olishmagan. Sharq adabiyoti tarixida Nizomiy Ganjaviy boshlab bergan bu an'anani davom ettirgan shoirlardan Xisrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiylargina buyuk xamsanavis sifatida e'tirof etilgan va asarlari bizgacha yetib kelgan.

**Nizomiy Ganjaviy** (1141-1205) "Xamsa" si "Panj ganj" (1173-1201) ("Besh xazina") deb ataladi. Nizomiy "Panj ganj"i tarkibiga kiruvchi dostonlar quyidagicha nomlanadi:

1. "Maxzan ul-asror" ("Sirlar xazinas")
2. "Xusrav va Shirin"
3. "Layli va Majnun"
4. "Haft paykar" ("Yetti go'zal")
5. "Iskandarnoma". Bu doston "Sharafnoma" va "Iqbolnoma" singari ikki dostondan iborat.

Ikkinchi buyuk xamsanavis **Xusrav Dehlaviy** (1253-1325) "Xamsa" si quyidagi dostonlarni o'z ichiga oladi:

1. "Matla' ul-anvor" ("Nurlarning boshlanmasi")

---

<sup>1</sup> Аlisher Navoiy. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 13-том. Мажолис ун-нафоис. –Т.: Фан, 1997, 15 б.

<sup>2</sup> Аlisher Navoiy. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 17-том. Насойим ул-мухаббат. – Т.: Фан, 2001, 477 б.

2. “Xusrav va Shirin”
3. “Majnun va Layli”
4. “Hasht bihisht” (“Sakkiz jannat”)
5. “Oinai Iskandariy” (“Iskandar oynasi”)

Xamsanavislik tarixidagi uchinchi buyuk siymo **Abdurahmon Jomiy** (1414-1492) bo’lib, u “Xamsa”ni yetti dostonidan iborat qilib yaratgan. Jomiyning “Haft avrang” (“Yetti taxt”) asari quyidagi dostonlardan iborat:

1. “Silsilat uz-zahab” (“Oltin zanjir”)
2. “Salomon va Absol”
3. “Tuhfat ul-ahror” (“Nuroniylar tuhfası”)
4. “Suhbat ul-abror” (“Taqvodorlar tasbehi”)
5. “Yusuf va Zulayho”
6. “Layli va Majnun”
7. “Xiradnomai Iskandariy”

Alisher Navoiy “Xamsa”si tarkibiga kiruvchi dostonlar quyidagicha nomlangan:

1. “Hayrat ul-abror” (“Yaxshi kishilarning hayratlanishi”)
2. “Farhod va Shirin”
3. “Layli va Majnun”
4. “Sab’ai sayyor” (“Yetti sayyora”)
5. “Saddi Iskandariy” (Iskandar devori”)

Nizomiy, Dehlaviy, Jomiylar bu asarlarini fors-tojik tilida yaratgan bo’lsalar, Navoiy “Xamsa”ni turkiy tilda yozishni o’z oldiga maqsad qilib qo’yadi va bu vazifani muavvafaqiyat bilan ado etadi.

**Navoiyning xamsanavislik tarixida tutgan o’rni.** Navoiy yigitligida Sayyid Hasan Ardasheriga yozgan maktubidayoq o’zida epik asarlar yaratishga ham qobiliyat mavjudligi, agar astoydil kirishsa «Shohnoma» va «Xamsa» tipidagi asarlarni qisqa muddatda yarata olishi mumkinligini fahriya usuli bilan bayon qilgan edi. 50 ming misradan ortiq hajmdagi o’z «Xamsa»sining birinchi dostoni «Hayrat ul-abror»ni 1483 yilda yozila boshlab, oxirgi dostoni - «Saddi Iskandariy»ni 1485 yilda tugallagan. Bu vaqtda Navoiy rasman vazirlikdan iste’fo

bergan bo'lsa ham, ammo davlat ishlarida eng martabali kishi sifatida ishtirok etar, Sulton Husayn Boyqaro saroyidagi eng nufuzli insonlardan biri hisoblanar edi. U davlat amaldori sifatida odamlarning kundalik arzu dodlarini eshitish, ularga yordam berish bilan bir qatorda xayrli binolar qurish, madaniy hayotga doir masalalar bilan ham kecha-yu kunduz shug'ullanar edi. Shunga qaramay, «Xamsa»dek buyuk asarni shunday bir qisqa muddatda tugallash Navoiydagi noyob epik qobiliyatdan darak berar edi.

Navoiyning faqatgina «Xamsa» yozishga ketgan vaqtning o'zini hisoblaganda, olti oyga bormas ekan. Bu esa Navoiyning tengi yo'q iste'dod egasi ekanligini yana bir bora dalilidir.

**Navoiy “Xamsa”sining g'oyaviy yo'nalishi.** Navoiy «Xamsa»si besh mustaqil dostonni o'z ichiga olgan holda yaxlit birlikka, umumiy bir g'oyaviy-badiiy yo'nalishga, umumiy maqsadga ega bo'lgan asardir.

«Xamsa» dostonlarining bosh g'oyalari insof va adolatni, imon va e'tiqodni, insoniy poklik, mardlik va insonparvarlikni, xalqparvarlik, vatanparvarlik va ilm-ma'rifatni, mehr-muhabbat va vafodorlikni, hayot va go'zallikni, do'stlik va sadoqatni, to'g'rilik va halollikni madh etish, zulm va adolatsizlikni, nafsni, hiyonat va aldanchilikni, jaholat va ma'rifatsizlikni, talonchilik va bosqinchilikni qoralash, keskin fosh etishdan iboratdir. Bu g'oyalar «Xamsa»ning barcha dostonlarida o'z ifodasini topgan. «Xamsa»dagi bosh kahramonlar ham ana shu g'oyalardan kelib chiqib yaratilgan.

Navoiy har bir dostonida yangi bir hayotiy masalani qo'yib, badiiy hal etish bilan birga, har bir dostoni uchun o'ziga xos shakl ham izladi va topdi. Bu ma'lum ma'noda an'anaviy xususiyatlarga ega bo'lsa ham, ammo mohiyat e'tibori bilan yangi, o'zbek adabiyoti nuqtai nazaridan esa tom ma'noda novatorlik edi.

«Xamsa»ning birinchi dostoni «Hayrat ul-abror» (1483) falsafiy-didaktik doston bo'lib, uning syujeti va kompozitsion tuzilishi o'ziga xosdir. Asarda shoir o'z fikr-mulohazalarini yigirmata maqolat va unga ilova qilingan yigirmata hikoyat vositasida ifoda etadi. Shoir dostonida hayotning falsafiy mohiyati, insonning

hayotdagi o'rnini va ezgu insoniy fazilatlarini va bu fazilatlarining komil inson tarbiyasidagi ahamiyatini badiiy tasvirlaydi.

Shoirning «Farhod va Shirin» (1484) dostonida komil inson masalasi yetakchi o'rin tutadi. Shoir bu masalani ishq-muhabbat, insonparvarlik, vafo, sadoqat, ijodkorlik, xalqparvarlik, mehnatsevarlik, qahramonlik, ilm-hunar egallash singari g'oyalar bilan bog'liq tarzda tasvirlaydi. Shoir shaxs taqdirini xalq, mamlakat taqdiri bilan, yuksak insoniy ideallar bilan bevosita bog'liqlikda tasvirlaydi.

«Layli va Majnun» (1484) – ishqiy-fojiaviy doston bo'lib, unda shoir qahramonlar ishqiy sarguzashtlarini tasvirlash orqali shaxs erki masalasini yoritishga harakat qiladi. Bunda shoir qahramonlar ma'naviy-ruhiy olamini, ruhiy tug'yonlarini chuqur va ta'sirchan tasvirlaydi.

«Sab'ai sayyor» (1484) – ishqiy-sarguzasht doston bo'lib, bunda shoir xalq og'zaki ijodiga xos hikoya ichida hikoya usulidan foydalanib, ishq va oshiqlik muammosini o'rtaga tashlaydi. Dostondagi Bahrom va uning faoliyati misolida bu masala yoritiladi.

«Saddi Iskandariy» “Xamsa” ning yakunlovchi dostoni bo'lib, unda Navoiyning ijtimoiy-siyosiy ideali g'oyat keng tasvirlangan. Bu yer yuzida adolat va osoyishtalik o'rnatgan odil podsho, olim va mohir sarkarda Iskandar obrazi orqali gavdalantirilgan. Iskandar obrazini Navoiy yangicha idrok etib, u orqali adolatli shoh va mukammal jamiyat haqidagi ideal qarashlarini ifodalaydi.

**Navoiy «Xamsa»sining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:**

**Birinchi**dan, Navoiygacha yaratilgan “Xamsa”lar fors-tojik tilida yozilgan bo'lib, shoir ilk marotaba turkiy tilda besh dostonidan iborat buyuk asarni yaratishga muvaffaq bo'ldi.

**Ikkinchi**dan, shoir o'z dostonlarida ulug' xamsanavislar madhiga alohida boblar ajratadi. Ularning Sharq adabiyoti taraqqiyotiga qo'shgan hissalarini munosib baholaydi. Navoiy o'zidan oldingi xamsanavislar ijodiy yutuqlarini, yuksak san'atkorligini e'tirof etgan holda ular dostonlarida uchraydigan nuqson va kamchiliklarni xolisona tanqid qiladi va o'zi bu kamchiliklarni takrorlamaslikka harakat qiladi. “Farhod va Shirin”, “Saba'i sayyor” dostonlaridagi Nizomiy va

Xusrav Dehlaviylarning shu syujetdagi asarlari haqidagi fikr-mulohazalari buning dalilidir.

**Uchinchidan**, Navoiy xamsachilik an'analarini davom ettirar ekan, mavjud syujetlarga to'g'ridan-to'g'ri murojaat etmaydi. Shoir ularga ijodiy yondoshib, hayot mantig'iga mos holda qayta yaratadi.

**To'rtinchidan**, shoir dostonlari ijtimoiy hayot, o'z davri voqeligi bilan bevosita bog'liq bo'lib, zamonning muhim muammolariga alohida e'tibor beradi. Navoiy dostonlarida davr ahli va zamondoshlarini qiynayotgan muammolarga muayyan darajada javob berishga harakat qiladi.

**Beshinchidan**, Navoiy dostonlarining kirish va yakuniy qismlarida temuriy hukmdorlar va shahzodalar ta'rifiga o'rin ajratilgan. Husayn Boyqaro va uning o'g'illarini shoir shunchaki madh etish bilan cheklanib qolmasdan, ularga davlat boshqarish ishlarida zarur bo'lgan yo'l-yo'riqlarini ham keltirib o'tadi. Ularni adolat va to'g'rilik bilan ish yuritishga undaydi.

**Oltinchidan**, Navoiy dostonlari yuksak badiiyat namunasi sifatida ham alohida ahamiyatga egadir. Ularda shoir qahramonlari ruhiyati tasviriga alohida e'tibor beradi. "Xamsa" dostonlarida mohirona qo'llanilgan tasvir usullari, she'riy san'atlar Navoiyning nechog'lik mahorat egasi ekanligini yorqin dalillaydi.

#### **Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Sharq adabiyotidagi xamsachilik an'analari haqida ma'lumot bering.
2. Buyuk xamsanavislardan kimlarni bilasiz?
3. Navoiyning xamsachilik taraqqiyotidagi o'rni haqida gapiring.
4. Navoiy "Xamsa"ning yaratilish tarixi to'g'risida ma'lumot bering.
5. Shoir "Xamsa"ning o'ziga xos xususiyatlari nimalarda kuzatiladi?

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mallayev N.M. O'zbek adabiyoti tarixi. K.1. – T.: O'qituvchi, 1976.
3. O'zbek adabiyoti tarixi. Besh jildlik. J. 2. – T.: Fan, 1977.
4. Komilov N. Tasavvuf. K.1. – T.: Yozuvchi, 1996.
5. Hayitmetov A. Adabiy merosimiz ufqlari. – T.: O'qituvchi, 1997.
6. Hayitmetov A. Ilk Navoiyshunoslar // Navoiyga armug'on. K.2. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi, 2000. – B. 7-15
7. Navoiyga armug'on. Ilmiy to'plam. H.Homidov tahriri ostida. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2000-2001-2002-2003-2004-

2005-2006

8. Komilov N. Tafakkur tuhfalari // Navoiyning ijod olami. Maqolalar to'plami. - T.: Fan, 2001. – B. 16 -27

9. Boltaboyev H. Mumtoz so'z qadri. Adabiy-ilmiy maqolalar. – T.: Adolat, 2004.

10. Homidiy H. Har jabhada sarkor // Navoiyga armug'on. K.5. – T.: 2006. – B. 50-54

11. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. -T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi, 2006.

12. Haqqulov I. Navoiyga qaytish. – T.: Fan, 2007.

13. Qayumov A. Asarlar. J.1. K.2. – T.: MUMTOZ SO'Z, 2008.

## **“HAYRAT UL-ABROR” DOSTONIDA NAVOIY IJTIMOYIY- AXLOQIY QARASHLARI IFODASI**

### **«Hayrat ul-abror» dostonining yaratilish tarixi va tarkibiy tuzilishi.**

“Hayrat ul-abror” (“Yaxshi kishilarning hayratlanishi”) – “Xamsa”ning birinchi dostoni bo'lib, unda falsafiy-ta'limiy, diniy-tasavvufiy masalalar ilgari surilgan. Doston buyuk xamsanavislar Nizomiyning “Maxzan ul-asror” (“Sirlar xazinasi”), Dehlaviyning “Matla' ul-anvor” (“Nurlarning boshlanmasi”), Jomiyning “Tuhfat ul-ahrar” (“Nuroniylar tuhfasini”) asarlariga monand tarzda yaratilgan. Doston 1483 yilda yozib tugallangan. Asar o'zining janr xususiyatlari, tarkibiy tuzilishi bilan “Xamsa”ning boshqa dostonlaridan tubdan farq qiladi. Unda shoirning falsafiy, diniy-tasavvufiy, axloqiy-ta'limiy, ijtimoiy-siyosiy qarashlari bayon etilgan. Dostonda mavzu biror voqelikni hikoya qilish orqali emas, balki muallif fikr-mulohazalarini bayon etish asosida yoritiladi.

“Hayrat ul-abror” 64 bobdan iborat bo'lib, 21 bobi muqaddima, 40 bobi – 20 ta maqolat va 20 ta hikoyat, masal, 3 bobi esa xotimadir. Dostonning asosini 20 ta maqolat tashkil etib, hikoyat va masallar ilova sifatida keltiriladi.

“Hayrat ul-abror» kirish qismining o'zi ham bir necha bobdan iborat bo'lib, dostonning umumiy g'oyaviy-badiiy kompozitsiyasida katta va muhim o'rin tutadi. Bunda bir hamd, to'rt munojot, besh na't va uch hayratdan tashqari Nizomiy va Xusrav Dehlaviy madhiga, Abdurahmon Jomiy madhiga, so'z ta'rifiga, so'zda ma'no va shakl birligi masalasiga, Sulton Husayn Boyqaro, shuningdek,



Bahouddin Naqshband madhiga bag'ishlangan maxsus boblar bor. Bu boblar Navoiyning dunyoqarashini, ijodining estetik prinsiplarini o'rganish va aniqlashda g'oyat katta ahamiyatga ega.

Dostonning muqaddimasida Allohga hamd, payg'ambarga na't, to'rt sahoba, Me'roj kechasi ta'riflanadi. Dostoning bu qismi ta'rif-tavsifdangina iborat emas. Shoir bunda yuksak badiiy mahorat bilan dunyo va hayotning mohiyati, inson haqidagi qarashlarini ifodalaydi. Shoir Allohning buyuk va beqiyos go'zalligini tasvirlaydi, uning yaratuvchilik qudratini ulug'laydi. Avvali ham oxiri ham o'zida bo'lmish Yaratuvchining husniga had yo'q edi. Bu go'zallikni o'zida aks ettiruvchi ko'zgular kerak edi.

Jilvai husnig'a chu yo'q erdi had,  
Ko'zgu kerak bo'ldi anga beadam.

Ochti bu gulshanniki, rangin erur,  
Har gul anga oinai chin erur.

Ko'k, quyosh, oy, yulduzlar, tabiat, dengiz, yer, butun borliq birin ketin yaratilib, uning ko'zgisiga aylandi. Navoiy Yaratuvchi zotning buyuk mo''jizasi, san'atlar sohibi ekanligini qayta-qayta ta'kidlar ekan, badiiy tasvirda tabiat, koinotdan, ulardagi go'zallik manbalaridan mohir musavvir sifatida foydalanadi. Tabiat va koinotning betakror manzaralarini chizadi. Bu go'zallik, bu cheksiz borliqni vujudga keltirishdan maqsad inson edi. Chunki inson barcha mavjudot ichida eng barkamoli va ulug'idir.

Dostonning dastlabki munajatida Navoiy insonni ulug'laydi. Butun olam inson tufayli yuzaga kelganini shoir qat'iylik bilan ta'kidlaydi, odamiylik har narsadan ustun ekanligini zo'r mahorat bilan tasvirlaydi.

Muncha g'aroyibki, misol aylading,  
Borchani mir'oti jamol aylading.

Ganjing aro naqd farovon edi,  
Lek, boridin g'araz inson edi.

Shoirning uqtirishicha, inson Yaratuvchi uchun eng sevimli zot bo'lib, bu fikrlarini uchinchi, to'rtinchi munajatda yana davom ettiradi.

Barchasini garchi latif aylading,

Barchadin insonni sharif aylading.

Navoiyning keltirishicha, yaratilgan har bir mavjudot “gavhari oliy sifat”dir, ammo barchasidan go’zal va sharaflisi insondir.

**“Hayrat ul-abror” maqolalarining g’oyaviy yo’nalishi.** «Hayrat ul-abror» dostonining asosiy mazmunini tashkil etuvchi maqolat va hikoyatlarda shoirning komil inson haqidagi axloqiy-ta’limiy, ijtimoiy-falsafiy qarashlari o’z aksini topgan. Dostondagi maqolalarda komil inson haqidagi shoirning o’ylari o’z aksini topgan. Hikoyatlar esa maqolalarda ilgari surilgan g’oyalarni asoslashga, ta’sirchanlikni oshirishga yo’naltirilgan.

“Hayrat ul-abror” maqolalari quyidagilardir:

1-maqolat “Imon sharafida”, 2-maqolat “Islom bobida”, 3-maqolat “Salotin bobida”, 4-maqolat “Xirqa kiygan riyokor shayxlar xususida”, 5-maqolat “Karam vasfida”, 6-maqolat. “Adablilik odati to’g’risida”, 7-maqolat “Qanoat bobida”, 8-maqolat “Vafo bobida”, 9-maqolat. “Ishq o’ti ta’rifida”, 10-maqolat “Rostliq ta’rifida”, 11-maqolat “Ilm osmonining yulduzlardek baland martabaliligi haqida”, 12-maqolat “Qalam va qalam ahllari haqida”, 13-maqolat “bulutdek foyda keltiruvchi odamlar haqida”, 14-maqolat “Osmon tuzilishidan shikoyat”, 15-maqolat. “Jaholat mayi”, 16-maqolat “Xunosasifat oliftalar haqida”, 17-maqolat “Bahor yigitligining sofliigi haqida”, 18-maqolat “Falak g’amxonasi haqida”, 19-maqolat “Xurosonning misli yo’q viloyati haqida”, 20-maqolat “Maqsadning o’taliganligi haqida”.

Bu maqolalarda shoir o’zining yuksak insonparvarlik idealidan kelib chiqib, kishilarni adolatga, insofga, imonga, ilm-ma’rifat egallashga, qanoatga, razolat va jaholat botqog’idan yuqori ko’tarilishga, tamagirlikdan, riyokorlikdan ehtiyot bo’lishga chaqiradi.

Shoir imon – komillikning asosi ekanligini nazarda tutib, birinchi maqolatni imonga bag’ishlaydi. Shoir haqiqiy insonlikning belgisi imon ekanligini aytadi. “Kimki jahon ahlida inson erur, Bilki nishoni anga imon erur” . Shundan keyin shoir shariatda har bir mo’min e’tiqod qilishi lozim bo’lgan oltita narsani tasvirlaydi. Bular Haqni bilmoq, farishtalar, Allohning kalomi bo’lgan ilohiy

kitoblar, payg'ambarlar, qiyomat, qismatning haqligi. Bularga e'tiqod qilgan kishi albatta najot topishini aytadi. Ikkinchi maqolat islom haqida bo'lib, unda shoir olamdagi halqni najot ahli va halok guruhiga bo'linishini aytadi. Birinchi guruhga islom ahli, keyingisiga sanamlarga sig'inadigan kufr eli mansubligini ta'kidlaydi. "Kufr eli yo'l topti malomat sori, Zumrai islom salomat sori", - deganbaytlardan keyin shoir musulmonchilikning bir nechta shartlari boriligini keltiradi. Ulardan birinchisi Allohning yagonaligi va Muhammadning uning elchisi ekanligini bilish, ikkinchisi namoz, uchinchisi zakot, to'rtinchisi ro'za, beshinchisi haj ziyoratiga borishdir. Bu shartlarni holis ixlos bilan bajargan kishigina chin musulmon bo'lishi mumkin.

**Navoiyning adolatli shoh haqidagi ideal qarashlari.** Uchinchi maqolatda shoir sultonlar haqida yozadi. Shoir sultonning fe'l-atvori, amal qilishi zarur bo'lgan vazifalar haqida to'xtaladi. Shoir podshohlarning yuksak maqomini tasvirlaydi. Unda shoir podshohning ulug'vorligi falak avjidan ham o'tib ketgan, oy quyosh uning sha'niga nog'ora bo'lib chalinayotganini aytish bilan boshlaydi. Shoir fikrlarini davom ettirib, sultonning taxti mamlakat uchun abadiy baxt beshigi bo'lishi lozim, deydi. Shohning chodiri soyasida mamlakat quyoshi porlashi, boshi tufayli tojning martabasi yuqorilagani, taxt esa uning oyog'i tufayli aziz va mukarram bo'lganligini bir-bir tasvirlaydi. Shoir sultonlarni yuksak mahorat bilan shunday ta'riflaydi.

Masalan: Mehr bo'lib soyanishining sening,  
Oy yuzida muhri nigining sening.

Mulki Sulaymon uza ishratnamoy,  
Boshinga solmay ko'laka juz humoy.

Shoirning quyosh shohga soyabon bo'lishi, oy yuzidagi muhr uning uzugi o'rni ekani, Sulaymon davlatida ishrat qilishi, humo qushining boshiga soya solishi haqidagi fikrlari tasvodifiy emas. Bu birinchidan, butun borliq Yaratgan mehribonlik bilan ato etgan hukmdorni olqishlamoqda. Yana bir jihatdan esa tabiatdan olingan tasviriy ifodalar orqali obrazlilikni kuchaytirib, misralarni ta'sirchanligini oshirmoqda.

Shoir sultonlarni ta'riflar ekan, rostlik, xalollik, adolat bilan davlat boshqarishi amr etilganligiga alohida urg'u beradi.

Navoiy podshoh ham boshqa odamlardek bir odam, hatto oddiy odamlarning ko'pidan u «ojizu afganda» ekanligini unutmasligini ta'kidlaydi. Shuning uchun shoh o'zini yorug' nupy, boshqalarni qora tufroq deb hisoblamasligi kerak. Shoh ham hamma qatori tuproqdan yaratilganini eslatadi. Sulton tashqi ko'rinishda boshqalar bilan teng bo'lsa ham, ammo hunar, bilim, aql, xushxulqlik, shirinso'zlik, adolat, insof, hayo, toat-ibodat va hokazolarda odamlarning ko'pchiligi shohdan ustunligini aytadi. Buni u doim esda tutishi kerak:

Bil munikim, sen dog'i bir bandasen,  
Ko'pragidin ojizu afgandasen.

Ermas alar tufrog'u sen nuri pok,  
Xilqat alarg'au senga tiyra xok.

Barcha javorih bila a'zoda teng,  
Surati nav'i-yu hayloda teng.

Lek hunar ichra, kamol ichra ham,  
Xulqi xushu lutfi maqol ichra ham,

Ham ravishi adlu ham insof aro,  
Hilmu hayou bori avsof aro,

Shar' tariqida, ibodatda ham,  
Haq yo'lida taqviyu toatda ham.

Sen tushubon yo'l nahajidin yiroq,  
Ko'pragi sendin yurubon yaxshiroq.

Dostonda sulton mamlakat tinchligi, el-yurt faravonligi, osoyishtaligi uchun javobgar ekanligiga alohida urg'u beriladi. Shoir xalq qo'y podasi bo'lsa, podshoh cho'pon, mamlakat chaman bo'lsa, shoh bu chamanga qarovchi, suv beruvchi dehqon, mamlakat bog' bo'lsa u bog'bon, deydi. Bu bog' yoki chaman qurib qolsa undagi daraxtlar o'tinga aylanadi. Shuning uchun bu daraxt va gullarga suv quyib, obod qilish, zarur. Qo'y podasi qarovsizlik oqibatida bo'rilar tomonidan talansa, bo'rilarini haydash lozim. Poda qirilib, daraxtlar qurib ketsa bundan hech

kimga naf yo'q ekanligini aytadi. Bunda shoir podshohlarni sergaklikka chaqiradi, xalq va yurt uchun mas'ulligini eslatadi. Podshohning vazifasi toj-taxt egasi bo'lish emas, balki xalq va mamlakatga g'amxo'rlik qilish Alloh tomonidan yuklatilganligini ta'kidlaydi.

Ko'rinadiki, Navoiy jamiyatda zulmni yo'q qilish birinchi navbatda shohga bog'liq deb hisoblaydi va samimiyat bilai uni insof va adolatga chaqiradi. Qilgan zulm-sitami bir kun o'ziga qaytishi mumkinligini aytib uni ogohlantiradi.

**Yuksak insoniy fazilatlar tasviri.** "Hayrat ul-abror" dostonida yuksak insoniy fazilatlar tasviriga alohida maqolalar ajratiladi. Asarning beshinchi, oltinchi, yettinchi, sakkizinchi, to'qqizinchi, o'ninchi maqolalarida karam, saxovat, adab, qanoat, ishq, vafo, rostlik, ilm haqida so'z yuritiladi. Bunda shoir bu ezgu sifatlarni ulug'lab, kishilarni baxillik, xasislik, ta'magirlik, yolg'onchilik, johillik singari chirkin illatlardan holi bo'lishlarini istaydi.

Buxl erur borcha sifatdin xasis,  
Lek saxo javhari asru nafis.

Shoir och bo'lmaganga dasturxon yozish, yalong'och bo'lmaganga to'n kiydirishni, nom chiqarish uchun boylikni sohib yuborishni keskin qoralaydi va isrofgarchilikka yo'l qo'yish baxillikdan ham yomon illatdir deydi:

Aqlki ta'rif etar avsofni,  
Buxl bila teng tutar isrofni.

Har qanday tamagirdlikdan holi bo'lgan saxiylikni ulug'laydi. Shoir boriga qanoat qilib, hech kimdan hech narsa tama' qilmaslikni haqiqiy saxovat deb biladi. Shuningdek, borini muhtoj kishiga berish ham saxiylikdir.

Oni saxiy anglagil, ey hushmand,  
Kim ani davlat qilibon sarbaland.

Holi agar yaxshidurur, gar taboh,  
Kimsadan etmas tamai molu joh.

Mazkur misolda saxiy odam hech kimdan hech narsa tama' qilmaydi, «daryoning oldidan chiqib qolsa, undan hatto bir shabnamchalik suv suramaydi», - deyish bilan mubolag'adan foydalangan. Ya'ni shoir tasvirlayotgan kishisining olijanob fazilatini mubolag'aning kichraytirish xili orqali gavdalantirmokda.

Navoiy saxiylikni ta'riflab bo'lgach, unga amal qilish zarurligini ta'kidlaydi. Molni yig'ib yotish emas, balki uni saxiylik bilan sarflash kerakligini aytadi va fikrlari tasdig'i uchun ko'plab misollar keltiradi.

Insonning mukammalligini bildiruvchi belgilardan biri xayo va odobdir. Bu jihatdan oltinchi maqolat xarakterlidir. Shoir deydi:

Bo'lmas adabsiz kishilar arjumand,  
Past etar ul xaylni charxi baland.

Navoiy odabni inson kamoli uchun muhim masalalardan biri deb qaraydi. Bu masalaga u xalqparvarlik, gumanizm nuqtai nazaridan yondashadi. U butun vujudini xalq xizmatiga bag'ishlagan, el manfaati yo'lida kuyib-pishgan insonni kamtar va olijanob kishi deb biladi.:

El yo'lida gard o'lubon dard ila,  
Kibr ko'zin kur etib ul gard ila.

Navoiyning mahorati shundaki, u biror fikrni ilgari sursa, fikr isboti uchun ko'plab misollar keltiradi. Odobsizlikning bosh ko'rinishi noo'rin va beo'xshov kulgi ekanligini aytadi. G'uncha kulib ochildi, so'ngra "yetti ochilmoqda sochilmoq anga". Chaqin tog' orasida kulgani uchun yerdan ham quyi bo'lib, tuproq orasida yo'q bo'lib ketdi. Bunday misollar shoirning cheksiz tafakkur va yuksak iste'dod egasi ekanligini yana bir bor dalillaydi.

Navoiy bola tarbiyasi, ayolga munosabat, ota-onaga hurmat to'g'risida qimmatli ma'lumotlarni keltiradi.

Navoiy ayniqsa ota-onaga hurmatni saqlashni ta'kidlaydi.

Boshni fido ayla ato qoshig'a,  
Jismni qil sadqa ano boshig'a.

Ikki jahoningg'a tilarsen fizo –  
Hosil et ushbu ikisidin rizo.

Tun- kuningg'a aylagali nur fosh,  
Birisin oy angla, birisin quyosh.

Shoirning fikricha, ota-onani hurmat qilish tarbiyaning bir turi bo'lib, buni bajarish hamma uchun majburiyatdir. Ota oldida boshni fido qilib. Ona boshi uchun jismni sadaqa qilsa arziydi. Ikki dunyosi obod bo'lishini istagan kishi ular

rizoligini olishi shart. Tunu kuningga nur berib turgan bu ikki insonning birini oy deb bilsang, birisini quyosh deb bil.

Ko'rinadiki, Navoiyning odob haqidagi fikr-mulohazalari barcha davr kishilari uchun axloq kodeksi bo'la oladi. Undagi ulug' mutafakkir ilgari surgan mulohazalar jamiyatni sog'lomlashtirish, inson hayotini muayyan tizimga solishda muhim qoidalardir.

Dostonning yettinchi maqolati qanoat haqida bo'lib, unda shoir tama' haqida ham muayyan darajada so'z yuritadi. Maqolatning boshida tama'ning inson uchun zararli oqibatlari haqida to'xtalib, tama' qilgan podshoh yuvindixo'r, qanoatli darvesh esa podshoh kabi ekanligini ta'kidlaydi. Shoir inson uchun asosiy boylik qanoatdir, deb biladi.

Kimgaki ish bo'ldi qanoat fani,  
Bilki, ani qildi qanoat g'ani.

Ganju tajammulni g'ino bilmagil,  
Balki g'ino ganji qanoatni bil.

Navoiy boylik to'plashga jon-jaxdi bilan berilishga nisbatan qanoat qilishni, izzat-nafsga ega bo'lishni, har qanday qiyin sharoitda ham pastlik qilmaslikni, muhtojlikni shu yo'l bilan yengishni targ'ib qiladi. Shoir ko'plab misollar orqali ochko'zlik va tama'girlikni qoralaydi. Kishilarni qanoatga chaqiradi. U halol mehnat bilan topilgan ikki chaqani shohning in'omidan a'lo deydi:

Ikki qapo pul chekibon dast ranj,  
Yaxshiroq andinki, shah in'omi ganj.

Tinch ko'ngil birla qatiqsiz o'moch,  
Behki birov minnati birla ko'loch.

Sakkizinchi maqolat vafo haqida bo'lib, u osmondagi sonsiz-sanoqsiz eng qimmatbaho durlar, ya'ni yulduzlarning poetik madhi bilan boshlanadi. Shu qimmatli durlardan ham qimmatli dur bormi, degan savolga Navoiy vafo duri deb javob beradi. Shoir vafo haqida so'z yuritar ekan, o'z zamonasining asosiy xarakteristikasini beradi. Vafoning qismati bevaforlar jabridan ozor chekish, ko'rsatilgan mehrga javoban jafu chekishdan iborat bo'lgan. Shoir bundan qattiq iztirob chekadi va shunday deydi:

Kimki vafo ko'rdi jafu qilmadi,  
O'trusida g'ayri vafo qilmadi.

Jonni sanga topshurayin, ey sabo,  
Elt aning ollida qilmay ibo.

Shoir bevafoqlik, jabru zulm iskanjasida qolib ketgan zamondoshlari haqida so'z yuritar ekan, ularga o'zini hamdard deb biladi. Jabru zulm, bevafoqlik singari illatlarga qarshi o'zining nafrat va alamini ifodalaydi.

To'qqizinchi maqolatda shoir ishq o'ti ta'rifiga bag'ishlangan. Bunda shoir ishq pokizalik, chin muhabbat nishonasi ekanligini ta'kidlaydi. Inson go'zalligi tabiat go'zalligining bir bo'lagi, u esa umumiy mutlaq go'zallikning bir bo'lagi ekanligini esaltadi:

Husni haqiqiyini gar o'truda ko'r,  
Xoh ani ko'zgudavu gar suvda ko'r.

Chun g'araz ul husnga bo'ldi shuhud.  
Ko'zguvu suvga aroda ne vujud?

Bunda nafaqat majoziy ishq haqida balki insonning Yaratuvchiga bo'lgan cheksiz muhabbati xususida ham so'z bormoqda. Dunyodagi barcha go'zallik ko'zguda aks etgandek aks etib turar ekan, inson muhabbat ham husni mutlaqqa bo'lgan ishq singari samimiy va pok bo'lmog'i lozim. Shoir bu orqali insonning insonga bo'lgan samimiy muhabbatini ulug'laydi. Go'zallikning tub mohiyatini sezishga qodir insonlarga bunday sevgiga munosibdirlar va ularga bu sharaf, ulug'lik bag'ishlaydi.

Shoir ishqda sodiqlikni ulug'laydi, oshiqlikka da'vo qiladigan kishilarni oshiq emasligini keltiradi. U bu haqda: "Oshiq o'zin kim desa, oshiq emas, Borcha kishi ishqda ishqda sodiq emas", deb yozadi.

Ishq o'tining qudratini ulug'lagan shoir uning oldida aql ham ojiz ekanligini uqtiradi.

Qaydaki ishq o'ti bo'lib shu'lakash,  
Aql o'lub ul o't uza xoshokvash.

Bunda qayerdagi ishq o'ti shu'lalansa, aql u o'tga xashak bo'lishi aytiladi. Ya'ni aql ishq o'ti tufayli xashak singari yonib ketadi. Demak, ishqqa muhtalo



bo'lgan kishi tafakkur kuchiga emas ko'ngil mayliga qarab ish yuritishi tasvirlanmoqda.

Navoiy ishq inson hayotining mohiyatini belgilovchi muhim omil ekanligini, usiz hayot yo'qligini yuksak ehtiros bilan shunday ta'riflaydi:

Bo'lmasa ishq, ikki jahon bo'lmasun,  
Ikki jahon demaki, jon bo'lmasun.

Ishqsiz ul tanki, aning joni yo'q,  
Husnni netsun kishikim, oni yuq.

«Hayrat ul-abror» dagi o'n birinchi maqolatda ilm ta'riflanadi. Maqolatning boshlanishidanoq shoir ilm ahllarining ahvoli yomonligidan, olimlar xoru johillar azizligidan shikoyat qiladi va toki jamiyatda zulm hukmron ekan, ahvol shunday bo'lib qolishini aytadi.

O'n sakkizinchi maqolatda insonni hayotga xushyorlik bilan qarashga, uning ne'matlaridan oqillik bilan foydalana olishga chaqiradi. Shoir avvalo hayot aqlu xush egasi bo'lgan kishilar uchun zindon, unga ko'ngil qo'ygan kishilar esa nodon, deb biladi. Shuning uchun kishilarni unga bog'lanib qolmaslikka, falak zanjiri har qanday kimsani oxiri tuproq ostiga joylashi aytiladi.

Dahrki hush ahlig'a zindon erur,  
Bo'lg'on anga shefta nodon erur...

Kimsani chun doirai dahr band,  
Oxir etar tufrog' aro shahr band.

Navoiy insonga uning inson bo'lib tug'ilgani katta saodat ekanligini uqtiradi. Unga ko'rar ko'z, eshtar quloq, aytur til, sezuvchi dimog' ato etilganki, bu unga tabiatning barcha latofatidan bahramand bo'lish imkonini beradi. Aql va tafakkur esa insonga ato etilgan ne'mat va tuhfalarning eng oliysidir.

Bu bari in'omu ato bir taraf;  
Javhari aql o'ldi yana bir taraf.

Yaratiqlar ichida eng ulug'i va sharaflisi inson bo'lib, u buni qadriga yetishi, o'z umrini yaxshilikka bag'ishlashi lozim. Navoiy bu haqda yozar ekan, agar inson

yaxshilik qilishga qodiremas ekan, unda yomonlik ham qilmasligi, kishilarga ozor yetkazmasligi lozim, deydi.

Yaxshilik gar aylamasang ish chog'i,  
Aylamagin bori yomonlik dog'i.

Umuman, dostonda shoir davrning muhim masalalarini qamrab olishga harakat qilgan va bunda katta muvaffaqiyatga erishgan.

**Dostonning badiiy xususiyatlari.** Shoir o'z falsafiy, axloqiy-ta'limiy va ijtimoiy-siyosiy g'oyalarini badiiy ta'sirli qilib tasvirlashga harakat qiladi. Shuning uchun ham asar g'oyaviy, balki badiiy jihatdan ham e'tiborga molikdir. Shoir o'z fikrlarini badiiy-tasviriy orqali san'atkorona ifoda etadi. Shoir tabiat va hayotdagi oddiy haqiqatlarni ideallashtirib, o'quvchini undan urnak olishga chaqiradi. Masalan, shoir kishi hayotida adab va tavoze' yaxshi ekanligini badiiy ta'sirliroq qilib ifodalash uchun quyidagi baytni yozadi:

Chunki tavoze'ga xam o'ldi hilol,  
Bo'ldi fuzunroq anga har kun kamol.

Yangi chikdan oyning kun sayin to'lishib borishi ob'ektiv haqiqat. Shoir bunda hilol qaddini ham qilib, o'zini kamtar tutgan uchun u kun sayin kamol topa boshladi, deydi. Bu esa fikrni badiiy ta'sirchan ifodalashga xizmat qilgan.

Rostlik ya'ni to'g'rilikni ta'riflash uchun Navoiy nay va nayzani misol keltiradi:

Nay tuz uchun istar ani ahli hol,  
Chun tuz emas, egri ko'rar go'shmol.

Nayza bo'lub tuzlugidin sarbaland,  
Chirmosh uchun bandg'a qolib kamand.

Shoirning ta'rificha, qamish - nay to'g'ri o'sgani uchun musiqachilar uni qidirib yuradi, egri o'sgan qamishni esa odamlar sindirib tashlaydi; nayza ham to'g'ri bo'lgani uchun boshini ko'tarib yuradi, kamar esa egri bo'lgani uchun boylashga ishlatiladi.

O'n uchinchi maqolatda Navoiy odamlarga xayru ehson qilish yo'li bilan yaxshilik va foyda yetkazganlarni yomg'irli bulutga, birov hisobiga boylik to'plagan, hech kimga hech narsa berishni odat qilmagan kishilarni o'z iniga birov

sochgan donlarni tashishdan boshqa narsani bilmaydigan chumoliga tashbih qiladi va shu sabablarga ko'ra bulutning martabasi baland - doim osmonda, chumolining martabasi esa past - doim ishi go'rga kirib chiqish deydi.

**Dostonda hikoyatlarning o'rni.** «Hayrat ul-abror» dostoni, uning g'oyaviy-badiiy mazmuni haqida gap borar ekan, bu asarda har maqolat oxirida unda ilgari surilgan asosiy g'oyaga monand holda keltirilgan hikoyalarga ham to'xtab o'tish zarur. Bu hikoyalarning ba'zilar real voqelikdan, ba'zilar mashhur kishilar haqidagi rivoyatlar asosida yozilgan. Ba'zilar esa masal xarakteriga ega. Hikoyatlarning qahramonlari turli ijtimoiy tabaqaga mansub kishilardir. Unda Shoh G'oziy, Anushirvoni odil, Muhammad Xorazmshoh, Iskandar, Bahrom singari shohlar; Boyazid Bistomiy, Ibrohim Adham, Robiya Adaviya, Xoja abdulloh Ansoriy, Shayx Iroqiy, Imom Faxr Roziy, Abdulloh Muborak, Muhammad Porso, Xoja Abu Nasr kabi tasavvuf ahli namoyandalari, shuningdek, Hotam Toyi, o'tinchi chol, ta'magir jahongashta, qanoatli javonmard, ikki vafodor, Sher, Durroj va boshqa qahoamonlar ishtirok etadi. Bu obrazlar orqali shoir insonni komillik ruhida ko'rish g'oyasini hayotiy mazmun bilan boyitadi.

«Xayrat ul-abror»dagi hikoyatlar bilan Navoiy mohir hikoyanavis sifatida ko'rinadi. Uning hikoyachilikdagi mahorati keyinchalik «Saddi Iskandariy», «Lisonut-tayr» dostonlarida eng yuksak pog'onaga ko'tarildi.

Umuman, Hayrat ul-abror» dostoni o'zining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari hamda shoirning birinchi yirik asari bo'lishi bilan uning ijodida muhim o'rin tutadi. Sharq adabiyoti tarixida shu tipdagi dostonlar orasida falsafiy-didaktik dostonchilik an'analarini eng muvaffaqiyatli rivojlantirgan va o'ziga xos mavqega ega bo'lgan yetuk asarlardan biridir.

### **Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. “Hayrat ul-abror” ning tarkibiy tuzilishi haqida to'xtaling.
2. Doston maqolotlarining yetakchi g'oyasi nimalardan iborat.
3. Asarda shohlar shohlar qanday ta'riflanadi?
4. Dostonda qanday ezgu insoniy fazilatlar ulug'langan?
5. Ishq ta'rifi qaysi maqolotda keltirilgan?
6. Dostonda hikoyatlar qanday o'rin tutgan?

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. J. 7 - T.: Fan, 1991.
2. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. -T: 2006.
3. Oybek. Navoiy gulshani. Navoiy haqida maqolalar. T.: 1967.
4. Izzat Sulton. Navoiyning qalb daftari. - T.: Badiiy adabiyot, 1969.
5. Mallayev N.M. O'zbek adabiyoti tarixi. K.1. – T.: O'qituvchi, 1976.
6. O'zbek adabiyoti tarixi. Besh jildlik. J. 2. – T.: Fan, 1977.
7. Hayitmetov A. Navoiyxonlik suhbatlari. - T.: O'qituvchi, 1993.
8. Vohidov R. Alisher Navoiy va ilohiyot. – Buxoro: 1994.
9. Komilov N. Tasavvuf. K.1. – T.: Yozuvchi, 1996.
10. Hayitmetov A. Adabiy merosimiz ufqlari. – T.: O'qituvchi, 1997.
11. Muhiddinov M. “Hayrat ul- abror” dostonida inson talqini // Navoiyga armug'on. K.2. – T.: 2000. – B. 54-59
12. Komilov N. Tafakkur tuhfalari // Navoiyning ijod olami. Maqolalar to'plami. - T.: Fan, 2001.
13. Homidiy H. Har jabhada sarkor // Navoiyga armug'on. K.5. – T.: 2006.– B. 50-54
14. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. -T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi, 2006.
15. Qayumov A. «Hayratul-abror» talqini // Asarlar. 1-jild, K.1.T.: Mumtoz so'z, 2008. – B.6-133

### **«FARHOD VA SHIRIN» - QAHRAMONLIK DOSTONI**

**Dostonning yaratilish tarixi.** «Farhod va Shirin» o'zbek adabiyoti tarixida mukammal ishqiy-qahramonlik doston sifatida mashhurdir. Dostonda ishq, vafo, mehnatsevarlik, vatanparvalik, insonparvarlik, qahramonlik, ilm-fan va hunar ahli ulug'lanadi. Asar ezgu insoniy fazilatlar, umumbashariy g'oyalarni ifodalagani bilan Sharq adabiyoti adabiyoti taraqqiyotiga muhim ulush bo'lib qo'shilgan. Farhod, Xusrav, Shirin muhabbati tasviri Sharq xalqlari og'zaki va yozma adabiyotida keng tarqalgan sayyor syujet bo'lib, Navoiy anashu syujetga murojaat qilib, yangi g'oya va mazmunga ega bo'lgan “Farhod va shirin” dostonini yaratadi. Doston 1484 (hijriy 889) yilda yozilgan bo'lib, 54 bob (5782 bayt) ni o'z ichiga oladi. Shundan o'n bir bob muqaddima, ikki bob xotima, qolgan qirq bir bob esa doston voqealarining asosini tashkil qiladi.

Ma'lumki, Xusrav va Shirin obrazlari ma'lum tarixiy ildizga egadir. Xusrav haqida so'z yuritgan ko'pgina sharqshunos olimlar uning tarixiy shaxs ekanligini

e'tirof etishadi. Ma'lumotlarga ko'ra Xusrav mashhur sosoniylar podshohlardan bo'lgan Anushirvonning nabirasi Xusrav Parvezdir. U 590-628 yillarda hukmronlik qilgan va o'g'li Sheruya tomonidan qatl etilgan. X asr arab tarixchilari Muhammad ibn Jarir at-Tabariyning "Tarixi rasul val-muluk", Ibn al-Faqih Hamadoniyning "Kitob ul-buldon", XII asr tarixchisi abu Abdulloh Yoqutning "Mu'jam ul-buldon" kabi asarlarida ham shunday qaydlar uchraydi. Muhammad at-Tabariy ma'lumotiga ko'ra arman qizi yoki oromiylardan bo'lgan Shirin ham tarixiy shaxs bo'lib, u Xusravning sevimli xotini bo'lgan. Xusrav Parvezning shaxsi va davlat arbobi sifatidagi faoliyati haqida zamondoshlaridan misrlik Feofikat Simokatta, arman tarixchisi Sebeos asarlarida ham hikoya qilinadi. Shuningdek, XU asr tarixchilari Mirxond, Xondamir asarlarida hamda Alisher Navoiyning "Tarixi muluki Ajam" asarida ma'lumotlar keltiriladi. Shu tarixiy ma'lumotlar asosida xalq og'zaki ijodida ham turli-tuman afsona, rivoyat va qissalar paydo bo'la boshlagan. Solnomalarda Farhod va Mehinbonu haqida ham turli xil ma'lumot va rivoyatlar mavjud. Ayrim manbalar Farhodni tarix bilan, Besutun tog' qoyasi bilan bog'laydi. Rivoyatlarga ko'ra Farhod qoyaga Shirin, Xusrav va uning oti Shabdiz tasvirini ishlagan. Ko'rinadiki, Farhod timsoli dastlab xalq og'zaki ijodida paydo bo'lgan va yozma adabiyotda takomillashgan. Mehinbonu obrazining ildizlari Suriya solnomasi, Suriya-Midiya afsonalariga borib taqaladi. Keyinchalik shular asosida yozma adabiyotda mazkur obrazlar yaratila boshlagan. Dastlab yozma adabiyotda Xusrav va Shirin obrazi Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma" asarida uchraydi. Nizomiyning "Xusrav va Shirin" dostonidan keyin shu mavzuda doston yaratish an'anaga aylandi. Mazkur dostonida Xusrav va Shirin muhabbati qalamga olinib, Farhod unda toshyo'nar usta sifatida namoyon bo'ladi. U asarning boshidan oxirigacha ishtirok etmaydi. Farhod sut arig'i qazish voqeasidan asarga kirib keladi, shu asnodda Shirinni sevib qoladi. Sevgilisiga erishish uchun Xusravning og'ir shartlarini bajaradi. Xusrav uyushtirgan makkor kampirning hiylasiga ishonib, fojiali tarzda halok bo'ladi. Xusrav Dehlaviyning "Shirin va Xusrav" dostonida ham Shiringa katta ehtiros bilan ko'ngil qo'ygan Xusrav va muhabbatida sobit Shirin sarguzashtlari asarning

asosini tashkil qiladi. O'z navbatida, adib ko'p o'rinlarda «Xusrav va Shirin» an'anasiga ijodiy yondashadi. Syujetni birmuncha qayta qurish bilan obrazlar talqinida ham o'ziga xos yo'l tutadi. Dostonda Farhod Chin hoqonining o'g'li shahzoda sifatida tasvirlanadi. Farhod va Shirin muhabbati ikki taraflama ekanligi tasviri ham dostonning g'oyaviy-badiiy qimmatini oshiradi.

Bu syujetga XU asrda yashab ijod etgan Mavloni Ashraf va yana noma'lum bir muallif ham murojaat etgan. Navoiy keltirgan ma'lumotlarga ko'ra Ashraf bu mavzuga yangicha yo'nalishda yondoshgan, biroq uning asari bizgacha yetib kelmagan.

Tadqiqotchilar yuqorida nomlari tilga olingan mualliflarning asarlaridan tashqari fors-tojik tilida yaratilgan yana ikkita asar haqida ham fikr yuritishadi. Bulardan biri XIV asr ozarbayjon shoiri Orif Ardabiliyning «Farhodnoma» asari, ikkinchisi XV asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan shoir Hasan Salimiyning «Shirin va Farhod» dostonidir. Akademik Orasli o'zining ozarbayjon va o'zbek adabiy aloqalariga doir ishlarida Navoiy tomonidan eslab o'tilgan noma'lum muallif Orif Ardabiliydir, degan fikrni bildirgan edi. Adabiyotshunos N.Mallayev ham tadqiqotlarda Navoiy ta'kidlagan “Yaxshi ma'lum bo'lmagan roqim” Orif Ardabiliy degan fikr ilgari surilganligini aytadi. Fors tilida bitilgan “Farhodnoma” dostoni ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismida Farhod bilan Guliston degan qizning, ikkinchi qismida Farhod bilan Shirinning sevgi sarguzashtlari hikoya qilinganligini keltirib o'tadi <sup>1</sup>. Akademik B.Valixo'jayev “Farhodnoma” dostonining boshqa xamsanavislar dostonlaridan farqli o'ziga xos jihatlari haqida qimmatli ma'lumotlarni bildiradi, asarning qisqacha mazmunini bayon etadi <sup>2</sup>.

Ko'rinadiki, Navoiy o'zidan oldin yaratilgan mazkur syujetga oid asarlar bilan yaqindan tanish bo'lgan. Shuningdek, shoir ushbu sayyor syujetning xalq og'zaki ijodidagi talqinlarini ham yaxshi bilgan.

**Dostonning tarkibiy tuzilishi va g'oyaviy yo'nalishi.** Navoiy dostonining 1-5 boblari hamd va na'tlardan iboratdir. 6-bob ulug' salaflar Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviy, 7-bob Abdurahmon Jomiy vasfiga bag'ishlangan. Keyingi bir

<sup>1</sup> Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. Биринчи китоб. – Т.: Ўқитувчи, 1976, 442 б.

<sup>2</sup> Валихўжаев Б. Мумтоз сиймолар. – Т.: 2002, 151 б.

necha bobda (8-9) esa Navoiy dostonning yozilish sabablariga batafsil to'xtab, Nizomiy, Xusrav Dehlaviy, Ashraf kabi shoirlarning «Xusrav va Shirin» yaratish borasidagi tajribalarini tilga oladi, ularda yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni tuzatib, o'z g'oyaviy niyatini qay tarzda amalga oshirmoqchi ekanligini keltiradi. 10-11 boblarda Sulton Husayn Boyqaro va shahzoda Badiuzzamon madh etiladi. Shu bilan doston muqaddimasi tugaydi. Asarning asosiy voqealari 12-52 boblarda hikoya qilinadi. Sulton Husayn Boyqaroning o'g'li Shoh G'arib Mirzoga nasihatlar 53-bobda keltiriladi. Doston xotimasi 54-bob bilan yakunlanadi.

“Farhod va Shirin” dostonining o'zbeq fors-tojiq ozarbayjon, turk adabiyotlarida XV asrgacha yaratilgan «Xusrav va Shirin»lar bilan qiyosi shuni ko'rsatadiki, o'zbek shoiri o'z salafлари an'analarini davom ettirib, o'zining mavzusi, g'oyaviy yo'nalishi, obrazlari bilan an'anaviy dostonlardan keskin farq qiluvchi doston yaratgan. Bu avvalo dostonning turkiy tilda yaratilgani va unga bosh qahramon sifatida Farhod tanlanganida kuzatiladi. U Xusravni Shirin muhabbatiga nomunosib deb biladi. Shoir an'anaviy mavzuni yangicha yo'nalishda qayta ishlab, Farhod timsolida ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk bo'lgan komil inson obrazini yaratishni niyat qiladi.

Dostonning 9-bobida shoir o'zidan oldingi yaratilgan asarlar haqida so'z yuritar ekan, Xusravni bosh qahramon sifatida tanlanganidan ko'ngli to'lmasligini aytadi. Ularda Xusravning tevarak-atrofida hiylagar, firibgar, xushomadgo'y kishilar yig'ilgan, goh u, goh bu xotini huzurida orom oladi, Shiringa shohona oshiqlik izhor qiladi. Shuning uchun Xusrav bu asarlarda haqiqiy muhabbat iztiroblari, dard-kechinmalaridan begona erka shoh sifatida talqin etiladi. Shoir bu fikrlarni ilgari surar ekan, o'zining niyati boshqacha ekanligini aytadi: “Zaruratkim solib bir o'zgacha tarh, Bu mehnatnomani qilg'umdurur sharh”.

Navoiy Farhodning sevgi sarguzashtlari tasvirida vafo, sadoqat, mehnat, qahramonlik, jasorat, do'stlik singari g'oyalarga ham urg'u bergan.

Shoir Farhod haqida hazin bir doston yaratib, unda Farhod va Shirinni tarannum qilishni niyat qilganini shunday ifodalaydi:

Meni mahzung'akim ishq etti bedod,

Solib g'am tog'ida andoqki Farhod.

Munosibdur agar tortib navoni,  
Desam Farhodi mahzun dostoni.

Yozib jon mushafidin ikki oyat,  
Debon Farhodu Shirindin hikoyat.

“Farhod va Shirin” dostoni g'oyatda murakkab tuzilishga ega bo'lib, undagi har bir obraz va tasvir alohida talqinni talab etadi. Uning tub mohiyatida Farhod va Shirinning sevgi sarguzashtlari va bu yo'lda boshdan kechirgan qiyinchiliklari turadi.

**Chin xoqoni ta'rifi.** Doston voqealari Chin xoqoni ta'rifi bilan boshlanadi. Shoir xoqonning ulug'likda, kuch-qudratda tengsizligini, lashkarining soni osmondagi yulduzlar, yerdagi qum singari ko'pligini, yuksak mavqe' va obro'-e'tiborga egaligini ta'kidlab ko'rsatadi. Yaxshi hulqi va odilligini Faridunga o'xshatadi, boyligi Qorunning xazinasidan yuz ming barobar ortiqligini keltiradi. Har jihatdan tengi yo'q ulug' xoqon farzandsizlikdan iztirob chekayotganini tasvirlaydi.

Zamona toqi ofoq aylab oni,  
Bari xonlar aro toq aylab oni.

Aningdek fard etib charxi kuhangard  
Ki, bir farzanddin ham aylabon fard.

Mazkur bobning o'ziga xosligi shundaki, shoir xoqonning iztiroblarini uning o'y-kechinmalari ya'ni ichki monologi orqali bayon etadi. Ushbu o'rinda shoir fikri, xoqonning o'z iztiroblarini bayon etuvchi ichki monologi hamda voqealar tasviri birin-ketin keladi. Bu haqda akademik A.Qayumov so'z yuritib, har bir bo'lim bir-biri bilan chambarchas bog'langan bo'lib, ular bir-birining davomi, xulosasidir, deydi <sup>1</sup>. Mazkur bobda shoirning dunyoning bevafoqligi, umrning o'tkinchiligi, insoniy tenglik g'oyalarini ilgari suradi. Ya'ni shoir shoh taxt orqali ko'kka qadar yuksalsa, gado uning taxtidan panoh kun ko'rsa ham “bu dog'i ul ikisi teng durur, teng” , deydi. Bunda shoir ijodida muhim o'rin tutadigan “shoh va

---

<sup>1</sup> Каюмов А. Асарлар. 1-жилд, 1-китоб. – Т.: 2008, 164 б.



gado teng”, degan qarashining ifodasidir. Dostonda xoqonning farzandsizlik tufayli chekkan iztiroblari, ruhiy kechinmalari cheksiz dard bilan tasvirlanadi. Bunda shoir tasvirni kuchaytirish uchun hayotiy misollar orqali fikr-mulohazalarini tasdiqlab boradi. M.:

Chamanda sarv bas ra’no shajardur,

Yo’q andin naf, chunkim besamardur.

Shajarkim juz latofat shevasi yo’q,  
O’tun o’rnidadur gar mevasi yo’q.

Yog’indin gar bulut yetkurmasa sud,  
Havoda ul hamonu bir qalin dud.

Xoqonning iltijolari ijobat bo’lib, orzuiga yetadi. Unga o’g’il farzand ato etiladi. Bu shodlikdan u butun mamlakatga bazm uyushtiradi, xalqqa in’omlar beradi. Xoqon bu shodlikdan jahonga juda ko’p javohir sochadi. Dostonda bu shodiyona tasviri batafsil beriladi.

**Farhodning ilm-hunar egallashi.** Xoqon o’g’li tug’ilishini katta tantana bilan nishonlash bilan birga uning tarbiyasiga ham alohida ahamiyat beradi. Tarbiyani xoqon o’g’liga yaxshi ism qo’yishdan boshlaydi. Unga Farhod deb ism qo’yadi:

Anga farzona Farhod ism qo’ydi,  
Hurufi ma’xazin besh qism qo’ydi.

Firoqu rashku hajru oh ila dard,  
Biror harf ibtidodin aylabon fard.

Borin ustodi ishq etgach murakkab,  
Tarakkubdin bu ism o’ldi murattab.

Ammo bu ism Farhodga otasi tomonidan emas, balki uning pokiza zotini ko’rgach, ishq unga shunday ism beradi. Unga ism ishq osmonidan nasib bo’lgan.

Oilada farzand tug’ilishini intizor bo’lib kutgan ota Farhodga yoshlikdan boshlab puxta bilim o’rgatadi. Zamonasining barcha fanlaridan puxta bilim olishi uchun butun shart-sharoitlarni yaratib beradi. “Yunonda hikmat girdi”, “Arastu bir kichik shogirdi” bo’lgan ustozdan Farhod qunt va ixlos bilan ilm o’rganadi.

Farhodning savodi juda tez chiqadi. Bu haqda shoir “Uchunchi oy ravon bo’ldi savodi. Burung’i yilda Qur’on bo’ldi yodi”, deb yozadi. Farhod o’n yoshga yetganda jahonda u bilmaydigan ilm qolmaydi. U dunyoviy, ilohiy va diniy bilimlarni mukammal o’rganib, ma’naviy kamolotga erishadi. Shuningdek, u jismoniy jihatdan ham barkamol bo’lib, kamol topadi. Farhod o’n yasharligida qaddi-qomati yigirma yasharnikidek edi. U nafaqat aqlan va jismonan baquvvat bo’lib o’sdi, balki suvda suzish, qilichbozlik, chavandozlik, merganlik singari jismoniy mashqlar doimiy mashg’uloti bo’lgan. Farhod o’zining aqli, jismoniy-kuch qudrati bilan kishilarni hayratda qoldiradi.

Farhod bolalikdan boshlab g’amgin bo’lib o’sa boshlaydi. Otasi qanday bo’lmasin o’g’lini xursand qilishga harakat qiladi. Xoqon Farhodni bu holatdan qutqarish uchun unga atab yilning to’rt fasliga moslangan qasrlar barpo etishga kirishadi. Anashu jarayonda Farhod Qorandan tosh yo’nishni, Moniydan naqqoshlikni, Boniydan me’morlikni o’rganadi.

Ko’rinadiki, Navoiy kuch-qudratiga munosib aql-idrok, fahm-farosat, zehn egasi bo’lgan Farhodni hunar egasi sifatidaham ta’riflaydi. Bu bilan shoir uni komillikning yuqori maqomiga ko’tarilish uchun tayyorlab boradi.

**Yunoniston safari va Farhodning kamolotga erishishi.** Farhod tabiatida ishqdan dardmandlik u tug’ilgandan boshlab mavjud edi. U voyaga yetgan sari qalbidagi ishq otashi ham yuksala boshlaydi. Farhod uchun Xoqon buyrug’iga binoan qurilgan to’rt qasr ham uning tushkun kayfiyatini ko’tara olmaydi. Xoqon o’g’li kayfiyatini ko’tarish uchun bir yil davomida to’rt qasrda bazm uyushtiradi. Biroq bundan hech qanday naf’ bo’lmaydi. Shundan keyin u shahzodaga toj-taxtni topshirmoqchi bo’ladi. Biroq Farhod odob bilan otasi taklifini rad etadi. Mazkur o’rinda Navoiyning shoh shahzodalar haqidagi ideal qarashlari o’z ifodasini topgan. Shoir yashayotgan zamonada toj-taxt uchun o’zaro ichki nizolar avj olayotgan bir sharoitda xoqon va Farhod o’rtasidagi samimiy munosabat shoh va shahzodalarga ibrat qilib ko’rsatiladi.

Xoqon xazinasida sandiqdagi Oynai Iskandariy ko’rgan Farhod uning sirlarini bilish uchun Yunonistonga o’tlanadi. Farhod – ishq farzandi. U haqiqiy ishqqa

tariqat yo'li bilan yetishishi ko'zda tutiladi. Shuning uchun unga bu yo'lda ustod ya'ni pir kerak edi. Donishmand Jomosp Farhodning tug'ilishini bashorat qilib, uning tarbiyasi bilan shug'ullanishni Suhayloga vasiyat qiladi. Farhod Suhaylo dargohiga boradi. Savol-javob orqali donishmand Farhod o'zi kutgan inson ekanligini biladi. Unga maslahatlar berib, ajdaho, dev va temir paykardan xabar beradi va Suqrot huzuriga olib boradigan yo'lni ko'rsatadi. Ajdahoni yengish uchun Samandar yog'ini tuhfa etadi. Samandar afsonaga ko'ra go'yo o'tdan paydo bo'lib, o't ichida yashaydigan jonivordir. Demak, uning yog'i ramziy ma'noda ishq ramzidir. Asardagi ajdaho, Ahriman va temir paykarlar tasavvufiy ramzlar bo'lib, ular nafs va moddiy dunyo intilishlarini anglatadi. Farhod ulardan ilohiy ishq tufayli xalos bo'ladi. Suhaylo Farhodga o'zi bilgan narsalarni o'rgatib bo'lgach, uni Suqrot sari yo'llaydi. Adabiyotshunos E.Ochilov bu holatni bevosita tasavvuf bilan bog'liqligi haqida shunday deydi: "Ma'lumki, tasavvufda bir necha purning ta'limini olish rasm bo'lgan. Shayxlar shogirdlarini imkonlari darajasida tarbiyalagach, iste'dodiga qarab o'zlaridan kuchliroq pirlarga tavsiya etganlar. Suhayloning Farhodga o'zi bilgan narsalarni o'rgatib bo'lgach, uni Suqrot sari yo'llashi ham ayni shu narsa bilan izohlanadi"<sup>1</sup>. Temir paykarni yengish uchun borayotgan Farhod yo'lda Xizrga yo'liqadi. Xizr tiriklik suvini izlab topgan, uni ichib, mangu barhayotlikka erishgan payg'ambardir. U ko'pgina xalqlar adabiyotida qahramonni mushkul va qiyin ahvoldan qutqarib, unga yordam beradigan, to'g'ri yo'l ko'rsatadigan xaloskor, homiy sifatida tasvirlanadi. U Farhodga o'zini tanishtirar ekan, "Meni Xizr anglakim, tuttum yo'lungni Ki, to bu yo'lda tutqoymen qo'lungni", - deydi. Adabiyotshunos N.Komilov: "Xizrni Farhodning ikkinchi piri deb qabul qilish mumkin, - deb yozadi, - ammo u ulug' maqsad sari tavajjuh etgan Farhodga g'oyibdan kelgan madaddir. Farhod Xizr maslahatiga kirib, jomga qaraydi va unda Suqrot maskan tutgan tog'ni hamda g'orni g'orni ko'radi"<sup>2</sup>.

Ma'lumki, Farhod tug'ilgan kunidan boshlab uni ismsiz bir dard o'rtaydi. Uni nima ekanligini o'zi ham, atrofdagilar ham tushunishmaydi. U Xizr bilan

---

<sup>1</sup> Очиллов Э. Комилликнинг икки йўли // Навоийнинг ижод олами. Мақолалар тўплами. –Т.: Фан, 2001, 135 б.

<sup>2</sup> Комилов Н. Суқрот – комил инсон тимсоли // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Т.: 1991, 27 сентябрь.

uchrashgandan keyingina o'zini o'rtab kelayotgan sirli dard tilsimi ochiladi. Xizr o'zining hayot suvi kabi ta'limlari bilan Farhodga yangi hayot bag'ishlaydi. Farhodning ajdaho, dev va temir paykarni yengib, jomi jahannamoni qo'lga kiritgani bu uning qalbi oyinai jahannamoga aylanganiga ishoradir.

Xoqon xazinasidagi Iskandar oyinasi ham aslida Farhodning o'z ko'ngli bo'lib, tariqat yo'lida ranju mashaqqatlar chekib, nafsoniy intilishlardan voz kechib, ruhoniy fazilatlar kasb etgach, u ko'zguday porlab, hamma narsani o'zida aks ettiradi.

Farhod yo'lida uchragan mushkulotlarni yengib, Suqrot huzuriga keladi. Suqrot Haqqa yetishishning ikki yo'li borligini aytadi: "biri o'zlukni qilmoq bo'ldi foniy, Yana bir dog'i topmoq bo'ldi oni". Bu maqomga esa majoziy ishq orqali erishiladi:

Bu o'zlukdin qutulmoq chorasoz,  
Nima yo'q uylakim ishq majoz

Suqrot Farhod boshiga tushgan ishq majoziy orqali haqiqiy ishqqa erishish ekanligini aytadi. Navoiy Farhodning Shiringa yetishish yo'lida chekkan ranju mashaqqatlari, alam-iztiroblarini majoziy ishq, oshiqning o'z ma'shuqasi visoliga erishishini esa haqiqiy ishq deb ataydi.

Suqrot Farhod boshiga tushishi mumkin bo'lgan sinovlar, mashaqqatlardan uni ogohlantiradi. Bu qiyinchiliklarni yengib o'tish yo'l-yo'riqlarini o'rgatadi. Shundan keyin u vafot etadi. Suqrotni dafn etib, Xoqon, Farhod, Mulkaro o'z vatanlariga qaytadilar. Chinga qaytgach, Farhod oinai Iskandariyda o'z taqdirini ko'radi. Unda Shirin jamolini ko'rgach, bexush yiqiladi. Xoqon xazinasidagi oinai Iskandariy aslida Farhodning ko'ngli bo'lib, tariqat yo'lida ranju mashaqqatlar chekib, nafsoniy intilishlaridan voz kechib, ruhoniy fazilatlar kasb etgach, u ko'zguday porlab hamma narsani o'zida aks ettiradi.

Farhodning ahvoli kundan-kun og'irlashib borayotganini ko'rgan Xoqon tabiblar maslahatiga ko'ra o'g'lini dengiz safariga olib chiqadi. Dengizda kema to'fonga uchraydi va Farhodni otasi hamda Mulkorodan ajratib qo'yadi. Xo'tandan Yamanga ketayotgan savdogarlar kemasi bir taxta ustida xushsiz yotgan Farhodni

ko'rib. Uni qutqarishadi. Savdogarlar kemasini qaroqchilardan himoya qilib, Farhod mislsiz qahramonliklar ko'rsatadi. Shu yerda u Shopur bilan tanishib, do'st tutinadi va ular o'rtasidagi do'stlik bir umr davom etadi.

**Mehnatsevarlik va yaratuvchanlik.** Farhod yoshligidan xalqni o'ylashi, uning og'irini yengillatishga urinishi, chumoliga ham ozor yetkazmasligi bilan ajralib turadi. U o'zining favqulodda xususiyatlari, alohida iste'dodiga qaramay, sira xalqdan ajralmagan. Hamisha yel-yurtga xizmat qilishni, xalqqa foydasi tegishini ko'zlaydi. Uning bu sifati Shirinni izlab, Armanistonga kelganida tog' qazuvchilarning og'ir mehnatini ko'rganida yaqqol namoyon bo'ladi.

Hunarni asrabon netkumdir oxir,  
Olib tuproqqamu ketkumdur oxir?!

Farhod darhol ishga kirishadi. U mashaqqat chekib, tog'dagi qal'aga suv olib keladi. Undan nafaqat Shirin, balki butun xalq bahramand bo'ladi. Bu bilan shoir Haq yo'lida qilingan ishning xalqqa ham foydasi katta ekanligiga urg'u beradi. Navoiy g'oyalarining hayotiyliigi shundaki, Farhod obi hayotni kurash va katta zahmat bilan qulga kiritadi. Farhodning bu faoliyatida o'zbek xalqining obi hayot haqidagi asriy orzulari, unga qaratilgan kurashlari o'z ifodasini topgan. Arman xalqining kanal bitishiga ko'z tutishi, unga suv ochilgan kundagi shodiyonalar tasvirida ham shoir xalq qarashlarini ifodalaydi. Shoir mehnatning yaratuvchanlik, o'zgartuvchanlik kuchiga yuqori baho beradi, uni inson hayotining yuksak mazmuni deb biladi.

Sevgilisi mamlakatiga dushman hujum qilganida u Xusrav qo'shiniga qarshi kurashga o'tlanadi. Shirin vatanini mardonavor himoya qiladi. Biroq Xusrav uni makr-hiyla bilan asir oladi va uni yovuz bir makkora kampir qo'li bilan halok etadi. Dostonda bunday o'rinlar ta'sirchan tasvirlangan. Biroq shuncha yovuzliklar qilgan, begunoh kishilar o'limiga sababchi bo'lgan Xusrav jazosiz qolmaydi. Shirinning go'zalligini ko'rgan Xusravning o'g'li Sheruya o'z otasini o'ldiradi. Xusravning bunday fojiali o'lim topishi yovuzlikning o'limga mahkum ekanligiga ishoradir.

**Shirin obrazining asarda tutgan o'rne.** Dostonda Shirin obrazi markaziy o'ringa ega. Navoiy uni aqlu odobda to'kis, go'zallik, vafo va sadoqat ramzi sifatida tasvirlashga alohida ahamiyat bergan. U qalbi pok, oqila, kishilarga mehribon, xalqparvar va vatanparvar, qat'iyat va mustahkam iroda egasi bo'lgan insondir.

Adabiyotshunos A.Hayitmetov: “Navoiy ijodining xususan, lirik va epik she'riyatining bosh xususiyatlaridan, qimmatli tomonlaridan biri unda kishilar o'rtasidagi mehru oqibat, hurmat, vafodorlikning kuylanishidir”<sup>1</sup>, deb yozadi. Darhaqiqat, uning qahramonlari irqi, millati yoki mansabiga qarab emas, balki insoniy sifatlariga bir-biriga muhabbat qo'yadi. Dostondagi Farhod va Shirin ishq buning yorqin misolidir. Dostonda Shirinning Farhodga bo'lgan sevgisi g'oyatda jozibador tarzda tasvirlangan. U Farhodni Chin shahzodasi bo'lganligi uchun emas, mehnatdagi matonati, oqil va donishmandligi, kamtarin, beg'araz va mard insonligi uchun sevib qoladi. Farhod Shiringa qanchalik qattiq ko'ngil qo'ygan bo'lsa, Shirinning ishq ham undan kam emas. Navoiy Farhod va Shirin muhabbatidek samimiy sevgi falak paydo bo'lgandan beri ko'rmagan deb ta'riflaydi. Shirin Farhodning mahbubi mutlaq visoliga erishish yo'lidagi mazhar bo'lish bilan bir qatorda, ulug' niyatni ko'ngliga tukkan oshiq edi. U ham ayriliq tufayli azob chekar, ko'ngli ishq tufayli g'amgin edi. Farhodning o'limidan xabar topgan Shirin uning oldiga boradi va uning qalbidan o'tli bir oh chiqib, mangu uyquga ketadi. Bu sevishganlar ruhining jism iskanjasidan xalos bo'lib, abadiylikka ravona bo'lishidir.

**Mehinbonu – adolatli va ma'rifatli hukmdor.** Dostonda adolat masalasi Mehinbonu obrazi vositasida yoritiladi. Hikoya qilinishicha, Mehinbonu Armaniyada rasmiy shoh sifatida toj egasi emas. Lekin uni butun arman xalqi o'z bekasi sifatida taniydi, unga e'tiqod bilan qaraydi. Navoiy Mehinbonu obrazini yaratar ekan, uning mamlakatdagi qurilishlar, suv inshoatlariga homiyligi masalasiga ham alohida diqqat qiladi. Armaniya ustiga Xusravning harbiy yurishi vaqtida Mehinbonu obrazi o'zining butun ulug'vorligi bilan namoyon bo'ladi. O'z

---

<sup>1</sup> Хайитметов А. Навоийхонлик суҳбатлари. – Т.: Ўқитувчи, 1993.

xalqi va vataniga bo'lgan chuqur muhabbat hissi uni dahshatli yov bilan yuzmayuz olishuvga olib keladi. Mehinbonu mamlakat bekasi sifatida kuchli siyosatdon hamdir. U dastlab dahshat solib turgan yov bilan munosabatni buzmaslik va falokatning oldini olish uchun barcha tadbirlarni ishga soladi. Lekin Xusravning Farhod va Shirin sha'niga aytgan haqorat gaplari uni dushmanga qarshi shafqatsiz kurashga otlantiradi. Jaholatga qarshi, or-, nomus talashib kurashayotgan Navoiy qahramoni shu o'rinlarda Eron shohi Kir bilan munozarada uz shijoati bilan yengib chiqqan To'maris obraziga yaqin turadi. Shuningdek, Mehinbonu ilm-ma'rifat homiysi hamdir. U o'z jiyani Shirinning har tomonlama kamol topishi uchun butun sharoitlarni yaratib beradi. Saroydagi o'nta olima va fozila qizlar Mehinbonu va Shirin atrofidagi eng yaqin hamsuhbatlardir. Ular Mehinbonu va Shirinning ilmparvarligi, nazokatli didi, yuksak aql-idrok egalari ekanligini namoyon etuvchi obrazlardir.

**Bahrom obrazi.** Dostonda Farhod bilan Bahrom o'rtasidagi yaqin munosabatlar ham yuksak insoniy tuyg'u namunasi sifatida tasvirlangan. Farhodning «otabegi» Mulkoroning o'g'li Bahrom Farhod bilan egizak bolalardek tarbiya topadilar. Farhod bu qadrdon insonni qayerda bo'lmasin tildan qo'ymaydi, eng og'ir, tahlikali damlarda uning madadiga suyanadi. U Xusrav qo'lida tutqunlikda ekan, Baxromga sabo orqali xabar qilib, Armanistonni g'amxonaga aylantirgan Xusravni toju taxti bilan yakson etishni vasiyat qiladi. Farhodning fojiasidan xabar topgan Bahrom qiyinchiliklar bilan Armanistonga yetib keladi. O'zining qadrdon kishisini tiriklar orasida topmagach, nola chekadi. Bahrom Farhodga xay-rihoh bo'lgan, unga o'z tuprog'idan o'rin bergan arman xalqiga minnatdorchilik bildiradi.

Dostonda Farhod va Shirinning komillik sari intilishlarida Xoqon, Mulko, Bahrom, Qoran, Moniy, Boniy, Mehinbonu va Shopur singari qahramonlar ularga madadkor bo'lishadi. Xusrav, Buzrug Ummid, Sheruya, makkora kampir singari qahramonlar esa makr-hiyla, zulm-qabohat egasi bo'lgan nafs bandalaridir.

**Navoiyning shahzoda Shoh G'arib Mirzoga nasihati.** Asarning 53 bobi shoir Husayn Boyqaroning o'g'li Shoh G'arib Mirzo madhiga bag'ishlanadi.

Navoiy unda shahzodaga bir necha nasihatlar beradi. Bo'lg'usi shoh nimalarga amal qilishi zarurligini keltiradi. Shoir tasviricha avvalo shoh ogoh bo'lishi zarur. Ya'ni u el-yurt ahvolidan yaxshi xabardor bo'lishi lozim. Ogohlikni o'ziga shoir qilib olmagan shoh shoir talqinida podshohlikka munosib emasdir:

Erursen shoh – agar ogohsen sen,  
Agar ogohsen sen – shohsen sen.

Navoiy shoh ilmi bo'lsa undan yaxshi ot qolishini eslatadi. Fikrlari tasdig'i uchun Iskandar ilmi hunarli bo'lgani uchun butun olamni qo'lga kiritgani, ulug' hukmdor MirzoUlug'bekning astronomiya sohasida qilgan xizmatlarini bir-bir keltirib o'tadi. Shoh uchun ilm bilan birga qanoat ham juda zarur, deb biladi. Shuningdek, shoh din ilmini ham chuqur bilishi kerak. Navoiy din ilmida fiqh, hadis, tafsirni bilish lozim deydi. Bu uch ilm haqida “Chu takomil o'ldi bu uch ilm sen bil, Yana bir ilm maylin qilma, yo qil”, deydi. Shoir shahzodaga nasihatlar berar ekan, dunyoning o'tkinchiligini aytadi. Hayotda yaxshi ham, yomon ham yashaydi, ammo inson o'zidan yaxshi nom qoldirishga harakat qilishi lozim, deydi.

Shoir nima foydali, nima zararli ekanini hikmat ajratib berishini, ana shundan keyin foydalilari bilan shug'ullanish kerakligini. Hamma ishda ham o'rtani tutishga mayl qilish lozimligini aytadi.

Navoiy shohning mamlakat boshqarish ishlari haqida to'xtalar ekan, tarixda jahongirlar qanday yo'l tutganliklari, qay biri adolat, qay biri zulm yo'lini tutgani, qanday ishdan mamlakat obod bo'lib, qaysinisidan barbod bo'lishini hukmdor yaxshi bilishi lozimligini ta'kidlaydi. Elga foyda keltiradigan ishlar, cherikning qanday tuzilishiyu, dinga ziyon yetkazadigan ishlar nimalar ekanligini chuqur anglashi, qanday shohdan yaxshi nom qoladi, degan savolga shoh javob bera olishi zarur deb hisoblaydi.

Nechukkim, shoh topmish dinu dunyi,  
Sanga ham yetgay ushbu ikki ma'ni.

Bu ikki ishni gar qilsang tavaqqu',  
Ne ishkim shah qilur, qilg'il tatabbu'.



Ko'rinadiki, Shoh g'arib Mirzoga qilingan ushbu nasihat orqali Alisher Navoiy o'zining ideal jamiyat va ideal hukmdor haqidagi qarashlarini shoirona ifodalaydi.

**Dostoning badiiy xususiyatlari.** “Farhod va Shirin” dostonida yetuk badiiy tasvir ustasi ekanligini namoyon eta olgan. Doston hazaji musaddasi mahzuf vaznida yozilgan. Shoir peyaj tasvirini alohida mahorat bilan chizadi. 17-bobdagi fasllar tasvirida shoir mohir peyaj ustasi sifatida namoyon bo'ladi. Qahramonlar ruhiy kechinmalari, ma'naviy olamini yoritishda maktub janriga murojaat qiladi. Farhod va Shirinning bir-biriga yozgan maktublari bunga misol bo'la oladi. Shoir og'zaki ijodga xos tasvir usullaridan mahorat bilan foydalanadi. Farhodning ajdarga qarshi kurashi, Ahrimanni yengishi, Iskandar tilsimini ochishi, dengizda qaroqchilarga qarshi kurashi va boshqa epizodlarda shoir xalq ertak va afsonalariga xos tasvir usullaridan san'atkorona foydalangan.

Dostonning ko'pgina o'rinlarida tashbeh, mubolog'a, tashxis, tazod, talmeh, istiora, irsolu masal singari badiiy tasvir vositalariga murojaat qilinganki, bu shoirga tasirlanayotgan lavha yoki manzarani ta'sirchan ifodalash imkonini bergan.

Umuman, dostonning o'ziga xos jihatlari anchagina. Asrlar osha sevib o'rganilayotgan bu asarda ilgari surilgan masalalar bugungi kun kishisini ma'naviy-ruhiy jihatdan kamol topishida muhim ahamiyat kasb etishi shubhasizdir.

#### **Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Dostonning yaratilish tarixi va tarkibiy tuzilishi haqida gapiring.
2. Dostondagi asosiy timsollar kimlar?
3. Asarda chin xoqoni qanday tasvirlangan?
4. Farhod va Shirin obraziga ta'rif bering.
5. Yunoniston safaridan shoir qanday maqsadni nazarda tutgan?
6. Dostonda majoziy va haqiqiy ishq qanday tasvirlangan?
7. Asarning badiiy xususiyatlari nimalarda ko'rinadi?
8. Doston boshqa xamsanavislarning asarlaridan nimasi bilan farqlanadi?

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. J.8 - T.: Fan, 1991.
2. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. - T.: 2006.
3. Mallayev N. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti. – T.: Adabiyot va san'at, 1974.

4. Mallayev N.M. O'zbek adabiyoti tarixi. Birinchi kitob. – T.: O'qituvchi, 1976.
5. O'zbek adabiyoti tarixi. Besh jildlik. J. 2. – T.: Fan, 1977.
6. Hayitmetov A. Navoiyxonlik suhbatlari. - T.: O'qituvchi, 1993.
7. Vohidov R. Alisher Navoiy va ilohiyot. – Buxoro: 1994.
8. Komilov N. Tasavvuf. K.1. – T.: Yozuvchi, 1996.
9. Nabiyev F. Lirik qahramon va tabiat tasviri // Navoiyga armug'on. K.2. – T.: 2000.
10. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. -T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi, 2006. – 528 b.
11. Qayumov A. «Farhod va Shirin» sirlari // Asarlar. 1-jild, K.1.T.: Mumtoz so'z, 2008. – B.141-282.
12. Nabiyev F. Priroda i poetika Alishera Navoi. – T.: Fan, 2008.

## «LAYLI VA MAJNUN» - ISHQIY –SARGUZASHT DOSTON

**Dostonning yaratilish tarixi.** Alisher Navoiy «Xamsa»sining uchinchi dostoni «Layli va Majnun» an’anaviy mavzuda yozilgan bo’lib, asar Sharqda mashhur bo’lgan Layli va Majnun syujeti asosida yuzaga kelgan.

“Layli va Majnun” syujeti uzoq tarixga ega bo’lib, uning ildizlari akademik I.Krachkovskiy ta’kidlaganlaridek, VII asrning ikkinchi yarmiga borib taqaladi. Manbalarda Majnun haqida xilma-xil fikrlar bor. Ayrim arab manbalarida aytilishicha, Majnun tarixiy shaxs bo’lib, Bani Omir qabilasidan chiqqan, uning asl ismi Qays ibn Mullavah (yoki Qaysibn Muod)dir. Qays o’z qabiladoshi Laylini sevgan, sevgi va hijron azoblari haqida mungli she’rlar bitgan. Bunday ma’lumotlar ibn Qutayba (889 yilda vafot etgan) ning “Kitob ush-she’r va shuaro” asarida ham keltiriladi. Boshqa arab manbalari esa bu ma’lumotlarni rad etadi. Arab olimi Avon ibn-Hakim al-Qalbiy (vafoti 764 yil), arab tarixchisi Hishom al-Qalbiy (vafoti 819 yil) ham Majnun tarixiy shaxs emas degan fikrni bildirishadi. Ularning ma’lumotiga ko’ra, Majnun nomi majoziy bo’lib, sevgi va ayriliq haqidagi she’rlar esa umaviy xonadoniga mansub bir oshiq yigitning qalamiga mansub, u o’z nomini oshkor qilmaslik uchun she’rlariga Majnun taxallusini qo’llagan. VII asrning ikkinchi yarmiga kelib arab she’riyatida Majnun taxallusli mungli she’rlar ko’payib, keng tarqalgan, ulardan ayrimlari to’plamlarga kiritilgan. Mana shu she’rlar zaminida Majnun haqida afsona va rivoyatlar to’qila boshlagan. Bu rivoyatlar IX asrga kelib keng tarqalgan, X asrga kelib esa Majnun nomi, u haqdagi rivoyatlar Arabistondagina emas, balki Yaqin va O’rta Sharqda mashhur bo’lgan.

Majnun nomi bilan bog’liq she’rlar rivoyatlar yaratilishiga asos bo’lgan bo’lsa, shu rivoyatlar asosida yozma adabiyotda Layli va Majnun haqidagi yirik hajmli asarlar paydo bo’lgan.

Ulug’ ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviy birinchi bo’lib, “Layli va Majnun” (1188) haqida doston yaratadi. G’oyaviy-badiiy jihatdan yetuk bo’lgan bu doston yuksak, mukammal asar sifatida shuhrat qozondi va xamsachilikning an’anaviy

dostoniga aylandi. Ulug' hind shoiri Xusrav Dehlaviy 1298-1299 yillarda "Majnun va Layli" nomli asarini yaratdi. U Nizomiy dostonining mazmuni va kompozitsion qurilishini saqlab qolgani holda asarga bir qator o'zgarishlar kiritadi. Majnunga Navfal qizining nikoh qilinishi, Layli va Majnunning sahroda hayvonlar himoyasida tunni o'tkazishi va boshqalar bunga misol bo'la oladi.

Shoir uni yozishga kirishishdan oldin arab manbalari orqali yetib kelgan rivoyatlarni, Nizomiy, Amir Xusrav Dehlaviy, Ashrafning «Layli va Majnun» dostonlarini mufassal o'rganib chiqqan. Uning o'zi, dostonning so'nggi qismida, bu haqda shunday deydi:

Men xastaki bu raqamni chektim,  
Tahriri uchun qalamni chektim.

Yozmoqta bu ishq jovidona  
Maqsudim emas edi fasona,

Mazmunig'a bo'ldi ruh mayli,  
Afsona edi aning tufayli.

Lekin chu raqamg'a keldi mazmun,  
Afsona anga libosi mavzun.

Men turkcha boshlabon rivoyat,  
Qildim bu fasonani hikoyat.

Kim shuhrati kim jahonga to'lg'ay,  
Turk eliga dog'i bahra bo'lg'ay.

Bu misralardan ko'rinadiki, shoirning maqsadi shunchaki afsona so'zlash emas, balki mazmunga, ya'ni ichki mohiyatga e'tibor qaratishdir. Ikkinchi maqsad esa til masalasidir. Shoir dostoni orqali turkiy tilning shuhrati jahonga mashhur bo'lishiga ishonch bildiradi.

Navoiy adabiy an'anaga ijodiy yondoshib, o'z davri talablariga javob bera oladigan doston yaratishni maqsad qiladi. Shoir doston qahramonlarining fojiali taqdiri misolida o'z zamonasining ayrim tartib-qoidalariga, urf-odatlariga qarshi chiqadi. Sof sevgi, sadoqat va vafoni, ma'naviy-ruhiy barkamollikni ulug'laydi, insoniy haq-huquqlarni yoqlaydi.

Doston 38 bobdan iborat bo'lib, dastlabki 8 bobi asarning boshlanish qismidir. Dostonning oxirgi uch bobi uning xotimasidir.

1-4 boblar Yaratuvchi va uning rasuli Muhammad alayhissalom vasfidadir. Mazkur boblarning o'ziga xosligi shundaki, unda Alloh vasfiga bag'ishlangan o'rinlarda u bu dunyoda Layli ko'rinishida jilva qiladi va barchani Majnun kabi o'ziga maftun etadi:

Ey har sorikim qilib tajalli,  
Ul mahzar o'lub jahonda Layli.

Ey oniki, Layli atab otin,  
Majnun qilmoq bo'lib sifotin.

Bu tasvirning o'ziyoq asar oddiy sevgi mavzusiga bag'ishlanmaganini ko'rsatadi. Unda Layli ilohiy ishq ramzini anglatib kelganligi ayon bo'ladi.

**Navoiy ulug' xamsanavislar haqida.** Navoiy «Layli va Majnun»ning beshinchi bobida ulug' salaflari Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviylar haqida so'z yuritadi. Ushbu bobda so'z qimmatini to'g'risida to'xtalib, uni hech qanday duru javohirlar bilan tenglashtirib bo'lmasligini aytadi, so'zni dengizga qiyoslab, uning tubida cheksiz ma'no olami yashirinib yotganligini ta'kidlaydi.

Navoiy ulug' ustozlarining ijodi to'g'risida gapirib, Nizomiyni «besh xazina» yaratgan deb maqtasa, Xusravni «besh qasr» egasi sifatida ulug'laydi. Yoki Nizomiy dostonlarini «Ka'ba»ga o'xshatsa, Xusrav Dehlaviy asarlarini Ka'ba oldidagi «but»ga nisbat beradi.

Navoiy uz salaflarining asarlari to'g'risida gapirib o'tgach, o'zining niyati va dostoni haqida o'ta kamtarlik bilan qisqacha to'xtaladi. U Nizomiy «Layli va Majnun»iga yuqori baho berib, uni «qal'a»ga, Amir Xusrav dostonini yaxshi bezalgan «qasr»ga o'xshatar ekan, o'z asarini «qal'a» va «qasr» atrofidagi «shahar» va «bog'»ga nisbat beradi. Bunday o'xshatishlar orqali shoir, birinchidan, salaflari yaratgan asarlardan bahra topganligini uqtirgan bo'lsa, ikkinchidan, ular an'analari hamda fikr va g'oyalarini kengaytirib, rivojlantirish niya-tida ekanligini san'atkorona ifoda etgan.

Alisher Navoiy asarning oltinchi bobida ulug' ustoz va piri bo'lgan Abdurahmon Jomiy madhiga to'xtaladi, bunda u buyuk tojik shoiri Jomiyni ulug'laydi.

Dostonning yettinchi va sakkizinchi boblarida Husayn Boyqaro va uning o'g'li Badiuzzamon ta'rifi keltiriladi.

Navoiy asarining to'qqizinchi bobi dostonning prologi hisoblanadi. Ulug' san'atkor bu bobda shunday bir usulni qo'llaydiki, bunday tasvir boshqa xamsanavislarda uchramaydi. Tasvir shunday boshlanadi:

Qorong'i kechada shoir, xayol otiga minib sayrga chiqadi. Xayol oti har tomonga shoshilib yuguradi, nihoyat, arab mamlakatidagi bir dashtga yetib borgach, uning oldida bosib o'tilishi mumkin bo'lmagan ishq vodiysi paydo bo'ladi. Ozroq to'xtalishi bilan otining oyog'i oqsab, yurishi juda qiyinlashadi. Tun qorong'i, buning ustiga tinmay yomg'ir kuymokda, onda-sonda chaqmoq chaqilib, bu joyni yanada dahshatli qilib ko'rsatadi. Shunday bir vaziyatda Navoiyning qulog'iga «Layli va Majnun» dostonining mazmuni haqida hotif (g'aybdan ovoz beruvchi)ning ovozi eshitiladi. Bu bobning yana bir xarakterli jihati shundaki, shoir hotif tilidan o'zining yozadigan asari salaflarining dostonlaridan qanday farq qilishi lozimligini, kamtarlik bilan bayon etadi.

Sabt aylamasang alarcha rangin,  
Ma'nisi daqiqu lafzi shirin.

Lek o'lg'usi dardu so'zi ko'prak,  
Xangomai dilfuro'zi ko'prak.

Bo'lsa ul yon sarvi dilxoh,  
Bo'lg'usi buyon fig'on bila oh.

Asarning o'ninchi bobidan asosiy voqealar boshlanadi. Dostonda Layli va Majnunning ishqiy sarguzashtlari ularning vafoti bilan yakunlanadi.

**Majnun - haqiqiy oshiq timsoli.** Dostonda qahramonlar ma'naviy-ruhiy olami g'oyatda ta'sirchan va chuqur tasvirlanadi. Qaysning qalbi tug'ilishidayoq ishqqa makon edi. Uning vujudi loyi ishq o'tida pishgan. "G'am tufrog'i suyidin sirishti, Ishq o'tiyu yeli sarnavishti". U "ishq ahlig'a qiblai murod" bo'lib dunyoga

keldi. Chunki uning “ishq farzandi” ekanligi chaqaloqligidayoq ayon edi. Qaysni o’qish uchun Hay qabilasidagi maktabga berishadi. Bu paytda Layli betob edi, shuning uchun darsga kelmayotgan edi. U sog’ayib maktabga aytgach, Qays bilan uchrashadi. Ular bir-birini ko’rgach, qalblarga ishq otashi tushadi va shu kundan boshlab hijron azoblari boshlanadi. Shunisi alohida e’tiborga molikki, ularning qalbidagi ishq bir kunda, bir onda, nigohlar bir-biri bilan to’qnashganda boshlanadi va bu sevgi o’ti bir umr so’nmaydigan bo’lib yonadi. Bu voqea Layli va qizlarning gul sayriga chiqqanlarida sodir bo’ladi.

Qaysning qalbidagi ishq kun-kundan ortar, u bir uyga qamalib olib, to’xtovsiz faryod chekadi, tomog’idan ovqat o’tmaydi, ko’ziga uyqu kelmaydi, unga sevgilisi tasviridan boshqa hech narsa ko’rinmas edi. Uni daolash uchun tabib chaqirishadi, biroq bundan foyda bo’lmaydi. Uning ishq butun elga ovoza bo’lgach, xalq uni Majnun deb atay boshlaydi. Hajr, ayriliq, telbalikka yo’liqqan oshiqni bandilikda saqlashadi. Iztiroblari ko’pligidan bemador bo’lib qolgan, behol Majnun bandilikdan ozod bo’ladi va uyidan dasht-sahrolarga ketadi. Majnunning sahroga chiqib ketishi uning ishq olamiga kirishiga ishoradir. Tasavvufda dasht – ishq bepoyonligining ramzi. Buni shoirning o’zi ham ta’kidlaydi: “Keldi bu dasht – ishq dashti”. Uning oxiriga hech kim yetmagan va undan hech kim qaytib kelmagan. Dostonda dashtda qalashib yotgan inson suyaklari ham shundan dalolat beradi.

Majnun gullar bilan sirlashadi, hayvonlar bilan tillashadi. Nabotot va hayvonot olami unga xayrixoh, uni dardini yengillatishga harakat qiladilar. O’z qahramonini nabotot va hayvonot olami bilan do’stligi orali Navoiy olamning bir butunligi – o’simliklar ham, insonlar ham yagona Allohning ijodi bo’lganligi, shunday ekan, ular orasida birlik, uyg’unlik bo’lishi joiz, degan g’oyani ilgari suradi. Zero, zarradan koinotga qadar hamma narsada Alloh u yoki bu darajada zuhur etgan. O’simliklar ham, qushlar ham o’ziga xos tarzda Allohning zikrini aytishadi. Demak, Navoiy Majnunni hayvonlar, qushlar bilan do’st tutinishini tasvirlash orqali xuddi shunday olijanob g’oyani ilgari surgan.

Majnun – mastlik, bexudlik yo’lidagi oshiqdir. U Alloh muhabbatidan mast bo’lib, o’zligini unutadi va shu orqali ilohiy ma’rifatni his qiladi. Uning yo’li

ko'ngil orqali Haqni tanish va unga yetish yo'lidir. Navoiyshunos I.Haqqulov: "Majnunning junun yo'li – ma'rifat va ibrat yo'li"<sup>1</sup>, - deya ta'riflaydi.

Majnunga Alloh tomonidan favqulodda iste'dod va qobiliyat berilgan edi. U Allohning marhamati bilan bolaligidayoq tilidan ilohiy kalomlar tushmaydi. "Bo'lg'och tili lafz din xabarliq, Har lafzki, deb bori asarliq. Chun aylay boshladi takallum, el hushin etib takallumi gum". "Layli va Majnun" dostonida pok ishqning yuksalib, haqiqiy ishqqa aylanishi tasvirlanadi. Shoir pok ishqni kuylayotganini dostonida o'rni bilan keltirib boradi. U Majnun va Laylini "gavhari pok" sifatida tilga oladi. Majnun haqida:

Chun topdi bu nav' gavhari pok,  
Bahr o'ldi bu zavq din tarabnok.

deb yozsa, Layli ta'rifida:

Pok erdi nechukki rost da'vi,  
Bikr erdi nechukki xos ma'ni.

deydi.

Qaysning ishq i kun sayin emas, soat sayin ortar edi. Qabila oqsoqollarining maslahati bilan musulmonlarning muqaddas sajdagohi - Ka'bage olib boriladi. Qays Yaratganga munojot qilib, dardiga shifo tilashi lozim edi. Biroq u ishq tufayli qancha iztirob chekkan bo'lishiga qaramasdan, Allohga iltijo qilib, qalbidagi bu alangani yanada ziyoda qilishini so'raydi:

Ko'nglum g'am ichra to'q ayla yo rab!  
Ishq ichra meni yo'q ayla yo rab!...

Layli ishqin tanimda jon qil,  
Layli shavqin rangimda qon qil.

Dardini najotim et ilohi,  
Yodini hayotim et ilohi...

Dardimg'a xayolini tabib et!  
Jonimg'a visolini nasib et!

Majnunning ushbu munojoti g'oyaviy mazmuni, qahramonning ishqqa bo'lgan munosabati jihatidan alohida e'tiborga molikdir. Bunda biz yuksak

---

<sup>1</sup> Хаққулов И. Тасаввуф ва шеърят. – Т.: 1991. 161 б.



e'tiqodli, sabr-qanoatli, ishq yo'lida har qanday mashaqqatga tayyor oshiq ma'naviy-ruhiy qiyofasini ko'ramiz. U o'z ishq yo'lida jonini berishga ham tayyor. Majnun faqat Layli ishq bilangina tirik. U tanida joni bor ekan, Laylining ishq o'z jismining joni deb biladi. Yorining dardi u uchun najot, xayoli esa dardiga tabibdir.

Majnun uchun Layli maqsad emas, balki ilohiy ishq kamolotini kasb etish yo'lidagi bir vositadir. Tasavvufda bu mazhar deb yuritiladi. Haq oshiqlari mazharni sevish orqali haqiqiy ishqqa yetadilar. Farhod uchun Shirin ana shunday mazhar bo'lgani kabi Layli Majnun uchun, Majnun esa Layli uchun mazhar edi. Ularning qalblari ilohiy fayzdan bahra oladi. Bu pok muhabbat ularni ruhi Mutlaqqa yaqinlashtiradi.

Layli ishq yo'lida odamlardan, dunyodan uzilgan, biyobonga chiqib ketgan, o'zligini unutmagan, qayoqqa borsa - faqat ma'shuqasini ko'radigan Majnun qalbi g'uborlardan tozalani, ilohiy shu'ladan ravshanlashgan edi. Navfal hujum qilsa Laylining otasi o'z qizini o'ldirishga qasd qilganini u tushida ko'radi va do'stidan darhol urushni to'xtatishni so'raydi. Ota-onasining farzandi g'am-alamida jon taslim qilganini, Laylining jon taslim qilganini ham tushida ko'radi. Layli va Majnun ishq yo'lida uchragan mashaqqatlarga sabr qilib, ma'nan va ruhan poklangan, haqiqiy ishqqa erisha olgan oshiq timsolidir.

Dostonda shoir ishq bilan bir qatorda o'z davrining dolzarb masalalariga ham urg'u beradi. Bulardan biri oila va nikoh masalasidir. Bu orqali shoir inson haq-huquqini, samimiy sevgisini himoya qiladi, shaxsiy va oilaviy baxt uchun kishilarni kurashga chaqiradi. Zamonning ayrim urf-odatlarini qoralaydi, uning zulmidan faryod chekadi.

Ey zoli zamona dodu faryod!  
Atfolingga necha zulmu bedod!

Bu xaylnikim halok etarsen,  
O'z bag'ring erurki chok etarsen.

**Layli va Majnun uchrashuvi tasviri.** Dostonda Laylini badavlad Ibn Salomga nikohlaydilar. Xuddi shu kuni Majnun Navfalning qizi bilan nikohlanadi.

To'y kechasi Ibn Salom ichkilikni ko'p ichib qo'yib, eski kasali qo'zadi va odamlari uni o'z qabilasiga olib ketishadi.

Nikoh kechasi Navfalning qizi Majnunga sevgan yigiti borligini aytadi. Undan muruvvat etishini – ikki oshiqning uvoliga qolmasligini so'raydi:

Bu nav' muruvvat o'lsa sendin,  
Izhor futuvvat o'lsa sendin.

Buni eshitgan Majnun javonmardlik namunasini ko'rsatib, nikoh go'shanasidan to'g'ri dashtu biyobonga chiqib ketadi. Xuddi shu payt Layli ham yonida hech kim yo'qligidan foydalanib, uyidan chiqib ketadi va ular sahroda bir qumtepada bir-birlariga duch keladilar.

Layli Majnunni nola qilib o'qiyotgan nazmidan taniydi. Majnunga esa Layli nasimi yetishgan edi. Navoiy sevishganlarning bu baxtiyor uchrashuv onlarini ta'sirchan tarzda tasvirlaydi.

Ikki guhar o'rni bo'ldi bir durj,  
Ikki quyosh avji bo'ldi bir burj.

Bir sog'ar aro tushib iki mul,  
Bir g'uncha aro butub iki gul.

Bir jismda ikki ruh o'lub gum,  
Bir ko'z arosida ikki mardum.

Vasl ayladi ikkilikni boqiy,  
Vahdat qadahini tutti soqiy.

Navoiy sevishganlar birligini xuddi badan va jonning birligiga o'xshatadi. Go'yoki ikki gavhar bir qobiqdan o'rin olgan, yoki ikki quyosh osmonning bir burjida joylashgan. Sevishganlar birligini bir piyolada ikki may, bir g'unchada ikki gul, bir jismda ikki ruh, bir ko'zda ikki qorachiq singari tashbehtar orqali tasvirlanadi. Bu bilan shoir bir tomondan oshiq va ma'shuqaning ruhan bir-biriga naqadar yaqinligini nazarda tutsa, yana bir jihatdan visol onlarini ta'sirchan lavhalarda tasvirlashga erishgan. Shuningdek, shoir ikkala sevishganning bir vujudga ayanib ketganligi, ularni bir-biridan ayirish yoki ayri tasavvur qilish mumkin emasligiga urg'u beradi.

Yeru osmondagi barcha zotlar sevishtanlarning visol lazzatidan bahramand bo'lishlariga ko'maklashadilar. Qush, hashorat, yovvoyi hayvonlar barchasi visol onlariga o'z yordamlarini ko'rsatadilar. Shoir bu sevishtanlarga yer va amo jismlari ham xayrixohligini aytadi. "Ne gard qo'pub, ne yel ravona, Suv sokinu chekmay o't zabona". Atorud, Zuhro, Bahrom, Mushtariy singari sayyoralar jimlik va qorong'ulikni yanada kuchaytiradilar. Butun olam tinchlik va osudalikka chulg'angan. Umuman, bunday tasvirlar orqali shoir haqiqiy ishqning kuchini, visol jozibasini ulug'laydi.

Mahbubining jamolini ko'rgan Majnun unga yetishishga intildi. Lekin ular o'rtasida muqarrar to'siqlar bor edi. Bu – dunyo, odamlar va jism edi. Ishq yo'lida ranju mashaqqatlar o'tida ulardan asar ham qolmadi. Majnun husni Mutlaq bilan qo'shilib bir bo'lib ketdi.

**Dostondagi Navfal va Zayd obrazlari.** Majnun ishqini, bu yo'lda uning chekkan iztiroblarini tushunishmadi. Buning uchun unga ta'na, malomatlar yog'dirishdi. Majnun qalb tug'yonlarini «g'am dashti aro yugurgan» Navfalgina anglay oldi. Navfal sahroda tasodifan ov paytida hayvonlar bilan sirlashib yurgan Qaysni uchratib qoladi. Navfal insonning qadr-qimmatiga yetuvchi, uning ezgu his-tuyg'ularini yuksak baholaydigan ulug' insondir. U Majnunning ahvolidan nihoyatda qattiq ta'sirlanib, ov qilishdan voz kechadi.

Tark ayladi saydg'a jafoni,  
Elga dedi: «Tashlang o'qu yoni,

Ham itligingizni tashlangiz chust  
Ham itlaringizni bog'langiz rust!»

So'ngra Majnunga yaqinlashib, u bilan suhbatlashishga harakat qiladi. Navfalning Majnunga qarata aytilgan gaplaridan uning insonga bo'lgan samimiy muhabbati, oqil va chuqur mulohazaga ega bo'lgan kishi ekanligi yaqqol seziladi. Navfal ishqning kuchi, ta'siriga tan bersa-da, biroq u Majnun kishilar bilan aloqasini uzib, sahroda hayvonlar bilan ulfat tutganligini ma'qul ko'rmaydi. Navoiy gumanistik qarashlarini dostonda Navfalda singdirgan bo'lib, shoir u orqali o'zining orzu-istaklarini bayon etadi.

Majnunning boy ma'naviy olami Navfalni hayratga soladi va u yigitga yordam berishga harakat qiladi. U Laylining otasini yo'lga solmoqchi, uni murosaga keltirmoqchi bo'ladi. Biroq bundan foyda chiqmaydi. Shunda sarkarda kuch bilan Laylilar qabilasini bo'ysundirmoqchi bo'ladi va urushga tayyorgarlik ko'ra boshlaydi. Shunda Majnunning tushiga Layli kirib, Naval qabilaga hujum qilsa, otasi uni o'ldirmoqchi ekanligini aytadi. Majnunning gapidan keyin sarkarda jang qilish fikridan qaytadi.

Zayd dostonidagi yordamchi obrazlardan biri bo'lib, u asar voqealarini bog'lovchi vosita sifatida xizmat qiladi. Bu obraz Navoiy dostonidagina keltirilib, boshqa xamsanavislar asarlarida uchramaydi.

Majnun u bilan Navfal qo'shini Hay qabilasiga urushni to'xtatgach, sahroga chiqib ketganda tanishadi. Majnunning Layliga muhabbati naqadar yuksak ekanligini bilgach, uni qattiq hurmat qiladi. Zayd Layli haqida bilganlarini Majnunga gapirib beradi. U o'zining Majnun bilan uchrashganini Layliga yetkazishga, va agar Laylidan biror javob bo'lsa Majnunga keltirmoqqa va'da beradi.

Keyingi boblarda Zayd Laylining xatini Majnunga olib boradi va Majnunning javob xatini Layliga olib borib beradi.

**Dostonidagi otalar obrazi.** Alisher Navoiy «Layli va Majnun» dostonida otalar obraziga katta e'tibor beradi. Shoir, asarda yolg'iz uril va yolg'iz qizi bo'lgan ikki otaning xarakterini yaratadi. Biroq dostonida tasvirlangan Majnunning otasi bilan Laylining otasiga bir xil tipdagi kishilar deb qarab bo'lmaydi. Ularning xarakterlarida ba'zi umumiy tomonlar bo'lishidan qat'iy nazar, har qaysisi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ularning bu xususiyatlari o'zlarini o'rab olgan muhit va kishilar bilan bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladi.

Dostonida tasvirlangan Bani Omir qabilasining boshlig'ini shoir o'z gumanistik ideallaridan kelib chiqib tasvirlaydi. U Arabda mashhur hukmdorlardan biri bo'lib, bir necha qabilalar unga bo'ysundirilgan edi. Bu kishi odamlarga mehribon, saxiy, mehmondo'st odamdir. Dostonida uning nomi aytilmagan. U «bechora ulusga chorasoz», ilm-ma'rifatning qadriga yetadigan odam edi. Bu

donishmand, saxovatli kishining «otu tuyasi hisob bilan juft, qo'yu qo'zisi hisobdan ham ko'p», ammo farzandsiz. Biroq u keksayib qolganida o'g'il ko'radi. U yolg'iz farzandining ilmi bo'lib yetishishini o'ylab, uni yoshligidan Hay qabilasidagi maktabga joylashtiradi. Ota o'g'lining o'qishdagi muvaffaqiyatlarini ko'rib quvonadi, ammo otaning bu kuvonchlari uzoqqa bormaydi. Qays Laylini sevib qolgandan keyin bechora ota boshiga ko'p ko'rguliklar tushadi. Farzandining sevgisi tufayli ham o'zi, ham qabilasi Layli otasining ta'qibiga uchraydi.

Dostonda Majnunning otasi ruhiy kechinmalari, o'g'lining dardiga chora topa olmay chekkan iztiroblari ta'sirchan ifodalangan. Yigirma sakkizinchi bobdagi otaning Majnunga nasihatlaridan tuzilgan monolog orqali u haqida to'la tasavvurga ega bo'lamiz. Ota qalbidan chiqqan haro-ratli so'zlarda uning dono, mehr-shafqatli, jonkuyar padar ekanligi o'zining g'oyat go'zal badiiy ifodasini topgan:

Dedikim: Ayo ramida farzand!  
Payvand bag'irg'a, balki parkand.

Ko'ksun yarasini so'kma muncha,  
Bag'rimni qonini to'kma muncha.

Bu misralarda o'g'li g'am-alamlariga o'zini darddosh deb bilgan, qalbi iztiroblarga to'la mehribon ota siymosi namoyon bo'ladi. U o'g'liga hech qanday ta'na qilmaydi. Ota o'g'liga pand-nasihat qilib, es-hushini yig'ib olishga chaqiradi. Uning otalik mehri, nasihatlari Majnunga ta'sir qiladi va ixtiyorini otasiga topshiradi. Biroq u sevgisidan voz kechmaydi. Ota Majnunga so'z orasida o'zining umri tugayotgani, onasining ham o'g'lidan uzoqda og'ir azoblar chekayotganini aytadi. Majnun ota izmiga bo'ysunib uyiga qaytadi. U farzandlik mehr-muhabbati va ota-onasiga hurmati tufayli ularga itoat etib, Navfalning qiziga uylanish haqidagi takliflariga sukut qiladi. Buni uning roziligi deb tushunishadi. Ota-ona rizoligini hamma narsadan ustun sanagan Majnun otaning qarori va hohishiga bo'ysunadi. Majnun to'y kechasi Navfalning qizi bilan aka-singil tutinib, sahroga chiqib ketadi. Bu xabarni eshitgan ota-ona el-yurt oldida hijolatda qoladilar, ular g'am-g'ussa bilan vafot etadilar. Uning ota-onasi ishq yo'lida telba bo'lgan o'g'li dardida g'am chekib dunyodan o'tadilar.

Najd tog'ida sargardon yurgan Majnun tush ko'radi va uyqudan uyg'ongach, ota-onasini vafot etganini anglaydi. O'z qavmi mozoriga borib, yangi qad ko'targan ikki qabrni ko'radi. Ota-ona qabrini ko'rgan Majnun boshiga tuproq sohib, ohu-fig'on chekadi. Avvalo Majnun ota qabriga keladi. "Urdu atosi mozorig'a bosh Kim, kul-ko'mak etti boshin ul tosh", singari tasvirlarda Majnunning ota-onasidan ayrilib, chekkan alamlari cheksiz ekanligi namoyon bo'ladi. Shundan keyin u otasi ta'rifini keltiradi, uning mehribonligi va g'amxo'rliklarini esga oladi, yetgazgan jabr-sitamlari uchun uzr so'raydi.

Majnunning onasi qabri ustida aytgan so'zlari alohida diqqatga molikdir. Bunda uning onaga bo'lgan mehr-ardog'i, ayriliq tufayli chekkan ohu-nolalari o'z aksini topgan.

Dostondagi voqealar rivojiga katta ta'sir ko'rsatadigan obrazlardan biri Laylining otasidir. U Hay qabilasining boshlig'i, yakkayu yagona qizi uchun maktab ochdirgan va boshqa bolalar ham shu maktabda o'qishadi. Dostonning 16-bobida Layli va Qays o'rtasidagi muhabbat avj olib, Majnun nomi el o'rtasida ovoza bo'lgach, bu sevgi hqqida Laylining otasi eshitadi.

Majnun ishq yo'lida qo'lidan ixtiyorini berib, xalq tomonidan ta'namalomatga qoladi. U Layli muhabbatiga giriftor bo'lishdan oldin xalq ichida go'zal axloqi va nodir iste'dodi bilan tanilgan edi. Uni hamma hurmat qilar, kelajagiga umid bilan qarashar edi. Laylining otasi ham u haqida yaxshi fikrda bo'lgan. Shunday zukko yigitning bir qiz ishqida es-hushidan judo bo'lganini eshitib, afsuslanadi. U Majnunning og'ir ahvoli uchun kuyinadi. Ammo u yigit hali kimning ko'yida telba ahvolga tushib qolganini bilmaydi. Bu qiz kimligini so'raganda xabarchi uning Layli ekaniga ishoralar qiladi. Majnunning sevgilisi o'z qizi ekanligini fahmlagan ota bir so'z demay gangib qoladi. Uning bu ahvolini Navoiy: "Boshin tutib o'ldi bir zamon gech So'z demadi yaxshi, yo yomon hech", - deya tasvirleydi. Ammo biroz fursat o'tgach, Majnunning otasidan bu ishga chek qo'yishni talab qiladi. Majnunning telbaligi oshkor bo'lgach, biror chora ko'rmagani uchun unga tanbeh beradi. Uning talabi bilan Majnunni dashtdan tutib kelib, zanjirband qilishadi.

Majnun pok muhabbat tufayli oddiy insonlar darajasidan qiyos qilib bo'lmaydigan darajada ma'naviy yuksaldi. Buni tushunmagan odamlar uni – jinni deb ataydilar. Ular tor fikrliligi tufayli Majnun va Layli sevgisini idrok etishga qobil emas edilar. Oddiy odamlar uchun o'zlari tasavvur qilda oladigan tushunchalardan bo'lak narsalar g'ayritabiiy tuyular edi. Shuning uchun ham ular nazarida ishq yo'lida o'zini qurbon qilayotgan vujud jinni bo'lib ko'rinadi.

Qays qobiliyatli va fozil yigit sifatida Laylining otasiga ma'qul bo'ladi. Ammo pok muhabbat tufayli yuksak kamolot kasb etganida u Laylining otasiga xos tushunchalardan uzoqlashadi. U jinni deb Majnundan yuz o'giradi, undan or qiladi. Ma'lum bo'ladiki, Laylining otasi qizini Qaysga ishq yo'lidagi devonaligi, telbaligi uchun bermagan. U tor fikrliligi, oddiy turmush ko'rinishlariga asirligi, mahdudligi sababli ikki yoshning kamdan-kam kishiga nasib etadigan samimiy muhabbatiga to'siq bo'ladi, natijada sevishganlar vujudlari jismonan halok bo'ladi.

**Ibn Salom obrazi.** Laylining otasiga ma'qul bo'lgan shaxs Ibn Salom bo'lib, u boy-badavlat kishi edi. Ibn Salom nihoyatda badavlat bo'lib, uning molu davlati son-sanoqsiz.

Ibn Salom har qanday mushkul ishni kuch va pul vositasi bilan hal etishga qattiq ishonadi. Og'ir mehnat azobini ko'rmagan, muhabbatdek his-tuyg'uning nimaligin tushunmagan bu o'zining xohish-irodasini kishilarning samimiy muhabbatidan ustun qo'yadi.

U ichkilikka qattiq berilgan bo'lib, Layliga uylanish sharafiga muyassar bo'lganidan keyin maishatga yanada ko'proq beriladi.

Aysh ayladilar necha tunu kun,  
Kim ne kuni maysiz erdi, ne tun.

Laylining otasiga o'zining davlati bilan manzur bo'lgan bu kishi Laylining hurmatini qozona olmaydi. Chunki unda Majnunga xos aql-zakovat, pok va samimiy muhabbat, olijanoblik kabi fazilatlardan asar ham yo'q edi. Shoir Ibn Salomning xarakterini yorqinroq tasvirlash uchun o'ziga xos tashbehlarga murojaat qiladi. Shoir Laylini oyga o'xshatsa, Ibn Salomni ajdahoga qiyoslaydi:

Chun topti nikoh ishi saranjom,  
Layli haramig'a urdilar gom.

Kim mayl etibon tuman jafog'a,  
Bergaylar ul oyni ajdahog'a.

Bu tasvir doston badiiyatini kuchaytirish bilan birga shoirning bu qabih ishga munosabatini ham to'g'ri tushunishimizga yordam beradi. Chunki Layli kabi har jihatdan barkamol qizning Ibn Salomga uzatilishi uning ajdahoga topshirilishi bilan barobar edi. Ammo bu yovuzlik amalga oshmaydi. Ibn Salom g'oyatda ko'p ichkilik ichganligi sababli eski xafaqon kasalligi qo'zib qoladi va behush yiqiladi. Tong otgach, uni odamlari qabilasiga olib ketishadi. Ko'rinadiki, Ibn Salom sevishganlar qismatining fojiali tus olishiga sababchilardan biridir. U qanchalik boy bo'lishiga qaramay, kaltabin, tor fikrli, go'zal insoniy tuyg'ulardan yiroq kimsadir.

Umuman, «Layli va Majnun» da yaratilgan har bir obraz o'ziga xos bo'lib, ular ma'lum bir g'oyani ilgari surishda faol ishtirok etadi. Bu obrazlar timsolida biz Navoiyning betakror mahorati egasi ekanligini anglab yetamiz..

**Dostondagi psixologik tasvir vositalari.** Navoiyning bu dostonida qahramonlar ichki olami, psixologik tasvirning g'oyatda ta'sirchan ifodalanganligi bilan alohida ahamiyatga egadir.

«Layli va Majnun» dostoni kompozitsiyasida ikki asosiy qahramon - Layli va Majnunning maktublari muhim o'rin tutadi. Shoir Laylining xatida murojaat usulidan foydalanib, uning qalb tug'yonlarini quyidagicha ifodalaydi:

Ey ishq o'tida xasim nechuksen,  
Ey bedilu bekasim nechuksen!

Ey bo'lg'ali ishqim ichra madxush,  
Bir jur'ai vasl qilmog'on no'sh!

Ey furqatim ichra gar yorib tosh,  
Ming tosh yebon yashurmayin bosh!...

Holing nedurur firoqim ichra?  
Fikring nedur ishtiyoqim ichra?



Bunda Laylining o'z sevgilisiga munosabati, unga bo'lgan samimiy tuyg'ulari bilan birga Laylining ishqda sobitligi, mustahkam iroda egasi ekanligi namoyon bo'ladi. Shoir maktub vositasida qahramonning ishq yo'lida har qanday qiyinchilikka tayyor ekanligini mahorat bilan tasvirlagan.

Layli xatiga Majnunning yozgan javob maktubi ham o'zining sodda, samimiy va lirik hislarga to'lib-toshganligi bilan xarakterlidir. Shoir dostonning umumiy poetik qonun-qoidalariga rioya qilingan holda asarda noma janridan ustalik bilan foydalangan.

«Layli va Majnun»da nikoh lavhalari alohida o'rin tutadi. Shoir bu epizod orqali dostonning dunyoviy mazmunini ishonarli qilib ifodalashga erishgan. Navoiy dostonidagi bu lavhaning katta ahamiyati shundan iboratki, asarning bosh qahramoni Majnunning ishq majoziy va ishq ilohiyini o'zida mujassamlashtirganini ko'rsatadi.

Dostonda kishini hayratga soluvchi lirik tasvirlar, tabiat manzaralari, betakror so'z o'yinlari, aforizmlar mahorat bilan qo'llanilgan.

«Layli va Majnun»ning badiiy nafosatini oshirishga xizmat qilgan vositalardan biri peyzajdir. Navoiy tabiatning uch faslidan umumiy ramz sifatida foydalanadi.

Dostonning boshlanishida Majnun bilan Laylining endigina kurtak ochayotgan muhabbati unga mos holda tabiatning ham uyg'onadigan fasli - ilk bahor va uning shodlikka sabab bo'luvchi go'zal manzaralari orqali tasvirlanadi.

Navoiy bahor to'g'risida fikr yuritar ekan, u kishining nozik hislariga ta'sir etuvchi so'zlar orqali shunday tasvir yaratadiki, natijada uning mayin tovlanishlari butun jozibasi bilan kishi ko'z o'ngida namoyon bo'ladi. Sabzaning ko'karishi, gulning ochilishi, gul yaprog'idagi yomg'ir tomchilarining ko'rinishi, mevali daraxtlarning oppoq gullashi, xullas, ilk bahor manzarasi jonli tasvirlangan! Shundan keyin Laylining gullar orasida Majnun bilan uchrashuvi ham nihoyatda san'atkorona badiiy ifoda etilgan:

Sayr ichra yetishti mohi dilxoh,  
Bir gul chamani ichiga nogoh.

Gulbun bila rust to'rt yoni,  
Kirs a kishi kimsa topmay oni.

Kirgach anga ul shugufta gulzor,  
Ko'rdi tikan ichra bulbuli zor.

Bu nafaqat tabiatning go'zal manzarasi tasviri, balki ramziy ma'noda Qaysning ishq chamaniga kirishiga ishoradir. Gul insonni o'ziga tortganidek, ishq chamani ham kishini maftun etadi, u gulzorda tikan va bulbuli zorning bo'lishi oshiqning ishq yo'lida qiyinchiliklar, mashaqqatlarga uchrashini anglatadi.

Dostonda tabiat kishilarning kayfiyati, ruhiga hamohangdir. Qahramonlar shodlanganda, ularni o'rab olgan tabiat ham yashnab turadi, ular qayg'uga tushganda tabiat o'zgaradi. Masalan, Majnun bog'da behush yotgan paytda butun tabiat uning boshiga tushgan bu savdoga qattiq achinadi: Gul o'z yoqosini chok etsa, nargis tushgan shabnam orqali ko'z yoshi qiladi. Majnun qalbidagi dog'ni ko'rgan lola esa unga hamdardlik bildirib, o'z ko'ksiga dog' (qora) soladi. Majnun holatidan binafsha g'amga botsa, sunbul o'z aft-angorini qoraga bo'yaydi. Hamisha sharqirab quvnoq oqadigan suv motam tutgandek zor yig'laydi. Bunday o'rinlar qahramonlar ruhiy kechinmalarini yanada ta'sirchanroq yoritishga yordam beradi.

«Layli va Majnun»ning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri unda lirizmning kuchliligidir. Shoir har bir fikrni obrazli qilib ifodalashga alohida ahamiyat bergan. Navoiy ko'pincha aytadigan fikrlarini ramziy tasvirlar orqali ifoda etadi. Masalan, shoir tong otishi manzarasini shunday tasvirlaydi:

Tun urdi ko'mirlarini darham,  
Mehr o'tini subh ayladi dam.

Ko'k gulshani gullari to'kuldi,  
Gullarki to'kuldi g'uncha kuldi.

Ko'k bog'ida gullar o'ldi nobud,  
Yer bog'ida gullar o'ldi mavjud.

Ul bog'da har ne kim sochildi, . . .  
Go'yoki bu bor aro ochildi.

Kontrast priyomidan foydalanib yaratilgan bu misralarda osmon va yer bog'ga, yulduzlar, yer yuzidagi barcha narsalar esa gulga o'xshatilgan. Bunda gulshan, bor, gul, g'uncha so'zlari orqali tanosub san'ati yaratilgan. Dostonda tashbih, mubolag'a, kichraytirish, takror, tanosub, tazod va tarse' kabi tasviriy san'atlar mahorat bilan qo'llanilgan.

Umuman, Alisher Navoiyning «Layli va Majnun» dostoni g'oyaviy yuksak, badiiy jihatdan mukammal asar sifatida muhim ahamiyatga egadir.

### **Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. “Layli va Majnun” dostoning yaratilishi haqida ma'lumot bering.
2. Dostonning asosiy qahramonlari kimlar?
3. Majnun ishq qanday ishqqa mansub?
4. Dostonda qanday g'oyalvr ilgari surilgan?
5. Dostondagi peyzaj tasviri haqida gapiring.
6. Maktub janridan shoir nimani nazarda tutgan?
7. Dostonning badiiy xususiyatlari haqida gapiring.

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. J. 9. - T.: Fan, 1992.
2. Alisher Navoiy. Layli va Majnun. -T.: 2006.
3. Mallayev N. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti. – T.: Adabiyot va san'at, 1974.
4. Mallayev N.M. O'zbek adabiyoti tarixi. Birinchi kitob. – T.: O'qituvchi, 1976.
5. O'zbek adabiyoti tarixi. Besh jildlik. J. 2. – T.: Fan, 1977.
6. Alisher Navoiy “Xamsa”si. Maqolalar to'plami. Tadqiqotlar. – T.: Fan, 1986.
7. Hayitmetov A. Navoiyxonlik suhbatlari. - T.: O'qituvchi, 1993.
8. Vohidov R. Alisher Navoiy va ilohiyot. – Buxoro: 1994.
9. Komilov N. Tasavvuf. K.1. – T.: Yozuvchi, 1996.
10. Valixo'jayev B. Mumtoz siymolar. – T.: Meros, 2003. – B. 129-185
11. Nabiyev F. Lirik qahramon va tabiat tasviri // Navoiyga armug'on. K.2. – T.: 2000. – B. 59-66
12. Navoiyning ijod olami. Maqolalar to'plami. – T.: Fan, 2001.
13. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. -T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi, 2006.
14. Qayumov A. «Layli va Majnun» // Asarlar. 1-jild, K.2.T.: Mumtoz so'z, 2008. – B.4-130

## **«SAB'AI SAYYOR» DOSTONIDA SHOHLIK VA OSHIQLIK MUAMMOSI, UNING FALSAFIY YECHIMI**

**Dostonning yaratilish tarixi.** «Sab'ai sayyor» (“Yetti sayyora”) Navoiy “Xamsa”sining to’rtinchi dostoni bo’lib, u 1484-yilda yozib tugallangan. Doston uchun Sharq xalqlari orasida keng tarqalgan «Bahrom Go’r» afsonasi asos bo’lgan. Bu afsona sosoniylar sulolasidan bo’lgan podshoh Varaxran (418—438) nomi bilan bog’liq (Varaxran dariy tilida «Bahrom» ma’nosini anglatadi). U go’r — kulon oviga o’ch bo’lgani uchun Bahrom Go’r nomi bilan mashhurdir. Navoiy «Tarixi muluki ajam» asarida Bahromning shijoatli podshoh bo’lganini aytadi va Bahrom Go’r nomining kelib chiqish sababini quyidagicha ta’riflaydi: «Ani Bahrom Go’r dedilar. Muning jihatini ba’zi dedilarkim, go’rni shersayd qilg’anda, aning o’qi egnisidan o’tub, yerga tegdi. Ba’zi debturlarkim, go’r oviga ko’p moyil erdi”<sup>1</sup>.

Bahrom Go’r haqidagi afsona va rivoyatlar juda ko’p bo’lib, dastlab Hind-Eron xalqlari tomonidan yaratilgan, keyinchalik Eronga qo’shni bo’lgan xalqlar, ayniqsa, armanlar, gruzinlar orasida ham paydo bo’ldi. Bu afsona va rivoyatlar zamonlar o’tishi bilan Sharq xalqlari orasida keng tarqalgan. Ularda Bahrom shonshavkatli podshoh, shijoatli, mard va olijanob, tanti, mohir mergan, ishratparast shaxs sifatida tasvirlandi. Dastlab xalq og’zaki ijodida paydo bo’lgan Bahrom Go’r obrazi keyinchalik yozma adabiyotdan, ayni choqda manoqib va xotira-memuarlardan ham o’rin oladi.

Bahrom Go’r haqida yozma adabiyotda birinchi bo’lib doston yaratgan ijodkor fors-tojik klassigi Abulqosim Firdavsiydir. U xalq og’zaki ijodi, yozma manbalardan ijodiy foydalanib, o’zining “Shohnoma” asarida Bahrom obrazini shuhratli, adolatli shoh, vatanparvar, tengsiz kuch-qudrat, aql-idrok sohibi, shuningdek, aysh-ishratga berilgan, xudbin va qahri qattiq shaxs sifatida tasvirlaydi.

Bahrom Go’r haqidagi syujet Firdavsiyda «Shohnoma»ning bir-faslini tashkil etib, Bahromning tug’ilishi, taxtga chiqishi, mamlakatni idora qilish to’g’risidagi

---

<sup>1</sup> Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. Ж.16. – т.: Фан, 2000

tadbirlari, o'z davlatiga qarshi bosh ko'targanlar bilan kurashi va boshqa epizodlardan, iborat.

Firdavsiy Bahrom Go'r xarakterini to'laroq ochish maqsadida xalq og'zaki ijodidagi hikoyat va afsonalardan ijodiy foydalangan. Dostonda Bahrom Go'ring ovda o'z kanizagi Ozoda bilan to'nashuvi tasvirlagan hikoyat keltiriladi. Bu hikoyat ko'p shoirlarning diqqatini o'ziga tortdi.

Bahrom Go'r haqida maxsus doston yaratgan shoir Nizomiy Ganjaviydir. Shoir «Haft paykar» dostonida Bahrom va Fitna haqidagi qoliplovchi hikoyani beradi. U Firdavsiy tomonidan qalamga olingan lavhalarni takrorlamagan holda yangi shaklda va uslubda doston yaratadi.

Nizomiy Firdavsiy ilgari surgan g'oyalarning mohiyatini chuqur anglagan holda Bahrom obraziga xos xususiyatlarni saqlab qoldi, Bahromni, Firdavsiy dostonidagidek mohir mergan, sher va ajdarlarga ham bas kela oluvchi mard va bahodir xukmdor sifatida tasvirladi. Shuningdek, Nizomiy Bahrom obrazini orqali o'z davri ijtimoiy hayotidagi muhim masalalarni o'rtaga tashladi.

Nizomiy Bahrom timsolida mard va shijoatli odil podshoh hamda ayshu ishratga berilgan bevafo, xudbin hukmdor obrazini yaratdi. Dostondagi aqlli, tadbirli va ziyrak ayol Fitna obrazi alohida diqqatga sazovordir.

Syujet jihatidan ko'pqirrali, kompozitsiya jihatidan murakkab bo'lgan bu doston Nizomiyning buyuk san'atkorligini ko'rsatadi. Shoir ijodi Sharq shoirlari uchun asrlar davomida namuna bo'ldi, ular Nizomiyga ergashib, u ilgari surgan g'oyalarni davom ettirib asarlar yaratdilar. Ana shunday shoirlardan biri Amir Xusrav Dehlaviydir (1253—1325). U Nizomiyning «Haft-paykar» dostoniga ergashib, «Hasht bihisht» («Sakkiz jannat») dostonini yaratadi.

«Hasht behisht» kompozitsiya jihatidan Nizomiyning «Haft paykar» dostoniga o'xshasa-da, ayrim jihatlari bilan undan farq qiladi. Xusrav Dehlaviy asarni Bahromning taxtga chiqishi voqeasidan boshlaydi, Nizomiy dostonidagi ko'pgina epizodlarni tushirib qoldiradi. Shoirni Bahrom Go'r obrazi bilan bog'liq sakkizta hikoyatni so'zlatish qiziqtiradi.

Nizomiy «Haft paykar»da davlat, xalq, adolat to'g'risidagi masalalarni bosh masala sifatida asar markaziga qo'ysa, Xusrav Dehlaviy o'z asarida bu jihatlarga ozroq e'tibor beradi. «Haft paykar»ning markazida qahramon psixologiyasi, xatti-harakati, xarakterini ochib beruvchi voqealar tursa, Xusrav Dehlaviyda bunday psixologik analizga kamroq e'tibor berilgan. Xusrav Dehlaviy she'riy san'atlardan foydalanishga ko'proq ahamiyat beradi. Uning metaforalari, majozlari, xilma-xil hikoyatlari asarga jonlilik bag'ishlaydi. Xusrav Dehlaviyning yetti hikoyatsi tamomila yangi hikoyatlar bo'lib, ularni shoir hind folklori materiallari asosida yaratgan.

Navoiyning «Sab'ai sayyor» dostoni Firdavsiy, Nizomiy, Xusrav Dehlaviy kabi ulug' shoirlarning adabiy an'alarini chuqur egallash asosida vujudga keldi. Mazkur asar mazmun va badiiy jihatdan yangi asardir.

**Dostonning tarkibiy tuzilishi.** «Sab'ai sayyor» 38 bobdan iborat bo'lib, 11 bobi dostonning muqaddimasidir. Muqaddima an'anaga ko'ra - hamd, munojot va na't bilan boshlanadi. Bunda Navoiy Allohga, payg'ambar va xalifalarni ta'rif va tavsif qiladi.

Dostonda Navoiy so'z ta'rifiga alohida bob bag'ishlaydi. Shoir so'zning inson hayotidagi o'rni, badiiy asarda mazmun va shakl, nazm va nasr masalalariga to'xtalib o'tadi. Navoiy so'z (badiiy so'z ko'zda tutiladi)ning mazmundorligi va badiiyligiga alohida ahamiyat berdi. U adabiy asarga baho berishda mazmun va shakl birligi masalasini o'rtaga tashlab, asarda mazmunning yetakchi rol o'ynashi zarurligini ta'kidlaydi. Mazmun va shakl birligi haqida shoir shunday yozadi:

«Naqshi zarkash libos» de oni,  
Bu libos ichra shohidi ma'ni.

Ma'ni ul sho'xi siymbar bo'ldi.  
Kim bu kisvatda jilvagar bo'ldi...

Chun kiyib so'z hariru debosin,  
Dilkash aylab jamoli zebosin.

Shoir so'z oltin kiyimning naqshi bo'lsa, bu libos ichidagi dilbar ma'nodir. Bunda ma'noni go'zal mahbubaga, so'z (shakl)ni uning kiyimiga o'xshatadi.

Navoiy shakl va ma'noning o'zaro chambarchas bog'liqligini, bir-birini to'ldirishini, biri ikkinchisiz mazmunsiz bo'lib qolishini obrazli qilib tasvirlaydi. Shoirning fikricha, shakli va mazmuni bir-biriga mos bo'lgan asarlarga, «jahonga g'avg'o, koinotga alolo» sola oladi.

Dostonda nazm va nasr masalasiga, ularning o'sha davr adabiy hayotida tutgan o'rnini belgilashga e'tibor qaratilgan. Ma'lumki, Navoiy yashagan davrda she'riyat ko'proq rivojlangan edi. Navoiy nasrni kamsitmagan holda nazmga va uning turlariga keng to'xtaladi, o'z davrida nazmning e'tibori nasrdan ortiqroq ekanini aytadi.

Navoiyning nasr va nazm haqidagi fikrlarini A.Qayumov shoirning adabiyot nazariyasiga oid qimmatli mulohazalari tarzida baholaydi<sup>1</sup>. **Navoiy ulug' xamsanavislar haqida.** Dostonning muqaddimasida shoir ulug' xamsanavislar: Nizomiy, Xusrav Dehlaviylarni ta'riflaydi. Shuningdek, yana bir "Xamsa" muallifi Ashraf haqida ham so'z yuritilgan.

Shoir ustози va do'sti Abdurahmon Jomiy madhiga alohida bob bag'ishlaydi, uni buyuk san'atkor sifatida ulug'laydi.

Ushbu o'rinda shoir dostonni yozishdan kuzatilgan maqsadini, unda ilgari surmoqchi bo'lgan g'oyalarini bayon etib, o'z dostonining salaflari asarlaridan farqli jihatlarini keltirib o'tadi.

Navoiy dostonning mazmuni ishq bilan yoqimli bo'lishini ta'kidlar ekan, Nizomiy va Dehlaviy dostonlarida dardning chin mohiyati yo'qligini, u ishqdan uzib olinganligini aytadi.

Biri bukim, yo'q, anda moyai dard,  
Qildilar ishq so'zidin ani fard.

Navoiy ikkinchi kamchilik sifatida asarlarda ayrim nomunosib o'rinlar borligida deb ko'rsatadi. Misol sifatida shoh Bahrom aysh-ishrat uchun yetti qasr bino qilgani voqeasini keltiradi. U qasrlarga yetti mamlakat shohining har biri latofat va go'zallikda tengsiz bo'lgan yetti qizini keltirib qo'yib, har kuni shu qizlardan bittasi bilan o'sha go'zal qo'nim topgan koshonada mayishat qiladi.

---

<sup>1</sup> Қайумов А. Асарлар. Ж. 1, К. 2. – Т.: МUMTOZ SO'Z, 2008, 146 б.

Shuningdek, Bahrom ichkilikka berilgan bo'lib, har kuni ertalabdan-kechgacha may ichadi. Kechqurun uyqu mast qilganda esa u go'zallardan afsona aytishni talab qiladi. Navoiy bu qizlarning qissaxoln baxshi qiz bo'lmasalar-da, afsona aytishlaridan ajablanadi. Shunga asoslanib shoir uyqudagi shohga afsona aytish, shoh haramxonasida ehtrom bilan asrash lozim bo'lgan nozanin qizlarni qissaxonga chiqarish to'g'ri emas, degan xulosaga keladi. Uchinchi kamchilik sifatida esa zamonasining ikkala yagona fozil kishisi bo'lmish Nizomiy va Dehlaviyning shunday hayratomuz ish tutgan nodonni maqtashi va uning maddohiga aylanib qolishida deb biladi. Bu kamchiliklardan elga ko'proq ranj yetishini tanqid qiladi:

Oллоh, оллоh, ne gаnj bo'lg'ay bu!  
Sarbasar elga ranj bo'lg'ay bu!

Baski, ustod edilar komil.  
Bo'ldilar g'arralig' bila g'ofil.

Bu komil ustodlar o'z ishlariga qattiq berilib - g'ururlanib ketib, o'z xatolaridan g'ofil bo'lib qoldilar. Navoiy bu fikrlarni aytar ekan, mazkur o'rinda lirik chekinish qilib, shunday yozadi: "Kimki, bu ishta bo'lsa mustag'niy. Yoshunur ko'nglidin base ma'niy". Bunda shoir kimki bir ishida kibru havoga berilsa, uning ko'nglida ko'pgina ma'nolar o'zidan yashirinib qoladi, deydi.

Ko'rinadiki, shoir har qanday ishda ortiqcha mag'rurlik kishiga band berishi mumkinligidan ogohlantiradi. Shuning uchun insonlarni kamtarinlikka chaqirib, hato qilmaslikka da'vat etadi.

Navoiy ulug' salaflari ijodidagi bu kabi kamchiliklarni keltirar ekan, ularning mahoratda tengi yo'q buyuk so'z ustasi ekanliklarini alohida ta'kidlab o'tadi va bu ulug' siymolarni o'zining ustozlari sifatida e'tirof etadi.

Shunday qilib, Navoiy ustod shoirlarning ijodini tanqidiy o'rganib, ulardagi nuqson va kamchiliklarni takrorlamaslikka harakat qiladi. Navoiy o'z dostonini «ishq moyasi» bilan sug'orishni, ya'ni afsonani tugal ishqiy doston shaklida qaytadan ishlashni o'z oldiga vazifa qilib qo'ydi.



Shoir o'z dostonini yozishga kirishishdan oldin Bahrom hakidagi barcha rivoyatlarni, tarixiy manbalarni sinchiklab o'rgangan. Navoiy asarning xotima qismida bu dostonni yozishdan ilgari tarixiy, hayotiy va asarga aloqador bo'lgan materiallarni o'rganish ustida uzoq vaqt qunt bilan ishlaganligini aytadi.

Navoiy «Sab' ai sayyor» dostonida Firdavsiy, Nizomiy, Dehlaviy kabi ulug' so'z ustalarining adabiy an'alarini ijodiy davom ettirib, o'z davrining dolzarb muammolarini asar mohiyatiga singdirgan. Unda Navoiyning insonga muhabbat, insonparvarlik, adolatparvalik g'oyalari o'zining yorqin aksini topgan.

«Sab' ai sayyor» o'zining kompozitsion tuzilishiga ko'ra «Xamsa»ning boshqa dostonlaridan ajralib turadi. Navoiy dostonni yaratishda Sharq adabiyotidagi hikoya ichida hikoya usulidan mahorat bilan foydalangan.

**Bahrom va Dilorom hikoyatining dostondagi o'rni.** Bahrom va Dilorom ishqiy sarguzashti dostonning qoliplovchi hikoyasi bo'lib, uning ichida shoir yettita hikoyat keltiradi. Hikoyatlar asarning umumiy yo'nalishi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, asarning yaxlit bir uzviy qismlarini tashkil etadi.

Dostonning o'n birinchi bobida shoir Bahrom to'g'risida qisqacha ma'lumot berib o'tadi. Shoir uning g'alabali yurishlari va fathlarini rad etmaydi. Ammo shoirning bosh maqsadi Bahrom tarixini bayon etish emas edi. U “Yetti bo'ston majlis afruzi”ni hikoya qilishni niyat qilgan. Dostonning bosh qahramoni Bahrom ziddiyatli xarakterdagi murakkab obrazdir. Bahrom o'zining dastlabki podshohlik davrida adolat yo'lini tutadi. Zolimlarni jazolab, mazlumlarni himoya qiladi, yurt obodonligi yo'lida ko'p ishlar qiladi. Shoh Bahrom ko'p vaqtini maishatda o'tkazadi. U ovni va musiqiy kuylar tinglashni juda yoqtiradi. Bahromning anashu qiziqishlari Diloromga muhabbat qo'yishiga sabab bo'lgan.

Bahrom ovda tasodifan rassom Moniy bilan uchrashib qoladi. Moniy Chinda tengi yo'q go'zal Diloromning rasmini Bahromga taqdim etadi. Moniy Diloromni go'zallikda tengsizligi va mohir sozanda ekanligini aytadi. Shoh Diloromni sevib qolib, Xitoy xoqonidan oladigan bir yillik xiroji evaziga, uni o'z huzuriga keltiradi. Shoh sevgilisi visoliga erishadi. Shundan keyin Bahrom davlat ishlarini, xalqni butunlay unutib, butun vaqtini Dilorom birgalikda o'tkaza boshlaydi. U sevgilisi

bilan birgalikda ovga chiqar, bazmu jamshid qilar, ma'shuqasining san'atidan zavq-shavq olish bilan kunlarini o'tkazardi. U bir lahza ham Diloromdan uzoqlashmas edi. Navoiy Bahromning xatti-harakatlarini hayot mantig'iga monand holda tasvirleydi. Bahrom kayfiyatida ro'y bergan o'zgarishlar tufayli shohlik faoliyatida nuqsonlar yuz bera boshlaydi. Natijada mamlakatda tartibsizlik boshlanadi, el-yurt hayoti yana og'irlashib, obod bo'lgan shaharlar vayron bo'la boshlaydi.

Shu tariqa Bahrom mamlakat, sipoh ishlarini unutadi, unga el-yurt malomat qila boshlaydi. Mamlakatning og'ir ahvolga kelib qolganidan tashvishga tushgan arkoni davlat bundan shohni xabardor qiladi. Visol lazzatlariga shohlik tufayli erishdim, deb o'ylagan Bahrom endi hokimiyatni qo'lda saqlab qolmoqqa harakat qiladi. Shuning uchun Bahrom mulk va saltanatni saqlab qolish uchun ishq tarkini qilmoq darkor.

Navoiy bunday mulohazalarini yozar ekan, sevgi va shohlik bir-biriga muvofiq emas, degan xulosaga keladi.

Ishq ila shohlig' muvofiq emas,  
Ishq lofida shoh sodiq emas.

Bahromning oshiqligi faqat ishq yo'lidagi lof edi. Uning sevgisida samimiylik yo'q. U Dilorom visoliga osongina erishdi. Endi undan osongina voz kechishi ham mumkin edi. Bahromning merganlik mahoratini mashq qilish oqibati deb baholagan Diloromni haq so'zlari shohni qattiq g'azablantiradi. Buning evaziga shohning buyrug'i bilan Diloromni o'z sochlariga bog'lab, dasht-biyobonga tashlab ketadilar. Bu lavha orqali shoir shohga Dilorom xuzur-halovati, ko'ngil ochishi uchun go'zal bir ashyo bo'lganini, uning qizga sevgisi samimiyatdan yiroq ekanligini ifodalamoqda.

**Dostonda Bahrom ruhiy kechinmalari tasviri.** Shoir Bahrom xarakteridagi ziddiyatli qirralarga alohida e'tibor beradi. Ertasiga Bahrom uyqudan uyg'ongach, Diloromni so'raydi. Atrofdagilar ro'y bergan voqeani unga eslatadilar. Mazkur o'rinda Bahrom xarakteridagi ziddiyat to'laroq namoyon bo'ladi. U bir inson sifatida qilgan ishidan u qattiq pushaymon bo'lib, Diloromni izlashga o'zi

bormoqchi bo'ladi. Ammo shohlik martabasi bu ko'zlagan ishini qilishiga yo'l qo'ymas edi. Uning xarakteridagi oshiqlik bilan shohlik to'qnashadi.

Navoiy Bahromning sevgilisidan ayrilib qolgandan keyingi ruhiy azoblarini, chekkan iztiroblarini yuksak san'atkorlik bilan tasvirlaydi. U davlat ishlaridan yanada chekinib, tinimsiz nolau faryod qiladi. Yoridan bir umrga ayrilganini bilagan Bahrom qilgan ishidan qattiq pushaymon bo'ladi. Ayriliq tufayli Bahrom haqiqiy oshiqqa aylanadi. Shoir uning chekkan azoblarini to'la tasvirlaydi. Uning monologida iztiroblarining naqadar cheksizligi shunday keltiriladi:

Dedi: "O'z jonima ne qildim voy!  
Bo'lurin buyla ish ne bildim, voy!

Kim o'zi ko'ksin o'zi chok etgay,  
O'zi jonin o'zi halok etgay!?!...

Jonni olg'ilki, to'ymisham, billoh!  
Ko'ngul o'lmakka qo'ymisham, billoh!

Jonni naylay jahonda jononsiz!?  
Jonim onsiz tanedurur jonsiz!?"

Ko'rinadiki, Bahrom ishq yo'lida jon berishga tayyor bo'lgan bo'lgan oshiqqa aylanadi. Unga jononisiz hayot kerak emas. Uning chekkan ohu nolalari shu darajaga yetadiki. Natijada Bahrom butunlay behol bo'lib qoladi. Kechalari to'xtovsiz nola qilar, ertalabdan kechgacha hushi og'ib yiqilib qolar edi. Arkoni davlat va tabiblar yig'ilib uni dardiga da'vo izlashadi. To'rt yuz tabib Bahrom da'volashga jalb etiladi. Tabiblar shoh ishq dardiga muftalo bo'lganini ma'lum qilishadi. Ular "Ishq o'tdur, bizning muolaja xas", deyishadi. Shunday ekan, o'zni xas bilan daf etib bo'lmasligini aytishadi. Ularning sa'y-harakatlari bilan ikki yilda shoh salomatligi ancha tiklana boshladi. Shohning butunlay tuzalib ketishi uchun hakimlarning maslahatiga ko'ra yetti iqlim podshohlari yettita chiroyli qasrlar barpo etishga kirishadilar. Qasrlar bitgach, Moniy yetti xil rangda nihatta maftunkor qilib bezaydi. Bahrom ulardan zavqlanib, kundan-kunga dardini unuta boshlaydi. Bahromning ahvolini yanada yaxshilash uchun bezash ishlari nihoyalangach, yetti iqlim shohlari o'z qizlarini o'zlari qurdirgan qasrlarga

joylashtirishadi, shoh Bahrom xaftaning har kunini bir qasrda xursandchilik bilan o'tkazishi, yetti go'zalni o'z nikohiga olishi maqsadga muvofiq deb topildi.

**Hikoyatlarning doston kompozitsiyasida tutgan o'rnini.** Xuddi shu o'rinda asarning asosiy qismini tashkil etuvchi yetti musofir hikoyatlariga o'rin beriladi.

«Sab'ai sayyor» dostonining syujet chizig'i, uning asosiy mundarijasini tashkil etgan yettita hikoyatdir. Ularning mavzusi rang-barangdir. Bu hikoyatlar ham Navoiy yashab ijod etgan tarixiy davr va sharoit bilan, o'zbek xalqining og'zaki ijodi bilan uzviy bog'liq bo'lib, shoir ularda hayotning eng dolzarb masalalarini qamrab oldi. Insonparvarlik, adolat, vatanparvarlik, ishq-muhabbat, tinchlik va osoyishtalik g'oyalari hikoyatlarda tarannum etiladi.

Shanba kuni Bahrom qora rangli qasrda birinchi iqlim yo'lidan keltirilgan musofir hikoyatini tinglaydi. Unda shahzoda **Farrux** va **Axiy** sarguzashti misolida ishq va himmat masalasi ilgari suriladi. Sarandib shahrida Jasratxon ismli bir qudratli shoh bor edi. Uning husnda, aqlda va axloqda tengsiz bo'lgan Farrux ismli o'g'li bo'lgan. Otasi sakson yoshlarga yetganda o'g'liga toju taxtini topshirmoqchi bo'ladi. Ammo Farrux buni rad etadi. Bir kuni Farrux tushida qudduslik go'zalni ko'rib sevib qoladi. Otasidan tushida ko'rgan go'zalni izlash uchun ruxsat so'raydi. Avvaliga otasi ruxsat bermaydi, o'g'lining qarori qat'iy ekanligini ko'rgach, noiloj rozi bo'ladi. Farrux katta qo'shin bilan Quddusga keladi. Farrux yana tush ko'radi va unda sevgilisi Halabda ekanligi ayon bo'ladi. Qo'shinning katta qismini o'z eliga qaytarib, ozgina odam bilan Halabga yo'l oladi. Yo'lda tasodifan tushida ko'rgan sevgilisini ko'rib qoladi va hushidan ketadi. O'ziga kelganida sevgilisi yo'q edi. Bir qog'ozga o'zini kuzatib yurgan odamlarga yurtiga ketish uchun ruxsatnoma yozib, o'zi shohona liboslari o'rniga qora palos yopinib, yashirincha g'oyib bo'ladi. U turli yerlarda telbalardek tentirab yuradi va bir gulxan kulini makon tutadi. Halabda Axiy ismli saxovatli boy bo'lib, doimo g'arib mazlumlarga lutfu marhamat ko'rsatar va shu sifati bilan mashhur edi. Farruxni vayronalar ichida uchratib qolgan Axiy uni uyiga olib keladi va ko'p iltifotlar ko'rsatadi. Mehmonni doimo dardu alam chekishini ko'rgan Axiy Farruxning ishq asiri bo'lganini fahmladi. Bir kuni Axiy uni mast qilib ko'nglidagi

bor dardini bilib oladi. Farrux ta'rifiga ko'ra u sevgan ayol Axiyning rafiqasi Gulchehra edi. Murruvatli Axiy xotinini taloq qilib, Farruxga nikohlab beradi va ularni izzat-ikrom bilan yurtiga jo'natadi. Gulchehra orqali do'stining himmatidan voqif bo'lgan olijanob Farrux o'ziga har qancha og'ir bo'lishiga qaramasdan, unga uylanish fikridan voz kechib, aka-singil tutinadi. Yurtiga kelganida otasi vafot etgan edi. Farrux saltanatni egallaydi. U Halab uslubida bir qasr qurdirib, tutingan singlisini shu qasrga joylashtiradi.

Axiyning ishi kasod bo'ladi, bor boyligidan ayriladi. Dushmanlari tuhmatiga uchrab, nohaq qamaladi. Zindon soqchisining yordami bilan zindondan qochadi va Farrux yopingan palosni ustiga yopinib, Sarandib sari ketadi, Bu yerda bir vayronada makon tutadi. Axiydan ibrat olib Farrux g'arib va mazlumlar holidan xabar olib turardi. Nogoh vayronada Axiyni uchratib, uni tanib qoladi. Uni saroyga keltirib, hurmat-ehtirom bilan mehmon qiladi. So'ngra Farrux Gulchehrani Axiyga nikohlab beradi. Axiy va Gulchehra Farrux davlatining soyasida baxtiyor umr kechiradilar.

Bahrom bu musofirni Axiy avlodidan ekanidan xabar topgach, uni o'z xizmatiga oladi. Dostonning asosiy g'oyasi muruvvat, himmat va yaxshilikdir. Voqealar davomida muruvvat sevgidan ustun keladi. Muruvvatga faqat chin sevgi hissiga ega bo'lgan insongina qodirdir. Axiy va Farrux anashunday zotlardir.

Axiy muruvvat va futuvvat egasi edi. Bu Farruxga ibrat bo'ladi. Axiy unga qilgan yaxshiliklari evaziga uning xotiniga uylanmaydi, balki u bilan aka-singil tutinadi. Farrux shohlik taxtiga o'tirgach, ustozlari Axiydan o'rgangan insonparvarlik, g'arib va muhtojlarga yordam berish singarilarni o'ziga odat qilib oladi. U el-ulus ahvolidan xabardor, ularga ko'makdosh podshoh sifatida faoliyat yuritadi. Navoiy Farrux orqali oshiqlik, muruvvat, himmatni ulug'laydi.

Ushbu hikoyat yukak badiiyati bilan diqqatga molikdir. Navoiy voqealarni mantiqan rivojlanib borishiga e'tibor beradi. Farruxning sevgi iztiroblari, uning boshiga tushgan savdolarni butun iker-chikirlari bilan tasvirlaydi.

Shoir hikoyatdagi dialoglarga alohida o'rin ajratadi. Farrux va otasi dialogi, Axiy va Farrux dialogi (Axiyning uyida), Farrux va mahvash dialogi, Farrux va

Axiy (Farruxning yurtida) dialogi, Bahromshoh va musofir dialogi bunga misol bo'la oladi. Bu dialoglar voqealar mohiyatini ochishga, qahramonlar holati va kayfiyatini tasvirlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Farrux o'z sevgilisi bilan Halabdan o'z yurtiga ketayotganida o'z yorini juda xafa holda ko'radi va buning sababini undan so'raydi. Ular o'rtasidagi suhbat shunday kechadi:

Dedi: “Ey mahvashi paripaykar,  
Sen kibi elga baxt o'lub yovar,

Bo'lsa aqdu nikah amrida sur.  
Yetishur yuz nishot birla surur.

Sendakim bu g'amu taab ko'runur,  
Hikmatin deki bas ajab ko'runur”.

Dedim mahvashki: “Ey ulus aro toq!  
Xushdil aylar - nikoh, yo'qki – taloq!”

Dedi Farruxki: “Ey parivash hur!  
Uyla dekim, topoy so'zungga shuur!

So'zda lafzi taloq – ne ya'ni  
Vasl ichinda firoq – ne ya'ni”.

Shundan keyin Gulchehra o'zining qanday qilib Farrux nikohiga kirib qolgani sarguzashtini gapirib beradi. Farrux va mahvash o'rtasida bo'lib o'tgan bu dialog qahramonning holati, kechinmalarini yoritishga yordam beradi. Hikoyatdagi keyingi voqealar rivojiga shu dialog ta'sir etadi.

Hikoyatda qora rang bilan bog'liq ramziylik bor. Bahrom bazm qurgan qasr ham, hikoyachi musofir egniga kiyib olgan palos ham qora rangda. Shuningdek, Bahromning dilsiyohligi ham, unga ozor berayotgan ayliliq shomi ham shu rangga uyg'un. Ammo hikoyatning ezgulik tantanasi bilan tugashi qora rangga ulug'lik bag'ishlaydi. Hikoyatda bu holat shunday keltiriladi:

Chunki shah xil'ati qaro bo'ldi,  
Qora kiymak ulus aro bo'ldi.

Qora rang elga toji torakdur,  
Kim bu rang ichradur, muborakdur.

Hikoyatning boshlanishida qora rang Bahromning Diloromdan judolik kunlari, ayriliq ramzi sifatida qo'llanilgan bo'lsa, hikoyat oxoriga kelib, qora rang boshdagi toj ekanligi, ya'ni boshdagi sochning qoraligi insonning baxtiyorligidan, yoshligidan darak berishini ta'kidlash bilan tugallanadi. Bunda qora kun ketidan yorug' kun kelishi muqarrar bo'lganidek, ayriliq ham visol tongiga ulanishi mumkinligiga ishoralar bor.

Umuman, asardagi har bir hikoyat hayot bilan bog'liqlikda bayon etiladi. Hikoyatlardagi hodisalar orqali shoir kundalik turmushda uchraydigan ayrim holatlarni izohlaydi va ulardan falsafiy umumlashmalar chiqaradi.

Dostondagi **ikkinchi musofir** tilidan keltirilgan «Zayd Zahhob» hikoyatida yurt hukmdorlarini nihoyatda sergak va hushyor, zukko va tadbirkor bo'lishga chaqiradi. Shoir ularni mamlakatni idora qilishda ilm-hunar ahlidan foydalanishlari zarurligini ta'kidlagan holda ayni paytda podshohlarni ehtiyotkorlikka chaqiradi. Chunki ilm-hunar vakillarining ayrim nopok harakatlari tufayli saroyda qalloblik, xiyonat, munofiqlik, adovat, fisqu fasot avj olishi mumkinligini bayon etadi.

Hikoyat xiyonat, uzr va avf to'g'risidadir. Navoiy fikricha, gunoh qilmaydigan kishining o'zi yo'q. Shuning uchun gunohkor o'z aybini bo'yniga olib, tavba qilsa uni kechirish lozim. Zayd shoh atrofidagi amaldor va hunarmandlardan biri. Uning fazilati mohir zargar va bilimdon tabibliigidir. Shuningdek, u qiyinchiliklarni osonlik bilan yenguvchi, murakkab vaziyatlardan chiqib ketishga qodir, tadbirli, chaqqon va uddaburon shaxsdir. Uning asosiy illati mamlakat xazinasidan o'g'irlik qilar, shoh haqiga xiyonat qilib umr kechirardi. Hikoyatda saroyda xiyonat va jinoyatlarni, nopokliklar haqqoniy yoritiladi.

**Uchinchi iqlim** yo'lidan keltirilgan musofir Sa'dning ishqiy sarguzashti haqida hikoya qiladi. Hikoyat syujeti xalq ertaklariga juda yaqin turadi. Hikoyatni tashkil qiluvchi alohida epizodlar — dev bilan olishish, tush ko'rish va uni ta'bir qilish, g'orda yotgan donishmand bilan uchrashish kabi epizodlar xalq xalq ertaklarida juda ko'p uchraydigan epizodlardir. Hikoyatda qismat, uning inson hayotidagi o'rni, insonning qismatga bo'ysunishi hikoya qilinadi. Sa'dning ilmi, yuksak fazilatli inson ekanligi baxtli taqdiriga vosita bo'ldi.

«Sab' ai sayyor» dostonidagi eng yuksak hikoyatlaridan yana biri **to'rtinchi** hikoyatdir. Navoiy unda o'z davrining muhim masalalarini ifodalaydi. Mamlakat va xalq taqdirini hukmdorlarning xatti-harakatiga borliq deb bilgan Navoiy bu hikoyatda ham shohlarni adolatli, xalqparvar, saxiy, oliyhimmat bo'lishga undaydi. Ana shunday shohlardan biri Dehli shohi Junadir Juna adolat, insof va saxovatda tengsiz edi. Navoiy u haqda:

Adlu insof o'lub sifoti aning,  
Shohlar ichra Juna oti aning.

Elga bazlu ato bila mashhur,  
Olam ichra saxo bila mashhur.

Adolat va insofda tengsiz bo'lgan shoh Taroz hokimi Mas'udning saxovatda o'ztidan ham ortiq ekanligini eshitib, u yerga boradi. Mas'ud oldiga arzu dod uchun kelgan kishilarni hammomda cho'miltirib, yaxshi liboslar kiydirib, qornini to'ydirishar, shundan keyin kelgan kishini hokim huzuriga olib kirishar ekan. Junani tanimay, unga ham shunday muomila qiladilar. Mas'ud u bilan suhbat orasida saxiylikni o'zining odil podshohidan o'rganganligini aytadi. Mas'ud unga ichgan bilan mayi tugamaydigan idish va uchqur ot hadya qiladi. Juna Mas'udning saxovatiga qoyil qolib, Dehliga qaytadi.

Taroz shahri Junpur o'lkasiga qarashli bo'lib, uning voliyi Jaypur juda zolim kishi edi. Juna uning o'rniga Mas'udni Junpur voliyi etib tayinlamoqchi bo'ladi. Buni eshitgan Jaypur Mas'ud bilan yaqinlashadi. U bilan yolg'ondan do'st tutinib, mast qilib, chohga tashlaydi. Uni qattiq qiynaydi. Qiynoqchilarning boshlig'i Mallu edi. Navoiy hikoyatda zulm, zo'rlik va munofiqlikni Jaypur va Malluning xatti-harakatlarini ko'rsatish orqali qattiq qoralaydi.

Hikoyatdagi Malluning qizi adolatsizlik va insofsizlikka qarshi isyon ko'targan jasoratli qiz obrazidir. U Mas'udni chohdan qutqaradi, uyida yashirincha yigitni parvarish qiladi va Mas'ud o'ziga kelgach, u bilan birgalikda qochadi. Ular ta'qibchilardan qochib Dehliga borib qolishadi. Mas'ud toskashlik qilib, harid qilingan mollarni shohning chorbog'iga olib borganida Junani tanib qoladi. Biroq



o'zini tanitishdan andisha qiladi. Eshik oldidagi xizmatchilaridan bittasi Mas'udni tanib qoladi. Mas'ud bor gapni Junaga aytib beradi.

Juna - zolimlarga qarshi shafqatsiz kurashuvchi shoh. U Mallu va Jaypur kabi zolimlarni qatl ettiradi. Mas'udga Taroz va Darbast hokimligini beradi. Ko'p xazinalar in'om yetib, sevgilisi bilan nikohlab qo'yadi.

«Juna va Mas'ud» hikoyati ham yuksak badiiy mahorat bilan yaratilgan. Keskin konflikt asosiga qurilgan hikoyatda saxovat bilan baxillik, insof bilan insofsizlik, to'g'rilik bilan munofiqlik o'rtasida qattiq kurash boradi. Bu konflikt hayotiy konfliktidir.

**Beshinchi musofir hikoyatida** adanlik malika Mehr bilan yamanlik shahzoda Suhaylning sevgi sarguzashti hikoya qilinadi. Bu sarguzasht oshiq-ma'shuqaning sevgi sarguzashti bo'lishi bilan birga yovuzlik ustidan ezgulikning g'alabasi hamdir.

«Mehr va. Suhayl» hikoyatining yetakchi mavzusi sevgidir. Bu sevgi samimiyat, vafo va sadoqat, mardlik va jasorat, ezgulik kabi fazilatlarni mujassamlashirgan. Sevgi oshiq-larga kuch-qudrat jasorat bag'ishlaydi. Ular birgalikda qaroqchi Jobirni yengib g'olib chiqadilar. Samimiy sevgiga bo'lgan sadoqat, zolim, munofiq shaxslarga nisbatan nafrat, ularga qarshi shafqatsiz kurash bu hikoyatning asosiy g'oyasidir.

Yuzlab kishilarni dengizga cho'ktirgan, kemalarni talab, qaroqchilik bilan boylik yig'uvchi Jobir Suhayl qahramonligi oldida ma'naviy mag'lub bo'ladi. U hiyla bilan Suhaylni yengsa-da, uning mardligi, botirligiga, jasoratiga tan beradi, Suhaylni o'ldirmaydi. Uni aql va tadbir, jasorat va mardlik, do'stlik va hamjihatlik yengadi. Hikoyat muhabbat va sadoqatnikg yovuzlik va zolimlik ustidan g'alabasi bilan tugaydi.

**Oltinchi hikoyat** “Muqbil bilan Mudbir” hikoyatidir. Bular ikkalasi ikki xil xarakter egasi bo'lgan kishilardir. Mudbirning tabiatida noshukurlik, mansabparastlik, xudbinlik, yolg'onchilik mujassam. Muqbil esa sabr-qanoatli, irodali, imon-e'tiqodli, ertangi kunga umidvor bandadir. Ana shu xususiyatlardan

kelib chiqib, Mudbir sharmandali o'lim topdi. Muqbil esa insofi, sabr-qanoati, to'g'riligi sababli go'zal malika visoliga erishdi, shoh marhamatiga sazovor bo'ldi.

Xorazm elidan kelgan **yettinchi musofir hikoyati** Bahromning mahbubasidan xabar malhamini yetakzadi. U Xorazm mamlakatida nihoyatda go'zal bir qiz borligini, uning san'atda tengi yo'q bo'lib hamma unga oshiqligi, uning esa hech kimga ko'rinmasligini, o'zining esa qiyinchiliklar bilan unga shogird bo'lganligini, shundan keyin qizning o'z boshidan kechirganlarini aytib berganligini shohga hikoya qiladi. Hikoyatda tasvirlanishicha, Bahrom g'azabiga uchragan Dilorom qo'l-oyog'i o'z sochlariga bog'langan holda kimsasiz cho'lu biyobonlarda yolg'iz qolgan. Diloromni farzand sifatida ko'rgan xoja uni ko'rish uchun kelayotganda tasodifan cho'lda yuqoridagidek ahvolning ustidan chiqadi va qizni Xorazmga olib ketadi. Dilorom o'zining san'ati bilan butun Xorazm elida shuhrat qozonadi. Xorazmdagi mashhur mashshoq Kofur Diloromning san'atdagi mahoratiga tan berib, unga shogird tushadi. Kofur Diloromning oshiqligini sezadi va bu sirdan o'zini voqif qilishni undan iltimos qiladi. Dilorom agar Kofur bu sirni bilgandan keyin Xorazmdan chiqib ketishga so'z bersagina aytajagini bildiradi. Kofur rozi bo'ladi. Shundan keyin Dilorom o'z boshidan kechirganlarini hikoya qilib beradi. Shartga muvofiq Kofur Xorazmdan jo'naydi. Yettinchi musofir sifatida juma kuni Bahromning oq qasriga keltirilgan kishi shu Kofur edi. Kofur hikoyasidan kuchli hayajonga tushgan Bahrom o'z sevgilisi Diloromdan darak topadi. U Xorazm shohiga xat yozib, Diloromni o'ziga jo'natishini talab qiladi. Diloromga o'z qilmishlari uchun uzr so'rab, xat yozadi. Nihoyat Dilorom Bahrom yoniga qaytadi. Shoir ana shunday yuksak mahorat bilan yettinchi hikoyatni asosiy syujetga bog'laydi.

Dostondagi yetti hikoyat kompozitsion qurilishi jihatidan ham, mazmuni bilan ham bir-birini to'ldiradi. Shuning bilan birga ularning har biri chuqur mazmuni, badiiy tugallanganligi bilan alohida-alohida mustaqil asar hisoblanadi.

#### **Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Dostonning yaratilish tarixi haqida nimalarni bilasiz?
2. Navoiy dostoni ustozlarining shu tipdagi asarlaridan nimasi bilan farq qiladi?

3. Shoir ustoz xamsanavislarning dostonlarida uchraydigan qaysi kamchiliklarni tanqid qiladi?
4. Hikoyatlarning asar kompozitsiyasida tutgan o'rnini haqida gapiring.
5. Asarning badiiy xususiyatlari haqida gapiring.

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. J. 9. - T.: Fan, 1992.
2. Alisher Navoiy. Sab'ai sayyor (Nasriy bayoni bilan). -T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991.
3. Alisher Navoiy. Sab'ai sayyor. -T.: 2006.
4. Mallayev N. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti. – T.: Adabiyot va san'at, 1974.
5. Mallayev N.M. O'zbek adabiyoti tarixi. K.1. – T.: O'qituvchi, 1976.
6. O'zbek adabiyoti tarixi. Besh jildlik. J. 2. – T.: Fan, 1977.
7. Alisher Navoiy “Xamsa”si. Maqolalar to'plami.. – T.: Fan, 1986.
8. Komilov N. Tasavvuf. K.1. – T.: Yozuvchi, 1996.
9. Hayitmetov A. Ilk navoiyshunoslar // Navoiyga armug'on. K.2. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi, 2000. – B. 7-15
10. Valixo'jayev B. Mumtoz siymolar. – T.: Meros, 2003. – B. 129-185
11. Navoiyning ijod olami. Maqolalar to'plami. – T.: Fan, 2001.
12. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. -T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi, 2006.
13. Qayumov A. Yetti sayohatchi // Asarlar. 1-jild, K.2.T.: Mumtoz so'z, 2008. – B.138-232

### **“SADDI ISKANDARIY» DOSTONIDA ALISHER NAVOIYNING ADOLATLI SHOH HAQIDAGI QARASHLARI**

**“Saddi Iskandariy” «Xamsa»ning yakunlovchi dostoni.** “Saddi Iskandariy” Navoiy «Xamsa»sining yakunlovchi dostoni bo'lib, unda shoir o'zining adolatli shoh va mukammal jamiyat haqidagi orzu niyatlarini badiiy ifoda etadi. Navoiy dostonida «Xamsa»ning boshqa dostonlarida ham bayon etilgan falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta'limiy fikrlariga xulosa yasaydi. Shuningdek, Navoiy doston oxirida “Xamsa” ning yakunlanishi va uni buyuk so'z san'atkorlari tomonidan e'tirof etilishi haqida maxsus bob ham kiritadi.

Iskandar Yaqin va O'rta Sharq xalqlari orasida Iskandar Zulqarnayn, Iskandar Rumi, Iskandar Maqdon nomlari bilan yuritiladi. U orqali Aleksandr Makedonskiy tasavvur qilinadi. Shuni ham unutmaslik kerakki, Navoiy dostonida

tasvirlangan Iskandar obrazi bilan tarixiy Iskandar o'rtasida anchagina o'xshashliklar bo'lsa-da, u Aleksandr Makedonskiy obrazi emas. Navoiy talqinidagi Iskandar shoirning ideal qarashlarini o'zida mujassam etgan adolatli va ma'rifatli shoh timsolidir. Navoiy asarda xalq osoyishtaligi, el-yurt tinchligi, o'zaro ixtilof-u nifoqlarga chek qo'yish, mamlakat obodligi haqida ilgarigi dostonlarida ilgari surilgan fikr-mulohazalarini yanada takomillashtiradi.

**Aleksandr Makedonskiy va badiiy adabiyot.** Aleksandr Makedonskiy (eramizdan avvalgi 356-323 yillar) Dunaydan Hind daryosigacha bo'lgan katta hududda ulkan mamlakat barpo etgan ulug' sarkardadir. Uning hayoti va harbiy yurishlari antik davr tarixchilari Arrian Flaviiy va Plutarx asarlarida ma'lumotlar beriladi. Yunon tarixchisi Arrianning ma'lumotlariga ko'ra, Iskandar haqida yaratilgan afsona va rivoyatlarning xalq o'rtasida keng tarqalishida jahongirlik yurishlarida ishtirok etgan askarlarning roli kattadir. Unga ko'ra, Iskandar askarlarni o'z yurtlariga qaytarib yuborar ekan, forslar va midiyonlar, baqtriyaliklar va shaklarni, Kaspiy dengiziga qadar cho'zilgan hududda yashovchi parfiyonlar, xorazmiylar va girkanlarni qanday bo'ysundirgani haqida hikoya qilib berishlarini aytar ekan. Hikoyachilar tarixiy haqiqatdan ko'ra fantaziya va uydurmalariga ko'proq berilib, bu yurishlar haqida rang-barang afsona va rivoyatlarni to'qiganlar.

Afsona va rivoyatlarda Iskandar ilohiy qudrat sohibi sifatida ulug'lanadi. Asta-sekin Iskandar haqida kichik hajmli hikoyatlar yuzaga kela boshladi. Bu hikoyatlarda Iskandar Arastu maslahati bilan ish ko'radigan donishmand, xalqparvar, olijanob shoh sifatida tasvirlanadi.

Iskandar obrazi turkiy xalqlar og'zaki ijodida ham keng tarqalgan. Mahmud Qoshg'ariy "Devonu lug'ot ut-turk" asarida ayrim geografik nomlar va so'zlarning kelib chiqishini Iskandar nomi bilan bog'lab izohlaydi. Iskandar haqidagi ma'lumotlar "Qur'oni Karim", "Qissai Rabg'uziy" singari muqaddas kitoblardan ham o'rin olgan. Ularda Iskandar ilohiy sifatlar egasi bo'lgan kishi sifatida keltiriladi.

Sharq badiiy yozma adabiyotida ilk marotaba Abulqosim Firdavsiy “Shohnoma” asarida Iskandarga maxsus doston yaratadi. Firdavsiy Iskandarni adolatli va najotkor hukmdor sifatida tasvirlaydi. Nizomiyning “Iskandarnoma” (1203-1211), Xusrav Dehlaviyning “Oyinai Iskandariy” (1300-1301) dostonlarida Iskandar obrazi mahorat bilan tasvirlanadi.

**Iskandar obrazi Navoiy talqinida.** Iskandar obrazi Navoiyning bir necha asarida uchraydi. «Hayrat ul-abror» dostonining oʻn toʻrtinchi maqolatidan keyin Navoiy Iskan-darning butun dunyoni zabt etib soʻngra «xoli ilik bila olamdin rihlat markabin surgoni» toʻgʻrisidagi hikoyatni keltiradi<sup>1</sup>. «Tarixi muluki Ajam»<sup>2</sup>da Navoiy Iskandar haqida soʻz yuritib, “Iskandar nisbatida ixtilof koʻptur”, deydi va ulugʻ jahongir haqidagi baʼzi hikoyatlarni keltirgan.

Navoiy «Saddi Iskandariy» dostonida Iskandarning jahongirlik yurishlari tarixi bilan bevosita bogʻliq tarzda tamomila yangi obraz yaratadi. Shoir oʻziga qadar mavjud boʻlgan ogʻzaki va yozma maʼlumotlarga ijodiy yondashib, tarixiy Iskandardan farqlanuchi qahramon siymosini gavdalantiradi. Asarda shoirning adolatli shoh va mukammal jamiyat haqidagi orzu-niyatlari Iskandar obrazi bilan bogʻliq holda oʻz aksini topadi.

Doston tarkibiy tuzilishiga koʻra oʻziga xos boʻlib, 89 bobdan iboratdir. Har bir bobda Iskandar bilan bogʻliq biror voqea bayon etiladi. Shundan keyin falsafiy-didaktik chekinishlar tarzidagi falsafiy fikrlar izhoridan iborat bir bob berilib, shoir fikrlarning tasdigʻiga xizmat kiluvchi hikoyat va xulosa tarzidagi hikmat keltiriladi. Hikmatlar Iskandarning Arastuga bergan savoli va Arastuning jahongirga javobidan iborat. Iskandar voqealarining bayoni lirik chekinishlar bilan tugallanadi. Unda shoir avval ayoqchiga, soʻngra mugʻanniyga va oxirida esa oʻziga murojaat qiladi.

Navoiy tasvirlagan Iskandar hech bir sulolaga mansub emas, u ota-onasidan ayrilgan yetim boladir. Farzandsiz shoh Faylaqusning tarbiyasi tufayli u barcha fan, hunarlarni egallaydi. Navoiy dostonida inson shaxsini shakllantirishda taʼlim-

---

<sup>1</sup> Бу ҳақда қаранг: Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. 20 томлик. Ж.7. Ҳамса. Ҳарат ул-аброр. – Т.: Фан, 1991, 254 б.

<sup>2</sup> Бу ҳақда қаранг. Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. 20 томлик. Ж.16. – Т.: Фан, 2000, 215 б.

tarbiya, sharoit va muhit ekanini ta'kidlaydi. Shoir Iskandar xarakterini yuksak va munosib fazilatlar egasi qilib tasvirlaydi.

Otasi vafot etgach, xalqning taklifi va iltimosiga ko'ra Iskandar hukmdorlik taxtiga o'tiradi va adolat bilan davlatni boshqaradi. U mamlakatda adolatli tartib o'rnatadi, xalqning arzi-dodini tinglaydi. Mazlumlarni quvvatlab, zolimlarga jazo beradi. Iskandarning bu yo'sindagi faoliyati uning Doro Eron shohi ustidan g'alaba qozonganidan so'ng ham ko'rinadi. Doro xazinalari Iskandarning buyrug'iga ko'ra askarlar va elga ulashib beriladi.

Iskandar Farang, Qrim, Andalus, Misr, Iroq, Arab, Shom, Xalab, Yamanni egallaydi. Makkani ziyorat qilib, Forsni fath etgach, shimol sari yurish qiladi. Dashti Qipchoq, Os, Rus, Charkas, Gurji ellarini zabt etgach, Iskandar Sharqqa yurish boshlaydi. Farxor, Movarounnahr, Chigil, Yag'mo, Chin, Hind ellarini o'ziga bo'ysundirgan Iskandar janubga o'z yurishlarini boshlaydi. Sind, Kon, Muqron, Xuroson, Isfahon kabi yurtlarni o'ziga qaram qiladi. Qo'lga kiritgan mamlakatlarida Iskandariya, Samarqand, Hirot, Roy shaharlarini bunyod qiladi.

Bahor payti Iskandar Chinu Xitoyini egallab, o'z qo'shini bilan Mag'rib sari yo'l oladi. Mag'rib elini fath etgach, Rumba ravona bo'ladi. Iskandar qo'shini yo'lda chumoliga o'xshash odamxo'rlar guruhiga duch keladi. Bu joydan sal narida bir go'zal vodiy bor edi. U vodiyning ikki tomonida ikki tog' - biri oltin, ikkinchisi kumush. Bu yerda juda ulkan qomatli vahshiylar yashaydilar. O'sha vahshiy guruh ana shu xazinaning ajdahosi kabidir. Ular o'n kun uyg'oq bo'lib, o'n kun uxlaydilar. Ular uxlab yotganda chumolisimon qavm ularga poyloqchilik qiladi. Iskandar olimlar bilan maslahatlashib, u yerda yashovchi aholini vahshiylar hurujidan saqlash tadbirini ko'ra boshlaydi.

Iskandar vahshiylar guruhini o'ziga bo'ysundirgach, chumolivor qavmni yo'q qilmoqchi bo'ladi. Ammo vahshiylar iltimos qilib, uni bu fikridan qaytardilar.

Iskandar xarakterining eng olijanob belgisi uning Iskandar devorini bino qilishidir. Ya'juj-ma'jujlar hujumidan xonavayron bo'lyotgan Kirvon xalqining g'amini chekib, devor qurdiradi. Shu tufayli vodiy xalqi ofatdan qutuladilar. Navoiy o'z dostonini ana shu devorga nisbat berib «Saddi Iskandariy» («Iskandar

devori») deb atagani ham bejiz emas. Shoir Iskandar xalqparvarligining oliy timsoli qilib shu devor qurilishini olgan. U insoniyatni ya'juj-ma'jujlar kabi balo va ofatlardan doimo holi bo'lishlarini opzy qilgan. Navoiy adolatli hukmron xalqqa, elga hamisha g'amxo'rlik va mehribonlik otalik va fidokorlik qilishi kerak deb hisoblaydi.

Ya'juj-ma'jujlar tog' bilan zulmat o'rtasida istiqomat etardilar. Ular har yili ikki marta o'z makonlaridan chiqib vodiya yoyiladilar. Hamma yoqni xonavayron qilib, qo'lga tushgan narsalarni yeb, so'ng qaytib ketadilar.

Iskandar odam yuborib, Rus, Shom va Rumdan ustalar keltiradi, chuqur xandaqlar qazdirdi; mis, ruh qalay, bronza, temir, qo'rg'oshinni eritib tog' jinslari bilan qorishtirdi. Iskandar qo'shini ya'jujlar bilan urush qildi, ularning ko'pi o'ldirildi. Ammo Iskandar qo'shini ham ko'p talofat ko'rdi. Iskandarning buyrug'iga ko'ra muhandislar uzunligi o'n ming qarn, binosi besh yuz qarn devor qura boshladilar. Olti oy kecha-kunduz qilingan mehnat natijasida bu devor bitkazildi.

Devorning balandligi uch yuz qarn edi. Unga zinalar yasaldi va soqchixonalar qurildi. Ya'jujlar kelganlarida ularning tish-tirnoqlari bu devorga o'tmadi. Iskandarning buyrug'i bilan qo'shin devor ustida turib ularni toshbo'ron qiladi. Ya'juj-ma'jujlarning ko'pi halok bo'ldi, qolganlari qochib ketdi. Shundan sung shoh o'z sipohlari bilan Rumga keldi.

Iskandar bir necha vaqt Rum mamlakatida turdi. So'ng u okean safarini ixtiyor qildi. Uning buyrug'iga ko'ra minglab kemalar yasalib, sakkiz yillik yarog' va ozuqalar olinib, safarga chiqildi. Navoiy okeanni sirlilikni saqlovchi, vahimali, tasodiflarga boy joy sifatida tasvirleydi. Navoiyshunos A. Erkinovning keltirishicha, Navoiyning suv muhitining shu jihatlarini qalamga olishi Iskandar xarakterini yaratish bilan ham bevosita bog'liqdir. Iskandar qarshiliklarni yengib, quruqlik va olamning suvli qismiga shoh bo'ldi<sup>1</sup>. Iskandar shishadan sandiqqa o'xshatib yasalgan idishga o'tirib okean tubiga tushib uning barcha g'aroyibotlarini ko'radi. Yuz kundan so'ng u idishni suv ostidan arqon bilan tortib oladilar. Navoiy

---

<sup>1</sup> Эркинов А. Навоий пейзаж устаси. – Т.: Фан, 1988. 53 б.

bu yerda ayrim mualliflar fikrida har xilliklar borligini aytadi. Okean tubidan chiqqach, Iskandarda go'yo avliyolik va payrambarlik alomatlari, yuz bergan emish.

Bir yil o'tgach nihoyat, Iskandar o'z eliga yetib kelib qirroqqa chiqadi. Ammo suv safarida uning salomatligi yomonlashgan edi. Uning kasali zo'raya borib, mamlakatni boshqarishni podshohlikning odamlari («muluki tavoif»)ga topshiradi va vafot etadi.

O'limi oldidan Iskandar onasiga, maktub yo'llab, onasi huzurida o'g'illik hurmatini ko'rsata olmaganidan o'kinadi, o'zining o'limi uchun chuqur motam tutmaslikni vasiyat qiladi. Iskandarning o'z onasiga o'limi oldidan yozgan maktubi, dostonning eng muhim va badiiy jihatdan yuksak bir qismidir. Maktubni jo'natgach, Iskandar o'z jasadini Iskandariyada dafn qilishni vasiyat qiladi. U dafn paytida qo'limni tobutdan tashqariga chiqarib qo'yingiz, tokim, jahonni egallagan bu qo'l dunyodan quruq ketayotgalini odamlar ko'rsinlar, deydi.

Iskandarning podshoh va inson sifatidagi ta'rifini berishda uning ayollarga munosabati ham ma'lum o'rin tutadi. U Doroning qizi Ravshanakka uylanadi va unga odob bilan muomala qiladi. Kalb harorati to'la sevgisini Kashmir go'zali Mehrnozga bag'ishlaydi. Iskandar sevgilisining haqqoniy ta'nalarini vazminlik bilan tinglaydi. Onaga bo'lgan mehr-muhabbati, unga yuragidagi eng ezgu tuyg'ularini ifodalaganda Iskandarni oqil va donishmand farzand timsolida ko'ramiz.

Iskandarning adolatparvarlik tadbirlari dastavval uning davlatini mustahkamlashga qaratilgan edi. Chunki u oqil podsho sifatida xalq ahvoli yaxshilansa mamlakat obod, hayot farovon bo'lishini yaxshi tushunar edi.

**Falsafiy-didaktik chekinishlar.** «Saddi Iskandariy» dostonida keltirilgan falsafiy va didaktik chekinishlar alohida e'tiborga molikdir. Shoir doston bayon chizig'idan tashqarida ammo u bilan bevosita bog'liq bo'lgan fikrlarni alohida boblarda keltiradi. Bu boblar ma'lum darajada umumlashma sifatida xizmat qiladi. Bunda shoir Iskandar davridan o'z zamonasiga ekskurs qiladi. Navoiy bunday o'rinlarda o'z zamonasidagi ijtimoiy voqelik bilan bog'liq qator masalalarni



yoritib, ularga o'z munosabatini bildirgan, davrning muhim va hal qilinishi zarur bo'lgan savollariga javob berishga uringan<sup>1</sup>. Shoir ayrim o'rinlarda shohlar va sultonlar faoliyatiga oid fikrlarini ifodalab, ularni odillik va xalqparvarlikka, insof va to'g'rilikka chaqiradi.

U inson xarakterining muhim belgilari: oliy himmatlilik, mol-dunyoga ruju' qo'ymaslik, saxovat, qanoat, yuksak ma'naviy yetuklik singari masalalarga alohida e'tibor beradi.

Shoir himmat to'g'risidagi bobda himmatning baland bo'lishi kishini el o'rtasida obro' va yuksak darajali bo'lishi haqida shunday yozadi:

Birovkim, anga himmat o'ldi baland,  
Erur olam azhli aro arjumand.

Kishi nakdi gar bir qaro mis emas,  
Agar himmati bo'lsa, muflis emas,

Ani angla mufliski, yo'q himmati,  
Chu yo'q himmati, yo'q aning hurmati.

Misralarda shoir o'z hayot tajribalari, umumiy turmush qoidalaridan kelib chiqqan holda axloqiy nizomning qat'iy qoidalarini bayon qilmoqda. Navoiy bunday qoidalar unutila boshlangani, uning o'rnini tubanlik, pastkashlik, manfaatparastliklar egallay boshlaganidan qattiq aziyat chekadi.

Falsafiy-didaktik chekinishlarda shoir ijtimoiy-siyosiy masalalar bilan bir qatorda ta'lim-tarbiya, inson hulqi va odobiga oid masalalar ham e'tiborni qaratadi. Navoiy bu bobda to'g'rilik rostgo'ylik, halollik vafodorlik, yaxshi muomala, tadbirkorlik haqida so'zlaydi.

Ko'rinadiki, falsafiy va, didaktik chekinishlarda Navoiy o'zining hayot, inson to'g'risidagi ezgu fikrlarini bayon etgan. Bunda insonga, hayotga, muhabbat, kishilarning o'z umri, turmushini yaxshilik bilan, mazmundor va go'zal kechirishiga undov yotadi.

**Hikoyat va hikmatlar.** Dostonda har bir voqea tasviridan keyin uning mohiyatini tushunishga yordam beruvchi umumlashma tarzdagi ibratli hikoyat

---

<sup>1</sup> Каюмов А. Асарлар. Ж.1. К.2. – Т.: 2008. 350 б.

berilgan. Hikoyatlarning ba'zilari ayrim tarixiy shaxslar hayoti va tajribasiga oid bo'lsa, ba'zilari xayoliy va majoziy mazmunga egadir. Hikoyatlarning ko'pchiligi xalq og'zaki zaminida yuzaga kelgan. Dostondagi hikoyatlar mazmun va mohiyati jihatidan oldingi boblardagi voqealarga tutashib ketadi va o'zidan keyingi hikmatlarga zamin tayyorlaydi. Hikoyatlar dostonga rang-baranglik bag'ishlab, uni o'qishni yengillashtiradi. Asarda jami o'n yettita she'riy hikoyat bor. Ularg'oyatda qisqa va ixcham, mazmun va fikr aniq, xulosalar lo'nda qilib berilgan. Hikoyatlarda Navoiy hayotning turli-tuman masalalariga e'tiborni qaratadi. Ularda davlat va hokimiyatni boshqarish, xalqqa munosabat, kishilar o'rtasidagi sadoqat, vafo, mehr-oqibat, dunyoning o'tkinchiligi va boshqa hayotning ko'rinishlariga oid ezgu fikr-mulohazalar keltirilgan. Bu orqali shoir kishilarni ezgu insoniylikka undaydi.

Dostondagi Iskandar va gado hikoyati, Ikki vafoli yor hikoyati, Sulton Abu Said Ko'ragon hikoyati, Bahromgo'r hikoyatida podshohlar faoliyatiga oid fikrlar ilgari suriladi. Shoir bu hikoyatlarda ma'lum voqea orqali shohlarga nasihatlar qiladi. Bu hikoyatlarda shoir podshohlar faoliyati qanday bo'lishi kerak, qay yo'sinda davlat boshqarilsa, elga ko'proq foyda tegadi, degan mulohazalarni ilgari suradi. Navoiy hukmdorlarni adolatparvarlik, xalqparvarlik bilan ish yuritishga chaqiradi. Badbinlik, uzoqni ko'ra bilmaslik yomon oqibatlarga olib kelishi mumkinligini Abu Said Ko'ragon hikoyatida asoslab beradi. O'z sipohlarining talablarini ado etmagan, ularga diqqa-e'tibor qaratmagan Abu Said Ko'ragon urush paytida o'z sipohlarini qo'lda tutib tura olmadi, dushmandan yengilib boshi kesildi. Navoiy bu voqeadan shunday xulosa chiqaradi:

Ne shahdin ki, atbon xushnud emas,  
Pushaymonlig'i ish chog'i sud emas.

Sipohdin judo shoh erur bir kishi,  
Ne bo'lg'usidir bir kishining ishi.

Ba'zi hikoyatlarda inson ruhiyatining g'oyatda nozik qirralari yoritiladi.

Ularda inson xarakterining turil qirralari yoritiladi. Iligi kesilgan kishi hikoyati bunga misol bo'la oladi. Bir kishiga tuhmat qilib, qo'lini kesadilar. U hech kimga hech narsa demay shahardan chiqib. Bir vayronaga boradi va u yerda o'ziga

o'xshagan qo'li kesilganlarni ko'radi. Bunda shoir kishi faqat dardini tushina biladigan, o'zi ham shunday alamni chekib ko'rgan kishigina yuragidagi dardu alamini ochiq izhor etishi, hamdard bo'lishi mumkin deydi: "Kishi topsa hamdardini nogahon, Ne imkon, nihon dardni qilmoq nihon".

Hikoyatlar ba'zan masal shaklida ham keladi. Bulbul va zog', baliqlar hikoyati, kabutar hikoyatlari shular jumlasidandir. Bu esa fikrni yanada aniqroq, ta'sirliroq ifodalashga yordam beradi. Dostonda Majnunga oid ikkita hikoyat, Luqmon hikoyati, xurosonlik ikki rafiq hikoyati, tojir hikoyati, Mashriqdan ganj topgan kishi hikoyatida shoir turmushning turli ko'rinishlari haqida nasihatlar beradi. Dunyoning o'tkinchiligi, mol-dunyoga hirs qo'ymaslik haqidagi xulosalarining ular mohiyatiga singdirib yuboradi. Hikoyatlar shoirning Iskandar faoliyatiga munosabatini aniqlashga yordam beradi.

Dostonda hikoyatlardan keyin keltiriladigan hikmatlar ifoda etilayotgan fikr-mulohazalarni mantiqiy jihatdan asoslaydi, ularga falsafiy yakun yasaydi, hikoyatlardagi fikrlarni yanada to'ldiradi.

**Dostonning yakuni.** «Saddi Iskandariy» dostonining oxirida Navoiy mashhur faylasuflar Arastu, Aflotun, Suqrot, Faylaqus, Asqalinus, Xurmuz va Iskandar nomidan shohlik qanday amalga oshirish to'g'risida nasihatlar qiladi. Bunda ham asosiy masala el, xalq, ulus osoyishtaligi va farovonligini ta'minlash bosh o'rinni egallaydi. Jumladan, Arastu hukmronga xitoban deydi:

Xaloyiqqa ko'rma qilib benavo,  
O'zingga ravo ko'rmaganni ravo.

Suqrot podshohning birinchi vazifasi elga osoyish yetkazishdan iborat deb biladi. «Ulus ranjig'a ihtimom etmaslik» kerakligini uqtirib deydi:

Raiyatni adlingdin osuda tut,  
Farog'at mahodida uyquda tut.

Raiyatqa bo'lsa parokandalik,  
Topar saltanat ahli barkandalik.

Yakunlovchi qismda shoir «Xamsa»ni yozib bitirgach, ustoz Jomiy huzuriga olib kelganini, Jomiy bu kitobni ma'qullaganini xabar qiladi. Shundan sung Navoiy o'zidan oldin «Xamsa» yozgan shoirlar — Nizomiy, Xisraviy bilan xayoliy

uchrashuvini hikoya qiladi. Ulug' xamsanavislar ham shoirni qo'llab-quvvatlab, duo qilishadi.

Umuman, "Saddi Iskandariy" dostoni turmush va inson tabiatini haqqoniy yoritadi. Shoir yuksak badiiyat bilan hayotning xilma-xil jihatlarini inkishof etadi. Iskandar obrazi bilan bog'liq holda shoir hayot insonga yaxshilik qilish, kishilar manfaatini himoya qilishga qaratilishi lozimligini aytadi. Mazmundor hayot kechirish haqidagi shoir qarashlari olimlar bilan suhbatlar, hikoya va hikmatlar, falsafiy va didaktik chekinishlarda bayon etilgan.

### **Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Iskandar obrazining badiiy adabiyotdagi ifodasi haqida ma'lumot bering.
2. Navoiyning qaysi asarlarida Iskandar obrazi yaratilgan?
3. "Saddi Iskandariy" dostonining tarkibiy tuzilishi haqida ma'lumot bering.
4. Dostondagi Iskandar va tarixiy Iskandar o'rtasidagi farqli jihatlar nimalarda kuzatiladi?
5. Hikoyat va hikmatlarning asar kompozitsiyasidagi o'rni haqida gapiring.
6. Falsafiy va didaktik chekinishlarda shoir qanday fikrlarni ilgari surgan?
7. Dostondagi olimlar obrazini ta'riflang.

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. J. 11. - T.: Fan, 1993.
2. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. -T.: 2006.
3. Mallayev N. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti. - T.: 1974.
4. Mallayev N.M. O'zbek adabiyoti tarixi. K.1. - T.: O'qituvchi, 1976.
5. O'zbek adabiyoti tarixi. Besh jildlik. J. 2. - T.: Fan, 1977.
6. Alisher Navoiy "Xamsa"si. Maqolalar to'plami. - T.: Fan, 1986.
7. Komilov N. Tasavvuf. K.1. - T.: Yozuvchi, 1996.
8. Hayitmetov A. Adabiy merosimiz ufqlari. - T.: O'qituvchi, 1997.
9. Hayitmetov A. Ilk Navoiyshunoslar // Navoiyga armug'on. K.2. - T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi, 2000. - B. 7-15
10. Navoiyning ijod olami. Maqolalar to'plami. - T.: Fan, 2001.
11. Valixo'jayev B. Mumtoz siymolar. - T.: Meros, 2003. - B. 129-185
12. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. -T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi, 2006.
13. Qayumov A. "Saddi Iskandariy" // Asarlar. 1-jild, K.2.T.: Mumtoz so'z, 2008. - B.243 -395

## «LISON UT-TAYR» - FALSAFIY –MAJOZIY DOSTON

**Dostonning yaratilish tarixi.** Alisher Navoiyning «Lisonut-tayr» dostoni 1498-1499 yillarda yaratilgan bo'lib, unda shoir o'zining falsafiy, tasavvufiy, axloqiy-qarashlarini san'atkorona ifodalaydi. Ulug' fors-tojik shoiri Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" dostoni Navoiy dostonining yaratilishiga sabab bo'lgan.

Farididdin Attor (1119-1193) jahon she'riyati, falsafasiga katta hissa qo'shgan ulug' shoir va mutafakkir, tasavvuf olamining yorqin namoyandasidir. Manbalarda keltirilishicha, Attor yuzdan ortiq asar muallifidir. Biroq ulardan ayrimlarigina bizgacha yetib kelgan. Uning "Asrornoma", "Ilohiynoma", "Musibatnoma", "Tazkirat ul-avliyo", "Muxtornoma", "Xusravnoma", "Mantiq ut-tayr" nomli asarlari juda mashhurdir. Alisher Navoiyning Attor ijodiy merosiga ixlosi katta bo'lgan. Shoir Attorning ko'pgina asarlari bilan yaqindan tanish bo'lgan. Ular orasida "Mantiq ut-tayr" shoirga o'zgacha ta'sir ko'rsatgan. Navoiy bolaligida sevib o'qigan, qattiq ta'sirlangan va hayratga tushgan Attorning "Mantiq ut-tayr" dostoniga javoban "Lison ut-tayr" dostonini yozadi.

"Lison ut-tayr"ning boshlanishida maxsus bobda shoir Attor asarlari va ta'limotini yuqori baholaydi. Bunda Navoiy dunyo dengiz va konlarida nimaiki bor bo'lsa bularning barchasi Attor do'konida bor, deydi. Bu do'konda turli-tuman dardlarga shifo bo'luvchi dori-darmonlar borligi aytiladi. Bu dori-darmonlar Attorning ijod mahsullari bo'lib chiqadi va ular insonni ma'naviy tubanlikdan qutqarishiga ishora qilinadi.

Asarda Navoiy Attor ruhidan madad olib, o'z dostonini yaratganini va ustozidan minnatdorligini aytadi:

Shayx ruhidan yetishdi bu madad,  
Kim bu bulbul lahni bo'ldi baland.

Navoiy ustoziga o'z extiromini ifodalalar ekan, Qaqnus haqidagi hikoyatni keltiradi va bunga qiyosan Attorni Qaqnusga, o'zini esa Qaqnusning bolasiga o'xshatadi. Yana shoir Attorni baland martabali podshohga, o'zini esa

podshohning quliga qiyoslaydi. Bunday o'rinlar Navoiyning ustoziga cheksiz hurmatini namoyon etadi.

Doston "Mantiq ut-tayr"ga nazira sifatida yozilgan bo'lsa-da, unda Navoiyning o'ziga xos san'atkorligi namoyon bo'lgan. Unda shoir qushlar obrazi va ularning sarguzashtlari orqali o'zining tabiat, ilohiyot, jamiyat va inson haqidagi falsafiy qarashlarini ilgari suradi. Shuningdek, real hayot voqealarini, kishilarning xatti-harakatlari, fe'l-atvoridagi ayrim ziddiyatli jihatlarni ham qalamga oladi.

**Dostonning tarkibiy tuzilishi.** "Lison ut-tayr" 193 bobdan iborat bo'lib, 13 bobi an'anaviy muqaddimani tashkil etadi. Unda Allohga hamd, munojot, payg'ambarga na't, chahoryorlarga bag'ishlov hamda hikoyatlar, Shayx Farididdin Attor madhiga o'rin berilgan. Asarning asosiy voqealari 14-bobdan boshlanadi. Boblarda qushlarning o'zaro savol-javoblari, kichik hajmli hikoyat yoki masallarni o'z ichiga oladi. Dostonda Hudhud boshliq qushlarning Simurg'ni izlashlari hikoyasi asarning qoliplovchi hikoyasidir. Bu hikoya ichida juda ko'p hikoyatlar, masallar, munozaralar beriladi. Adabiyotshunos N.Mallayev shartli ravishda dostonni Muqaddima, Simurg' ta'rifi, Simurg'ni izash yo'lida, Vodiylar ta'rif-tavsifi, Munojotlar qismi va Xotimaga ajratadi<sup>1</sup>. Bu qismlar o'zaro bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, asarning asosiy g'oyasini ifodalashga xizmat qiladi.

**Dostonning syujeti.** Dostonda keltirilishicha, bir gulistonning turli qushlari majlis qurmoq uchun yig'iladilar. Qushlar o'zlariga mos emas, balki duch kelgan o'rinni egallaganliklari sababli orada nizo chiqadi va uni bartaraf etish uchun odil va oqil yo'l boshchiga ehtiyoj paydo bo'ladi. Shunda Hudhud Simurg' daragini aytadi. Hudhud Simurg'ni maqtovlardan yiroq, barcha qushlar holidan ogoh bir shoh sifatida ta'riflaydi. Qushlar bu shohdan bexabar bo'lsalar-da, u har doim qushlar bilan birgadir. Dostonda keltirilishicha, dunyo qushlariga shoh bo'lgan Simurg'ning laqabi Anqo bo'lib, u Kof tog'ida yashaydi. Uning parlari rang-barang bo'lib, har bir rangida yuz xil naqsh bor, bu naqsh ranglarni aql idrok eta olmaydi.

---

<sup>1</sup> Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. Биринчи китоб. – Т.: Ўқитувчи, 1976, 511б.

Hudhudning aytishicha, har bir jonzot anashu shohga yaqin bo'lmog'i. U sari intilmog'i lozim. "har kishi bo'lsa tirik andin yiroq, Ul tiriklikdin o'lum ko'p yaxshiroq".

Qushlarda Simurg'ga katta havas uygonadi va ular Simurg'ni izlab yo'lga chiqishga qaror qilishadi. Hudhuddan bu yo'lda rahbarlik qilishni iltimos qiladilar. Hudhud ham o'z navbatida To'ti, Tovus, Bulbul, Qumri, Kaklik, Durroj, Kabutar, Shohboz, Shunqor kabi qushlarga murojaat qilib, ularni yo'lga otlanishga da'vat qiladi. Qushlar yo'lga ravona bo'ladilar. Ammo bu yo'lda qiyinchiliklar anchagina edi.

Mehnati ranju alam yuzlandi ko'p,  
Shiddati oshubu g'am yuzlandi ko'p.

Ularning har biri Hudhudga murojaat qilib, o'z uzrlarini ayta boshladilar. Hudhud qushlarning bu uzrlariga hikoyatlar bilan javob beradi va Simurg'ning mufassal ta'rifini beradi. Shunda qushlar Hudhuddan Simurg'ga qanday yetish mumkinligini so'raydilar. Hudhud bu ishq yo'lidir, binobarin, bu yo'lda jondan ham, millatu imonu islomdan ham kechishga tayyor bo'lish vojibdur, deydi va so'zlarining dalili uchun mashhur Shayx San'on hikoyatini keltiradi.

Qushlarda Simurg'ga bo'lgan ishtiyoq yanada kuchayadi. Ular bu mashaqqatli yo'lda bir sardor bo'lmog'i darkor, deya uni rahbar etib tayinlamoqchi bo'ladilar. Lekin Hudhud rozilik bermaydi. Shunda ular qur'a tashlashadi va qur'a Hudhud nomiga chiqadi. Demak, Hudhudning qushlarga yo'l boshchilik qilishi taqdir hukmi edi. Qushlar yo'lga tushadilar. Ular uzoq uchadilar, charchaydilar, har biri o'z manzili, kundalik hayotini qo'msaydi. Oxiri ular orqaga qaytish fikriga tushadilar. Hudhud qushlarning e'tirozlarini rad etib, turli hikoyatlar so'zlaydi va ularni yo'lni davom ettirishga ko'ndiradi. Hudhud boshliq qushlar Simurg'ni izlashda davom etadilar.

**Vodiyalar ta'rifi.** Qushlar Simurg'ni topish uchun yetti vodiyaning o'tishlari lozim edi. Dostonda vodiylar ta'rifi Hudhud tilidan beriladi. **Birinchi** Talab vodiysidir. Bu vodiya kirganlarning ko'ngli istamak azobini chekadi. Topa olmaslik ruhni yaralaydi. Kishi bu yo'lda talabdan boshqa hamma narsadan voz kechmog'i shart.

Har nekim g'ayri talabdur tashlamoq,  
O'zni maqsad manziliga boshlamoq.

Buyuk maqsadga intilish kamol baxsh etadi va barkamollik tufayli barcha to'siqlar yengib o'tiladi. Barkamollik orqali maqsad eshiklari ochiladi. Uning qarshisida kufri din ham orqada qoladi. Talab vodiysi kishiga ana shunday fazilat bag'ishlaydi.

**Ikkinchi** vodiyy Ishqdir. Bu o'rinda ishq va oshiqlik haqida so'z yuritiladi. Ishq saodatbaxsh bir o't bo'lib, uning shul'alari ufqlarni kuydirishga qodirdir. Ana shunday olov devonaning ko'nglida lovullab yonadi. O'zini bu o'tda kuydirmagan kimsa oshiqlik da'vosini qilmasligi kerak. Oshiqning yuragi esao't gurillab yonayotgan otashgohdir. Olovdan tutun chiqib turganidek, oshiqning ko'nglidan ham muttasil ohu fig'on tutunlari chiqib turadi.

Olam o'rtar ishqdin tushgan yolqin,  
So'znok etgan havodindir chaqin.

Ishq havoni shunchalar to'ldirib yuborganki, bu uchqun chaqnashi bilan butundunyoni o't oladigan darajada porlovchi yolqin kelib chiqadi. Bundan keyingi o'rinlarda ishqning kuydirguvchi sifatlari, uning o't, otash, olov bilan nisbatlari ta'riflanadi.

**Uchinchi** Ma'rifat vodiysidir. Shoir bu vodiyyda bir-biriga o'xshamagan yo'llarning ko'pligiga urg'u beradi. Har kimning o'zi tanlagan yo'li bor va bu yo'llarni har kim o'z ixtiyori bilan tanlaydi. Yo'l xoh to'g'ri, xoh egri bo'lsin, xoh uzoq, xoh yaqin bo'lsin baribir bu yo'lni bosib o'tib, har biri o'z maqsadiga yetadi. Chunki yo'lovchilarning hammasi bitta maqsadni ko'zlagan.

Gar suluk atvorida tag'yir edi,  
Maqsadi lekin barining bir edi.

**To'rtinchi** Istig'no vodiysi bo'lib, shoir uning ta'rifini keskin ifodalarda bayon qiladi. Bu vodiyyda istig'no shamoli olamni ag'dar-to'ntar qilib yuboradi. Istig'no bulutidan oqqan yomg'ir dunyoni suvga to'ldiradi. uning qarshisida yetti daryo bir qatra yomg'ir suvidek, yetti ko'k bir dona xashxo'shdek ko'rinadi. Yetti do'zzax bir uchqun kabi. Sakkiz jannat bir shudring singaridir. Bu vodiyyda sherlar



chumolilarga yemdirlar. Yetti mamlakat podshohi bo'lganlar gado bilan tengdir.  
Umuman, Istig'no vodiysida hammaning hukmi bir xil, hamma tengdir.

Onda teng ko'r gumrahu ogohni,  
Dayr ko'yi birla baytullohni.

Birdurur Ka'ba birla butkada,  
Bo'lsalar ma'mur yoki otashzada.

Ming yashar pil tongla tug'qon yoshcha,  
Charxi a'zam donai xashxoshcha.

**Beshinchisi** Tavhid vodiysidir. Bu vodiya kelgach, barcha narsalardan holi bo'lib, yakka-yolg'iz bo'lmog'ing lozim. “Chun bu vodiya sori sayring qo'ydi tom, Fardu yaktolig' sanga bo'ldi maqom”. Bunda hamma bir-biri bilan birgalik kasb etadi. Bir xil ravish, birgalik, birlik hukmron.

**Oltinchisi** Hayrat vodiysi bo'lib, unda ko'z nimaga tushmasinu hayratda qoladi. Hayrat odamni har narsadan tashqariga chiqarib qo'yadi.

Boqsa har yon hayratin afzun topar,  
O'zni hayrat ichra digargun topar.

Derki, oshiq erkanimni tinglamon,  
Kimga erkanniyu lekin onglamon.

**Yettinchisi** Faqru fano bo'lib, bu vodiya tinlikdan boshqa hech narsa yo'q. Xuddi to'lqin chog'i dengizda ko'piklar paydo bo'lib, so'ngra o'chgani kabi ming mavj yana paydo bo'ladi, yana o'chadi. Faqatgina dengizning o'zi doimo bor, mavjlar esa paydo bo'ladi va o'chaveradi. Yer yuzidagi jamiki odamizod o'sha dengizdagi mavjlardir. Shoir keltirishicha, faqat Haq qodiri barhaqdir. Hamma mavjudotlar yo'q bo'lib ketadi. “Barcha foniy, boqiyi mutlaqdur ul”. Shundan keyin fikr tasdig'iga xizmat qiluvchi hikoyat keltiriladi. Shoir xulosa qilib, haqiqat egalari o'zlikdan voz kechib, foniylikka erishadilar va mutlaq abadiylikka musharraf bo'ladilar. Adabiyotshunos S.Olim “Lison ut-tayr”ni fanoga yetish yo'llari sharhlangan o'ziga xos badiiy “risola” deb ataydi. U fano va foniy

tushunchalari talqini butun dostonni tizma bir zanjirdek tutib turganligini aytadi va asarda qo'llanilgan fano hamda foniy atamalarini izohlashga harakat qiladi<sup>1</sup>

**Dostonning majoziy mohiyati.** Dostondagi timsollar ramziy mohiyat kasb etib, undagi Simurg'-Alloh, Hudhud-shayx, piri murshid, qushlar esa tariqat yo'liga kirgan soliklardir. Navoiy Simurg'ni olamdan tashqarida emas, balki tabiat va mavjudotda mujassamlashganiga ishora qiladi. Har bir mavjudot uning zuhuridir.

Qushlarning Simurg'ga yetishish uchun intilishlari majoziy ma'noda tariqat yo'liga kirgan solikning haq vasliga yetishish uchun chekkan mashaqqatlarini anglatadi. Dostondagi qushlar bosib o'tgan yetti vodiy esa tasavvufdagi tariqat maqomining yetti bosqichidir.

Qushlar ne-ne mashaqqatlarni boshdan kechirib, maqsad sari intiladilar. Ulardan ko'pchiligi nobud bo'ladi, bir qismi esa holdan toyib, cho'lu biyobonlarda qolib ketadi. Bu esa so'fiylik yo'liga kirgan solikning bu yo'ldan hatto jonidan kechishga ham tayyor ekanligini anglatadi. O'ttiz qushgina maqsad manziliga yetib borishadi. Ular Simurg'ni izlashdan voz kechishadi. Chunki ulardan o'zlari Simurg' edi.

Ko'rdilar o'zni qayonki tushdi ko'z,  
Ollo-ollo, ne ajoyibdur bu so'z,

Kim qilib Simurg' o'ttiz qush havas,  
O'zlarin ko'rdilar ul Simurg' bas.

Demak, qushlarning o'zlari Simurg'ning zarrasi, uning zuhuri edilar.

Ko'rinadiki, shoir qushlar ramzi orqali insonning o'z nafsoniyatidan voz kechib, riyozat chekib, ruhiy poklanishini tasvirlaydi. O'ttiz qush eng oliy maqsadga erishgan, kamolot kasb etgan zotlar timsolidir.

**Dostondagi hikoyatlar.** Navoiy «Lisonut-tayr»ning asosiy qoliplovchi hikoyasi Hudhud rahbarligida qushlarning Simurg'ni izlashlari ichida har xil hajmdagi hikoyat hamda munozaralar berib boradi. Ular ana shu qoliplovchi hikoyada so'z ketayotgan maqsad, masala yoki voqeani to'laroq yoritib berishga

---

<sup>1</sup> Султонмурод Олим. Ишқ, ошиқ ва маъшук. – Т.: фан, 1992. 21 б.

yordam beradi. Asarda bunday xarakterdagi 63 ta hikoyat berilgan. Bu hikoyatlar Navoiyning yetuk hikoyanavis ekanligini ko'rsatadi. Ular xilma-xil yo'nalishda bo'lib, bir qanchasi shayxlar, avliyolar hayoti bilan bog'liqdir. Shayx San'on, Najmiddin Kubro haqidagi hikoyatlar bunga misol bo'la oladi. Bu va boshqa bir qator hikoyatlarda Navoiy chinakam muhabbatni ulug'laydi. Ishq yo'lida o'zligidan kechgan, ma'naviy yuksak insonning ezgu fazilatlarini tasvirlaydi.

Dostonda ijtimoiy hayot bilan bog'liq bir qator hikoyatlar ham mavjud bo'lib, ularda inson mehnatining qadrsizligi, boylikka hirs qo'yish, tamagirlik, tekinxo'rlik, ayyorlik, firibgarlik, johillik kabi illatlar qoralanadi. Go'zal podsho, qallob zargar, uquvsiz bog'bon, to'ymas polvon va boshqa hikoyatlar shular jumlasidandir. Shoir hajm jihatidan turli xil bo'lgan bu hikoyatlarda o'zining yuksak badiiy mahorat egasi ekanligini namoyish qila olgan. U har bir hikoyat mazmuniga monand tarzda badiiy vosita va uslubni tanlaydi. Shoir keltirgan hikoyatlar doston asosiy g'oyasiga mos kelib, uni yanada to'ldiradi va qahramonlar ruhiy kechinmalarini yoritishga yordam beradi.

«Lisonut-tayr» dostonining tili Navoiyning boshqa dostonlari, she'riy asarlari tiliga nisbatan anchagina sodda va ravondir. Asardagi murakkab falsafiy mazmun, majoziy tasvir vositalarining keng qo'llanganligi til va uslubni yengil, o'ynoqi, jonli ham tushunarli bo'lishini taqozo qilgan. Navoiy xalq og'zaki ijodi, undagi syujetlar, hikmatli so'zlar, ta'birlardan, hazil-mutoyibalardan unumli foydalangan.

Umuman, dostonda inson ma'naviy kamoloti, «Lisonut-tayr» Navoiy ijodida, qolaversa, o'zbek adabiyoti tarixida o'ziga xos o'rin egallaydi.

### **Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonining yozilish tarixi haqida gapiring.
2. Dostonda shoir Farididdin Attor haqida qanday fikrlarni bildirgan?
3. Asardagi ramziy ifoda usulida haqida ma'lumot bering.
4. Simurg' va Hudhud obrazini ta'riflang.
5. Doston kompozitsiyasida hikoyatlarning tutgan o'rnini tushuntirib bering.
6. "Lison ut tayr" dagi hikoyatlarda qanday masalalar ilgari surilgan?
7. Shoir dostonda nima uchun "Foniy" tahallusini qo'llagan?

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. J. 12. - T.: Fan, 1996.
2. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. – T.: Adabiyot va san'at, 1991.
3. Attor Fariduddin. Mantiq ut-tayr. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006.
4. Shayx Fariduddin Attor. Ilohiynoma / Forsiydan Jamol Kamol tarj. – T.: 2007.
5. Mallayev N.M. O'zbek adabiyoti tarixi. Birinchi kitob. – T.: O'qituvchi, 1976.
6. O'zbek adabiyoti tarixi. Besh jildlik. J. 2. – T.: Fan, 1977.
7. Alisher Navoiy "Xamsa"si. Maqolalar to'plami. Tadqiqotlar. – T.: Fan, 1986.
8. Vohidov R. Alisher Navoiy va ilohiyot. – Buxoro: 1994.
9. Komilov N. Tasavvuf. K.1. – T.: Yozuvchi, 1996.
10. Navoiyning ijod olami. Maqolalar to'plami. – T.: Fan, 2001.
11. Valixo'jayev B. Mumtoz siymolar. – T.: Meros, 2003. – B. 129-185
12. Navoiyga armug'on. K.4. – T.: Fan, 2004.
13. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. -T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi, 2006.
14. Sultonmurod Olim. Ishq, oshiq va ma'shuq. – T.: Fan, 1992.
15. Qayumov A. Asarlar. J.2. – T.: 2008.

### **ALISHER NAVOIYNING ILMIY-NASRIY ASARLARI**

**Navoiy nasriy asarlarining o'ziga xos xususiyatlari.** Alisher Navoiy ijodiy merosida nasriy asarlar alohida o'rin tutadi. Alisher Navoiy o'zining nasriy asarlari bilan turkiy nasrni juda nodir manbalar bilan boyitdi. Navoiyshunos S.G'aniyeva Navoiy nasriy asarlarini quyidagicha tasniflab o'rganadi:

1. Ilmiy-filologik xarakterdagilar: «Muhokamat ul-lug'atayn», «Mezon ul-avzon», «Majolis un-nafois», «Risolai muammo».
2. Memuar-biografik xarakterga ega bo'lgan asarlar: «Xamsat ul-mutahayyirin», «Holoti Sayyid Hasan Ardasher», «Holoti Pahlavon Muhammad».
3. Ijtimoiy-falsafiy va didaktik xarakterdagi: «Mahbub ul-qulub».
4. Tarix, tasavvuf va din tarixiga oid asarlar: «Vaqfiya», «Tarixi muluki ajam», «Nasoyim ul-muhabbat», «Tarixi anbiyo va hukamo».
5. Ishno san'ati — epistolyar proza namunasi. «Munshaot».

6. Devonlarga yozilgan «Debocha»lar, «Nazm ul-javohir» muqaddimasi va epik asarlar, qit'alardagi sarlavhalar<sup>1</sup>. Biz ham ushbu tasnifga qo'shiganimiz holda Navoiy nasriy merosi haqida fikr-mulohaza yuritishga harakat qilamiz.

Alisher Navoiy nasriy asarlarini yaratar ekan, o'zigacha mavjud bo'lgan Sharq nasrining eng yaxshi xususiyatlarini yanada rivojlantirishga alohida ahamiyat bilan qaradi. Navoiy davrning dolzarb masalalariga nasriy asarlarida muayyan darajada javob berishga urindi.

Uning nasriy merosida adabiyotshunoslikka oid asarlari alohida o'rin tutadi. Shoir adabiyotshunoslikka oid uchta asar ("Mezo ul-avzon", "Risolai muammo", "Majolis un-nafois") yaratdi va bu asarlar adabiyot nazariyasi, adabiy tanqid tarixidagi muhim voqeadir. Ularda adabiy-madaniy hayot, so'z san'ati, she'riyat qonuniyatlari, ijod ahli haqida qimmatli mulohazalar ilgari surilgan. Navoiyning adabiyotshunos sifatidagi faoliyati A.Hayitmetov, H.Qudratullayev, S.G'aniyeva, B.Valixo'jayevlar tomonidan muayyan darajada o'rganilgan<sup>2</sup>.

**“Majolis un-nafois” (“Nafis majlislar”)** tazkirasida XY asrda Movarounnahr va Xurosonda yashagan 459 ta ijodkor haqida so'z yuritiladi. Asar 1491 yilda yozilgan bo'lib, 1498 yilda muallif tomonidan qayta tahrir qilingan va to'ldirilgan. Asar muqaddima, sakkiz majlis va xotimadan iborat. Muqaddimada asarning yozilish sabablari bayon etiladi. Shoirlar haqidagi ma'lumotlar va ularning asarlaridan ayrim namunalar sakkizta majlisda keltirilgan.

Ma'lumki, Navoiygacha yaratilgan tazkiralar fors-tojik tilida yozilgan bo'lib, «Majolis un-nafois» turkiy tildagi ilk tazkiradir. Navoiy bu asari bilan o'z salaflaridan Avfiyning «Lubob ul-albob», zamondoshlaridan Davlatshohning «Tazkirat ush-shuaro» va Jomiyning «Bahoriston»i (III ravzasi) dagi tazkirachilik an'alarini davom etdirdi.

Navoiy «Majolis un-nafois»da xronologik, jug'rofiy hamda sulolaviy tamoyillarga rioya qiladi. Birinchi va ikkiichi majlislarda keltirilgan shoirlarning

---

<sup>1</sup> Бу ҳақда қаранг: Ўзбек адабиёти тарихи. 5 томлик. Т.2. – Т.: Фан, 1977. 337 б.

<sup>2</sup> Бу ҳақда қаранг: Алишер Навоийнинг адабий-танқидий қарашлари. –Т.: 1959; Қудратуллаев Ҳ.ойнинг адабий-эстетик олами. – Т.: 1991; Ғаниева С. “Мажоли ун-нафоис”// Ўзбек адабиёти тарихи. 5 жилдлик. Ж.2.- Т.: Фан, 1977. 357-373 б.; Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. – Т.: Ўзбекистон, 1993. 72-116 б.

tazkira yozilayotgan vaqtda hayot bo'lishmagan, uchinchi majlisda esa zamondosh ijodkorlar haqida ma'lumotlar berilgan, beshinchi majlisda Xuroson, oltinchisida Samarqand, Xorazm, Qarshi, Ba-daxshon, Kirmon, Sheroz va boshqa shaharlardan chiqqan qalam ahllari haqida so'z boradi; yettinchi va sakkizinchi majlislarning esa temuriylarga mansub ijodkor shoh va shahzodalarga bag'ishlanadi.

Navoiy shoirlarga xarakteristika berar ekan, ularning insoniy fazilatiga ham urg'u beradi, ijodkorlarning bilimi darajasi, axloqi, muomalasi kabi xususiyatlarini keltirib o'tadi. Abdurahmon Jomiy, Lutfiy, Shayxim Suxayliy, Mirzobek, Sayid Hasan Ardasher, Hofiz Sharbatiy, Shoh G'arib Mirzo, Shohiy, Komil, Ziyo va boshqalar haqidagi mulohazalar shular jumlasidandir.

Navoiy har bir shoir shaxsiyatiga xolisona munosabatda bo'ladi. Tazkiraga kiritilgan shoirlarning xarakteridagi kamchiliklarni; ma'naviy qiyofasidagi nuqsonlarni ham ko'rsatib o'tadi.

Navoiy ba'zi shoirlarning ichkilikka ortiqcha ruju' qo'yganligini (Sayfiy, Sayid Imod, Hofizi Sa'd), ba'zilarining fitnachi, bezori, urishqoqligini (Sayid Qurazo, Qutblakadang, Abu Nasr, Qavsiy, Shohquli, Uyg'ur va h. q) katta taassuf bilan keltiradi. Navoiy qator shoirlardagi yomon xulq-atvorni tanqid qilar ekan, ko'pincha tuzalib ketishlariga umid bog'laydi.

Navoiy o'zi iste'dodli bo'la turib, vaqtini behuda o'tkazuvchi ijodkorlardan ranjiydi. Bunday o'rinlarda ular xarakteridagi ziddiyatli jihatlarni ochiq ko'rsatib o'tadi. Masalan, Mavlono Qavsiyning yalqovligi, biror ish bilan jiddiy va davomli shug'ullana olmasligi tanqid qilinadi. Shoir Osafiy esa bor qobiliyati va bilimini yetuk asar-lar yaratish uchun sarflash va qattiq mehnat qilish o'rniga butun vaqtini oliftagarchilik va bezorilik — chapanilik bilan behuda o'tkazishi fosh etadi. Bunday tanqidiy mulohazalar Qanbariy, Zayniy, Soqiy, Vali Qalandar, Kavsariy va boshqalar haqida ham bildiriladi.

Tazkirada ma'lum darajada davrning ijtimoiy va siyosiy hayot lavhalari real chizib berilgan. Masalan, Ulug'bek Mirzoning o'g'li Abdullatif Mirzo haqida quyidagi fikrlar ilgari suriladi : «O'tar dunyo maslahati uchun donishmand va podshoh otasin o'lturdi. Har oyinakim, saltanat Sheruyaga vafo qilg'oncha anga

qildi». Bunda shoir Abdullatif Mirzoning toj-taxt talashib o'zining olim va fozil otasi — Ulug'bekni o'ldirgani, bunday qotillik evaziga qo'lga kiritilgan saltanat unga ham vafo qilmaganini aytadi. Navoiy Abdullatifni mahjubasi va toj-taxtini qo'lga kiritish uchun otasini o'ldirgan, lekin o'zi ham tez orada qatl etilgan Eron shohi Xusravning o'g'li Sheruyaga o'xshatadi. Bunda Navoiy dunyoning o'tkinchiligini eslatib, toj-taxt uchun o'zaro kurashlar olib borayotgan shahzodalarni ogahlikka chaqiradi.

«Majolisun-nafois»da Navoiy badiiy ijodning asosiy mohiyatini belgilovchi nazariy masalalardan biri mazmun va shakl masalasiga ham munosabat bildirib o'tadi.

Shoir shaklni mensimaslikni, unga loqayd munosabatda bo'lishni qattiq qoralaydi. Navoiy shakl mukammalligini badiiy adabiyotning juda muhim belgisi deb qaraydi. Asarda g'oya, shakl birligi va bu birlikda g'oya yetakchiligi ta'min etilmasa, bunda asarning qiymati bo'lmaydi, deydi. Navoiy qator shoirlarning she'rlarini ma'nosizligi, mantiqsizligi, g'oyasizligi uchun tanqid qiladi. U Qobiliy degan shoir haqida she'rlarining «hech mazasi yo'qtur» deb yozadi va uning ijodidan bu fikrni tasdiqlovchi xarakterli misollar ham keltirib o'tadi.

«Majolis un-nafois»da she'riyat qoidalariga to'la rioya qilinmay yaratilgan asarlarning ijodkorlari keskin tanqid ostiga olingan o'rinlar ko'pdir. Xurramiy, Osafiy, Sog'ariy, Shihob va boshqalar shular jumlasidandir.

Ko'rinadiki, Navoiy ijodkorlar oldiga she'riyat badiiyat talablariga javob bera olishi zarur, degan masalani qo'yadi. Badiiy asar ham g'oyaviy, ham badiiy jihatdan yetuk va puxta, adabiy an'analarni ijodiy davom ettirib, yanada rivojlantirgan, estetik zavq bag'ishlay oladigan darajada bo'lishi lozim deb hisoblaydi.

Navoiy o'zgalarga taqlid qiluvchi, boshqalar she'rini o'ziniki qilib oluvchi soxta ijodkorlar — Malono Nargis, Anisiy, Xoja Musolarni qattiq tanqid qiladi.

Navoiy shoir ijodiga, faoliyatiga va shaxsiyatiga baho berishda ularning jamiyatga foyda keltiradigan fanlar bilan mashg'ul bo'lgan ijodkorlarni yuqori baholaydi. U shoir Binoiy haqida shunday yozadi: «Bag'oyat qobiliyati bor. Avval

tahsilg'a mashg'ul bo'ldi, anda rushdi bor er-di... xatqa ishq paydo qildi, oz fursatda obodon bitidi. Andin so'ngra musiqiy faniga mayl ko'rguzdi, bot o'rganib, xele ishlar tasnif qilib, risola dag'i advorda bitidi».

Navoiy boshqa mamlakat va shaharlardan kelib, Hirotda tahsil ko'rayotgan yosh ijodkor talabalarga alohida e'tibor bilan qaraydi. Navoiy bu yosh shoirlarning ba'zilar haqida «nazmi xanuz shuhrat tutmaydur», deb yozsa, ayrimlari to'g'risida «Umid ulkim, yaxshiroq aytqoy», deydi. Bunday yosh iste'dodlar orasida muammo sohasida mashhur bo'lgan Sayid Abdullatif, tab'ida fikr uyg'otuvchilik xususiyati bor Sa'd, original zehn egasi Noziriy, qobiliyatli madrasa talabalari Mirasadullo, Bihishtiy, Mirhusaynlar bor ekanligi keltiriladi.

Alisher Navoiy bu yosh shoirlar ijodiy faoliyatlarini to'g'ri yo'naltirib turish bilan birgalikda moddiy ahvollaridan ham xabardor bo'lib turgan. Ularning kelajagiga umid bilan qaragan.

«Majolis un-nafois» Navoiy o'z davridagi adabiy janrlar va she'riyat turlarining rivoji haqida ham keng ma'lumot beradi.

Alisher Navoiy epik tur davrning dolzarb muammolarini yoritish va talqin etishda keng imkoniyatlar berishini ko'pgina asarlarida ta'kidlab o'tadi. O'zi ham bu sohada ko'p ijod qilgan. «Majolis un-nafois»da ham epik turda qalam tebratgan shoirlarni ko'rsatib o'tadi. Shoir xamsachilik an'analarini davom ettirgan Ashraf Kotibiy, Ali Ohiy, Abdurahmon Jomiy, Shayxim Suxayliy, Abdullo Xotifiy, Xoja Hasan Hizrshoh, Fasih Rumiyy, Xoja Imod va boshqa masnaviygo'y shoirlarga alohida to'xtalib o'tadi. Ular masnaviylaridan namunalar keltiradi.

Tazkirada bu davrda g'azal janri keng tarqalgani ta'kidlanadi. G'azal janrida ijod qilgan Kotibiy, Gadoiy, Lutfiy, Atoiy, Ozariy, Hofizi Sa'd, Binoiy, Hiloliy, Avhad Mustavfiy, Mashriqiy, Olim, Muhammad Ali Jaloyir, Nujumiy va boshqalar haqidagi mulohazalar muhim ahamiyatga egadir.

Asarda she'riyatning qasida, qit'a, ruboiy, tuyuq kabi lirik janrlari haqida ham ma'lumotlar beriladi. Satira va yumor sohasida qalam tebratgan ijodkorlarga munosabatlar bildirib o'tiladi.



Umuman, Navoiy o'z davri adabiyotidagi janrlar taraqqiyoti xususida qayg'urgan.

Tazkirada so'z yuritilayotgan har bir shoir ijodidan xarakterli namunalar keltirilgan namunalar keltiriladi. Bu esa o'sha shoir ijodi haqida aniqroq tasavvurga ega bo'lishimizga yordam beradi.

Turkiy tildagi badiiy ijod ravnaqi uchun qayg'urgan Alisher Navoiy tazkirada bu tilda ijod qilgan shoirlar haqida keng ma'lumotlar beradi. Turkigo'y shoirlar tazkirada kamchilikni tashkil etib, 459 ijodkordan faqat 39 shoir turkigo'ydir. Ular orasida zullisonaynlari ham bo'lgan, ko'pchiligi esa (12 shoir) shoh, shahzoda va mavqeli shaxslar edi.

«Majolis un-nafois» Navoiy davridagi ilmiy nasrning go'zal namunasi. Shuningdek, uning badiiyati ham yuksakdir. Buni muallifning portret chizish, xarakter yaratish mahoratida va adabiy anjumanlar, ba'zi voqealar bayonidagi badiiy bo'yoqlarning rang-barangligida ko'rish mumkin. Shoirning uslubda ixchamlikka, mo''jazlikka intilishi asarga alohida joziba baxsh etadi.

Navoiy bu asarida o'zining yetuk adabiyotshunos olim va tanqidchi sifatida namoyon bo'ladi. Unda ilgari surilgan fikr-mulohazalar o'sha davr adabiyotshunoslik ilmi taraqqiyotiga muhim ulush bo'lib qo'shilgan va bugungi kunda katta ilmiy qimmatga egadir.

**«Mezon ul-avzon» asari.** Navoiyning «Mezon ul-avzon» («Vaznlar o'lchovi») asari 1492 yilda yaratilgan. «Mezonul-avzon» aruz ilmiga oid asar bo'lib, unda Navoiy aruzning hammaga ma'lum qoidalarini tushuntirish bilangina chegaralanmaydi, balki unga qo'shimcha va yangiliklar ham kiritadi. Bunda Navoiy arab va fors tillaridagi she'riyatda qo'llanilib kelgan aruz sistemasiga qo'shimchalar kirgizish va o'zbek she'riyati va folklorining uzoq asrlik tajribalarini tekshirib umumlashtirish va uni yanada boyitishni maqsad qiladi. Shuningdek, Navoiy turkiy she'riyatning qoidalarini o'rganish vazifasini o'z oldiga qo'yadi. Navoiy asarida arab, fors she'riyati bilan turkiy she'riyatni taqqoslab boradi. Shoir arab-fors she'riyatiga iga oid fikrlarni aytish bilan birga, shu sohada o'zbek she'riyatida qanday xulosaga kelish mumkinligiga ham urg'u

beradi. Masalan: ruknlarning yuzaga kelishini gapirar ekan, Navoiy aruzning ruknlari, arab, fors va turkiy xalqlar she'riyatida bir xil maydonga kelishini aytib o'tadi. Aruzning asosi bo'lgan asllar haqida so'z borganda arab she'riyatida sakkiz asl qo'llanishini keltiradi va bu turkiy xalqlar she'riyatida qanday hal qilinishi masalasini o'rtaga qo'yadi. Navoiyning fikricha, aruzning sakkiz asl ruknidan beshtasi (m a f o ' i l n u n) forsiy she'riyatda ko'proq ishlatiladi, boshqa asllarning ishlatilishi juda ham kam (mustasno tariqasida) uchraydi.

Navoiy asllarning zihofot va furu'i bobida faqat shu besh aslgagina to'xtaydi. Fors va o'zbek she'riyatida uchraydigan (yoki kam uchraydigan) asllarning zihofotini tahlil etmaydi. Bu bilan Navoiy o'z oldiga qo'ygan vazifani (o'zbek va fors aruzini o'rganishni) uqtirib o'tadi.

Navoiy bahrlar haqida so'z yuritar ekan, aruzda qabul qilingan 19 bahrning qaysi biri turk, fors va qaysi biri arab she'riyatiga tatbiq etilishi masalasiga mufassal to'xtaydi. U tavil, madid, basit, vofir va komil bahrlarini alohida ajratib, ularning o'zbek va fors she'riyatida kam ishlatilishini qayd etadi. Bahrlarni guruhlab, ma'lum doiralarga jamlaganda, Navoiy aruzda ma'lum muxtalifa ham muntazi'a doiralariga yana uch doira qo'shimcha qiladi va ularning qanday qilib maydonga keltirilganini tushuntiradi.

1) «Doirai mujtamia» Navoiy tomonidan aruz sistemasida birinchi marta yuzaga keltirilgan doiralardandir. Navoiy munsarih, muzori', muqtazab, mujtass, sari, jadid, qarib, hafif va mushokil bahrlarining solim (o'zgarilmagan, butun) shakllari orasida umumiylik topadi va buni ularni bir doiraga kirgizish bilan ifoda etadi.

2) «Doirai muxtalita»ni Navoiy she'rda kam ishlatiladigan komil va vofir bahrlaridan tuzadi. Navoiydan avvalgi aruzchilarda bu doira kam uchragan;

3) «Doirai mushtabiha» ham aruz nazariyasi uchun yangilikdir. Navoiy uni arab she'riyatiga xos bo'lgan tavil, madid va basit bahrlaridan tuzadi.

Taqte' masalasiga Navoiy «Mezon ul-avzon»da mufassal to'xtaydi. Bu bobda Navoiy o'zbek tilining va o'sha vaqtdagi imloning xususiyatlaridan kelib chiqadigan ko'pgina yangi xulosalarni keltiradi.

Bahrlar va vaznlar haqidagi bob «Mezon ul-avzon» ning qimmatli qismidir. Bu oʻrinda Navoiy turkiy xalqlar yozuvi va folklor tajribasi asosida aruzning vaznlar bobiga ahamiyatga molik qoʻshimchalar kiritadi. Navoiyning keltirishicha, aruzga oid yana bir necha vazn borki, ular ajam (fors va oʻzbek) shoirlari, Navoiyning zamondoshlari asarlarida uchrasa-da, ammo aruz haqidagi kitoblarda qayd etilmagan. Navoiy toʻqqizta yangi vazn va sheʼriy shaklni qayd qilib oʻtadi.

Fors-tojik tilidagi sheʼriyat arabcha sheʼr tuzilishi sistemasi — aruzga asoslangan edi. Professional shoirlargina emas, balki fors-tojik shahzodalaridan chiqqan havaskor shoirlar ham shu arab aruzi asosida sheʼr yozar edilar.

Podshohlik turk hoqonlari hukmiga oʻtgach, turkiy tildagi sheʼriyat taraqqiy etgan. Shoir Xulogʻuxon zamonidan (XIII asrning ikkinchi yarmidan to Temur va temuriylargacha) XV asrning boshigacha boʻlgan paytni turkiy adabiyotning shakllanishi deb belgilaydi. Bu tildagi adabiyot Lutfiy ijodida eng baland choʻqqiga koʻtarilgan payt deydi: «To mulk arab va sart salotinidan turk xonlariga intiqol topti, Xulogʻuxon zamonidan va sultoni sohibqiron Temur Koʻragon zamonidan farzandi xalafi Shohruh Sulton zamonining oxirigacha turk tili bilan shuaro paydo boʻldilar: ...shuaro: Sakkokiy va Haydar Xorazmiy va Atoiy va Muqimiy va Yaqiniy va Amiriy va, Gadoyideklar. Va forsiy mazkur boʻlgan shuaro muqobilasida kishi paydo boʻlmadi, bir Mavlono Lutfiydan oʻzga»

Navoiy tilga olgan shoirlarning aruz vaznida yozilgan turkiy sheʼrlari bizgacha yetib kelgan Navoiyning aytishicha, temuriylar orasida turkiyda ham aruz asosida sheʼr yozgan shoirlar ancha boʻlgan, ulardan diqqatga sazovorlari Mirzo Bobur va Sulton Husayn Boyqarodir.

Umuman, Navoiyning «Mezon ul-avzon» asari zamonasi ehtiyojlariga javob bera oladigan yetuk asardir. Undagi fikr-mulohazalar bugungikunda ham muhim ilmiy-nazariy ahamiyatga molikdir.

**«Nasoim ul-muhabbat» asari.** Navoiyning «Nasoim ul-muhabbat min shamoim ul-futuvvat» («Ulugʻlik xushboʻyliklarini taratuvchi muhabbat shabbodalari») nomli asarida tasavvuf tariqatlari, soʻfiylik qonun-qoidalari, ulugʻ mutasavvuf shayxlarning hayoti va faoliyati haqida maʼlumotlar beriladi. Asarning

yaratilishiga Abdurahmon Jomiyning «Nafahot ul-uns» (“Do’stlik shamollari”) asari asos bo’lgan. Navoiy 1496 yilda ustoz va do’sti Jomiyning ushbu asarini tarjima qilishga kirishadi. Ijod jarayonida shoir Jomiy asariga ko’pgina o’zgartirishlar kiritadi. Jumladan, shoir “Nasoyim ul-muhabbat”ga maxsus muqaddima yozib, unda asarni yaratishdan ko’zlagan maqsad va vazifalarini bayon etadi. Navoiy “Nafahot ul-uns”dagi oltmishga yaqin shayxlar haqidagi ma’lumotlarni tushirib qoldirgan. Navoiy asariga yuzdan ortiq turkiy, saksondan ortiq hind shayxlar tarjimai holini kiritadi. Shuningdek, shoir Jomiy asaridagi ma’lumotlarning ayrim o’rinlarini qisqartirgan, ayrimlariga turli qo’shimchalar kiritgan. Shuning uchun ham Navoiyning o’zi kamtarinlik bilan Jomiy asarini tarjima qildim, deb aytsa ham adabiyotshunoslikda “Nasoyim ul-muhabbat” mustaqil asar sifatida qaraladi.

«Nasoyim ul-muhabbat» Kirish, 770 shayx hayotiga oid ma’lumotdan iborat. Kirish qismida Navoiy Jomiy asarining mohiyati, «Nasoyim ul-muhabbat»ning yozilish tarixi, asarga o’zining qo’shgan yangiliklari haqida so’z yuritiladi.

Asarda tasavvuf qonun-qoidalari, shayxlarga xos xususiyatlar va ular hayotiga oid lavhalarni bayon etadi. Dastlab shoir «Bu toifaniyat a’mol va af’ol va muomilot va riyozotidin ba’zini zikr qilmoq» sarlavhachasi ostida bir qator shayxlar shaxsini ta’riflaydi. Shundan keyin ularning kasb-hunariga e’tibor beradi. Masalan, «Shayxul-mashoyix» shayx Abu Sayd Xarroz o’tuk tikar edi, Shayx Muhammad Sakkokkim «o’z zamona mashoyixining yagonasi» pichoqchilik, shayx Abu Hafz Haddod temirchilik Shayx Bannon - hammol, Shayx Abulhasan - najjor kasbi bilan shug’ullanar edilar. Shoir bu mutasavviflarning o’z hunari bilan kun kechirishlarini ularning fazilati sifatida talqin etadi.

Asarda shayxlarning odob-axloqi, ma’naviyatiga urg’u berilib, bu bilan bog’liq qator kichik hajmli hikoyatlar keltiriladi. Rizo, sabr, sidq, riyozat, to’g’rilik, muloyimlik, karomatlilik singari qator fazilatlar haqida so’z yuritiladi.

«Nasoyim ul-muhabbat»da shayxlarga berilgan ta’rif-tavsiflar asosiy o’rinni egallaydi. Bunda so’z yuritilayotgan shayxning qachon va qayerda tug’ilgani va vafoti, ustozlari, asosiy kasb-kori, u tomonidan aytilgan ibratli so’z, iboralar,

hayotida yuz bergan xarakterli voqea- hodisalar, qayerga dafn etilgani kabilar keltiriladi.

Masalan, Shayx Abu-Usmon Mag'ribiyning tariqat yo'liga o'tishiga quyidagi voqea sabab bo'lgan ekan: bir kuni u iti bilan ov-ga chiqkanida, chanqab idishdan sut ichmoqchi bo'ladi. Iti hurib yo'l bermaydi. Ikkinchi safar yana shu ahvol takrorlanadi. Uchinchi galda it idishga otilib, sutni ichib o'sha zahoti o'ladi. Ko'rsaki, sutga ilon zahar solgan ekan. Itdan bu vafoni ko'rgach, shu yo'lni tutgan.

«Naoim ul-muhabbat»da Jomiy ta'rifiga alohida o'rin ajratiladi. U naqshbandiylik tariqatining yetuk vakili va mutafakkir shoir, mahoratli adib sifatida keltiriladi. Uning asarlari ro'yxati keltiriladi. Jomiy haqida so'z ketganda Navoiyning unga cheksiz hurmati, samimiy extiromi namoyon bo'ladi. Uni o'zining eng yaqin do'sti, hammaslagi, ustoz va piri sifatida ta'riflaydi.

Navoiy asarda Mavlono Sharafiddin Yazdiy, Shayx Avhaduddin, Xomil Kirmoniy, Qosim Tabriziy, Shayx Farididdin Attor Nishopuriy, Sa'diy Sheroziy, Shayx Nizomiy, Xusrav Dehlaviy, Hasan Dehlaviy, Shayx Kamol Xo'jandiy, Hofiz Sheroziy, Mavlono Lutfiy, Sayid Nasimiy singari Sharqning ulug' san'atkorlari haqida so'z yuritadi. Ular tasavvuf tariqatini egallagan donishmand kishilar hamda yetuk iste'dod egalari sifatida keltiriladi. Shoir bu mutafakkirlar ijodiga yuqori baho beradi.

Umuman, Alisher Navoiyning «Nasoim ul-muhabbat» asari g'oyatda katta ahamiyatga ega. Unda tasavvuf tariqatlari, buyuk mutasavvuf shayxlarning hayoti va faoliyatiga oid qimmatli ma'lumotlar berilgan. Navoiy qadimda yashab o'tgan mutasavvuflardan to o'ziga zamondosh bo'lgan mutafakkirlar haqidagi ma'lumotlarni xronologik tarzda bayon etgan. Bu qomusiy asar xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qiladigan noyob manbadir.

«**Mahbub ul-qulub**» asari. Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub» («Ko'ngillarning sevgani» 1500) eng yirik hajmli nasriy asari bo'lib, u shoirning so'nggi asaridir. Asar ulug' mutafakkirning uzoq yillik hayotiy tajribasi, kuzatishlarini o'zida mujassamlashtirgan.

«Mahbub ul-qulub» tarkibiy tuzilishiga ko'ra uch qismga bo'linadi. Asarning birinchi qismi Navoiy «Soriun-nosning af'ol va ahvolining kayfiyati» deb atalib, unda jamiyatdagi turli toifaga oid kishilar haqida so'z yuritiladi. Shoir shohlardan to gadolargacha mansub bo'lgan shaxslarning yaxshi va xususiyatlarini bayon etadi. Odil va zolim podshohlar, firibgar va johhil amaldorlar, yaxshi va yomon san'atkorlar, kalamkashlar, riyokor din ahllarining haqiqiy qiyofalari yoritiladi.

Uningcha, shoh odil bo'lsa, mamlakat obod, xalq farovon bo'ladi. Aksincha, shoh zolim bo'lsa, mamlakat taqdiri mushkul ahvolda qoladi. Navoiy odil shohga zolim va johil podshohlarni qarshi qo'yib: «Odil shoh ko'zgu va bu aning uchasidur. U yoruq subh, bu aning qorong'u kechasidur»,— deb yozadi. Navoiy saroy amaldorlari, shoh atrofidagi mansabdorlar va boshqa nufuzli tabaqalar, chunonchi «nomunosib noiblar»ni (3— 4-fasl), «noqobil sadrlar» (6-fasl), «shaharda olib sotquvchilar» (27-fasl), «shahna va zindoniylar va asalar» (30-fasl), «g'arib va benavolar» (33-fasl), «riyoiy shayxlar» (28-fasl), vazirlarga ta'rif berar ekan, o'zining insonparvarlik nuqtai nazaridan kelib chiqadi.

Navoiy turli toifaga mansub kishilarni ta'riflaganda ular xarakterida mavjud bo'lgan nuqson va illatlarini ko'rsatib o'tadi. Faqatgina dehqonlar haqida yaxshi gaplarni yozdi. Ularning kamchiliklari haqida so'z yuritmagan. Aksincha, «olam ma'murlig'i alardin, olam ahli masrurligi alardin» ekanligini aytib, mehnatkash dehqonlarning barcha ishlarini ulug'laydi. Navoiy dehqon mehnati jamiyat farovonligi uchun qanchalik muhim ekanligini aniq misollar orqali ko'rsatib beradi.

«Mahbub ul-qulub»ning o'n bobdan iborat ikkinchi qismi axloqiy masalalarga bag'ishlanadi. Unda yaxshi va yomon xislatlar tahlil etilgan. Bu qismda tavba, zuhud, qanoat, sabr, tavoze', kamtarinlik, odob, ishq haqida fikr-mulohaza yuritilgan.

Alisher Navoiy sabr haqida so'z yuritib, sabrning o'zi achchiq bo'lsa ham, u faqat manfaat keltiradi, u qattiq narsa, ammo zararni daf etadi. Navoiy sabrni ta'riflash uchun turli-tuman tashbehlardan foydalanadi. Sabrni suhbatlari zerikarli bo'lsa ham, maqsadga aniq olib boruvchi musohibga, oxiri murodga yetkazuvchi,

uzoqni ko'zlovchi ulfatga, yurishi sust bo'lsa-da manzilga yetkazuvchi ulovga o'xshatadi. Shuningdek, shoir sabrni tabibning achchiq dorisiga o'xshatadi. Zero, hech kim uni xushlamasa-da, u shifo baxsh etadi.

Ko'rinadiki, Navoiy sabrning inson uchun, uning kelajagi uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini shoirona tasvirlagan. Shoir bu haqda shunday deydi:

Ajab ranjeki andin sa'b yo'q ranj,  
Vale chekkan kishining bahrasi ganj.

«Mahbub ul-qulub»ning o'ninchi bobi «ishq zikri»ga bag'ishlanadi. Shoir ishqni porloq yulduzga o'xshatadi. Bashariyat ko'zining ziyosi shundandir. Navoiy ishqni tovlanib turuvchi gavharga qiyoslaydi, zero, insoniyat tojining ziynati va bahosi shundandir. Bu ta'riflar bilan bir qatorda shoir ishqni tole' quyoshiga, keng dengizga, kuydurguvchi shu'laga, ajdahoga, yashinga tashbeh qiladi.

Navoiy ishqqa kim muhtalo bo'lishi haqida so'z yuritar ekan, «Inodi olinda teng ham podshoh, ham gado. Bedodi qoshinda bir ham fosiq, ham porso»<sup>1</sup>, - deydi.

Asarda ishq uch turga bo'linadi. **Birinchi** turi – avom ishqidir. Bu oddiy kishilar ishq bo'lib, xalq orasida keng tarqalgan. Bu xildagi ishqqa muhtalo odamlar kimgadir oshiq bo'lib, iztirob chekib, uning xayoli bilan yuradi. Bu ishqning oliy martabasi – sha'riy nikohdir. **Ikkinchisi** – xavoss ishqidir. Bu alohida fazilat egalariga mansub ishq bo'lib, uni Navoiy quyidagicha ta'riflaydi: «Ul pok ko'zni pok nazar bilan pok yuzga solmoqdur va pok ko'ngul ul pok yuz oshubidin qo'zg'olmoq va bu pok mazhar vositasi bila oshiqi pokboz haqiqiy jamolidin bahra olmoq». Bunday ishq namoyandalari sifatida shoir Amir Xusrav Dehlaviy, Xoja Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy kabi buyuk siymolar nomlarini keltiradi. **Uchinchisi** siddiqlar ishqidir. Bu ishqqa muhtalo bo'lganlar Haqning jamolini ochiq ko'rish umidi bilan yashaydilar va shuning bilan matlubdirlar. Ularning Haqni ko'rish umidlari o'zni unutish darajasiga yetgan. Ular visol ishtiyoqida behud va mast, vasl mayidan o'zga ruhlariga tilak yo'q, Haq

---

<sup>1</sup> Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. Ж.14. – Т.: Фан, 1998. 66 б.

mushohadasidan boshqa ko'ngillariga orom yo'qdir. Navoiy ular haqida: “Va bu toifani vosillar debdurlar, ishqdin vasl maqsudi hosillar”, - deb yozadi.

«Mahbub ul-qulub»ning uchinchi qismi «Mutafarriqa favoyid va amsol surati» deb atalib, unda turli foydali foydali maslahatlar va maqollar beriladi. Navoiy insonga xos – saxiylik, mehribonlik, vafodorlik, muloyimlik, rostgo'ylik, ilmsevarlik, mehnatkashlik, kamtarlik, tavoze' singari qator fazilatlarni ta'riflaydi. Chin insoniylikning aksi bo'lgan takabburlik, dangasalik, fisqu fasod, yolg'onchilik, firibgarlik, johillik, bahillik, ochko'zlik singari illatlarni keskin qoralaydi.

«Mahbub ul-qulub»ning bu qismida keltirilgan tanbeh va misollar rang-barang bo'lib, ular asosida Navoiyning ijtimoiy, axloqiy va didaktik qarashlari yuzasidan aniq tasavvurga ega bo'lamiz. Alisher Navoiy o'zigacha ma'lum bo'lgan xalq maqollarini to'plab, o'z ijodiga moslab, turli hikmat va xulosalar bilan boyitgan.

Alisher Navoiy nafs haqida so'z yuritar ekan, nafsoniyatga berilgan kishilarni tanqid ostiga oladi. Bunday dardga giriftor bo'lgan kishilar birovning boshiga tushgan kulfatga parvo qilmaydi, birovga yaxshilikni ravo ko'rmaydi, har doim yolg'iz o'zi haqida o'ylaydi. Ularga «barchag'a o'zgadan o'zi azizroq va o'zgalar so'zidan o'z so'zi azizroq». Navoiy kishilarni yaramas illatlardan xoli ko'rishni istaydi.

Navoiy yaxshilikni insonning ziynati deb biladi. Shuning uchun ham: «Jami' mazohib va milal ahli qoshida sobitdurkim, yaxshilik jazosi yo'qtur – bajuz yaxshiliq», deya insonlarni yaxshilik qilishga da'vat etadi.

Navoiyning saxovat haqidagi tushunchasi ham alohida e'tiborga molikdir. Shoir: «Saxovatsiz kishi – yog'insiz abri bahor... Mevasiz yig'och hamonu o'tun hamon va yog'insiz bulut hamonu tutun hamon. Saxosiz kishi birla gavharsiz sadafning bir hukmi bor»,— deb yozadi.

Karamlilik — jabrlanganlarni zulmdan qutqarishga intilish va ularning qiyinchiliklarini baham ko'rishdan iborat. Navoiy karam haqida fikr yuritib, ming



taassuf bilan: «Karam bashar tab'ida noyob va nobuddur, bu sababdin karam ahli nopaydo va nomavjuddir», - deydi.

Alisher Navoiy vafoni insoniyat tojini bezab turuvchi qimmatbaxo dur, odamiylik boshidagi lovillab turga» gavharli tojdir, deydi. Vafo ahlining ko'ngli pok, tabiati pokiza bo'ladi. Ular hasad, qudurat va kulfatdan uzoqdirlar. Navoiy yozadiki: «Jahon gulshani vafo gulidin ziynatsizdir va bashariyat guli vafo rayhonidin nakhatsiz».

Navoiy vafo bilan hayoni uzviy borliqlikda ko'radi: “Vafosizda hayo yo'q, hayosizda vafo yo'q». Shoir nazdida vafo va hayo shunchaki insoniy fazilatlar bo'lmay, ular jamiyat hayoti uchun ham muhimdir.

Asarda til va so'z, muomala va. Nutq axloqiga oid qimmatli mulohazalar bildiriladi. Shoir nutq axloqi masalasiga ancha keng o'rin ajratgan. Navoiy «nodon pandida g'alat muharrar va dushman nasihatida firib mutasavvar» ekanligini, ular bilan muloqotda bo'lganda aql va tadbir bilan ish ko'rishni maslahat beradi. Achchiq tillik ham eng yomon illatlardan biri ekanligi haqida Navoiy yozadi: «achchig' til zahrolud neshdek bo'lg'ay. Ko'ngulda til sinoni jarohati butmas, anga hech nima malham yerin tutmas». Shuning uchun, shoir kishilarni xushmuomala bo'lishga chaqiradiki, bunday kishilarning «ochuq yuzidin xaloyiqqa nishot va chuchuk so'zidin ulusg'a inbisot», yetadi.

Yolg'onchilik ham insonning katta qusuri ekanligi aytilib, «har kimki so'zi yolg'on, yolg'oni zohir bo'lg'och uyolg'on» – deydi.

Navoiyning ilm-fan haqidagi qarashlari uning ma'rifatparvarlik g'oyalarining uzviy qismini tashkil qiladi. U butun hayoti davomida ilm-ma'rifatni targ'ib etdi, aziyat chekib ilm o'rganganlarni xiradmandlar deb ulug'laydi. Yoshlarni ilm-ma'rifatni egallashga da'vat etdi. Uning «Bilmaganni so'rab o'rgangan olim va, orlanib so'ramagan o'ziga zolim», “Oz-oz o'rganib dono bo'lur, qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur», kabi dono o'gitlari aforizmga aylanib ketdi.

Umuman, Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub» asari katta ahamiyatga ega bo'lgan komusiy asardir. Unda jamiyat va inson hayotining ko'pgina masalalari o'zining falsafiy yechimini topgan. Undagi fikr-mulohazalar ulug' mutafakkirning

falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta'limiy qarashlarining nechog'lik kengqamrovli ekanligi bilan birga shoirning nasrdagi mahoratini ham namoyon etadi.

### **Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Alisher Navoiyning nasriy asarlari haqida ma'lumot bering.
2. Navoiy nasriy asarlari adabiyotshunoslikda qanday tasniflangan?
3. Ulug' mutafakkirning adabiyotshunoslikka qo'shgan hisasi nimalardan iborat?
4. "Nasoyim ul-muhabbat" asarining g'oyaviy yo'nalishi haqida ma'lumot bering?
5. "Majolis un-nafois" da Navoiy temuriy shaxzodalardan kimlarning ijodiga munosabatlar bildirgan?
6. "Mahbub ul-qulub" nechta qismdan iborat va ularda nimalar haqida so'z yuritiladi?
7. "Mahbub ul-qulub"da qanday insoniy fazilatlar ulug'langan?

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. J.13. - T.: Fan, 1997.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. J.14. - T.: Fan, 1998.
3. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. J.15. - T.: Fan, 1999.
4. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. J.16. - T.: Fan, 2000.
5. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. J.17. - T.: Fan, 2001.
6. Mallayev N.M. O'zbek adabiyoti tarixi. Birinchi kitob. – T.: O'qituvchi, 1976.
7. O'zbek adabiyoti tarixi. Besh jildlik. J. 2. – T.: Fan, 1977.
8. Hayitmetov A. Ilk Navoiyshunoslar // Navoiyga armug'on. K.2. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi, 2000. – B. 7-15
9. Valixo'jayev B. Mumtoz siymolar. – T.: Meros, 2003. – B. 129-185
10. Boltaboyev H. Mumtoz so'z qadri. Adabiy-ilmiy maqolalar. – T.: Adolat, 2004.
11. Navoiyning ijod olami. Maqolalar to'plami. – T.: Fan, 2001.
12. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. -T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi, 2006.
13. G'aniyeva S.Navoiy nasri malohati. –T.: 1993.
14. Qayumov A. Asarlar. J.3. – T.: 2009.

## MUNDARIJA

<b>So'zboshi.....</b>	.....
<b>XIV asr o'rtalaridan XVI asr boshlarigacha bo'lgan davrdagi madaniy hayot: ilm-fan, san'at va adabiyot.....</b>	.....
<b>Alisher Navoiy hayoti va adabiy faoliyati. Uning o'rganilish tarixi.....</b>	.....
<b>Navoiy lirikasi. "Xazoyin ul-maoniy" kulliyoti. Uning tuzilishi, janr xususiyatlari.....</b>	.....
<b>Shoir lirik asarlarida axloq-odob, ijtimoiy-falsafiy muammolar ifodasi.....</b>	.....
<b>Buyuk "Xamsa" ning yaratilishi.....</b>	.....
<b>"Hayrat ul-abror" dostonida Navoiy ijtimoiy-axloqiy qarashlari ifodasi .....</b>	.....
<b>«Farhod va Shirin» - qahramonlik dostoni.....</b>	.....
<b>«Layli va Majnun» - ishqiy –sarguzasht doston.....</b>	.....

<b>«Sab’ai sayyor» dostonida shohlik va oshqlik muammosi, uning falsafiy yechimi.....</b>	
<b>«Saddi Iskandariy» dostonida Alisher Navoiyning adolatli shoh haqidagi qarashlari.....</b>	
<b>«Lison ut-tayr» - falsafiy –majoziy doston.....</b>	
<b>Navoiyning ilmiy-nasriy asarlari.....</b>	

2000 =

012793/  
1

нет цен

83

ISBN 978-9943-10-265-1



9 789943 102651